



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2019-yil, 4-son (116) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor

H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV

- O'zFA akademigi

- geogr.f.d., professor

T. M. MO'MINOV

- O'zFA akademigi

- fil.f.d., professor

SH.A.ALIMOV

- O'zFA akademigi

- fil.f.d., professor

S.N. LAKAYEV

- O'zFA akademigi

- fil.f.d., professor

T.RASHIDOV

- O'zFA akademigi

- tar.f.d., professor

S. S. G'ULOMOV

- O'zFA akademigi

- tar.f.d., professor

N. N. NIZAMOV

- f.-m.f.d., professor

- fals.f.d., professor

A. S. SOLEYEV

- f.-m.f.d., professor

- fals.f.d., professor

I. A. IKROMOV

- f.-m.f.d., professor

- fals.f.d., professor

B. X. XO'JAYAROV

- f.-m.f.d., professor

- fals.f.d., professor

I. I. JUMANOV

- f.-m.f.d., professor

- ped.f.d., professor

E. A. ABDURAXMONOV

- k.f.d., professor

- ped.f.d., professor

N. K. MUXAMADIYEV

- k.f.d., professor

- ped.f.d., professor

J. X. XO'JAYEV

- b.f.d., professor

- psixol.f.d., professor

Z. I. IZZATULLAYEV

- b.f.d., professor

- psixol.f.d., professor

Z. F. ISMAILOV

- b.f.d., professor

- psixol.f.d., professor

L. A. ALIBEKOV

- geogr.f.d., professor

- i.f.d., professor

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENTS

TARIX/HISTORY

T. Axmedov	Zarafshon muzofoti aholisi soniga doir tarixiy-manbaviy tahlil	4
S.M.Rahmonov	Amir Temur dunyoqarashining ijtimoiy-ma'naviy asoslari va tasavvuf	8
A.N.Sandiboyev, A.A.Nazarov	Ilk o'rta asrlar sug'd qishloq makoni (Rabodtepa I arxeologik yodgorligi misolida)	12
Q.B.Qodirov	Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishda tarix saboqlari	17
S.Ya.Umarov	Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlarning shakllanishi	24
D.O.Xaydarov	XX asr oxiri – XXI asr boshlarida O'zbekiston shaharlarida iqtisodiy jarayonlar	28
R.B.Abriyev	O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari tarixidan	33
D.B.Rasulova	Turkiston o'lkasida xorijiy sayyoh va tadqiqotchilar faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)	38

FALSAFA/PHILOSOPHY

M.X.Ergasheva	"Avesto" ezgulikka da'vat etuvchi falsafiy manba	44
S.T.Abdullayev	Inson ma'naviy yuksalishida go'zallikning o'rni	46
Sh.Q. Amirxo'jayev	Qadriyatlar tizimida oilaviy baxt: ijtimoiy-falsafiy talqin (subyekti omillar misolida)	50
G.Sapayev	Munis Xorazmiy dunyoqarashida ijtimoiy-axloqiy fikrlarining tutgan o'rni	54
S. Ro'zimurodov	Sog'lom oilani shakllantirishda ma'naviy merosning tutgan o'rni	57
Sh. A. Maxmudov	Global siyosiy texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari	60
B.Omonov	Modernizatsiya tushunchasining mohiyati va uning jamiyat rivojidagi o'rni	63
F.Z.Tillaryeva	Talaba yoshlar ongida badiiy kitobxonlik va estetik madaniyatni rivojlantirish	68
M.M. Fayziyeva	Globallashuv sharoitida turli tahdidlarning yoshlar ruhiyatiga ta'siri	72
G.X.Tagayev	Shaxs etnomadaniyatini shakllantirishning estetik mezonlari	76
J.Y.Oripov	Axloqiy immunitetni shakllantirishda oilaviy qadriyatlarning muhim jihatlari	79

SOTSILOGIYA

G.O. Sodiqova	O'smirlik davrida mustaqil qaror qabul qilishning empirik tahlili	83
K.Kalanov	"Madaniyat" mavzusining sotsiologik talqini	86
U. Sabirova	Ta'lim tizimida axborotlar bilan ishslash madaniyatining sotsial masalalari	92
Sh. Yaxshiboyev	Ma'naviy yuksalishning tarixiy konsepsiyalari	96
X.X.Xaydarova	Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash – ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishi	99
Sh.Rahimov	Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosatining ayrim jihatlari hususida	102

IQTISODIYOT/ECONOMICS

M.M.Fazilova	Iste'mol savati aholi turmush darajasining o'zgarishi indikatori	106
K. Suyunova	Turizmning davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari	110

O'QITISH METODIKASI/ TEACHING METHODOLOGY		
S.Z.Rahimov	Oliy ta'lismuassasalarida nomutaxassis ta'lismo yo'nalishlari talabalariga "Sanoq sistemalari" mavzusini o'qitishda multimediali didaktik vositalardan foydalanish	115
A.Nomozov	Boshlang'ich ta'limga so'z yasalishi mavzusini o'rganish va o'rgatish yuzasidan mustaqil ishlar	118
J. B. Ergashev	"Geometriya" va "Informatika va Axborot texnologiyalari" integratsiyasini kuchaytirish tamoyillari	121
F. Sattorova	The principles of teaching speaking comprehension in learning foreign languages	124
S.X.Kurbaniyazov, M.Q.Qodirov, I.Jabbarov, A.S.Kurbaniyazov	Oliy maktabda mustaqil ta'limga tashkil etishning o'ziga xos jihatlari to'g'risida	127
Mualliflarga		

UDK: 94(575.141)

ZARAFSHON MUZOFOTI AHOLISI SONIGA DOIR TARIXIY-MANBAVIY TAHLIL**T.Axmedov**

*Samarqand davlat universiteti
tolkinahmedov2015@gmail.com*

Annotatsiya. Maqlada 1868-yilda ta'sis etilgan Zarafshon muzofoti va uning markazi Samarqand shahri aholisi soni to'g'risida yozma manbalar va arxiv materiallari, shuningdek, maxsus tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni tadqiq va tahlil etish, ularni umumlashtirish orqali muzofot va shahar aholisi soni to'g'risida nisbatan aniqroq ma'lumotlarni taqdim etish va uning o'sish jarayoni xususiyatini aniqlashga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: dinamika, tanqidiy yondashuv, rasmiy so'rovlar, hisobotlar, statistik faoliyat, statistik ma'lumotlar, mahkama hujjatlari, hovli va uylar soni.

Историко-источниковедческий анализ к числу населения Зеравшанского округа

Аннотация. В данной статье проведен историко-источниковедческий анализ первоисточников и архивных материалов истории народонаселения особого Зеравшанского округа. Даны характеристика некоторых документов канцелярии начальника Зеравшанского округа и города Самарканда во второй половине XIX века. Из множества письменных источников дел проанализированы важные документы, выявлена динамика роста населения округа и города Самарканда.

Ключевые слова: динамика, критический подход, официальные запросы, отчеты, статистический деятельность, статистические данные, документы канцелярии, число дворов и домов.

Historical source analyze of population number of zarafshan district

Abstract. The article is about sources and archive materials of population number of Zarafshan district and its center Samarkand city, defining of exact number and peculiarities of growth process of population number in the district and the city through studying and analyzing of special historical literature. Important documents among lots of sources are analyzed; the dynamics of district and Samarkand city population growth is defined.

Keywords: dynamic, critical approach, official inquiry, reports, statistic activity, statistic data, office documents, number of houses and homes.

Hudud aholisining soni dinamikasi uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aholi sonining aniq ko'rsatkichlari qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qoplash, hunarmandchilik ishlab chiqarishi, sanoat tarmoqlari va tovar-pul munosabatlarning rivojlanib borishi hamda soliq-yig'implarni undirilishidagi izchillikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo yerlarining katta qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o'lkada qaror topgan mutlaqo yangi munosabatlardan tizimi uning aholisi soni dinamikasiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadidi. Bosqinchilik urushlari, isyonlar va qo'zg'alolnarning jazo otryadlari tomonidan bostirilishi, yuqumli kasalliklar va ocharchiliklar natijasida o'lka aholisining o'sish sur'atlarida sezilarli pasayishlar kuzatilgan. Shu bilan birga o'lkanning katta qismida barqaror hokimiyatchilikning qaror toptirilishi, xonlar va beklarning o'zaro urushlariga chek qo'yilishi, soliq va yig'implarning tartibga keltirilishi, rus sarmoyasi oqimining kuchayishi natijasida yer-suv, sanoat ishlab chiqarishi va moliyaviy munosabatlardagi o'zgarishlar, yangi ma'muriyat tomonidan ijtimoiy sohalarda amalga oshirilgan ishlar, yuqumli kasalliklar va ofatlarga qarshi kurash va imperianing markaziy guberniyalaridan o'lkaga aholini ko'chirish siyosati Turkiston o'lkasi aholisi soni dinamikasiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadidi.

Shu jihatdan XIX asr 60-yillardan boshlab Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy rivojlanish shart-sharoitlarini o'rganishda aholi soni ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, uning o'sish yoki pasayish sur'atlarini tadqiq va tahlil etish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada 1868-yilda Zarafshon vodiysi katta qismining podsho Rossiysi tomonidan egallanishi ortidan ta'sis etilgan Zarafshon muzofoti va uning markazi Samarqand shahri aholisi soni to'g'risida birlamchi yozma manbalarda, shuningdek, maxsus tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni tadqiq va tahlil etish, ularni umumlashtirish orqali aholi sonining o'sish jarayoni xususiyatini aniqlash vazifalari qo'yilgan. Bu vazifalarni bajarish natijasida Zarafshon muzofoti va Samarqand tarixiga oid birlamchi manbalar va maxsus tarixiy adabiyotlar ustida kichik tarixiy-manbaviy tahlilni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

1868-yilga qadar Samarqand va Zarafshon vodiysi Buxoro amirligi tarkibida bo'lib, rasmiy statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi, Samarqand va Zarafshon vodiysi aholisining soni to'g'risida aniq ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatini bermaydi. N.V.Xanikovning fikricha, amirlik aholisi soni to'g'risida hatto amir ham aniq va to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lmagan [2]. Shu jihatdan, rasmiy statistik ma'lumotlar olingunga qadar Buxoro amirligi, xususan, Samarqand shahri aholisi soni to'g'risida keltirilgan ma'lumotlarni taxmini deb hisoblash mumkin.

1868-yilgacha o'lkada bo'lgan rus va xorijiy mualliflarning ishlarida Samarqand shahri aholisi soni to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan Ye.K.Meyendorf Samarqand shahri aholisi 1820 yilda 50 ming kishi atrofida bo'lgan [3], deb ma'lumot qoldirgan bo'lsa, N.V.Xanikovning fikricha, 1840-yillarning boshlarida bu raqam 25-30 mingni tashkil etgan [2]. 1863-yilda Samarqand shahrida bo'lgan A.Vamberi shahar aholisi o'sha paytda 15-20 ming kishidan oshmaganligini bildiradi [4]. Yozma manbalar va ularda keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan tanqidiy yondashish, faktlarning ishonchilik darajasiga shubha bilan qarash, bir manba to'g'risida boshqa manbada keltirilgan fikrlarni tahlil qilish manbashunoslik tadqiqotining asosiy uslublaridan hisoblanadi. Masalan, A.Vamberi tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga shubha bilan qaragan M.A.Teretevning fikricha, mojar olimi hech qachon Samarqandda bo'lmagan [5].

1868-yil iyun oyida Zarafshon muzofoti va Buxoro amirligi o'rtasida chegaralarni belgilagan otryad a'zosi, sharqshunos olim V.V.Radlovning fikricha, shahar aholisi 10 ming kishidan ko'proqni tashkil etgan bo'lsa [6], 1869-1870-yillarda Zarafshon vodiysini bo'yicha ahamiyatli materiallarni to'plagan A.P.Fedchenko Samarqand shahrida 30 ming atrofida kishi yashaganligini bildiradi [7]. A.P.Fedchenko tomonidan taqdim etilgan ma'lumot Zarafshon muzofoti va Samarqand shahri aholisi soni to'g'risida dastlabki rasmiy so'rovlar natijalariga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Zarafshon muzofoti va Samarqand shahri aholisi soni to'g'risida dastlabki rasmiy ma'lumotlar 1869-yilda olingen. 1869-yil 21-oktyabrdagi Turkiston Harbiy okrugi, Harbiy-topografik bo'limidan Zarafshon muzofoti boshlig'i nomiga yuborilgan 838-sonli rasmiy xatda muzofotdagi aholi manzillari to'g'risida aniq va to'g'ri ma'lumotlarni, shuningdek, bo'limlar kesimida aholi va hovlilar sonini taqdim etish so'ralsadi [8].

Harbiy-topografik bo'limga taqdim etilgan axborotda 1869-yilda Samarqand shahridagi hovlilarning soni 6 mingtani tashkil etishi ko'rsatilgan va har bir hovliga nisbatan o'rtacha 5-6 kishi hisoblangan [8]. Shundan kelib chiqib, 1869 yilda Samarqanda holisi 30-35 ming atrofida bo'lgan, deb aytishimiz mumkin. Hujjatda muzofot aholisining soni 315,533 kishidan iborat ekanligi ko'rsatiladi [8]. Biroq, aholi sonini aniqlashda shahar va qishloqlardagi hovlilar sonidan kelib chiqilganligi sababli, keltirilgan raqamlar mutlaq aniqlikka da'vo qila olmaydi. Shunday bo'lsada, dastlabki rasmiy ma'lumotlar N.Xanikov va A.Fedchenkolarning Samarqand shahar aholisi soni to'g'risidagi ma'lumotlari nisbatan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Zarafshon muzofoti boshlig'i mahkamasida xizmat qilgan A.P.Xoroshxin 1872-yilda shahar aholisi soni, undagi 4 ming uy yoki oila o'rtacha 5 kishi nisbatida 20 ming kishidan iborat bo'lgan, deb ko'rsatgan bo'lsada, Samarqand aholisining aniq soni to'g'risida hozircha hech kim aniq ma'lumotlarga ega emasligini, oqsoqollarning o'z mahallalarida yashovchilar sonini kamaytirib yoki ko'paytirib ko'rsatishlari esa rus ma'muriyati uchun bari bir ekanligini ta'kidlaydi [9]. Uning fikrlarini muzofotda statistik faoliyatning yo'lda qo'yilmaganligi va ma'muriyatning oqsoqollar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan boshqasiga ega bo'lmaganligi bilan izohlash mumkin. Shunday bo'lsada, A.P.Xoroshxinning tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar Samarqand tarixi bo'yicha maxsus adabiyotlar [10,11,12] ning yaratilishida e'tiborga olingen edi.

1877-yildan Samarqand bo'limini boshqargan G.A.Arendarenkoga ko'ra, 1877-1878-yillar qishida amalga oshirilgan sanoq natijasida Samarqand shahridagi hovlilar soni 4,360 tani tashkil etishi aniqlangan va shahar aholisi har bir hovlida 6 kishi hisobida 26,160 kishidan iborat bo'lgan [13]. Arendarenko tomonidan muzofot aholisining umumiyligi soni 463,722 kishi, deb ko'rsatiladi [13]. Biroq

u tomonidan muzofot aholisi, ayniqsa, Tog‘li tumanlar boshqaruvidagi hovlilar va aholisoni to‘g‘risida keltirgan faktlarni to‘la ishonchli, deb bo‘lmaydi. Chunki, keyinroq olingen rasmiy ma‘lumotlar bilan solishtiradigan bo‘lsak, Tog‘li tumanlar aholisi soni (129,672 kishi) deyarli ikki marta ko‘proq ko‘rsatilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Turkiston o‘lkasining birinchi boshlig‘i K.P. fon Kaufman tomonidan tayyorlangan “Ojizona hisobot loyihasi”da Zarafshon muzofoti maydoni, aholisi soni va aholining zichligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, muzofot aholisi 1881-yilda 330,000 kishini tashkil etgan [14]. Biroq, bu mavjud ma‘lumotlarning qiyosiy tahlili va 1868-1881-yillarda muzofot aholisining o‘sish dinamikasi jihatidan to‘g‘ri emas.

Rus ma‘muriyati Zarafshon muzofoti va Samarqand shahri bo‘yicha hovlilar va aholi soni to‘g‘risida aniq va to‘g‘ri ma‘lumotlarga ega bo‘Imaganlini Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasining quyidagi hujjatlari bilan ham asoslash mumkin. Xususan, 1878-yil 18-yanvarda muzofot boshlig‘i tomonidan o‘lka boshlig‘iga taqdim etilgan axborotda [15] va 1883-yil 3-mayda Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi tomonidan maxfiy maslahatchi F.K.Girs uchun tayyorlangan ma‘lumotnomada [15] mahalliy ma‘muriyat tomonidan amalga oshirilgan sanoq bo‘yicha uylarning soni to‘g‘ri emasligi alohida qayd etiladi.

1882-1883-yillarda Turkiston o‘lkasini taftish qilgan maxfiy maslahatchi F.K.Girsning hisobotida keltirilgan ma‘lumotlar o‘lka boshlig‘ining hisobotida keltirilgan ma‘lumotlarda anchayin farq qiladi. Unga ko‘ra, Zarafshon muzofoti aholisi soni taftish amalga oshirilgan davrda 422,840 kishini tashkil etgan [16]. Samarqand shahar aholisi soni to‘g‘risida ma‘lumot keltirilmagan. Taftishchining hisobotida muzofot aholisi sonini aniqlashda ikki yarim mingga yaqin bo‘lgan harbiylar hisobga olinmaganligini, keltirilgan raqamlar ham taxmini yekanligini qayd etilgan edi [16].

Ushbu holat bizni yana muzofot boshlig‘i mahkamasi hujjatlariga murojat etishga undaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan “Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi” jamg‘armasi ishlari, xususan, “Turkiston harbiy-topografik bo‘limiga volostlar chegarasi bayoni va volostlardagi hovlilar, aholi manzillari, bozor joylari to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etish to‘g‘risida” [17], “Markaziy statistika qo‘mitasiga 1883-yil uchun Zarafshon muzofoti aholisi to‘g‘risida ma‘lumot yetkazish to‘g‘risida” [18] va “Okrugdag‘i shahar manzillari to‘g‘risida qaydnomalar bilan” [19] nomli ishlardan Zarafshon muzofoti, uning bo‘limlari va Samarqand shahri aholisi soni to‘g‘risida ma‘lumotlarni olish mumkin. Ularni yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar bilan qiyoslash muzofot aholisining nisbatan aniqroq soni va o‘sish sur’atlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

1883-yil 18-fevralda Turkiston Harbiy okrugi Harbiy-topografik bo‘limidan Zarafshon muzofoti boshlig‘i nomiga yuborilgan 311-sonli rasmiy xatda Zarafshon muzofoti bo‘yicha aholi manzillarining ro‘yxati, hovlilar va ulardagi aholi soni, bozor maydoni mavjud qishloqlarning ro‘yxatini taqdim etish so‘ralgan edi [17]. Muzofot va uning bo‘limlari ma‘muriyati tomonidan olib borilgan ikki yilga yaqin o‘rganishlar natijasida 1885-yil fevralida Harbiy-topografik bo‘limga, so‘ralgan ma‘lumotlar, taqdim etilgan bo‘lib, ularni o‘rganish quyidagi natijalarni beradi:

- muzofot, uning bo‘limlari va Samarqand shahri bo‘yicha barcha ma‘lumotlar 1883-yil aprel holati bo‘yicha taqdim etilgan;

- Samarqand shahridagi hovlilarning ko‘rsatilmaganligi sababli, uning aholi soni to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishning imkoniyati mavjud emas [17];

- muzofot bo‘limlari aholisi soni to‘g‘risida taqdim etilgan ma‘lumotlarni umumlashtirish natijasida Zarafshon muzofoti aholisining umumiy soni 398,535 kishidan iborat bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin [17];

- bo‘limlar aholisi soni to‘g‘risida taqdim etilgan raqamlarni hovlilar soni nisbati bilan qarasak, har bir hovliga o‘rtacha 5-5,2 kishi to‘g‘ri kelgan;

- 1868-1883-yillarda muzofot aholisi 83,002 kishiga ko‘paygan yoki uning o‘sish dinamikasi 26,2 foizni tashkil etgan.

1885-yil 25-mayda Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vazirligi Markaziy statistika qo‘mitasidan Zarafshon muzofoti boshlig‘i nomiga yuborilgan 3328-sonli rasmiy xatda 1883-yil uchun muzofot va uning bo‘limlari aholisi soni to‘g‘risida ma‘lumotlar taqdim etish so‘ralgan edi [18]. Markaziy statistika qo‘mitasiga taqdim etilgan axborotga ko‘ra, Zarafshon muzofotida 394 ming 446, Samarqand shahrida 33 ming 117 kishi istiqomat qilgan [18].

Muzofot aholisi soni to‘g‘risida rasmiy hujjatlarda keltirilgan ma‘lumotlar Girs hisobotida keltirilgan raqamlardan anchayin farq qilsada, ularni umumlashtirish natijasida muzofot aholisi 1883-yilda 390-400 ming kishi oralig‘ida bo‘lgan, deb hisoblashimiz mumkin.

Markaziy statistika qo‘mitasiga Samarqand shahar aholisi soni to‘g‘risida taqdim etilgan ma‘lumotni esa quyidagi hujjat bilan ham asoslash mumkin. 1884-yilda Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi Farmoyish beruvchi bo‘limi tomonidan muzofot shaharlari uylar, shahar aholisi soni, davlat va jamoat binolari to‘g‘risida to‘plangan ma‘lumotlarga ko‘ra, 1884-yilda Samarqand shahar aholisi harbiylardan tashqari 34,312 kishini tashkil etgan [19]. Shu jihatdan 1883-1884-yillarda Samarqand shahar aholisi 33-35 ming kishi oralig‘ida bo‘lgan, deb aytish mumkin.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Samarqand tarixining yirik tadqiqotchilaridan biri T.S.Saidqulov “Samarqandning Rossiya tarkibiga qo‘shib olinishi Samarqand shahri, shuningdek, butun Samarqand viloyati aholisining ijtimoiy tuzilishi va o‘sish sur’atiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi” [10], deb ta‘kidlaydi. Biroq 1869-yilda Harbiy-topografik bo‘limga taqdim etilgan, 1870-yilga A.P.Fedchenko, 1872-yilda A.P.Xoroshxin va 1879-yilda G.A.Arendarenko tomonidan keltirilgan, 1883-1884-yillarda to‘plangan statistik ma‘lumotlarning qiyosiy tahlili Samarqand Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olingach, keyingi 15 yilda shahar aholisining o‘sish dinamikasi ijobiy xususiyatga ega bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

T.S.Saidqulov tomonidan Zarafshon muzofoti va Samarqand shahri aholisi soni to‘g‘risida ma‘lumotlar yillar kesimida keltirilgan jadvalni tahlil qilganimizda, ular bir-biriga qarama-qarshi va rad etuvchi xususiyatga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Keltirilgan ma‘lumotlarning ayrimlari manbaviy asosga ega bo‘lsada, 1868-1885-yillarda muzofot va Samarqand shahar aholisi soni dinamikasida keskin pasayish yoki ko‘tarilish holatlari kuzatiladi. Muallif tomonidan bu holatlar bo‘yicha izoh berilmagan.

Jadvalga ko‘ra, 1885-yilda muzofot aholisi 437,420 kishini tashkil etgan bo‘lsa, Samarqand shahrida 44,125 kishi istiqomat qilgan [10]. Ingliz tarixchisi A.S.Morrison Zarafshon muzofoti aholisi 1886-yilda 464,985 kishini tashkil etgan, deb ko‘rsatadi [20]. Ikkala tarixchining ham tadqiqotlari birlamchi manbalarga asoslangan bo‘lsada, ularda avvalgi yillar uchun aholi soni bo‘yicha keltirilgan ma‘lumotlar qiyosiy tahlildan o‘tkazilmagan. Shuningdek, muzofot aholisining umumiyl sonini aniqlashda qaysi nisbatlardan kelib chiqilganligi xususida so‘z yuritilmagan.

Zarafshon muzofoti va uning markazi Samarqand shahri aholisi soni to‘g‘risida birlamchi tarixiy manbalar va maxsus adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Zarafshon muzofoti ta’sis etilguniga qadar Samarqand shahrida bo‘lgan mualliflar (Ye.K.Meyendorf, N.V.Xanikov, A.Vamberi) tomonidan shahar aholisi soni to‘g‘risida keltirilgan ma‘lumotlar ketma-ketligi va qiyosiy tahlil shahar aholisi soni dinamikasi XIX asr birinchi yarmi davomida pasayib borganligini ko‘rsatadi. Taxminiy xususiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan, 1869-yilga qadar statistik ma‘lumotlarning yo‘qligi ularning manbaviy ahamiyatini belgilab beradi.

- 1869-yildan boshlab statistik ma‘lumotlarning to‘planishi muzofot va Samarqand aholisi soni to‘g‘risida yangi faktlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berdi. Biroq, aholi soni hovlilar, uylar ba‘zi holatlarda esa oilalar (masalan, A.P.Xoroshxinda – T.A.) soni nisbatida turlicha hisoblanganligi sababli ularni mutlaq to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Muzofot va Samarqand shahri bo‘yicha hovlilar va uylarning aniq soni ham munozarali masalalardan biri bo‘lib, mahalliy oqsoqollar va sarkorlar tomonidan to‘plangan mazkur ma‘lumotlarning to‘g‘ri emasligi mahkama hujjatlarida ham o‘z tasdig‘iga ega.

- O‘lka boshlig‘i K.P. fon Kaufman va maxfiy maslahatchi F.K.Girs hisobotlari orasida ikki yil farq bo‘lishiga qaramasdan, ularda keltirilgan ma‘lumotlar o‘rtasidagi tafovut (330,000 ga 422,840 kishi) Zarafshon muzofoti aholisi soni dinamikasiga nisbatan niroyatda katta. Bundan tashqari, F.K. Girs taftishi davrida (1883 yil fevral-mart) va undan keyin (1884-1885 yy.) to‘plangan statistik ma‘lumotlar rasmiy hisobotlarda keltirilgan raqamlarning, hatto, nisbatan to‘g‘ri ekanligini asoslamaydi.

- mavjud bayoniy va hujjatli ma‘lumotlarning davriy jihatdan ajratilishi, qiyosiy tahlil va tanqidiy yondashuv, shuningdek, qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlarni umumlashtirish natijasida Zarafshon muzofoti va Samarqand shahri aholisi soni to‘g‘risida nisbatan aniqroq ma‘lumotlarni taqdim etish va uning dinamikasi xususiyati belgilash mumkin;

- amalga oshirilgan tarixiy-manbaviy tahlil natijasida Zarafshon muzofoti va Samarkand shahri aholisi soni to‘g‘risida faqat muzofot boshlig‘i mahkamasи hujjatlaridan nisbatan ishonchli ma‘lumotlarni olish mumkinligi aniqlandi.

Zero, fransuz manbashunos olimi Sh.Senobos ta‘kidlaganidek, tarix hujjatlar bo‘yicha yoziladi. Hech narsa hujjatlarning o‘rnini to‘ldira olmaydi. Ular yo‘q ekan, tarix ham bo‘lmaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zRMDA, 5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1606-ish
2. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 279 с.
3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н.А.Халфина. – М., Глав.ред.вос.лит. изд-во «Наука», 1975. – 180 с.
4. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картою Средней Азии. Перевод с английского. СПб., 1865. – 221 с.
5. Терентьев М.А. Россия и Англия в Средней Азии. –СПб.: Тип. Меркульева, 1875. – 354 с.
6. Радлов В.В. Средняя Зеравшанская долина // Записки Императорского Русского географического Общества (ЗИРГО) по отделении этнографии. – СПб.,1880. – 92 с.
7. Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. М.,1950. – 466 с.
8. O‘zRMDA, 5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 12-ish
9. Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876.– 533 с.
10. Сайдкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. – Самарканд, 1970. – 254
11. История Самарканда. В двух томах. Т.1. С древнейших времен до великой октябрьской Социалистической революции. Отв.ред. И.М.Муминов. Изд-во “Фан”. Т.,1969. – 484 с.
12. Самарқанд тарихи. 2-томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1971. – 484 б.
13. Арендаренко Г.А. Досуги в Туркестане (1874-1889 гг). – СПб., 1889. – 666 с.
14. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.фон-Кауфмана 1-го по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 г. 25 марта 1881 г. Издание военно-ученого комитета Главного штаба. – СПб.: Военная типография, 1885. – 503 с.
15. O‘zRMDA, 5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 834-ish
16. Гирс Ф.К. Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. / Ф.К. Гирса. – СПб. :Б.м., 1883. – 464 с.
17. O‘zRMDA, 5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1171-ish
18. O‘zRMDA, 5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1607-ish
19. O‘zRMDA, 5-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1608-ish
20. Morrison A. Russian Rule in Samarkand. 1868-1910: A Comparison with British India. Oxford and New York: Oxford University Press, 2008. – 364 s.

UDK: 10(09) R12

AMIR TEMUR DUNYOQARASHINING IJTIMOIY-MA'NAVIY ASOSLARI VA TASAVVUF

S.M.Rahmonov

Samarqand davlat chet tillar instituti
sunnat.rahmonov@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning islom dini va tasavvufga munosabati aks ettirilgan. Bizga ma'lumki, Amir Temur o‘z saltanatida ilm ahlini hurmat qilgan va ularning ijod qilishiga keng imkoniyat yaratib bergan. Shu bilan birga, islom dini va uning arkonlariga ham amal qilib, saltanatni shariat qonun-qoidalari asosida boshqargan. Amir Temur markazlashgan davlatni tuzishda islom dinini mustahkamlash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan.

Kalit so`zlar: Shariat, Tasavvuf, tariqat, pir, shayx, Temur tuzuklari, tafsir, hadis, fiqh, sayyid, sufiylar, mutasavvuf.

Социально-нравственное мировоззрение Амира Темура и Суфизм

Аннотация. В данной статье отражено отношение Амира Темура к суфизму и исламской религии в целом. Амир Темур очень уважал ученых и создавал им все условия для ведения ими своей научной деятельности. Проповедуя ислам, он управлял своим государством по законам шариата. Он особое внимание уделял развитию и совершенствованию ислама.

Ключевые слова: Шариат, Тасаввуф, тарикат, пир, шейх, тафсир, хадис, фикх, сийид, суфий, мутасаввуф.

Social and moral worldview of Amir Temur and Sufism

Abstract. This article reflects the attitude of Amir Temur to Sufism and Islamic religion in general. Amir Temur has a great respect for the scientists and created all conditions for them to conduct their scientific activities. While preaching Islam, he ruled his state according to Sharia law. He paid special attention to the development and improvement of Islam.

Keywords: Sharia, Tasawwuf, tariqat, feast, shaykh, Temur's Code, tafsir, cadiz, fiqh, sayyid, sufi, mutasawwuf.

Movarounnahrning tarix zarvaraqlarida nom qoldirgan buyuk davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) o`zining o`tkir aql-zakovati, noyob yetakchilik qobiliyati va harbiy mahorati bilan nafaqat yurtimiz, balki jahon tarixida ham munosib o`rin egallagan. Sarkardaning hayot yo`li va davlat boshqaruvi, o`z faoliyati davomida erishgan muvaffaqiyati bir qator tarixiy asarlarda o`z aksini topgan.

Amir Temur Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo`ltig`iga qadar g`oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan sultanatga asos solgan. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy-g`arbda Quyi Volga, Don bo`ylari, shimoliy-sharqda Balxash ko`li va Ili daryosigacha, janubiy-sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bo`lgan mamlakatlar bo`ysundirilgan.

Amir Temur nafaqat bizning Vatanimiz, el-yurtimizni mo`g`ullarning bir yarim asrlik mustamlakachilik zulmidan xalos etgan buyuk davlat arbobi va sarkarda, ardoqli tarixiy shaxs sifatida e'tirof qilinib qolmay, balki Yevropa dunyosining xaloskori va bu xalqlarga uyg`onish davrini boshlab bergen betakror shaxs sifatida ham jahon xalqlari uchun bag`oyat qadrlidir.

Jumladan fransuz tadqiqotchisi Lui Bazen Amir Temur haqida o`z asarida “Amir Temur yoxud “Temur hukumdar” kabi tarix g`ildiragini o`zgartirgan insonlar juda kam: uning 1402-yili Anqara janggohida Boyazid Yildirim ustidan qozongan kuchli g`alabasi Konstantinopol umrini yarim asrga uzaytirdi va bu bilan Yevropani turk istilosidan saqlab qoldi; To`xtamishxon va Oltin O`rdaga bergen kuchli zARBALARI esa ruslarni mo`g`ul mustamlakasidan xolos qildi va Moskvaga islohotlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi; uning Yaqin Sharq, Eron va Shimoliy-g`arbii Hindistonga qilgan yurishlari ushbu mintaqalarning siyosiy muvozanatini tubdan o`zgartirib yubordi” deb yozgan.[5]

Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyatini to`laligicha o`rganish, tahlil qilish yurtimiz tarixidagi, eng muhim bosqichlardan birini o`rganish va tahlil qilish bilan barobardir. Amir Temurning Movarounnahr va uning musulmon aholisini islom an`analari asosida boshqarishi Sohibqiron hayotida islom dining tutgan o`rnidan dalolat beradi.

XIV-XV asrlarda Amir Temur sultanati va o`sha davr jamiyatining ijtimoiy-madaniy hayotida diniy tafakkur muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temurning islom dini va uning yetuk namoyondalariga bo`lgan e'tibori va hurmati o`sha davrning deyarli barcha manbalarida qayd etilgan. Jumladan manbalarda ta'kidlanganidek, “Amir Temur, islom dini taqvodorligiga mudom mansubligini ko`rsatib, dono siyosatdon sifatida, davlat manfaatlaridan kelib chiqib, har doim musulmon ruhoniylarining barcha namoyandalari bilan o`ta do`stona munosabatlar o`rnatgan”[1].

Amir Temurning otasi Tarag`ay Bahodir ham ruhoniylariga xayriy bo`lib, ayniqsa taniqli shayx Shamsuddin Kulol bilan piru-murid bo`lishgan. Ushbu shayxni Sharafuddin Ali Yazdiy o`zining “Zafarnoma”sida shayx Shamsuddin Kulol nomi bilan tilga olsa, Ibn Arabshoh Shamsuddin al-Foxuriy deb atagan.

Amir Temur din peshvolari va musulmon ruhoniylarini bilan yaqin munosabatda bo`lib, ularga har tomonlama hurmat-ehtirom ko`rsatgan, o`z saroyida islom dinining yetuk shayxlarini saqlagan. Temur har vaqt shariat qonun-qoidalariga qat`iy rioxaya etgan.

“Sayyidlar, ulamo, shayx va fozillarni o`zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o`rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishdi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o`rgandim”, degan Temur o`z tuzuklarida [6].

Amir Temur ilm-fan, ma`naviyat ahliga e'tibor, mehribonlik ko`rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilgan. Tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, “Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o`ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to`la izzat-hurmat ko`rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko`rardi. Ularning har birini o`z martabasiga qo`yib, izzatu ikromini unga izhor qilardi” [3].

Amir Temur saroyida ko`plab ilm-ma'rifikat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo`lib, uning xizmatida bo`lganlar. Amir Temur ilm-fanning tibbiyot, riyoziyot, handasa, me'morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e'tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida olim L.Lyangle shunday yozadi: “Temur olimlarga serilifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko`rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo`lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko`pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Amir Temur o`zidagi kishilarni bo`ysundirish qobiliyatga, ularni o`z hukumronligi ostida baxtiyor qilish iste`dodini ham qo`shgan edi” [5].

O`z zamonasining yetuk muarixi Ibn Arabshoh “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur” asarida shunday hikoya qiladi: “Temur shayx Shamsuddin al-Foxuriyning (shayx Shamsuddin Kulol) huzuriga kirganida u o`zining muridi muxlislari bilan chuqur o`yga tolgan holda Allohnning zikri bilan band edi. Ular zikr-samolaridan to`xtab, o`zlariga kelgunlaricha, Amir Temur tik turaverdi. Shayxning nazari unga tushishi bilan Temur shayxning huzuriga shoshildi... Shunda shayx o`z jamoasiga: “Ey, jamoat! Siz uning haqqiga duo qilib, istagan murodiga yetishi uchun unga madad beringiz”, – dedi. Shayxning ushbu duosini Amir Temur o`z muvaffaqiyatlarining eng birinchi sababi deb hisobladi” [3].

Amir Temur pirlaridan yana biri Mir Sayyid Baraka bo`lib, u kishining ota-bobolari Makka ahlidan bo`lgan. 1370-yilda Balx qal`asi egallanishidan oldin Amir Temur huzuriga kelib, unga bir nog`ora va bayroq (hokimlik belgilari) tutqazgan. Va uning kelajagi porloq bo`lishini bashorat qilgan. Aytish lozimki, siyosiy martabasining avvalidan boshlaboq Amir Temur bilan musulmon ruhoniylari o`rtasida mustahkam aloqa qaror topib, bu aloqa uning butun hukmdorligi davrida davom etgan.

Amir Temur har qanday holatda ham din namoyandalariga har vaqt xayrixohlik bilan munosabatda bo`lgan. Hatto zabit etilgan mamlakatlarda ham ruhoniy rahbarlar himoya ostiga olinib, ko`pincha ular shaxsan Amir Temur huzuriga keltirilgan, Sohibqiron esa ulamo-yu fuzalolar bilan munozara yuritishni yoqtirgan. Jumladan, u ilohiyotchi ulamolar, faylasuflar, tarixnavislar, munajjim-riyoziyot ilmi olimlari bilan munozaralar olib borgan.

U olimlarni o`zi bilan shunday munozaralarda bermalol emin-erkin suhbat yuritishga imkon yaratgan va ularni rag`batlantirgan. Agar ular Amir Temurda katta taassurot qoldirsalar, ularni o`z saroyiga, yoki Samarqandda xizmat qilishga taklif qilgan yoki o`z mamlakatlarida qolishlariga bag`ri kenglik bilan ruxsat bergen [7]

Sohibqiron doimo aziz-avliyolarning hurmatini bajo keltirib, ular xotirasiga alohida ehtirom bilan qaragan. Masalan, suriyalik olim Akram Hasan al-Alabiyning yozishicha, Damashqda turganida Amir Temur Muhammad payg`ambarning xotinlari Umm Salama va Umm Habibaning maqbaralari ustiga munosib gumbazlar qurdirgan.

“Zafarnoma”da keltirilishicha, Amir Temur Yassa shahrida Ahmad Yassaviy qabrini ko`p ziyyorat qilgan. Uning farmoniga ko`ra, bu tabarruk shayxning qabri ustida ulkan maqbara bunyod etilgan. Aziz-avliyolarning mozorlarini va muqaddas qadamjolarni ziyyorat qilish Sohibqiron uchun qat'iy odat bo`lib, u har qachon, hatto harbiy yurishlari paytida ham bu odatga qattiq rioya qilgan. Shuningdek, aziz-avliyolarning mozorlari joylashgan shaharlarga ularning ruhlariga hurmat yuzasidan ziyon-zahmat yetishiga yo`l qo`ymagan [8].

Shuningdek, Amir Temur o`z harbiy boshliqlari va qo`shinlariga Muhammad payg`ambarning sahabalaridan biri, musulmonlarning yirik harbiy qo`mondoni Xolid ibn Validning qabri joylashgan Ho`ms shahriga zahmat yetkazmaslikni buyurgan [3].

Amir Temurning aziz-avliyolarga, dini islomning homiylariga, ularning mozorlariga munosabati “Temur tuzuklari”da ham batafsил bayon qilingan: “Men shunday talab qo`ydimki, payg`ambarning avlodlari, ulamolar, mashoyix, fuzalo, akobirlarni aziz tutsinlar. Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag` ajratsinlar. U yerlarni gilam, taom va chiroq bilan ta'minlasinlar” [6].

Ma'lumki, Amir Temur ulamoy-u fuzaloga hurmat-e'tibor bilan qarab, ularning fikrini inobatga olib, turli mavzularda ular bilan munozaralar olib borgan.

Mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri Ibn Xaldun (1332 -1406) Amir Temur qo`shinlari tomonidan qamalda bo`lgan Damashqqa kelib qolgach, Amir Temur tomonidan qabul qilinadi va ikki buyuk inson o`rtasida uzoq va maroqli suhbat bo`lib o`tadi. Uchrashuv chog`ida mashhur tarixchi Sohibqiron hazratlariga Qur'oni karimning go`zal bir nusxasini hadya qilganda Amir Temur shoshilinch o`rnidan turib, muqaddas kitobni o`pib boshiga qo`yan.

Amir Temur shariat arkonlarini mustahkamlash, islom dini qonun-qoidalariga qat'iy rioxay qilinishiga alohida e'tibor bergen. Shariat qonun-qoidalariga xilof ish qilganlar qattiq jazolangan. Adolat va qonunlarga amal qilish Amir Temur faoliyatining tarkibiy asoslaridan bo`lgan. Islom dinini yoyishga u butun kuch-quvvatini sarflgan. Shu boisdan ham ba`zi nomusulmon davlatlarga (masalan, Gurjiston, Armaniston, Hindiston) bo`lgan yurishlarini, avvalo, u o`sha mamlakatlarda islom dinini yoyish, u joylarda musulmonlarga ko`rsatilayotgan jabr-zulmni bartaraf qilish bilan izohlagan.

Amir Temurning yoshligidagi aql-zakavoti va o`tkir zehni mudarrislar tomonida yuqori baholanib, Temurning otasiga, “O`g`lingiz bizda bor ilmni olib bo`ldi, endi uni bizdan ko`ra peshqadamroq ustozga bering”, deb maslahat berishgan.

“Amir Temur juda yosh chog`ida, uch yilda Qur'oni karimni to`liq va puxta yod olgan. U Allohnинг kitobini shu darajada yod olganki, hozirgacha Amir Temur qilgan tajribani boshqa odam qila olgan emas. Amir Temur har bir surani avvalidan oxirigacha bexato o`qiganidek, oxiridan avvaligacha ham, ya`ni teskarisiga ham bexato o`qigan. Bu ish hech kim tomonidan rag`batlantirilmasa ham, Sohibqironning qanchalik puxta qori ekanini ko`rsatib turuvchi dalildir”[9].

Amir Temur faqat Qur'oni karimni yodlabgina qolmay, balki uning ma'nosini ham juda yaxshi bilar, boshqa ilmlarni ham puxta egallagan edi. Ayniqsa, fiqh ilmida shuhrat qozongan edi. Bu esa, o`z navbatida uning obro`siga obro` qo`shar, xalq ommasining u kishiga bo`lgan izzat, ehtiromini yana ham ortdirardi.

Amir Temur har yuz yilda bir marotaba beriladigan Qutbiddin unvoniga sazovor bo`lgan. Islomni chuqur tushungan va va uning insonparvar, hayotsevar aqidalarini chin dildan qabul etgan Sohibqiron, turli jabhalarda uyg`unlik bilan olib borgan faoliyatida el-ulus osoyishtaligi, hamjihatlik, xayr-sadaqa, birodarlik, yurt obodligi kabi “musulmonchilik” deb atalmish yuksak qadryat talablarini amalga oshirgan. Amir Temur xalqni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga, adolatparvar, ma'rifatli va sof vijdonli bo`lishga undagan.

Yozma manbalarda, tarixiy asarlarda keltirilgan ko`plab ma'lumotlar shuni ko`rsatadiki, Movarounnahr va Xurosandan Makkai mukarramaga haj ibodatini ado etishga borayotgan ziyyoratchilar azaldan Iroq hududidan o`tadigan joylarda yo`lto`sar va qaroqchilarning hujumlaridan ko`p aziyat chekkanlar, shuningdek bu qaroqchi va yo`lto`sarlardan nafaqat markaziy osiyolik tijorat ahli va savdo karvonlari, balki mahalliy savdogarlar ham ko`p jabr-zulm ko`rganlar. Shu boisdan ham Amir Temur Bag`dorra turgan paytida mahalliy savdogarlar najot izlab Sohibqironga murojaat qilganlar. Sohibqiron tezda bu borada tegishli ishlarni amalga oshirib, qaroqchi va yo`lto`sarlarni bartaraf qilgan va Iroq yo`llaridagi xavf-xatarlar tugatilib, osoyishtalik ta'minlangan.

Sohibqiron Amir Temur shaxsiy hayotida Islom tasavvufini e'tiqod sifatida qabul qilib, uning nazariy asoslarini chuqur egallagan va siyosiy faoliyatida unga bevosita amal qilgan. Tasavvuf shayxlari va mashhur ulamolarni o`z davlat arxonlari qatoriga qo`shib, ularning fikrlaridan muhim siyosiy masalalarni hal qilishda foydalangan. Jumladan, Sohibqironga musulmonlardan tashqari, nasroniyalar, zardushtiyalar, buddaviy va boshqa dirlarga mansub kishilar sadoqat ila xizmat qilganini Ibn Arabshoh ajablanish ila bayon etgan.

“Ular Tangridan tashqari o`zlariga Temurni sardor va homiy deb qabul qilganlar va bu bilan o`zlaricha kibrlanib, bag`oyat faxrlanardilar. Ularning kufurliklari hamda unga nisbatan muhabbatlari shunchalik darajada ediki, basharti Temur payg`ambarlik yoki ilohiylikni da'vo qilsa, uning da'vosini, albatta, tasdiqlardilar. Ulardan har biri Temurga nisbatan mehrini vosita qilib, o`zlarini Tangri taologa yaqin tutardilar [3].

Shu bilan birga Temur Xoja Ali Muayyad al-Tusiy, Shayx Ibrohim, Sayyid Muhammad as-Sarbadol, Samarqand shayxlardan bo`lgan al-Islom, Xoja Abdul al-Avval, Shayx Xoja Isomiddin as-Islom al-Malik, keshlik aka-uka Shayx Islom Abdulhamid va Shayx Abduraxmonga homiylik qilgan. Temur Xoja Axmad Yassaviy, Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Nuriddin Basir va Shayx Burxoniddin Sog`arjylarni ma`naviy pirlari, deb qabul qilgan, ruhlaridan ilohiy madad olib, o`z sultanatini boshqargan. Shamsiddin Kulol, Amir Said Kulol, Mir Sayyid Baraka, Abu Bakr Toyobodiy esa Temurga tariqat qonun-qoidalari xususida saboq bergenliklari tarixiy ma'lumotlardan ayondir.

Shu bilan birga, temuriy shahzodalar ham o`z otasi va bobosi Temur singari shariatga hamda tariqatning u yoki bu sulukiga e'tiqod qilib, o`z davrning shayxlari maslahatlariga amal qilganlar. Muhammad Porso, Hasan Attor Samarqandiy, Yaqub Charxiy. Sa'dididin Qoshg`ariy, Nizomiddnn Xomush, Xoja Ahror Valiy, Shoh Ne'matulloh Vali, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxdumi A'zam Dahbediy va boshqalar temuriy shahzodalar davrida yashab, katta obro`-e'tiborga ega bo`lganlar.

Amir Temur va uning avlodlari temuriylar saroylarida xilma-xil mavzulardagi kitoblar va nodir qo`lyozmalar saqlanadigan boy kutubxonalar – “Dor ul-kutub” (“Kitoblar uylari”) faoliyat ko`rsatgan. Hukmdorlar ushbu bilim xazinalarni muttasil yangi qo`lyozmalar bilan boyitib borish to`g`risida alohida g`amxo`rlik ko`rsatib, shu maqsad uchun kerakli mablag` ajratganlar.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur har tomonlama ma'lumotli, bilimdon, diniy va dunyoviy ta'limotlarni chuqur egallagan sarkarda bo`lgan. Amir Temur sultanatida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berilgan. Islom dini o`sha davrda asosiy mafkura bo`lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad-vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo`lib xizmat qilgan desak mubolag`a bo`lmaydi.

Amir Temur tasavvufdagi poklanish, to`g`ri va sofdil bo`lish, zino va fahsh ishlar bilan shug`ullanmaslik, harom-harish ishlardan qochish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallah, muhtojlarga mehr-shafqat ko`rsatish kabi g`oyalarni sultanat ahliga singdirish uchun kurash olib borgan. Amir Temur islom diniga davlatni idora qiladigan nizom sifatidagina emas, balki inson manfaatlari yuqori turuvchi insonparvar tuzuk sifatida bo`lganligi uchun ham to`la tayangan.

Adabiyotlar

1. А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М., 2003. – 505 с.
2. Бартольд В.В. Царствование Темура. (biography.wikireading.ru)
3. Ibn Arabshoh. “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur.” – Toshkent, 2017.
4. L.Karen Amir Temur sultanati. – Toshkent: O`zbekiston, 2018. – 245-bet
5. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: O`zbekiston, 2018. – 300-bet
6. Temur tuzuklari. – T.: O`zbekiston, 2018. – 180 b.
7. Хильда Хукхем. Властитель семи созвездий. – Toshkent, 1995.
8. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., 2008. – 250 b.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Amir Temur va islom. – T., 1996.

UDK: 9(3)

ILK O'RTA ASRLAR SUG'D QISHLOQ MAKONI (Rabodtepa I arxeologik yodgorligi misolida)

A.N.Sandiboyev¹, A.A.Nazarov²

¹O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar instituti

²Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola mazmuni Urgut tumanida joylashgan ilk o'rta asrlarga oid Rabodtepa I yodgorligida 2017-yilda amalga oshirilgan planigrafik va stratigrafik tadqiqotlar natijalarini yoritishga bag'ishlangan. Shuningdek, tadqiqotda ochilgan 3 ta xonaning planigrafik ma'lumotlari va topilgan arxeologik ashyolar bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sug'd, Rabodtepa I, Kofirqal'a, Yonchashma, paxsa, xom g'isht, pishiq g'isht, ravoq, gumbaz, eshik, kulollik idishlari.

Сельское поселение сугда в раннем средневековье (на примере археологического памятника Рабодтепа I) нашего края

Аннотация. Данная статья посвящена итогам планиграфических и стратиграфических работ 2017 года, осуществленным на раннесредневековом памятнике Рабодтепа I, который расположен в Ургутском районе Самаркандской области. Также, освещены планиграфические и археологические данные, зафиксированные в процессе раскопок 3 комнат.

Ключевые слова: Сугд, Рабодтепа I, Кофиркала, Ёнчашма, запеченный, сырой кирпич, вареный кирпич, арка, купол, дверь, керамическая посуда.

The village place of sugd in the early middle ages (for example archeological memorial place Rabodtепа I) epoch of our land

Abstract. In this article the history of archeological expedites in Rabottepa I is studied, which archeological place in early Middle Ages, during 2017. Author opened the results of planography and stratigraphic studies. In addition, planography of the three rooms opened and the discovery of archeological finds.


Keywords: Sugd, Rabodtепа I, Kofirkala, Yonchashma, daub, crude brick, baked brick, columns, dome, door, pottery containers.

Rabodtепа I yodgorligi Samarqand viloyati Urgut tumaniga qarashli Qolduvoyjar mahallasida joylashgan bo‘lib, tepalik ovalsimon ko‘rinishda, tomonlari 37x20 metr, balandligi 5 metr. Mazkur tepalikning janubi-sharqiy qismida mahalliy aholi tomonidan tuproqlar olinishi natijasida buzilgan.

Yodgorlikning sug‘orilish tizimida Zarafshon tog‘ tizmasidan oqib keluvchi G‘ijduvonsoy va Choshtepasoylarning birlashishidan hosil bo‘lgan To‘rtko‘lsoy va undan ajralib chiqqan Sag‘noqsoy ahamiyatlidir. Sag‘noqsoy Rabodtепа I yodgorlikdan 10 metr janubi-g‘arbiy tomonidan oqib o‘tadi, soyning eni 2 metr, chuqurligi esa ba’zi joylarda 3 metrni tashkil qiladi.


2017-yilning avgust-sentyabr oylarida olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida, devorlari paxsa bloklardan ko‘tarilgan 3 ta xona qoldiqlari ochildi (1 rasm).

РАБОТ ТЕПА



1-rasm. Qazishma tarhi

1-хона tepalikning janub tomonida joylashgan bo‘lib, uning ko‘rinishi to‘g‘ri to‘rburchak shaklda, o‘lchami 11,90x2,8 metr. Xona pol sathigacha ochilmagan, faqat janubi-sharqiy tomonidagi devor pol sathigacha ochilgan bo‘lib, pol sathidan balandligi 3,05 metr, qalinligi esa 1,5 metr (2 rasm).



2-rasm. 1-xonaning shimoliy devor qirqimi

Xona devorini ko‘tarishda paxsa bloklar ($1 \times 0,89-0,95$ metr) va ustidan uch qator xom g‘ishtlar ($48 \times 25 \times 9-10$ sm) yotqizib urilgan. Xonaning janubiy va g‘arbiy tomonidagi devorlari mahalliy aholi tomonidan tuproq olinishi natijasida yaxshi saqlanib qolmagan. Saqlanib qolgan devor $0,50-0,90$ metr balandlikda ochildi. Sharqi tomonidagi devor butunlay buzilgan.

Xonaga kirish eshik devorining faqat shimoliy tomoni saqlangan. Saqlanib qolgan eshik devorining eni $1,50$ metr bo‘lib, devoridagi paxsa blokning ikkinchi qatori suyri tarzda kesib olingan va ko‘ndalang terilgan ikki qatorli xom g‘ishtli ($35 \times 25 \times 10$ sm) ravoqning bir qismi saqlangan.

2-xona birinchi xonaning shimol tomonida, uning ro‘parasida joylashgan. Xona to‘g‘ri to‘rburchak shaklda, tarhi 4×3 metr, u reper nuqtadan 2 metr chuqurlikkacha bo‘lgan qismi ochildi. Xonaning janubiy devori birinchi xona devori bilan umumiy bo‘lib, paxsa blok ustiga 7 qatorli xom g‘isht ($49 \times 26 \times 8-9$ sm) yotqizib terilgan, devor qalinligi $1,5$ metrni tashkil etadi.

Xonaning g‘arbiy tomoni asosiy devorgacha ochilmagan, sharqi tomonidagi devor qalinligi $1,5$ metr, paxsa bloklar yordamida ko‘tarilgan bo‘lsa, shimol tomonidagi devor, paxsa blok ustiga 4 qator xom g‘ishtlar yotgan holda, uning ustidan esa xona tomini yopish uchun xom g‘ishtlar ko‘ndalang qilib terilgan.

Xonaga kirish eshigi janubiy-sharq tomonda, ya’ni hovli tomonda joylashgani qayd etildi. Eshik joylashgan hovlining pol sathi reper nuqtadan $4,76$ metr pastda ochilgan (3 rasm).



3-rasm. 2-xonaga kirish eshigi

Mazkur hovli mahalliy aholi tomonidan tuproqlar olinishi natijasida buzilgan. Hovli orqali 3 ta xonalarga kirish eshiklarining o‘rnini joylashgan. Xususan, ikkinchi xonaga kirish eshigining

ravoqsimon arkasini yasashda paxsa blokning ikkinchi qatori suyri tarza kesib olingan va xom g'ishtlar ko'ndalang tarzda terilgan. Eshik pol sathidan xom g'isht termalarigacha 1,42 metr, poldan ravoqgacha 1,85 metr, eni esa 1,10 metrga teng. Ikki yonida eshik kesakilari o'rnatilgan chuqurchalar saqlangan.

Inshootning tashqi devorlari 3 qator paxsa bloklar yordamida ko'tarilgan, uning tashqi tomonida kuchli yong'indan qolgan izlar kuzatiladi. Ayniqsa, eshik kesakilari va ostona o'rni bo'lган chuqurchalarda kul qatlamlari qayd etildi.

Hovli polining ustki qatlamida kul, paxsa, xom g'isht bo'laklari va yumshoq tuproq uchraydi. Shu bilan birga, bu joydan kulollik idishlar va pishiq g'isht parchalari yig'ib olindi.

3-xona ikkinchi xonaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, xona tor pandusli koridorsimon, o'lchamlari $3,92 \times 1,10$ metr. Xonaga kirish eshigi oldida reper nuqtasidan 4,70 metr pastda pol qayd etilib, mazkur pandus xonaning shimoliy-sharq tomoniga qarab 40 sm.gacha ko'tarilib boradi. Koridorli xona oxirida g'arbiy tomonga qarab burligan. Xona poli shibbalangan tuproq ustidan somonli loy bilan suvalgan. Xonaga kirish eshigining o'rni janubi-g'arbiy tomonda aniqlangan. Eshik yaxshi saqlanmagan (4rasm). Eshikning joyi va ko'rinishi 1 - 2 xona eshiklarining tuzilishiga o'xshash, bunda paxsa blokining ikkinchi qatori suyri tarzda kesib olingan va uning ustidan ko'ndalang tarzda xom g'ishtdan eshik usti ravoqsimon tarzda yopilgan.

Eshikning ikkinchi tomonidagi devor saqlanmagan. Mazkur eshik devoridagi paxsa blok termasidan xom g'isht terilgan joygacha 1,62 metr, poldan ravoqning tag qismigacha 2,12 metr. Eshik devorining qalinligi esa 1,25 metrni tashkil etadi.

Xona ichki devori ikki qator urilgan paxsa bloklardan iborat bo'lib, xonaning tomini yopishda paxsa bloкли devor ustida terilgan trapetsiya shakldagi xom g'ishtdan ($36 \times 29 \times 25 \times 8-9$ sm) foydalanan holda bunyod qilingan. Paxsa bloklarning o'lchami 1-1,58 metrga qalinligi esa 82 sm. ga teng. Xona ichki fasadining balandligi 2 metrni tashkil qiladi.



4-rasm. 3-xonaga kirish eshigi

Xona poli ustida esa 5-10 sm qalinlikdagi kul qatlami mavjud. Qatlamdan kulollik idishlari namunalari va pishiq g'isht bo'laklari yig'ib olindi.

3-xona tashqi devorining sharqiy tomoni mahalliy aholi tomonidan tuproq qazib olish jarayonida hosil bo‘lgan qirqim tozalandi. Tozalash ishlari boshlang‘ich nuqtasining III yarusidan X yarusgacha bo‘lgan chuqurlikgacha olib borildi. Qirqim 7,75 metr kenglikda bo‘lib, uning g‘arbiy tomonida, koridorning tashqi devori ya’ni, uch qator paxsa blok qayd etildi. U V-X yaruslarni o‘z ichiga oladi. Qirqimning janubi-sharqiy tomonida xom g‘isht, paxsa bo‘laklaridan iborat qatlam, g‘ovaksimon kul qatlamlar qayd etildi.

Markaziy Osiyoning ilk o‘rtalarda xos qurilish materiallari barcha hududlarda bo‘lgani kabi, Rabodtepa I yodgorligining qurilish usullarida ham paxsa blok va xom g‘ishtlardan foydalangan. Xom g‘ishtlarlardan esa xona va undagi eshiklar tomini yopishda foydalaniłgan. Xonalarga kirish eshiklarining ustı ravoqsimon (arka) shaklda yopilgan.

Ravoq eshik va derazalarning yuqori qismiga, ko‘proq tayach qismiga qo‘yilgan yoysimon qurilmadir. Ravoqning tayach qismi tavon, yuqori ponasimon qismi tosh qulf deyiladi (6. 4).

Rabotepa I eshiklarining ravoq tavoni gorizontal xolatda tekis emas, paxsa suyri tarzda kesilgan va ustidan xom g‘ishtlar ($49 \times 26 \times 8-9$ sm) ko‘ndalang tarzda «ponasimon» usulda terilgan. Ravoqsimon peshtoqlar eshik balandligining $\frac{2}{3}$ qismidan boshlangan. Bu turdagı ravoqsimon peshtoqlar Sug‘dning Aultepa (9.236), Yonchashma (3.134-137) yodgorliklarida uchraydi.

Eshiklarini qurishda devor burchagiga yaqin bo‘lgan joylardan foydalangan. Albatta, bu xona maydonining qisqartimaslik qonuniyatiga amal qilingan.

Eshiklar va ularning kesakilari saqlanib qolmagan, ammo kesakilarning uyiq izlari, bo‘sag‘anada yotqizilgan kuygan yog‘och izlari va chuqurchalar tashqi eshiklar yog‘ochdan yasalgan eshiklardan foydalanganligini ko‘rsatadi. Albatta yog‘ochdan yasalgan eshiklar ichkari tomoniga qarab ochilgan bo‘lishi mumkin. Bunda eshiklarning tashqariga qarab ochilmaganligi tashqi shovqin, chang va hokazolardan xona va hovlini mustasno qilgan (1. 97).

Yu.Ya.Yakubov, xalq me’morchiligidagi eshik tuzilishlari ilk o‘rtalardan hozirgi paytgacha o‘zgarishsiz davom etayotganligini qaytd etgan (13.104).

Paxsa bloklar qizg‘ish tuproq loyidan qilingan, ularning 1 va 2 xonalarda o‘lchami $1 \times 0,89-0,95$ metr bo‘lsa, 3 xona devorlari $1-1,58 \times 0,82$ metrga teng.

Mayjud paxsa bloklar chok bostirish tarzda urilib, pastki qatlam, yuqori qatlam bo‘lmalarini “bog‘lama tugin” tarzda bosib turadi. Etnografik ma’lumotlarga ko‘ra paxsa bloklar taxta qoliplar yordamida yasalgan.

Xona tomini yopishda $36 \times 29 \times 25 \times 8-9$ sm o‘lchamli trapetsiya shakldagi xom g‘ishtlardan foydalangan. Bu usulda qurulgan gumbazlar Markaziy Sug‘dning Panjikent (12. 139), Yonchashma (3. 134-137), Arabtepa (10. 127-133) kabi yodgorliklarida shunindek, Ustrushonada joylashgan Qalai Qahqaha (8.31.) yodgorligida kuzatilgan. Xom g‘isht o‘lchamlari ham Markaziy Osiyoning ilk o‘rtalarda yodgorliklarida keng tarqalgan (9. 206-208).

Rabodtepa I yodgorligida o‘tkazilgan qazuv ishlari davomida turli xil sopol idish bo‘laklari, ya’ni ko‘za, kosa, xum, xurmacha, qozon va likobcha (tarelka) topildi. Idish namunalarining o‘z vazifasiga ko‘ra xo‘jalik, o‘choqboshi, oshxona va uy ro‘zg‘orning boshqa yumushlarida ishlatilgan.

Ushbu mahsulotlar qo‘lda va kulollik charhida yasalgan bo‘lib, mazkur idish namunalarini Sug‘dning Afrosiyob (11. Рис. 69, 4-5, Рис. 74,8), Kofirqal‘a, Chelak (7. 136, 1; 169, 12), Jartepa (4. Рис. 64, 9-10, Рис. 73,10), Panjikent (2. Рис. 1, 18), kabi yodgorliklarining VII-VIII asrlar madaniy qatlamlarida uchraydi.

Yodgorlikda topilgan kulollik buyumlari orasida bir dona ichki tomoniga slyuda sepilgan likopcha (tarelka) ham uchraydi. Mazkur idishning shakl jihatidan ko‘rinishi hozirgi «tarelka» deb ataladigan chinni idishlarning aynan o‘zi, ya’ni ularning sompsonidan yasalgan «prototipi»dir. Idishlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri idishlarning ichkari tomoniga slyuda sepilganligidir. Tadqiqotchilar bunday idishlar turi sosoniyarning metall idishlariga taqlid qilib ishlab chiqarganligini ta’kidlaydi (5. 246).

Rabotepa I yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida 3 ta xona ochilgan bo‘lib, mazkur xonalarning qurilishida paxsa va xom g‘ishtlardan keng foydalaniłgan. Bunda paxsa bloklardan xona devorlari ko‘tarilgan bo‘lsa, ularning tom qismi xom g‘ishtlar yordamida yopilgan.

Xullas, Rabodtepa I yodgorligi ilk o‘rtalarda yozma manbalarda qayd etilgan Maymurg‘ning tog‘li qishloq makonlaridan biri bo‘lib, Markaziy Sug‘dning bosh shahri Afrosiyobdan, Panjikentga olib boruvchi qadimgi yo‘l yoqasida joylashgan. Arablarning Sug‘dga

qilgan yurishi davrida vayron qilinganligi, yodgorlikning madaniy qatlamlarida aniqlangan yong‘in va uning natijasida hosil bo‘lgan qalin kul qatlamlaridan ham ma’lumdir.

Adabiyotlar

1. Ahmedov M.Q. O’rta Osiyo me’morchiligi terixi. – T.,1997.
2. Бентович И.Б. Керамика верхнего слоя Пенжикента (VII-VIII вв.)//МИА. №124. М.,1964 г.
3. Бердимурадов А.Э. Раскопки на бугре Енчашма // Археологические работы на новостройках Узбекистана. Т., 1990 г.
4. Бердимурадов А.Э., Самибаев М.М. Храм Джартепа. – Самарканд,1999.
5. Григорьев Г.В. К вопросу о художественным ремесле до мусульманского Согда // КСИИМК. № 12.М.,1946 г.
6. Kamolov A. Obidalarda yashiringan ilm. Fan va turmush. №4. 1976.
7. Маршак Б.И. Керамика Согда V-VII веков как историка культурный памятник(К методике изучения керамических комплексов). Санкт-Петербург, 2012 г.
8. Негматов Н.Н., Хмельницкий С.Г. Средневековый Шахристан. (Материальная культура Уструшаны). Вып. 1. Душанбе, 1966 г.
9. Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии V-VIII вв. Т.,1966 г.
10. Sandiboyev A.N., Kubayev S.Sh., Rahimov K.A. Arabtera – Markaziy Sug’dning yirik qishloq qo’rg’oni // O’zbekiston arxeologiyasi. №1(12). С., 2016 у.
11. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда как фактор экономики городского ремесла (по материалом городища Афрасиаб конца VII начала XIIIв.). Самарканд:МИЦАИ, 2015 г.
12. Ставиский Б.Я. Раскопки квартала жилищ знати в юго-восточной части пенджикентского городища (объект VI) в 1951-1959 гг // МИА. №124. Москва,1964.
13. Якубов Ю. Раннесредневековые сельские поселения горного Согда (к проблеме становления феодализма). Д., 1988 г.

UDK: 9:342.7

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TARIX SABOQLARI

Q.B.Qodirov

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Annotasiya. Maqolada O’zbekiston ichki ishlar organlari tarixi hamda ularning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: mustaqillik, fuqarolik jamiyati, ichki ishlar organlari, harbiy ta’lim, milliy qadriyatlar, fidoyilik, burch.

Исторические учение о повышение эффективности деятельности органов внутренних дел

Аннотация. В статье анализируется история органов внутренних дел Узбекистана и даются рекомендации по деятельности его совершенствованию.

Ключевые слова: независимость, гражданское общество, органы внутренних дел, военное образование, национальная ценность, самоотверженность, долг.

Historical research about raising effectiveness of the activity of internal affairs

Abstract. In the article the history of internal affairs of the Republic of Uzbekistan is analysed and some recommendations are given in improvement its activity.

Keywords: independence, citizen’s society, internal affairs, military training, national value, dedication, debt.

Mustaqillikka erishilganidan so‘ng, O’zbekistonda huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida izchil va tizimli islohotlar o’tkazishga kirishildi. Bu borada O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov taklif etgan konsepsiya asosida bozor

iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning “o‘zbek modeli” ishlab chiqildi va hayotga joriy etila boshlagan edi. Ma’lumki, demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq, erkinligi va qonuniy manfaatlarini har qanday ko‘rinishdagi tajovuzlardan himoya qilishdir. Shuning uchun “Biz barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishish yo‘lida o‘z oldimizga qanday reja va dasturlarni qo‘ymaylik, barcha olijanob orzu-tilishlarimizni amalga oshirishning yagona sharti va garovi – bu tinchlik va osoyishtalikdir”[1], - deb ta’kidlagan Islom Karimov.

Shunday ekan har qanday dunyoviy davlatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham tinchlik va osoyishtalikni hamda fuqarolarning huquq va erkinligini ta’minlashda asosiy yuk (respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa huquq tartibot organlari hissasini kamsitmagan holda) ichki ishlar organlari zimmasiga tushadi. Zero, ichki ishlar organlari jamiyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha keng qamrovli va ko‘p qirrali faoliyatni amalga oshiruvchi tizim hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon shart-sharoitlari ichki ishlar organlari xodimlarining zimmasiga katta mas’uliyat yuklamoqda va ularning kasbiy mahoratiga jiddiy talablar qo‘ymoqda. Bu xususda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitusiya qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida «Jinoyatchilikning oldini olish maqsadida yangi dastur va rejalar amalga oshirilmoqda... biz keljakda el-yurtimizning ishonchli va mehrini qozongan, tom ma’nodagi halqparvar ichki ishlar tizimini yaratishimiz kerak» [2], – deb ta’kidlagani bejiz emas.

Umuman olganda, ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish va undagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, umumlashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tarixi o‘rganilmaganligini hisobga olgan holda, uning respublikadagi rivojlanish hususiyatlarini ochib berish, chunonchi, to‘plangan tajriba asosida davlat va jamiyat taraqqiyotining hozirgi va kelgusi davrlarda kechadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar uchun foydali bo‘lgan zarur xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Darhaqiqat, har bir narsaning tarixi bo‘lganidek, ichki ishlar organlari ham tarixiy va evolyusion rivojlanish yo‘liga ega ekanligini ta’kidlash zarur. Garchand jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘z faoliyati yo‘nalishlari jihatidan to‘laligicha zamonaviy milisiya talablari va funksiyalarini o‘zida mujassamlashtirmagan bo‘lsa-da, u xilma-xil shakl va nomlar ostida faoliyat ko‘rsatib kelgan.

Bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan O‘zbekistonning davlatchiligi taraqqiyoti davomida xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanish hamisha ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. Buning asosiy omillaridan biri – mamlakat sarhadlari havfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar bilan bir qatorda uning ichki hayotini tartibda tutib turuvchi va fuqarolari tinch osoyishta hayotini ta’minlovchi huquq-tartibot idoralari faoliyati bilan bevosita bog‘liqidir.

Tarixga nazar tashlanadigan bo‘lsa, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda O‘zbekiston SSR milisiya organlari sud va prokuratura bilan birga halq va vatan oldidagi o‘z burchlarini bajara borib, mehnatkashlarning faol yordamida jamoat tartibini saqlash yuzasidan katta ishlarni amalga oshirdilar. Urushdan keyingi yillarda jinoyatchilikni kamaytirish yuzasidan shoshilinch choralar ko‘rish lozim edi. 1946-yil dekabrda Toshkent shahar partiya komiteti xavfli jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash yuzasidan tadbirlarni ishlab chiqdi, unda ma’muriy organlar va mehnatkashlarning kuchlarini respublika poytaxtida jinoyatchilikni kamaytirishga qaratish yuzasidan aniq ishlar belgilandi.

VKP(b) Markaziy Komiteti bilan SSSR Ministrlar Kengashining 1947-yil 14-dekabrda qabul qilgan “Pul islohoti o‘tkazish hamda oziq-ovqat kartochkasini bekor qilish to‘g‘risida”gi qarori, partiya va hukumatimizning boshqa bir qator tadbirlarini talon-taroj qiluvchilar hamda chayqovchilar foydalanim kelgan asosiy vositalardan biriga barham berishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

1949-yilga kelib ichki ishlar organlarida banditizmga qarshi kurash bo‘limlari tugatilib, ularning o‘rniga uchastka operativ vakillari lavozimlari joriy etildi. Shuningdek, davlat avtomobil nazorati, yong‘indan saqlash bo‘limlari, moddiy-teknika bazasini mustahkamlash masalalariga e’tibor kuchaytirildi. Shu davrda jinoyatchilikka qarshi kurashni ilmiy asosga qo‘yish va unda fan-teknika

yutuqlaridan foydalanish maqsadida joylarda hisob-registrasiya bo‘limlari va ilmiy-texnika bo‘linmalari tashkil etildi.

Milisiya bo‘limlari urushdan keyingi yillarda sharoitning murakkabligini hisobga olib shaharlarda, ishchi posyolkalarida, temir yo‘l vokzallarida post va patrullik xizmatini kuchaytirib yubordilar. Patrullik xizmatining kuchaytirilishi jinoyatning oldini olib qolish va unga yo‘l qo‘ymaslik imkonini berardi. Obyektlarni muhofaza qilish yuzasidan idora milisiyasi tuzildi, hovlilar, ko‘chalar, bog‘lar, parklar va boshqa jamoat joylarining sanitariya ahvoli va obodonchiligi ustidan nazorat o‘rnatildi. Shuningdek, milisiya xodimlarining xizmatlarini rag‘batlantirish maqsadida 1950-yil 1-novabrda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi “Jamoat tartibini saqlashdagi a’lo xizmatlari uchun” medalini ta’sis etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

1952-yilda post va patrullik xizmatining yangi Ustavi joriy etildi. Bu Ustavda mazkur xizmatni tashkil qilish va ado etish tartibi, postovoy va patrullik qilayotgan milisionerning burchlari hamda huquqlari belgilab berildi.

1953-yil 20-iyulda O‘zbekiston SSR Ministrlar Kengashi va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti “O‘zbekiston SSRda xavfli jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash choralarini to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorda sosialistik qonunchilikni va ichki ishlar ministrligi faoliyatini mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, qonunchilik talablarini bir necha marta buzgan shaxslarning faoliyatini to‘xtatishga alovida e’tibor berildi. Birinchi novbatda jinoiy ishlar bo‘yicha tergov olib borish sifatini keskin oshirish, tashqi xizmatni va jinoyat qidiruv apparatini mustahkamlash tavsiya qilindi.

Qurolli Kuchlar birmuncha qisqartirilishi munosabati bilan 1954-yilda zahiraga bo‘shatilgan ko‘pgina ofiserlar milisiya organlarida ishlay boshladilar. Shuningdek, milisiya kadrlarining sifat tarkibi ham yaxshilandi. Biroq, kadrlarning umumiy ta’lim va maxsus tayyorgarligini oshirish muammosi to‘la hal etilmay qolaverdi. Shuning uchun ham KPSS Markaziy Komiteti 1954-yil 12-martda ichki ishlar ministrligining asosiy vazifalari va strukturasi to‘g‘risida qabul qilgan qarorida milisiya siyosiy organlaridan va uning partiya tashkilotlaridan barcha xizmatlaridagi xodimlarning umumiy va maxsus tayyorgarligini keskin suratda yaxshilashni, ish madaniyatini oshirishni, jamoatchilik bilan aloqani mustahkamlashni talab qildi. Mazkur qarorda milisiyaning asosiy diqqat-e’tibori jinoyatchilikka, ayniqsa chayqovchilikka va sosialistik mulkni talon-taroj qilishlarga qarshi kurash metodlarini takomillashtirishga, xodimlarning ish malakasini oshirishga qaratildi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1957-yil 13-martdagи Farmoniga muvofiq, respublika ichki ishlar ministrligining mehnatkashlar deputatlari oblast kengashlari huzuridagi boshqarmalari “Mehnatkashlar deputatlari oblast kengashlari ijroiya komitetlarining ichki ishlar boshqarmalari” qilib, shahar va rayonlardagi milisiya boshqarmalari, bo‘limlari “Mehnatkashlar deputatlari shahar va rayon kengashlarining milisiya boshqarmalari, bo‘limlari” qilib o‘zgartirildi. Shu davrdan boshlab, rayon, shahar, viloyat va o‘lka ichki ishlar organlarining boshliqlari halq deputatlari mahalliy kengashlarida, sessiyalarida tasdiqlana boshlandi. Bu esa halqni milisiyaga ishonchini yanada ortirdi, ichki ishlar organlari rahbarlari doimiy ravishda o‘z faoliyati haqida mahalliy kengashlarga hisob berishi bilan birgalikda, jamoatchilik va mehnat jamoalarini e’tiborini jinoyatchilik va tartibbuzarlikka qarshi kurashishni kuchaytirishga qaratdi.

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan 1957-yil 4-yanvarda “Mayda bezorilik uchun javobgarlik to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmon bezori, [4] ichkilikboz va jamoat tartibini buzuvchi boshqa shaxslarni birmuncha ogoh torttirdi.

1959-yil 12-fevalda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va respublika Ministrlar Kengashi “Ichkilikbozlikka qarshi kurashni kuchaytirish va o‘tkir spirtli ichimliklar bilan savdo qilishda tartib o‘rnatish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorda ichkilikbozlik qoralanib, partiya va davlat organlaridan, jamoat tashkilotlari va mehnatkashlar jamoalaridan ichkilikbozlikka qarshi tadbirlar ko‘rish talab qilingan edi.

KPSS Markaziy Komiteti bilan SSSR Ministrlar Kengashi mehnatkashlarning jamoat tartibini muhofaza qilishdagi ishtiropining yangi tashkiliy formasini rivojlantirishga har tomonlama yordam berib, 1959-yil 2-martda “Mehnatkashlarning mamlakatda jamoat tartibini saqlashdagi ishtiropi to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Mazkur qarorga asosan, shu yildan boshlab milisiyaga “yordamlashish brigadalari” tashkil etilib jinoyatchilarni qidirib topishga, kissavurlik va velosiped olib ochish kabi hollarga qarshi kurashga shuningdek port, vokzal, aeroport, jamoat joylarda ommaviy tadbirlar o‘tkazish jarayonlariga keng jalb etila boshlandi. Ayrim oblastlarda milisiyaga yordamlashish

brigadalari sosialistik mulkni muhofaza qilish bo'yicha doimiy ish olib boruvchi komissiyalar qilib qayta tashkil etildi.

Ittifoqdosh respublikalarda mahalliy shart-sharoitlarni e'tiborga olib turib jamoat tartibini saqlash bo'yicha ko'ngilli halq drujinalari to'g'risida nizomlar ishlab chiqildi. [5] Bu nizomlar mazkur ommaviy jamoat tashkilotlarini tashkil etishning va ular faoliyatining huquqiy asosi bo'lib qoldi. Nizomlarda ko'ngilli halq drujinalari ilg'or ishchilar, ximatchilar, kolxozchilar, studentlar va pensionerlardan tashkil etilishi ko'rsatib o'tildi. Huquqlarni buzishning oldini olish, har tomonlama tarbiyaviy ish olib borish ular faoliyatining asosiy mezoni qilib belgilandi.

Drujinachilar qo'liga "DND" (Dobrovolno narodnaya drujina –qo'ngilli xalq drujinasi) deb yozilgan qizil lenta, xamda ko'krugiga "Halq drujinachisi" degan nishon taqilardi. Ular jamoat joylarida navbatchilik, ko'chalarda patrullik qildilar, bezorilik, chayqovchilik, nazoratsizlikka qarshi kurash bo'yicha reydlarda qatnashdilar. Mamlakat fuqarolarining osoyishta yashashlari, ishlashlari, dam olishlariga halaqt berayotganlarga qarshi faol kurash olib bordilar.

Manbalarga tayanganda 1961-1970-yillarda Butunittifoq bo'yicha ko'ngilli drujinachilar soni 14 millionga yetganini ko'rish mumkin.

Birgina 1965-yilda Ittifoqda 4,5 millionga yaqin bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatgich 4,700 dan ortiq ko'ngilli halq drujinasi, 110 mingdan ortiq drujinachilar faoliyat olib borganlar.

1966-yil 26-iyulda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining "Bezorilik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonidan "Mamlakatda jinoyat va tartib buzishlarga o'rinn bo'lmasligi xamda fuqarolarning mehnati va dam olishiga hyech narsa halal bermaslik kerak" degan maqsad ko'zlangan edi.

Shundan so'ng Ittifoq va boshqa respublika do'konlarida spirtli ichimliklarni sotish ta'qiqlandi, ayrim joylarda vaqt chegaralandi. Masalan, Toshkent shahrida ichkilikbozlikni oldini olish maqsadida spirtli ichimliklarni sotish vaqt cheklab qo'yildi. Shunga qaramasdan drujinachilarning sa'yiharakatlari bilan 1966-yilning oxiriga kelib milisiya bo'limlariga va tibbiyot xushyoxxonalariga keltirilgan shaxslar miqdori ancha kamaydi. Kelganlarni esa ro'yxatga olinib, kasblarini hisobga olgan holda ko'chalar, hovlilar, jamoatchilik joylarni tozalashda, qurilishlarda bepul ishlab berish majburiyati yuklatildi. Milisiya bo'limlari tomonidan bezorilik qilgan shaxslarni o'n besh sutkaga qamab qo'yish joriy etildi. Kamerada saqlangan shaxsga milisiya organlari tomonidan ko'rpa-to'shak, sigaret chekish, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga ruxsat berilmaydi, ularga mazkur davr uchun ish joyidan ish haqi to'lanmaydi. Milisiya organlari tomonidan beriladigan oziq-ovqat va saqlab turilganlik haqi ulardan undirib olish belgilandi.

Jazo muddatini o'tashdan bosh tortgan yoki belgilangan rejimni qo'pol ravishda buzgan shaxslarga milisiya organlarining tavsiyanomasiga muvofiq, suda mazkur tartib buzuvchining qamoqda bo'lish muddatini o'ttiz sutkagacha uzaytirishi mumkinligi farmonda qayd etilgan edi.

Shu davrda KPSS Markaziy Komiteti, SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi va SSSR Ministrlar Kengashining o'tkazgan yig'ilishlarning qarorlarida "Asosiy kuch jamoat joylaridagi bezorilik ko'rinishlarining oldini olishga qaratilishi kerakligi" ta'kidlanib borildi. Bu borada ko'ngilli halq drujinasining faoliyatini yanada takomillashtirish ularning saflariga g'ayratli, jasur, dovyurak, tashabbuskor yigit qizlarni jalb etish to'g'risida fikrlar yuritildi.

Shundan so'ng, yildan yil ko'ngilli drujinachilar soni oshib boraverdi. 1966 yilning oxiriga kelib, Toshkent to'qimachilik kombinatida "Uchqun", "Yulduz" firmalarining kanop fabrikasi xotin-qizlar jamoasidan 200 ga yaqini, Toshkent halq xo'jaligi instituti talabalaridan 400 ga yaqin, fizkultura institutida 900 dan oshiq, Toshkent Medisina institutida (Sanitariya fakultetida: 300 ta, stomatologiya fakultetida: 250 ta, pediatriya fakultetida 350 ta) 900 dan oshiq ko'ngilli drujinachilar faoliyat olib bordilar. Endi ular "Bugungi kunda bizga kim halaqt berayapti", "Satira", "Komsomol projektori", "Boks" (Boyevoye okno komsomolskoy satiry) nomli xajviy oynomlar nashr ettirishdi, "Teleqidiruv" ko'rsatuvlarida ishtirok eta boshladilar, muntazam ravishda "Jamoat tartibini saqlash kunlari"ni o'tkazib turishdi[6].

Shu yillarda SSSR Jamoat tartibini saqlash ministrligi tomonidan "Namunali drujinnik" ko'krak nishoni ta'sis etildi va jamoat tartibini saqlashda faol yosh yigit qizlar mazkur nishon bilan taqdirlanib borildi.

KPSS Markaziy Komiteti bilan SSSR Ministrlar Kengashining 1961-yil 17-avgustda qabul qilgan qarori mamlakat milisiyasi ishiga doir masalalarga bag'ishlangan bo'lib, milisiya faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risidagi g'amxo'rlik bilan sug'orilgan edi. Unda milisiya faoliyatini

yaxshilashga qaratilgan bir qator muhim tashkiliy choralar belgilab berildi. Asosiy choralardan biri bu “Milisiya to‘g‘risida”gi nizom qabul qilingan edi. Unga muvofiq, milisiyaning asosiy vazifalari, davlat boshqaruv organlari sistemasida tutgan o‘rnii va roli belgilab berildi. Shuningdek, milisiya davlatning ma’muriy-ijroiya organi bo‘lib, u shaharlar, aholi punktlari va transport magistrallarida jamoat tartibini saqlash, sosialistik mulkni, fuqarolar shaxsi va huquqlarini jinoyatchilar tajovuzidan saqlashi, xavfli jinoyatlarni fosh qilishi lozim edi.

1962-yil 16-yanvarda SSSR Ministrlar Kengashi SSSR Ichki ishlar ministrligini tugatish va uning funksiyalarini ittifoqdosh respublikalar ichki ishlar ministrliliklariga berish to‘g‘risida qaror qabul qildi. [7] 1962-yil 30-avgustda RSFSR Oliy Kengashi Prezidiumi respublika ichki ishlar ministrligini jamoat tartibini saqlash ministrligi (MOOP) qilib o‘zgartirdi. Xuddi shunday farmonlar SSSRning barcha ittifoqdosh va avtonom respublikalarida ham qabul qilindi.

O‘zbekistonda 1962-yil 7-sentyabrda “O‘zbekiston SSR Respublika Ichki ishlar ministrligi – O‘zbekiston SSR Respublika jamoat tartibini saqlash ministrligi” deb o‘zgartirildi.

Biroq, ittifoqdosh-respublika ichki ishlar ministrligining tugatilishi jamoat tartibini saqlash respublika otryadlarining ishini koordinasiyalashni murakkablashtirib yubordi, tartibni saqlash xizmatining ayrim masalalarini me’yor jihatdan tartibga solishda, ba’zi bir milisiya organlari strukturasi va shtatlarini belgilashda har xillikka olib keldi. Jinoyatchilikka qarshi kurash tajribasini respublikalararo o‘rtoqlashish, bu kurashda ilm-fan va texnikaning eng yangi yutuqlaridan foydalanish susayib ketdi.

Shunga qaramasdan, hukumat tomonidan milisiya faolitini yanada rivojlantirish uchun bir qator tarixiy hujjatlar e’lon qilindi. Jumladan, 1962 yil 26 sentyabrda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan “10 noyabr sovet milisiyasi tashkil etilgan kun” bayrami ta’sis etildi. Mazkur tadbir har yili 10 noyabrda keng tarzda nishonlanadigan bo‘ldi.

1962 yil 3 noyabrda “Butunittoq milisiyasi shaxsiy tarkibining qasamyod matni va qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom”i O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, milisiya shaxsiy tarkibining xizmat qasamyodi matni va qasamyodni qabul qilish tartibi haqida nizomlari tasdiqlandi.

Nizomga ko‘ra, safdar, o‘rta va katta boshliqlar tarkibi shuningdek, Toshkent o‘rta maxsus milisiya maktabi kursantlari qasamyod qabul qiladilar. Kursantlar o‘qishga qabul qilinganlik to‘g‘risidagi buyrug‘i e’lon qilingan sanasidan uch oydan o‘tgach, fuqarolikdan milisiya idoralariga ishga kirgan shaxslar uch oylik tayyorlov kurslarini tamomlaganidan so‘ng tantanali ravishda qasamyod qabul qilishlari ta’kidlab o‘tilgan.

1962-yil 7-dekabrdan “O‘zbekiston SSR milisiyasining jangovor bayrog‘inini ta’sis etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq O‘zbekiston SSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston ASSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi, Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyati ijroiya qo‘mitalari boshqarmalari xamda Toshkent o‘rta maxsus milisiya maktabi jangovor bayroqlari ta’sis etilishi ko‘zda tutildi.

SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1966-yil 26-iyuldagagi Farmoni bilan jamoat tartibini saqlash organlari faoliyatiga yagona tezkor rahbarlikni ta’minalash maqsadida ittifoq-respublika jamoat tartibini saqlash ministrligi – SSSR Jamoat tartibini saqlash ministrligi tashkil etildi.

SSSR Ichki ishlar ministrigi O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston SSR milisiya organlarida ishlash uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida RSFSR Jamoat tartibini saqlash ministrligi Oliy maktabi sirtqi ta’lim bo‘yicha Toshkent fakulteti, 1967-yildan SSSR Ichki ishlar ministrligining Oliy matabiga aylantirildi.

Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlaridan tashqari, milisionerlar, uchastka vakillari, davlat avtomobil inspektorlari, passport bo‘limlari xodimlarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash viloyatlararo va viloyat punktlari ham ish olib bordi.

Butunittoq hukumati tomonidan 60-yillarning boshlarida milisiyaning obro‘-e’tiborini oshirish, uning uchun me’yoriy bazani takomillashtirish va mamlakatda huquq-tartibotni mustahkamlash va jinoyatchilikni, uni keltirib chiqargan barcha sabablarni tugatish masalalari yuzasidan dasturlar va yo‘riqnomalarning qabul qilinishi milisiya organlarida tashkiliy-partiyaviy ishlar saviyasini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Biroq milisiya siyosiy xodimlari shtat kategoriyasining yo‘qligi milisiya shaxsiy tarkibini kommunistik ruhda tarbiyalash va operativ-xizmat faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarani hal qilishni ma’lum

darajada qiyinlashtirib yubordi. Shuning uchun ham KPSS Markaziy Komiteti milisiya saflarida siyosiy xodimlar lavozimini tiklash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1965-yil 11-sentyabrdagi qaroriga muvofiq, respublikaning 50 dan ortiq xodimiga ega bo‘lgan shahar, rayon milisiya organlarida 1965-yil 1-oktyabrdan boshlab boshliqlarning siyosiy-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘ribbosarlari lavozimi joriy etildi.

Shundag so‘ng respublika va Qoraqalpog‘iston ASSR jamoat tartibini saqlash ministrliklarida, viloyat jamoat tartibini saqlash boshqarmalarida, Toshkent shahar milisiya boshqarmasida, milisiyaning yo‘l bo‘limida siyosiy tarbiyaviy ishlar bo‘yicha instrukturlik guruhlari tuzildi.

Butunitifoq davlati ichki ishlar organlarini mustahkamlash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilib, shundan keyingi o‘n yillikda milisiyaning tashkiliy strukturasini, uning ish faoliyatini va usullarini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha yirik tadbirlarni amalga oshirdilar. Yuqorida ta’kidlanganidek, 1966-yil 26-iyulda Jamoat tartibini saqlash ittifoq-respublika ministrligining tuzilganligi ana shunday tadbirlardan biridir.

Keyinroq u aniqrog‘i, 1968-yil 4-dekabr O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Farmoni bilan “SSSR Ichki ishlar ministrligi” deb ataldi. Shu qarorga muvofiq milisiya organlarini boshqarishga doir butun tizim qayta qurildi. Jumladan shahar va rayon mahalliy kengash deputatlari ijroiya komitetlari qoshida milisiya bo‘limlari tashkil etildi. Toshkent shahar jamoat tartibini saqlash boshqarmasi “Toshkent shahar mahalliy deputatlar kengashi ijroiya komiteti ichki ishlar boshqarmasi” deb o‘zgartirildi.

SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining “Butunitifoq milisiyasining jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi asosiy vazifalari hamda huquqlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon 1973-yil 19-iyulda SSSR Oliy Kengashi tomonidan Qonun sifatida tasdiqlandi. SSSR Ministrlar Kengashining 1973-yil 8-iyunda qabul qilgan “Butunitifoq milisiyasini faoliyatini huquqiy jihatdan boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori tasdiqladi. Shuningdek, O‘zbekiston SSR Ministrlar Kengashining “O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risida”gi Nizomi 1973-yil 17-sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlandi.

Mazkur Qonun, qaror va nizomlarda milisiyaning SSSR Ichki ishlar vazirligi tizimining tarkibiy qismi sifatidagi va respublika, o‘lka, viloyat, okrug, shahar, tuman Kengashiga hamda ularning ijroiya komitetlariga bo‘ysunadigan organ sifatidagi huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. Milisiyaning vazifalari va uning jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi huquqlari aniq va puxta ko‘rsatib berilganligi qatta ahamiyat kasb etdi. Shunga qaramasdan milisiya organlari strukturasi va shtatlarini takomillashtirish, joylarda kadrlar yetishmasligiga barham berish, qobiliyatli kadrlar bilan to‘ldirish yuzasidan anchagina ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti milisiya xodimlarining har biridan o‘zining butun faoliyatida yuksak prinsipiiallikni, qonunlar va fuqarolarning huquqlarini buzuvchilarga keskin murosasiz bo‘lishni, teran huquqiy madaniyatni, shaxsiy tarkibnining har tomonlama professional tayyorgarlikka ega bo‘lishini talab qildi.

1978-yil SSSR Ichki ishlar vazirligi tomonidan “Xizmat kiyimini kiyib yurish qoidalari” nomli kitob nashr etildi. Mazkur kitobda generallar, rahbarlar, o‘rta boshliqlar, safdorlar, kursantlar shuningdek ayollar xizmat kiyimini kiyib yurish tartib qoidalari belgilab berilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, bu davrda yuqori malakali milisiya kadrlarini tayyorlash tizimida jiddiy o‘zgarishlar qilindi. SSSR Ministrlar Kengashining qaroriga muvofiq, SSSR Ichki ishlar vazirligining oliv maktabi Toshkent sirtqi ta’lim fakulteti bazasida SSSR Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliv maktabi tashkil etildi. Bu muktab kunduzgi va sirtqi bo‘limlardan iborat edi.

Keyinchalik O‘zbekiston milisiyasini uchun ayniqsa 1980-yillarda qiyin davr bo‘ldi, “...Ittifoq Ichki ishlar vazirligi tomonidan o‘z tartibini o‘rnatishga yana bir marta urinib ko‘rdi. Jinoyatchilikning oldini olish bilan shug‘ullanadigan idoralar tarqatib yuborildi, shtablarning ahamiyati va vazifalari kamaytirildi, ko‘plab milisiya rahbar xodimlari, shu jumladan o‘z ishiga sadoqatli va tajribali xodimlar ishdan bo‘shatildi, tarqatib yuborildi” [8]. Ushbu jarayon KPSS Markaziy Komitetining 1983-yil 16-martda chiqargan «Ichki ishlar bo‘limlarini xodimlar bilan mustahkamlash choralarini to‘g‘risida» qarori va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining shu xususdagi qarori tufayli yuz berdi.

Markaz respublika Ichki ishlar organlarini kadrlar bilan mustahkamlash ishida go‘yoki «respublikaning iltimosiga binoan» 1984-89-yillarda O‘zbekistonga 231 kishi yubordi. Ular asosan rahbarlik lavozimlariga tayinlandi. Shu vaqt ichida ichki ishlar bo‘limlarining saflaridan 1981-85 yillarning o‘zida 3000 dan ortiq mahalliy xodimlar bo‘shatildi. Ularning ko‘plari aybi isbotlanmagan

bo'lsa-da jinoiy javobgarlikka tortildi. Respublika Ichki ishlar organlarining hyech qanday aybi bo'lmagan bir qancha rahbar xodimlari qismati ham shunday bo'ldi. Bu esa pirovard natijada respublika Ichki ishlar organlari xodimlari kasb mahoratining pasayib ketishiga, binobarin jinoyatchilikka qarshi kurash natijalariga salbiy ta'sir qildi.

1984-1989-yillarda "O'zbekistonda sosialistik qonunchilikni tiklash" shiori ostida respublika barcha huquq-tartibot idoralari Markazdan minglab odamlar jo'natilgan. Bu idoralar orasida shaxsiy tarkibi, haraktalanish hududi va ta'sir kuchi nuqtai nazaridan eng yirigi hisoblangan O'zbekiston SSR II Vga sobiq ittifoq mamlakatidan 150 ta xodim keldi. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984 yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta, 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta "osoyishtalik posboni" birovdan so'rab-so'ramay, O'zbekistonga "tashrif buyurgan". Bu "kutilmagan mehmonlar"ning asosiy maqsadi – sosialistik qonunchilikni ta'minlash emas, balki o'zbek halqini tahqirlash evaziga xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish edi [9].

Shunday qilib, 1983-yildan sobiq KPSS Markaziy qo'mitasi rahbarligida O'zbekistonda navbatdagi oshkora qatag'onga yo'l ochdi. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi", "Sharqiy front" deb atalgan mash'um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Moskva yuborgan generallar, prokurorlar, tergovchilar istagan odamlarni hibsga olishardi.

1989-yilgacha bu ishlar bo'yicha O'zbekistondagi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qo'shib yozish, poraxo'rlik, o'g'irliklar haqidagi 800 dan ortiq jinoiy ish tekshirildi. Mazkur ishlar bo'yicha 5 mingdan ko'proq kishi sudlandi, ulardan 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sosialistik Mehnat Qahramoni edi. Jumladan, O'zbekiston SSR KP MQning 4 nafar kotibi, 8 nafar viloyat partiya qo'mitasi kotibi, O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashi raisi, O'zbekiston SSR paxtachilik vaziri, II Vning 20 nafar rahbari bo'lgan [10].

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarni tiklash kabi oliyanob va xayrli ishdan boshlandi [11].

Respublika rahbarining qat'iyatlari harakati bilan nohaqlik barham topdi. "Paxta ishlari"ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko'rib chiqdi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. 2940 kishining haq-huquqi qayta tiklandi, 1015 kishi asossiz sudlangani aniqlandi [12]. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi O'zbekiston Prezidenti tomonidan avf etildi [13].

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati haqida "...Huquqiy-demokratik davlatni barpo etish jarayonida huquq organlari faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega", deb e'tirof etdi.

Shundan so'ng ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, respublikada qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralarni amalgalash oshirish va bu idoralarni malakali kadrlar bilan jamlash uchun zarur moddiy sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston SSJ Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil may oyida "Ichki ishlar organlari shaxsiy sostavining pul ta'minotini oshirish haqida" qarori e'lon qilindi. Qarorga asosan Ichki ishlar bo'limining boshlig'i oylik lavozim okladi 320-350 so'm, uning o'rinnbosari 300-330 so'm, katta tergovchi 250-280 so'm, tergovchi, operativ vakil, ekspert, inspektor 240-270 so'm, shuningdek lavozim va maxsus unvon bo'yicha okladlar joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, 1980-yillarning oxirlariga kelib iqtisodiy inqiroz alomatlari zo'rayishi natijasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot boshqa respublikalarga qaraganda og'ir, fojeali ahvolda edi. "Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinnlardan birida turibdi" deb ta'kidlagan edi Davlat arbobi Islom Karimov o'zining "O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik arafasi va uning dastlabki yillarida O'zbekistonda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat shakllangan edi. Qudratli rasmiyatchilik to'siqlari, ko'pgina umumittifoq rasmiy yo'riqnomlari, sobiq sovet mustabid tizimining bug'uvchi mexanizmi g'ov bo'lib turardi. Sobiq ittifoq davlatiga xos xo'jalik yuritish tajribasi qaror topgan ijtimoiy tuzum ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, mustamlakachilik qaramligini bartaraf etishga doir pishib yetilgan muammolarni lozim darajada hal etishga qodir emasdi. To'siqlarni dadillik bilan yorib o'tish uchun butun hokimiyat tuzilmalarini jumladan huquqni muhofaza qilish idoralarini sifat jihatidan yangilash, mustabid-imperiyacha tuzumni barham toptirish lozim edi. Ushbu vaziyatdan chiqish, mamlakatda barqarorlikni

saqlab uni mustahkamlash, fuqarolarning tinch-osuda hayotini ta'minlash avvalombor respublika rahbariyati olib borishi mumkin bo'lgan oqilona siyosatiga bog'liq bo'lib qoldi.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир / Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 25 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маърузаси// URL:[\(Халқ сўзи, 08.12.2017\).](http://xs.uz)
3. Б.П.Михайлов, С.С. Пылев. Слово о милиции. – М., 1973.
4. Любинский П.И. Хулиганство и хулиганы. –М., 1929.
5. Указ Президиума Верховного Совета СССР «Об основных обязанностях и правах добровольных народных дружин по охране общественного порядка» - Ведомости Верховного Совета СССР, 1974, № 22.
6. “Постда” газетаси. 1967 йил 14 январь.
7. Ведомости Верховного Совета УзССР, 1962. № 25.
8. Алматов З. Халқ хизматида (кириши сўзи ўрнида) // Халқ хизматида 75 йил. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
9. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2011.
10. Ҳидоятов Г. Национальный вопрос В СССР. – Т., 1991. С.211.; Яна қаранг: “Совет Ўзбекистони” газетаси, 1989 йил 27 декабрь
11. Мингбоев У. Суд – фуқаролар ҳимоячиси. – Т.: ДИТАФ, 2001.
12. Ўзбекистон Республикаси Олий Суди жорий архиви. “Пахта иши” бўйича маълумотнома. 2-том, 8-бет.

UDK 9 (327.1)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI

S.Ya.Umarov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning 90-yillarida dunyoda Yalta-Potsdam tartibotining barbod bo'lishi natijasida "sovuoq urush"ning tugashi, Yevrosiyo mintaqasida amalga oshgan integratsiya jarayonlari hamda uning natijasida globallashuvning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan xalqaro munosabatlar tizimiga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Yalta-Potsdam, "sovuoq urush", integratsiya, globallashuv, "ikki qutbli dunyo", "ko'p qutbli dunyo", "yangi kuch markazlari".

Формирование международных отношений в условиях глобализации

Аннотация. В этой статье освещается ослабление холодной войны в результате краха режима Ялты-Потсдама в мире в 1990-х годах и улучшение интеграционных процессов, происходящих в евразийском регионе в результате глобализации.

Ключевые слова: Ялта-Потсдам, «холодная война», интеграция, глобализация, «двухполярный мир», «многополярный мир», «новые центры власти».

The formation of international relations in the globalization

Abstract. This article highlights the outbreak of the Cold War as a result of the collapse of the Yalta-Potsdam regime in the world in the 1990s and the integration processes taking place in the Eurasian region, and its result is the international system obtained from globalization.

Keywords: Yalta-Potsdam, "Cold War", integration, globalization, "bipolar world", "multipolar world", "new centers of power".

XX asrning 80-yillariga kelib, ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo xalqaro munosabatlar tizimida qaror topgan Yalta-Potsdam tartiboti inqirozga uchray boshladi. Dunyodagi ikki yirik davlat –

AQSh va SSSR o'rtasida aloqalarning yaxshilanishi hamda strategik qirg'in qurollarini cheklash borasida amaliy choralar ni ko'riliishi natijasida dunyo siyosatida "sovuj urush" nihoyalab, Yalta-Potsdam tartiboti barham topdi. Shu bilan birga SSSRdag'i "qayta qurish" hamda ichki siyosiy kurashlar sabab SSSRda parchalanishning boshlanishi bilan Sharqiy Yevropadagi Ittifoq tizginida bo'lib kelayotgan davlatlar SSSRning ta'siridan xolos bo'ldi. Yevropa davlatlari o'rtasida boshlangan integratsiya dunyoda globallashuv jarayonlari bilan bog'lanib ketdi.

Globallashuv sharoiti yuzaga kelib, xalqaro munosabatlar tizimi o'zgarguncha bo'lган, ikki qutbli tizim hukm surgan XX asr xalqaro munosabatlar tizimiga nazar tashlasak, quyidagi uchta katta siyosiy voqeа asrning umumiy manzarasini belgilab beradi.

Birinchisi, asr boshida ro'y bergan Birinchi jahon urushi; dunyoning oltidan bir qismida bolsheviklar tomonidan totalitar davlatning "sotsialistik inqilob" niqobi ostida o'rnatalishidir.

Ikkinchisi, 1941-1945-yillarda Ikkinchi jahon urushining ro'y berishi; kuchlar nisbatining o'zgarishi; "bolsheviklar" ta'sirining G'arbiy Yevropaga yetib borishi; Sharqiy Yevropa davlatlariga sotsialistik g'oyalar va ittifoqchi boshqaruv usulining tizishtirilishi; O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining paydo bo'lishi; ushbu jarayonlarni himoyalash maqsadida Varshava shartnomasining imzolanishi; Yevropada bunga nisbatan NATOning tuzilganligi; "sovuj urush" davrining boshlanishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchisi, XX asrning 80-yillariga kelib, "sovuj urush" davrining tugashi; sotsialistik tizimning, O'IYoK va Varshava shartnomasi ta'sirining yo'qolishi; jahon xavfsizlik tiziminining o'zgarishi; dunyoning turli burchaklarida olovli nuqtalarning yuzaga kelishi, kuchlar nisbatining o'zgarishi, jahon xavfsizlik tizimida yangi tahdidlar paydo bo'lishida ko'rindi.

Tarix shuni ko'rsatadiki, har bir boshlangan ishning, harakatning oxiri, natijasi bo'ladi. Natija kimning foydasiga hal bo'lishi o'yinda ishtirok etayotganlarning o'zlarini qanday tutishlariga, ularning imkoniyat darajalariga, vujudga kelgan vaziyatdan qanday xulosalar chiqarishiga bog'liq bo'ladi.

Yaqin tarixga nazar tashlasak keyingi to'rt yuz yil davomida xalqaro munosabatlar tarixida beshta tartibot o'zgargan. Ulardan biri Yalta – Potsdam tartiboti hisoblanadi. Bu tartibot qirq yildan ziyod hukm surdi va barcha xalqlar hayotida muhim rol o'ynadi. Dunyo va Yevropada bugungi kungacha beshta bu kabi tartibotlar o'rnatalgan [1. 11-13-b]. 1989-1991-yillarda bu tartibot barbod bo'lgandan so'ng dunyoda "yangi tinchlik tartiboti" yuzaga keldi.

Yalta – Potsdam tartibotining bekor bo'lishiga ko'maklashgan bir necha omillar mavjud edi. Bu tartibotning barbod bo'lishini Sovet davlatining ichki hayotida ro'y bergan turli milliy nizolar bilan bog'lash mumkin. Sovet davlatining yangi rahbari M.S.Gorbachyov "sovuj urush"dan chiqish va yadro quroilda qisqarish qilishni boshlagan edi. Ushbu omillar sababli M.S.Gorbachyov "yangi qarashlar" va "umumyevropa uyi" konsepsiyalari bilan chiqqan. Shu bilan birga Sovet davlati GDR, Polsha, Chexoslovakiya va Vengriya davlatlaridan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketish qaroriga 1987-yilda kelgan edi [1. 15-16-b].

Sovet davlati va Varshava kelishuvi ittifoqi dunyo siyosiy maydoniga "yangi tinchlik tartiblarini" targ'ib qila boshladi. Sovet davlati "sovuj urush"ni yo'q qilishga urindi. Buni esa NATO va AQSh o'zini g'alabasi sifatida baholadi. Yaqin Sharqda 1990-1991-yillarda Iroq Quvaytga harbiy hujum uyushtirdi. Ushbu nuqtada «yangi tinchlik tartibi» bilan ish boshlagan Sovet davlati AQSh va BMTning qarashlariga qarshi bo'lган fikrni bildirdi. Sovet davlati Iroqqa qarshi harbiy kuchdan foydalanishga qarshi chiqdi [1. 19-b].

Yaqin Sharqda Iroq Quvaytni egallab olgandan so'ng BMTning 660 – rezolyutsiyasini bajarmadi. BMTning 661 – rezolyutsiyasi – Iroqqa iqtisodiy qamal ham samara bermadi. Bu vaziyatda AQShda Iroqqa qarshi harbiy kuch ishlatish lozim degan qarashlar shakllandi.

Sovet davlati Iroq masalasini tinch yo'l bilan hal qilishda prezident M.S.Gorbachyovning o'zi faol harakat qildi. U 1991-yil 18-fevralda Iroq tashqi ishlar vaziri Toriq Aziz bilan Kremlда uchrashdi. Aziz bilan suhbatda Gorbachyov quyidagi rejasini ma'lum qildi: «Iroq Quvaytdan qo'shinini olib chiqib ketishga tayyor ekanligini ma'lum qilishi, qo'shin harbiy harakatlar tugagan kunning ertasidan olib chiqilishini, Havfsizlik kengashi Quvaytdan chiqib ketayotgan qo'shinni havfsizligini ta'minlashini». Keyingi bir necha uchrashuvlar natijasida Iroq 1991-yil 27-fevralda BMT havfsizlik kengashining barcha rezolyutsiyalarini qabul qilishini ma'lum qildi [2].

Shunday qilib Yaqin Sharqdagi Ko'rfaz inqirozi M.S.Gorbachyovning say harakatlari bilan AQSh bilan hamkorlik va do'stlikni saqlab qolgan holda tinch yo'l bilan yakunlandi. Bu esa «sovuj urush»ni tugatdi, xalqaro munosabatlarda «yangi siyosiy qarashlar»ning ustunligini ko'rsatdi.

Bu davrda xalqaro munosabatlarda Berlin masalasida ham iliqlik, hamfikrlilik yuzaga keldi. 1990-yil 1-oktabrda oltita davlat tashqi ishlar vazirlari, “2+4” guruhi davlatlari vazirlari protokol imzoladi. Berlinning mavqeyi masalasi tugadi [3]. Natijada GDR va GFR yagona davlatga birlashdi.

Yalta – Potsdam tartiboti barbod bo‘lib, mamlakatlar orasida yangi qarashlar asosida munosabatlar yo‘lga qo‘yildi. Bunda bir – biriga ishonch, o‘zaro hamkorlik, do‘stlik asosida munosabatlar amalga oshirildi. Bu esa dunyodagi bir necha muammo va siyosiy inqirozlarni dunyoning ikki buyuk davlati tomonidan o‘zaro kelishib, hamkorlikda hal etilishiga olib keldi.

XX asrning oxirida “sovnuq urush” ham nihoyasiga yetdi. Bu davrga kelib yirik imperiya SSSR parchalandi va Varshava Sharhnomasi tashkiloti ham batamom tarqab ketdi. Yuqoridagi bu voqealar sababli G‘arb va Sharqdagi xalqaro munosabatlar taraqqiyotida yangi tendensiyalar, yondoshuvlar paydo bo‘la boshladi.

Xavfsizlikni kuch bilan ta’minalash usuli boshqa usulga, ya’ni tinch yo‘l, muzokoralar yo‘li bilan o‘rin almashdi. Bunga sabab jahon siyosatida kechayotgan jarayonlarning ko‘p qutblilik tartibi asosida boshqarishga o‘tilganligidir. Oldingi ikki qutbli jahon siyosiy tartibotining asosini tashkil etuvchi davlatlar hamda ular tuzgan xalqaro tashkilotlar boshqa ma’no kasb etdi, o‘z faoliyatlar ma’no-mazmunini o‘zgartirdi.

Bir so‘z bilan aytganda dunyo normal holatga qaytdi. Dunyo xalqaro munosabatlarida ko‘p qutbli aloqalar odatiy hol va normaga aylandi [4]. Xalqaro munosabatlar tizimida ikki qutbli dunyoga barham berildi. Ikki qutbga bo‘linib qolgan dunyo mamlakatlari yangi xalqaro munosabatlar tizimiga – ko‘p qutbli dunyo xalqaro aloqalar tizimiga kirdi. Ikki qutb orasidagi “tusiqlar”ning bartaraf etilishi natijasida qirq yildan ziyod vaqt davomida ikki qarama – qarshi bloklar qo‘l ostida bo‘lib kelgan G‘arbiy va Sharqiy Yevropa davlatlari o‘zaro savdo va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Yevropada integratsiya yuzaga keldi. Nafaqat Yevropada, balkim, “sovnuq urush” davrida “uchinchi dunyo mamlakatlari” deb qarab kelingan Osiyo va Amerika mintaqasidagi davlatlar o‘rtasida ham integratsion jarayonlar boshlanib ketdi. “Ko‘p qutbli dunyo”ning qaror topishi natijasida integratsiya jarayonlariga kirib borgan O‘zbekiston Yevropa mintaqasi, jumladan, Yevropa Ittifoqi hamda unga a’zo mamlakatlar bilan mustahkam, o‘zaro teng manfaatlarga asoslangan hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘ydi, uni izchil rivojlantirib borish mamlakatimiz tashqi siyosatining o‘zak yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. O‘zbekistonning mazkur mintaqaga mamlakatlari orasida ayniqsa Germaniya Federativ Respublikasi bilan munosabatlari nisbatan keng qamrovligi bilan ajralib turadi.

Inegratsion jarayonlarning jadallashib, dunyo mamlakatlari o‘rtasida aloqalarning yaqinlashuvi xalqaro munosabatlar tarixida navbatdagi globallashuv sharoitining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ikki qutbli dunyo mavjud bo‘lgan davrdayoq G‘arbiy Yevropa davlatlari o‘rtasida erkin savdo aylanmasi tizimi qaror topgan edi. Shu bilan birga Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi kabi integratsiyaga asoslangan tashkilotlar shakllantirilgan edi [5. 92-b]. Natijada XX asrning 90-yillari boshlariga kelib, ikki qutbli dunyoning barham topishi bilan xalqaro munosabatlar tizimini globallashuv jarayonlari qamrab oldi. Globallashuvning yuzaga kelishida quyidagi voqealar asosiy rol o‘ynadi.

Birinchidan, xalqaro maydonda erkin savdo yuzaga kelib, moliyaviy mablag‘larni ham erkin berish va olish imkoniyatining yuzaga kelishi;

Ikkinchidan, SSSRning parchalanishi Sharqiy Yevropa davlatlari mustaqilligiga olib keldi. Bu davlatlar Yevropa Ittifoqining to‘la huquqli a’zolariga aylandi va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan integratsiyaga kirishdi;

Uchinchidan, Osiyo mamlakatlarida sodir bo‘lgan iqtisodiy inqiroz Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida integratsiyaga bo‘lgan intilishni kuchaytirdi;

To‘rtinchidan, Xitoy erkin savdo tizimiga kirishi natijasida qisqa vaqt ichida katta iqtisodiy ko‘rsatgichlarga erishib, dunyoda mahsulot ishlab chiqarishda AQSh va Yaponiyadan keyin uchinchi o‘ringa chiqib oldi. Hindiston ham Xitoy kabi AQSh va Yevropa mamlakatlari singari kompyuter dasturiy ta’minoti ishlab chiqarish sohasiga qo‘silib, globallashuv jarayonlarini boshlab berdi [5. 96-b].

Globallashuvning paydo bo‘lishi fanda nihoyasiga yetgan masala emas. Ko‘plab ilmiy maktablar uni XX asrda paydo bo‘lgan deb hisoblaydi. Ammo boshqa tarixchilar globallashuvni uzoq tarixga ega qadimiy hodisa deb hisoblaydi [6]. Globallashuv insoniyat tarixida bugun paydo bo‘lib qolgan tushuncha emas, uning tarixi antik sivilizatsiyalar va imperiyalar bilan bog‘liq degan g‘oyani

Tomas Loren Friyedman kabi bir necha tarixchilar ilgari surgan. Ular globallashuv tarixini quyidagi uchta davrga: birinchi globallashuv (1492-1800), ikkinchi globalashuv (1800-2000) va uchinchi globalashuv (2000-h.v.) ga bo'lgan. Birinchi globalashuv davrida davlatlar o'rtasida aloqalar boshlanib, o'rtadagi tusiqlar parchalanib, mamlakatlar o'rtasida bir-biri bilan faol va muvaffaqiyatli savdo aloqalari boshlandi. Ikkinci globalashuv davri bug' paravozi, temir yo'llar va kemalarning kashf etilishi bilan bir davlatdan ikkinchi davlatga mahsulot yetkazib beruvchi transmilliy kompaniyalarning shakllanishi bilan boshlandi. Uchinchi globalashuv Internet orqali dunyoda masofaning kichrayib borishi bilan shaxslarning globalashuvi ro'y berishi hisoblanadi [7].

Ko'plab tarixchilar tomonidan globalashuv jarayonlari qadimdanoq boshlanganligi qabul qilingan. Odamlar orasidagi kabi jamiyatlar o'rtasida aloqalarning boshlanishi birinchi globalashuvni boshladi. Shu sababli ham globalashuvning boshlanishi Mesopotamiya, Misr, Yunoniston, Xitoy va Hindiston sivilizatsiyasiga bo'linadigan ilk tamaddunlar bilan bog'liqdir. Barcha bu sivilizatsiyalar geografik jihatdan uzoqligi va turli transportga ega bo'lganligiga qaramay bir-birini bilishgan. Shu bilan birga ular bir-biri bilan aloqada bo'lib, biri ikkinchisiga ta'sir etgan. Imperiyalarning paydo bo'lishi bilan tamaddunlarning biri ikkinchisi ustidan hukmronlikka intilishi natijasida bir-biriga qiziqishi o'sdi. Makedoniya imperiyasi butun O'rtayer bo'ylab joylashgan Rim imperiyasi tomonidan vayron qilindi, keyin esa Shimoliy Afrika, u yerdan Yevropa va Osiyoga o'tdi. Tarixiy jihatdan aytadigan bo'lsak, imperiyaning o'sishi, o'z qudratini mustahkamlab, uni tashqi va xalqaro siyosatga sarflashi natijasida globalashuv atamasi yuzaga keldi.

Globalashuv boshqa tomondan o'rtasidagi davrida Renissans ya'ni Qadimgi Dunyoning kuchli tamadduni bo'lgan yunon va Rim klassik an'analariga qaytilishining ro'y berishi natijasida Yevropaning imkoniyatlarini oshirdi. Bu esa o'z navbatida Yevropada shakllangan bilimlar asosida 1492-yilda Amerikaning ochilishiga sabab bo'ldi. Shundan boshlab texnologik rivojlanish sababli Yevropa imperiyalari boshqa hududlarni mustamlaka qila boshladi. Boshqacha qilib aytganda Yevropa davlatlarining eksplutatsiya jarayoni bilan birga iqtisodiy hamkorlikning mustamlakalar bilan eski dunyo o'rtasida yo'lga qo'yilishi XVI asrda jahonda iqtisodiy globalashuvning boshlanishiga sabab bo'ldi [8].

Yuqorida keltirgan fikrlarimizdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, globalashuv XX asr oxirida boshlangani yo'q. Olimlar oxirgi 500 yil mobaynida insoniyat shu yo'ldan izchil harakat qilganini qayd etmoqdalar. Yangi Dunyoning kashf etilishi, yer kurrasining doimiy transport marshrutlari bilan birlashtirilishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va xokazolar shakllanayotgan globalizatsiyaning bosqichlari edi. O'tgan asrning oxirida bu jarayon misli ko'rilmagan darajada jadallahdi va globalizatsiya davri nomini oldi [9]. Bu o'z navbatida jahon tarixida globalashuvning uchinchisi edi. Bu jarayon XXI asrning dastlabki o'n yilliklarida ham jadallik bilan rivojlanib bordi.

Insoniyat rivojlanishining hozirgi davriga hos bo'lgan globalashuv davlatlarning o'zaro bog'liqligi va birgalikda harakat qilishi jarayoni sifatida qaror topdi. Xalqlar va davlatlar yagona makon sifatida shakllangan iqtisodiy, siyosiy va axborot maydonida iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashdilar [10. C.19].

XX asrning oxiri - XXI asr xalqaro munosabatlar tizimining keskin o'zgarishi bilan xarakterlanadi. SSSRning parchalanishi bilan "bipolyar" xalqaro munosabatlar tizimi barham topib, "ko'p qutbl"lik hamda "yangi kuch markazlari"ga asoslangan xalqaro munosabatlar tizimi qaror topdi.

Sharqiy Yevropa va Sobiq Ittifoq davlatlari tashqi siyosat tamoyillarining o'zgarishi natijasida globalashuv jarayonlari rivojlandi. Shu bilan birga ko'p qutbl dunyoning shakllanishi natijasida Sharqda xalqaro munosabatlar tizimida o'z so'ziga ega bo'lgan davlatlar (Xitoy va Hindiston) qaror topdi.

Globalashuv sharoitidagi xalqaro munosabatlarning asosiy tendensiyasi sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin:

Birinchidan, "ko'p qutbl dunyo"ning qaror topishi natijasida AQSh bilan birga "yangi kuch markazi" bo'lib shakllangan davlatlar – Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Braziliya va boshqa davlatlar xalqaro hayotda asosiy rol o'ynay boshladi;

Ikkinchidan, dunyoning hududlarga iqtisodiy rivojlanganligiga qarab guruhanishi sodir bo'ldi. G'arbiy Yevropaning davlatlari yuqori darajada rivojlangan davlatlarga kiritilgan bo'lsa, Osiyo, Afrika va Amerikaning ko'plab davlatlari quyidagi rivojlangan va kambag'al davlatlar sirasiga kiritildi;

Uchinchidan, xalqaro munosabatlar tizimida dominionlik uchun tamaddunlararo kurashlar kuchaydi, dunyoda qarama-qarshilik va nizolar yuzaga keldi;

To‘rtinchidan, global muammolarning yuzaga kelishi natijasida uni hal qilish uchun jahon hamjamiyatining birlashuvi kuchaydi;

Beshinchidan, globallashuv jarayonlarining rivojlanishi yagona iqtisodiy, siyosiy va axborot makonini yuzaga keltirdi va G‘arbni bu omildan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intilishini kuchaytirdi [10. C.10-11].

Umuman olganda dunyoda ko‘p qutb va yangi kuch markazlarining qaror topishi bilan birga integratsiya ham kuchayib bordi. Integratsiyaning kuchayib borishi dunyo xalqaro munosabatlar tizimida globallashuvni yuzaga keltirdi. Globallashuv sharoitidagi xalqaro munosabatlarda “ko‘p qutbli dunyo” yuzaga keldi. Dunyo xalqaro munosabatlar tizimi mo‘tadil holga qaytdi.

Adabiyotlar

1. Волков В.К. “Новый мировой порядок” и Балканский кризис 90-х годов. // Новая и новейшая история. 2002. № 2.
2. Наринский М.М. Советское руководство и кризис в Персидском заливе (1990 – 1991 годы). Новые материалы // Новая и новейшая история. 2007. № 3. с.72-97.
3. Долгилевич Р.В. Вопрос о статусе Берлина. 1944 – 1990 годы // Новая и новейшая история. 2011, № 3, с.52.
4. Рогов С.М. Россия и США в многополярном мире. США-ЭПИ, 10, 1992. С. 3.
5. Özlen Hiç Birol. Globalization in Historical Perspective // International journal of Business and Social Science. Vol. 3. № 8 [April, 2012] P.91-106.
6. David Northrup. Globalization in Historical Perspective // The official web page of Encyclopedia of Life Support System www.eolss.net
7. Thomas L. Friedman, The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century. New York 2005, pp. 9-10.
8. Ervin Justin and Smith Alden Zachary. Globalization: a Reference Handbook. USA: Library of Cataloging-publication data 2008; Dennis O. Flynn and Arturo Giraldez. Born Again: Globalization’s Sixteenth Century Origins (Asian/Global Venus European Dynamics) // Pacific Economic Review, №13, 2008, pp-359-387.
9. Сафаев С.С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. – Т., 2005. – 47-б
10. Корзенко Г.В., Зенченко В.А., Криворот А.А., Ефимович Е.В. Международные отношения и внешняя политика государств. – Минск: БГПУ, 2013. – С. 19.

UDK: 9:33

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTON SHAHARLARIDA IQTISODIY JARAYONLAR

D.O.Xaydarov

Samarqand Davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada, suveren rivojlanish yillarida O‘zbekiston shaharlari iqtisodiyotidagi transformasiya yo‘nalishlari tahlil etilgan. Mamlakat rahbariyatining jahon standartlari talablariga javob bera oladigan import o‘rnini bosuvchi, zamонавиъ ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish borasidagi siyosati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: mineral resurslar, shaharlar iqtisodiyoti, sanoat, iste’mol mollar, o‘zbek modeli, rivojlanish, ishlab chiqarish.

Экономические процессы в городах Узбекистана в конце XX – начале XXI веков

Аннотация. В статье анализируются основные тенденции экономической трансформации городов Узбекистана в годы суверенного развития. Прослеживается политика руководства по налаживанию импортозамещающего, современного производства, отвечающего мировым стандартам.

Ключевые слова: минеральные ресурсы, экономика городов, промышленность, потребительские товары, узбекская модель, развитие, производство.

Economic processes in Uzbekistan at the end of XX th century and the beginning of XXI century

Abstract. The article analyzes the main tendencies of the economic transformation of the cities of Uzbekistan during the years of sovereign development. The policy of the leadership on setting up an import-substituting, modern production that meets the world standards is traced.

Keywords: mineral resources, urban economy, industry, consumer goods, Uzbek model, development, production.

O'zbekistonda istiqlolning ilk yillarda boshlangan tub islohotlar mamlakat iqtisodiyoti chuqr tanazzul holatiga tushib, xalq xo'jaligi tizimi izdan chiqqan bir sharoitda boshlangan edi.

O'tgan yigirma besh yil mobaynida sovet rejali iqtisodiy tizimdan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariiga o'tish borasida islohotlar amalga oshirildi va salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirishga qaratilgan sayi-harakatlar, respublikani mineral resurslar ishlab chiqaruvchi, tayyor mahsulotlar sotiladigan bozordan, zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqaradigan mamlakatga aylantirdi. Bu borada ayniqsa respublika shaharlari alohida o'rinn tutdi, ularda yangi sanoat tarmoqlarini vujudga keltirildi, ilg'or texnika va texnologiyalar joriy qilindi, mineral resurslarni qayta ishslash tarmoqlari tizimi yuksaltirildi.

Qiyo slash uchun qaralganda mustaqillik arafasiga kelib mineral xomashyo va paxtaning bir necha turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O'zbekiston iqtisodiyoti ishlab chiqarish uskunalariga, texnologiya, xomashyo va materiallarning ko'pgina turlari, oziq-ovqat mollari – don, shakar (qand) yog', xalq iste'mol mollariga, shu jumladan, joylarda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lган xalq iste'mol mollariga nisbatan ehtiyojlari respublika tashqarisidan keltirish hisobiga qanoatlantirilar edi. 1989 yilda chetdan keltirilgan mahsulot ulushi (bunga importni ham qo'shgan holda) umuman, respublikada iste'mol qilish hajmida 23,6% ni tashkil qilgan, ko'p tovarlar bo'yicha esa ancha yuqori bo'lgan. O'zbekiston ular bilan savdo qilishda doimiy defisitga ega bo'lgan (Estoniya, Tojikiston va Moldovadan tashqari), O'zbekistondan chetga mol chiqarishning 84%ga yaqini va chetdan mol olishning 85,1% sobiq Ittifoqning boshqa respublikalariga to'g'ri kelgan. O'zbekiston sobiq Ittifoq tashqarisidagi mamlakatlar bilan savdo qilishda ham manfiy savdoga ega bo'lgan. Uning bu mamlakatlarga eksportining 9/10 qismi arzon xomashyoviy mollarga va ularning boshlang'ich qayta ishlanishiga oid mahsulotlarga (shu jumladan, 80% dan ortig'i paxta tolasiga) to'g'ri kelgan, importda esa qayta ishlov beriladigan tarmoqlarga, ayniqsa, mashinasozlikka oid qimmatroq mahsulot asosiy o'rinni egallagan. Bundan tashqari, o'zbek mollaridan olinadigan asosiy daromad Ittifoq byudjetiga borib tushgan[1].

Bu holat respublika shaharlari iqtisodiyoti holatida ham yaqqol o'z ifodasini topgan edi. Jumladan, yillar davomida bir tamonlama rivojlanish natijasida respublika zavod va fabrikalarida ishlab chiqarilgan tayyor xalq iste'mol mollari salmog'i umumiy mahsulot hajmiga nisbatan juda oz bo'lib, aholi talabini mutlaqo qondirmas edi. Aholi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, xalq iste'moli mollari asosan Ittifoqning boshqa respublikalaridan keltirilar edi. Masalan, 1980-yillarda Andijon shahri aholisining ularga bo'lgan ehtiyojlarining faqat 15% viloyat imkoniyatlari evaziga, O'zbekistonning boshqa viloyatlari imkoniyatlari hisobiga esa faqat 25% qondirilar edi. Qolgan 60% esa Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Boltiqbo'y va boshqa respublikalar hisobiga qondirilar edi[2].

Bunday sharoitda O'zbekiston hukumati jahon tajribasini o'rgangan holda, ayni vaqtida xalqaro moliya institutlarining iqtisodiy siyosatdagi barchaga yagona standart "vashington konsensusi" [3] prinsiplari asosiga qurilgan "universal" tavsiyalarini tanqidiy ravishda ko'rib chiqib, undan farqlanadigan mutlaqo boshqa yo'lni – iqtisodiyotni evolyusion tarzda tub o'zgartirish yo'lini tanladi. Ushbu yo'l 1990-yillar o'rtilariga kelib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning – "o'zbek modeli" deb nom oldi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda mustaqil O'zbekistonda birinchi galda hal etishi zarur bo'lgan vazifalar va islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish – bozorning ko'p bo'g'inli infratuzilmasini yaratishni hamda iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikasiya qilinishini talab qilardi. O'tish davrida bozor mexanizmlarini to'liq ishslashiga qaratilgan muayyan infratuzilmani yaratish va yangi iqtisodiyot tarmoqlarini shakllantirish, dastlab respublika shaharlarida, bir necha bosqichlarda amalga oshirildi.

Belgilangan vazifalarni bozor infratuzilmasini shakllantirmsandan turib amalga oshirib bo'lmas edi. Shu maqsadda shaharlarda tovar va xomashyo bozorida xizmat qiluvchi – tovarlar va xomashyo birjalari, biznes-inkubator, auditorlik va konsalting firmalari, savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik

idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari avval poytaxtda, so'ngra viloyat markazlarida tashkil etildi. Masalan, mahsulot yetkazib berishga majburiy davlat buyurtmasining tugatilishi tovar resurslarini markazlashgan tartibda taqsimlashga mutasaddi ta'minot tashkilotlarining ham yakun topishiga sabab bo'ldi. Ularning o'rniga tovarlar bozorini shakllantiruvchi birjalar tizimi tashkil etildi. Jumladan, Toshkent shahrida 1991 yilning avgustidan «O'zbekiston» respublika universal agrosanoat birjasi, «O'zulgurjibirjasavdo» (1994 yil mart), «Toshkent» Respublika tovar-xom ashyo birjasi (1994 yil 8 aprel) va boshqa birjalar faoliyatini boshladi.

Milliy iqtisodiyotning shakllanishida oltin va uranni qazib olish sohalariga, shu jumladan resurs shaharlari sanoatini rivojlanirishga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Qazilma boyliklari jahon bozorining shakllangan qulay kon'yunkturasi va mamlakat hukumatining, korxonalarning dinamik tarzdagi rivojlanishini ta'minlagan, ularning qazib olinishi va boshlang'ich ishllov berilishiga ixtisoslashgan ishlab chiqarish quvvatlarini o'stirishdagi manfaatdorligi buning muhim omili bo'ldi. Jumladan, Zarafshon shahrida 1993 yilda tashkil etilgan oltin qazib olish bo'yicha O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi 1995 yilning may oyidan mahsulot ishlab chiqara boshladi[4]. Qazib olish sanoatining inqiroziy holatdan chiqishi va rivojlanishi respublikaning resurs shaharlarini "yashab qolishi" va taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir qildi.

Mustaqillikning ilk yillarda, ayniqsa shahar aholisini non bilan barqaror ta'minlash maqsadida non sanoati, non turlarini ko'paytirish yo'nalishlarida muhim ishlar amalga oshirildi. Daha va guzarlarda kichik non korxonalar ishga tushirildi. 1995 yilda "O'zdonmahsulot" tarkibida 4 ta non ishlab chiqarish birlashmasi (Toshkent, Yangiyo'l, Farg'on, Qarshi), 21 non zavodi ishladi. Bu korxonalarda bir sutkada 1300 t dan ko'proq non mahsulotlari ishlab chiqarila boshladi[5].

O'zbekistonda yengil sanoat taraqqiyotiga katta e'tibor qaratildi. Nukus, Ellikqal'a, Samarqand va Namanganda yirik to'qimachilik majmualari foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, respublikaning qator shaharlarida «Kabul-O'zbekKo» (paxta tolasini qayta ishslash), «O'zSamsung Elektroniks» (maishiy elektron apparatura), «Nestle O'zbekiston» (oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar), «Oltin Deri», «Shark-teks», «Supertekstil» to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi qo'shma korxonalar ishga tushirildi[6].

Shaharlar taraqqiyotida ularni bog'lab turuvchi yo'1 qurilishining rivoji muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, Navoiy-Uchquduq-Sultonuzdog'-Nukus va G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on kabi shaharlarni bir biri bilan bog'lovchi yangi temir yo'1 liniyalari qurildi. Toshkent-Andijon avtomobil yo'lining Qamchiq dovonidan o'tadigan qismi rekonstruksiya qilindi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib Asaka shahrida avtomobil zavodi ishga tushirildi. Avtozavodning qurilishi natijasida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida multiplikasion effekti kuzatildi, ya'ni respublikaning qator shaharlarida butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi qator korxonalar faoliyat ko'rsata boshladi. Binobarin, 1998 yildan Samarqand shahrida «SamKochavto» avtobuslar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi.

1990 yillar boshlarida asos solingan strukturaviy-diversifikacion o'zgarishlar ilgari ishlab chiqarilmagan mahsulotlar (avtomobillar, televizorlar, boshqa elektron texnika vositalari)ning ishlab chiqarilishini ta'minladi.

Mamlakat iqtisodiyotida diversifikacion jarayonlarni chuqurlashishida «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida», «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy-industrial hududni tashkil etish to'g'risida», «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», «Angren maxsus industrial hududini tashkil etish to'g'risida»gi farmonlari va bir qancha qarorlar alohida ahamiyat kasb etdi.

Iqtisodning real sektorni kuchaytirishga qaratilgan yana bir muhim qadamlardan biri bu – O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoni bilan 2006 yilda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etilishi bo'ldi. Jamg'armaning asosiy vazifasi qilib iqtisodiyotning yetakchi, tarmoqlarini modernizasiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bilan bog'liq loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib

ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investisiyaviy siyosatni amalga oshirish deb belgilandi.

Shuningdek, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini oldini olish maqsadida 2009-2012 yillarga mo'ljallangan «Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi» ning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi o'z natijasini berdi.

So'nggi o'n yillikda shahar sanoatida yangi tarmoqlar – sellyuloza-qog'oz, elekrotexnika, qurilish mollari sanoatlari va b. paydo bo'ldi va rivojlandi, import o'rnini bosuvchi sanoat mahsulotlarning 4000 dan ortiq yangi turlarining ishlab chiqarilishi o'zlashtirildi[7]. Iqtisodiyotni strukturaviy jihatdan qayta qurish va eksportni diversifikasiyalash bo'yicha o'tkazilayotgan siyosatning yorqin natijasi sifatida, unga jahon peshqadamlari ishlab chiqarishining zamонавиу texnologiyalari tatbiq etilgan, amaliy jihatdan yangi yuqori texnologik tarmoq – rivojlangan infrastrukturaga ega bo'lgan avtomobilsozlik va milliy avtoindustriya bir-biriga yaqin bo'lgan tarmoqlari birgalikda rivojlandi. Lokalizasiya doiralarida respublika korxonalarida akkumulyatorlar, shishalar, motorlar, emal, ichki pardozlash detallari, salonning plastmass jihozlari va boshqalarning ishlab chiqarilishi o'zlashtirilgan edi.

Yuqori qo'shimcha qiymat bilan yuksak texnologiyali mahsulotni ishlab chiqarish yuzasidan investision loyihalarni amalga oshirish bo'yicha O'zbekistonning asosiy sheriklari sifatida bugungi kunda eng yirik va dunyoga mashhur bo'lgan AQSh kompaniyalari ("Jeneral Motors," "Teksako"), Germaniya kompaniyalari ("MAN", "Daymler Bens", "Klaas"), Buyuk Britaniya kompaniyasi ("BAT"), Ispaniya kompaniyasi ("Maksam"), Yaponiya kompaniyalari ("Isuzu", "Itochu"), Malayziya kompaniyasi ("Petronas"), Janubiy Koreya kompaniyalari ("Korean Eyr", "CNOC", "LG"), Xitoy kompaniyasi ("CNPC"), Rossiya kompaniyalari ("Lukoyl", "Gazprom") va boshqalar hamda Osiyo taraqqiyot banki, Butunjahon banki, Islom taraqqiyot banki, Janubiy Koreya, Yaponiya, XXR, qator arab davlatlari kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan korxonalaridagi mamlakatning deyarli barcha yirik shaharlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Agrar islohotlar natijasida O'zbekistonning nafaqat qishloq xo'jaligidagi, balki agrosanoat kompleksida ham jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va strukturaviy o'zgarishlar ro'y berdi. Iste'mol mahsulotlar ishlab chiqarishga ixisoslashgan ushbu kompleks korxonalarining aksariyati kichik va o'rta shaharlarda joylashganligini ham alohida ta'kidlash zarur. Ular O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda ham alohida o'rinn tutadi. Masalan, agarda XXI asr boshlarigacha oziq-ovqat va maishiy mahsulotlarga bo'lgan asosiy ehtiyoj anchagina darajada import hisobiga qoplangan bo'lsa, bugungi kunga kelib esa oziq-ovqat sanoati va maishiy kimyonlari ishlab chiqarayotgan korxonalar mollarning juda katta tanlanishini taklif qiladilar. Ularning ishlab chiqarilishi O'zbekiston hududida amalga oshirilayotgan "Sosa-Sola" va "Nestle" kabi brendlari bilan bir qatorda, ular mahsuloti sifati, marketing siyosati, servis darajasi va distribuyusiyasi jahon ishlab chiqaruvchilaridan qolishmaydigan mamlakatning "Hydrolife", "InterSok", "JMP international", "AgroMirFoo", "Muza", "Momiq", "Tog' suti" va boshqa shu kabi kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda[8].

Iqtisodiyotdagi ijobiy tendensiyalarni va chuqur strukturaviy siljishlarni ta'kidlagan holda (1991 – 2015 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi deyarli 4 marta oshdi va 2004–2015 yillar uchun sanoatning yillik o'rtacha o'sish sur'atlari, YaIM ning o'sish sur'atlarini orqada qoldirib keldi; 2000–2015 yillarda YaIM dagi sanoat ulushi 14,2% dan 33,5% gacha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni – 31% dan 56,4% gacha o'sdi), eksport strukturasi diversifikasiyasini tezlashtirish masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Masalan, 1990 – 2015 yillarda O'zbekistondan chet elga eksport qilinadigan mahsulot hajmi deyarli 40 marta oshdi, bunda keyingi 15 yil davomida, oltin-valyuta zaxiralari o'sishini va milliy valyutaning bardoshliligini ta'minlagan savdo balansining musbat saldosini barqaror edi. Eksport tovar strukturasining diversifikasiyasini, ko'rsatilgan davr uchun uning ulushi 59,7% dan 8% dan kam bo'lgan miqdorgacha kamaygan mamlakatning monokultura – paxta tolasi eksportiga bog'liqligini tugatdi. Mamlakat tashqi savdo strukturasi xuddi shunday o'zgarishlarga uchradi. Agarda 1990-yillar boshlarida u faqat MDH mamlakatlari bilan amalga oshirilgan bo'lsa, 2014 yil boshida esa, tashqi savdoning 40% dan ko'prog'i Osiyo mamlakatlari, tashqi savdo aylanishining 15% – Yevropa mamlakatlari bilan amalga oshirildi.

Agar mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investisiyalarini jalb qilish borasida birgina 2015 yilda bajarilgan ishlarni ko'radigan bo'lsak, shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish

manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investisiyalar jalb etilganini va o'zlashtirilganini ko'rish mumkin. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 % ko'p demakdir. Jami investisiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 %dan ortig'i xorijiy investisiyalar bo'lib, shuning 73 % to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalar hisoblanadi. Muhimi shundaki, investisiyalarning deyarli 70 % yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi[9].

O'zbekiston iqtisodiyotini, xususan shaharlar ishlab chiqarish kompleksini tubdan qayta qurish borasida oxirgi 25 yil davomida qo'lga kiritilgan yutuqlar va erishilgan natijalarni tanqidiy baholab, aytish mumkinki, mamlakat xalq xo'jaligi globalashuv ta'sirida dinamik tarzda kechayotgan o'zgarishlarga doim tayyor turishi, ayrim sohalarda ilg'or davlatlar safidan o'rinni olishga intilishi lozim. Ayniqsa eksport tarkibini kengaytirish va import o'rnnini bosuvchi maxsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirishga yanada jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rzasida alohida to'xtalib o'tdi. Jumladan, Bizning mahsuloti eksport qilinadigan mamlakatlar soni 2016 yilda 2010 yilga nisbatan 176 tadan 138 taga kamaygan[10], ya'ni 21,4 %ga kamayganini ta'kidlash mumkin. Eksport qilinayotgan mamlakatlarning soni qisqarishi ko'proq subyektiv omilga nisbatan obyektiv omillar ta'siri, ya'ni 2008 yilda boshlangan va davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan bog'liqdir. Aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotida kuzatilayotgan resessiya ularning eksport-import salohiyatiga salbiy ta'sir qildi.

Bevosita subyektiv omilga to'xataladigan bo'lsak, respublika iqtisodiyotida kechayotgan ayrim negativ jarayonlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev baho berib, "birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda. Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda. Va nihoyat, uchinchi asosiy kamchilik – ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari, har bir korxonadagi, shahar va tumanlardagi, ayniqsa, qishloq joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq" [10], deb alohida ta'kidlab o'tdi.

Shunga qarmasdan, ta'kidlash joizki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investisiyalarning o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi, tashqi inqirozlar ta'sirini minimallashtirish imkoniyatiga nisbatan xorijiy investorlarning ishonchi yuqoriligidan dalolat beradi. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy oldi.

Shunday qilib, shaharlar iqtisodiyotining asosi hisoblangan ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida bir qator korxonalar ilmiy texnika taraqqiyotining yangi yutuqlari asosida qayta jihozlantirildi, zamonaivy texnologiyalar joriy etildi, yangi korxonalar qurib ishga tushirildi. Ayniqsa, respublikaning aholi zich joylashgan hududlaridagi o'rtta va kichik shaharlarida yangi korxonalarini barpo etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yangi korxonalarini qurib ishga tushirilishi, mavjud korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash natijasida xalqimiz uchun ko'plab yangi iste'mol mollari ishlab chiqarish, ularning sifati va raqobatbordoshligini oshirish imkonini berdi.

Adabiyotlar

1. Raximov M., Raxmatullayev Sh., Tursunova R., Nazarov R. Ocherki noveyshey istorii Uzbekistana. 2-ye izdaniye. T., 2016. S. 138.
2. Raxmatullayev Sh.M. Farg'ona vodiysi shaharlarida iqtisodiy transformasiya jarayonlari. T., 2017. 57-bet.
3. "Vashington konsensusi" ostida moliyaviy va iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun mo'ljallangan tavsiyalar majmui ko'zda tutiladi. Bu qoidalarga so'zsiz amal qilinishi bu mafkuraning maddohlari da'volari bo'yicha, davlat iqtisodiyotining operativ tarzda barqarorlashtirilishi bilan taqdirlanadi. "Vashington konsensusi" iborasini 1989 yilda keng muomalaga

kiritgan amerikalik olim – Vashingtondag'i xalqaro iqtisodiyot Institut'i iqtisodchisi – Jon Uilyams harakatga keltirdi. U o'z doktrinasini makroiqtisodiy barqarorlashtirish, mikroiqtisodiy liberallashtirish, xorijiy investisiyalar uchun ichki bozorni ochish, kapitalning erkin ko'chib yurishi va h.k.larga asosladi. (Manba: Chto takoye Washingtonskiy konsensus? // <http://www.luxurynet.ru/world-market/5718.html>).

4. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., 1998. 45-bet.
5. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., 1998. 85-bet.
6. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T., 2013. B. 278.
7. Ekonomika Uzbekistana. 25 let. Istoriya stanovleniya // Ekonomicheskoye obozreniye. 2016. № 7. S. 21.
8. Rixmayer N. Magazinnyye polki i batalony mestnoy produksii // <http://www.reviyew.uz/page/article/konyuktura/2783>
9. <https://www.gov.uz/uz/news/viyew/4238>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhum ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rufasi. (2017 yil, 14 yanvar).

UDK: 9(575.1)

O'ZBEKİSTONDA MADANIY MEROS OBYEKTALARINI SAQLASH, TA'MIRLASH VA QAYTA TIKLASH ISHLARI TARIXIDAN

R.B.Abriyev

Samarqand davlat universiteti

Annataсиya. Ushbu maqolada O'zbekistonda madaniy-merosiy obyektlarni muhofaza qilish, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari shakllanishi va faoliyati tarixi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: arxitektura yodgorliklari, tiklash, rekonstruksiya qilish, saqlash, saqlab qolish, usul.

Из истории работ по сохранению реставрации и консервации культурного наследия Узбекистана

Аннотация. В статье на основе анализа основных этапов эволюции современных методов реставрации и сохранения архитектурных памятников Узбекистана выявлены, как достижения, так и проблемы в данной сфере.

Ключевые слова: памятники архитектуры, реставрация, реконструкция, консервация, сохранение, метод.

History of preservation and restoration of cultural heritage in Uzbekistan

Abstract. This article describes the history of the establishment and operation of cultural and historical sites in Uzbekistan.

Keywords: architecture monuments, restoration, reconstruction, preservation, conservation, method.

O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'troq jamoalar madaniyati bronza davri taraqqiyotining so'nggi bosqichlarida davlatchilik shakllarining yuzaga kelishiga imkon yaratgan. Ta'kidlash joizki, davlatchilikning tarixiy rivojlanishi urbanistik xarakterga ega bo'lib, qadimgi davlatchilikning tadrijiy rivojlanish jarayoni shaharlar va shahar madaniyatining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq tarzda kechgan[1.272]. Bunda me'morchilik alohida o'rin tutgan. Qadimda Markaziy Osiyoning diniy va madaniy-ma'rifiy o'chog'i hisoblangan O'zbekiston boy me'moriy merosni namoyon etgan eng yirik shaharlari bilan boshqa hududlardan ajralib turgan.

Har qanday davlatning taraqqiyoti undagi shaharlар taraqqiyoti bilan uzviy boglikdir. Yirik urbanistik markazlarni ajratib turuvchi jihat – monumental arxitektura inshootlarining ko'plab qurilishi nafaqat yangilarining buniyod etilishi bilan, balki mavjudlarini saqlay bilishi va foydalanish uchun

tayyorligi bilan ham bog'liq. Demak, me'moriy ta'mirchilik ilmi va amaliyoti yurtimizda azaldan rivojlanib kelgan. Ammo bu ish har doim ham davlat e'tiborida bo'limgan.

O'zbekistonda mavjud me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va qayta tiklash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi o'rta asrlardan boshlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davriga kelib ta'mirlash, obodonlashtirish hamda yangidan qurish amaliyoti rivojlandi. Chashmai Ayyub maqbarasi bu davrda yirik inshootlarni ta'mirlash amaliyotining namunasi sifatida alohida o'rinni tutadi.

XII asr boshlarida Ayyub nomi bilan Buxoroning g'arbiy qismida qurilgan maqbara Sohibqiron nazariga tushadi. 1379-yilda Amir Temur Xorazmni markaziy hokimiyatga bo'ysundirganidan keyin Urganchdan mohir ustalarini Samarqand, Buxoroga taklif etib, ularga turli imoratlar qurishni buyuradi. Jumladan, Chashmai Ayyub ham ta'mirlanib, uning ustki qismiga katta gumbaz quriladi. Kvadrat tarxdagi qabr devorida uning Amir Temur farmoyishi bilan 1379-yilda qurilgani haqida yozuv ham bor[2.24].

Amir Temur va Temuriylar zamonida ta'mirotiga katta e'tibor berilgan inshootlardan biri Namozgoh masjidi hisoblanadi. U 1119-1120-yillarda Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon davrida shahar qal'asidan tashqaridagi Shamsobod degan mavzeda barpo etilgan bo'lib, bu joy haqida mashhur muarrix Muhammad Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» kitobida ma'lumot beradi. Qurilgandan keyin masjid bir necha marta ta'mirlangan bo'lib, yangilanish ishlarning asosiy qismi Sohibqiron hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Amir Temur Buxoroi Sharifdagi boshqa muqaddas joylar qatorida Namozgohni ham ta'mirlash va obodonlashtirish chora-tadbirlarini ko'rgan. Ta'mir jarayonida 1119-1120-yillarda qurilgan dastlabki devorning qoldiqlari mehrobli devorga mahorat bilan ulab yuborilgan. Natijada inshoot mustahkam ayvon kompozisiyasiga ega bo'lib, markazida peshtoq va gumbazli bino bo'lgan uchta ustunli galereyaning yuziga qaragan qiyofa olgan [2.25].

Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davrida nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo o'zining navbatdagi iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yuksalish pallasiga kirgan. Ayniqsa, Zarafshon vohasi asrlar davomida rivojlanib kelayotgan me'morchilik an'analarini davom ettirib, Temuriylar davlatining markaziy madaniy o'choqlaridan biriga aylangan. Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davrini me'moriy obidalarni muhofaza qilish hamda qurilish-ta'mirlash ishlari ilk bor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan davr sifatida e'tirof etish mumkin.

XVI asrdan boshlab to XIX asr o'rtalarigacha asosiy me'moriy-qurilish, bunyodkorlik ishlari Buxoro, Samarqand, Karmana, Toshkent kabi katta shaharlar miqyosida amalga oshirildi. Hukmdor saroylari, diniy va fuqarolik inshootlari, bozorlar va boshqa inshootlar yanada rivojlantirildi. XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyoda qurilib, hozirgacha saqlanib qolgan me'moriy majmular butun dunyoga tanildi. Bular Samarqanddagagi Registon maydoni majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon joylashgan Kalon maydoni va Labi hovuz majmuasi, Abdulazizzon madrasasi va boshqalar.

O'rta Osiyo hududining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixiy-me'moriy obidalarga bo'lgan munosabatda, ularni saqlash, ta'mirlash va konservasiyalash jarayonida yangi bosqich hisoblanadi. Albatta, chor Rossiyasi hukumati, avvalambor, o'zining iqtisodiy va siyosiy manfaatlari yuzasidan ushbu hududga nisbatan siyosat olib borganligini ta'kidlab o'tish kerak. O'rta Osiyoning tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasi bilan bir qatorda, me'moriy obidalarni ilmiy asosda o'rganish jarayonining ilk davri ham shu davrdan boshlanadi.

Ta'kidlash joizki, bu davrda mahalliy obidalarni ta'mirlash va saqlash ishlariga ularni ilmiy jihatdan o'rganishga qaraganda ancha kam e'tibor qaratilgan. Qolaversa, mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, XVIII asr hamda XIX asr boshida barpo etilgan obidalardan avvalroq qurilgan me'moriy obidalar, jumladan, Samarqanddagagi bino va inshootlar o'ta ayanchli holatga tushib qolgan edi [2.15].

Bu davrga kelib ayrim tarixiy obidalarda ta'mirlash ishlari onda-sonda va oqlash-bo'yash (pardoqlash)dangina iborat bo'lganligi, bu ishlarga, asosan, mahalliy ustalar jalb etilganligi haqida ma'lumotlar bor. Masalan, Shohizinda arxitektura majmuasida 2004-yilda keng miqyosda olib borilgan ta'mirlash ishlari jarayonida ushbu majmua tarkibiga kiruvchi ayrim maqbaralarda XIX asr oxirlarida olib borilgan ta'mirlash ishlarning qoldiqlari topildi. Jumladan, usta Ali Nasafiy maqbarasining tashqi devor va derazalari sifatsiz ta'mirlash natijasida yevropacha shakldagi g'ishtlar bilan to'ldirilgan, interyerlardagi pol ko'tarilgan. Bino bezagidagi barcha o'yilmalar ganch qorishmasi bilan tekislangan [3.16-17]. Burunduq maqbarasining XXI asr boshidagi qiyofasi avvalgi asrlarda kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar tufayli deyarli o'zgarib ketganligi aniqlanadi. XIX asrning 70-yillarida olib borilgan

ta'mirlash ishlari natijasida peshtoqning janubiy gul ustuni o'rniga kontrofors (g'isht tirkovuch) bilan mustahkamlangan, sakkiz qirrali deraza va janubiy devordagi eshik o'rni urib tashlangan, shuningdek ichkaridagi pol eski holatidan balandroq ko'tarilgan[3.13].

Mutaxassislar tili bilan aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshida (avval davlat, keyinchalik turli jamiyatlar mablag'lari hisobidan) amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari obidalar buzilishini oldini ololmagan. Bunda vaqt, zilzila va hatto odamlarning ham ta'siri sezilarli bo'lgan. Hatto, o'sha davr hukumati harbiy-strategik «mulohazalar»dan kelib chiqib, ayrim binolarni buzib tashlagan ham. Masalan, 1883-yilda Samarcand qal'asini rekonstruksiya qilish maqsadida Qutbi Chaxar duxum yodgorligi portlatilgan[4.15]. Yoki Amir Temur tomonidan so'fiylar shayxi Nur ad-Din Basiraga atab qurdirilgan va ko'lami jihatidan Go'r Amirdan qolishmaydigan maqbara ham XIX asr oxirida ushbu «amaliyot» qurban ni bo'lgan. Shayxning jasadi esa Hazrat Xizr masjidi yonidagi qabristonga ko'chirilgan[5.13]. O'sha vaqtida ushbu jarayonni to'xtatib qoladigan, nazorat qiladigan maxsus davlat organi ham tashkil etilmagan edi.

Saqlanib qolgan noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish ishlari XX asr boshiga kelibgina davlat ixtiyoriga olindi. Ushbu obyektlar 1920-yildan boshlab tashkil qilina boshlagan yodgorliklarni muhofaza qiluvchi maxsus davlat organi tasarrufiga o'tkazila boshladi. Ushbu organ vazifasini dastlab Turkiston Respublikasining Arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarmasi qoshida tashkil qilinib, 1920-yil 30-yanvardan o'z faoliyatini boshlagan tarix va san'at yodgorliklарini muhofaza qiluvchi maxsus qo'mita vaqtincha bajargan edi. Turkrespublika rahbariyatining 1921-yil 23-maydagi maxsus Dekreti asosida Qo'mita mustaqil davlat organiga –muzeylar va yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasi (Turkomstaris)ga aylantirilgan[6.68].

Sobiq Sovet hokimiyatining ma'muriy-hududiy masalada olib borgan siyosati ushbu qo'mitaning tashkiliy va tuzilmaviy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada O'rtta Osiyo respublikalarining milliy chegaralanishidan keyin 1925-yildan boshlab ushbu tashkilot Turkomstaris yodgorliklar va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'rtta Osiyo qo'mitasi (Sredazkomstaris) nomini oldi. Qo'mita yangi tuzilgan O'rtta Osiyo respublikalari va Qozog'istonda joylashgan yodgorliklarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish va qayta ta'mirlash ishlari mas'ul bo'ldi. 1929-yildan esa O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining № 501-sonli Qarori bilan Sredazkomstaris o'rniga Qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston qo'mitasi sifatida qayta tuzildi (va Uzkomstarisga aylantirildi)[7.3].

Faoliyatining dastlabki davrida ushbu tashkilotning vazifalari doirasi keng bo'lmay, mamlakatimiz miqyosida arxeologik yodgorliklarni hisobga olishdan iborat bo'lgan. O'sha davrda mamlakat iqtisodiy ahvoli og'irligi hamda restavrasiya ishlari doir qoidalar (normalar) tayyor emasligi tufayli yodgorliklarni muhofaza qilish organlari me'moriy yodgorliklar butunlay vayron bo'lishini oldini olishga qaratilgan zarur ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bilan cheklangan. Bu davrda yodgorliklarning restavrasiyasi va konservasiyasi bilan bog'liq ishlab chiqarishning ilmiy asosini yaratish haqidagi masala endigina ko'tarila boshlagan edi.

Shunday bo'lsa-da, o'sha murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharotlarda yodgorliklarni restavrasiya va konservasiya qilish bo'yicha ilmiy metodikaning nazariy poydevori yaratildi. Bu nazariyalar mutaxassislarining ko'p yillik kuzatishlari va amaliy tajribalari asosida o'sha vaqtida e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z ifodasini topdi[8;9]. Umuman, madaniy yodgorliklarni tadqiq etishning me'moriy-arxeologik metodiga oid asosiy konsepsiylar 1920-yillar oxiriga kelib shakllandi va 1928-yilda chop etilgan «Restavrasiya masalalari» nomli ilmiy maqolalar to'plamida e'lon qilindi[7.3].

Ta'kidlash joizki, o'sha vaqtarda me'moriy obidalarni muhofaza qilish va ta'mirlash ishlarining ommaviy asosda yo'lda qo'yilishiga kommunistik partiyaning «umumi tenglik»ka erishishni maqsad qilib olgan siyosati to'sqinlik qilardi. Sosialistik o'zgarishlarni nazarda tutgan «revolyusion ruh» – yangi va eski shahar o'rtasidagi tafovutni yo'q qilish hamda ularni tenglashtirishga, shuningdek, din va qadriyatlarga qarshi qaratilgan g'oyalarning, ayniqsa, sovet hokimiyatining hukmronligi dastlabki o'n yilliklarida ko'plab qadimiy shaharsozlik namunalari buzilishiga olib keldi. Ushbu radikal g'oyalalar Toshkent, Samarcand, Buxoro, Shahrisabz va O'zbekistonning boshqa tarixiy shaharlariga o'nglab bo'lmas zarar yetkazdi[10.35].

Jumladan, Buxoro shaharidagi ko'plab tarixiy yodgorliklar shaharning kengayishi va «obodonlashtirilishi» oqibatida yo'q qilindi. Xususan, 1939 yilda Buxoro shahrining rekonstruksiya qilinishi va transport vositalari ko'payishi natijasida Buxoro shahar kengashi o'ziga berilgan vakolatdan foydalanib 6 ta qadimiy shahar darvozasini devorlari bilan birga buzib tashladi[11].

Yuqorida qayd etilgan ayanchli holatlarga qaramasdan, tarixiy obidalar borasida asta-sekin ilmiy restavrasiya va amaliyot tajribasi ortib bordi va buning natijasida me'moriy yodgorliklarni saqlash bilan bog'liq bir qator murakkab muhandislik-konstruktiv va me'moriy masalalarni hal qilish imkonii tug'ildi. Bu davrga kelib respublikamizda soha mutaxassislarining yangi iqtidorli avlodni shakllana boshladи. Ular dastlabki ilmiy ekspedisiyalarni tashkil etib, ko'plab tarixiy-madaniy, arxeologik va arxitektura yodgorliklarini aniqlab, davlat hisobiga ola boshladilar. Hisobga olish va qayd etish hujjatlarini tuzish va tizimlashtirish ham aynan 1920-1930-yillardan boshlandi. Bundan tashqari, O'zbekistonning turli tumanlarida joylashgan me'moriy obidalarni restavrasiya va konservasiya qilishning dastlabki ilmiy asoslangan loyihamarini ishlab chiqish ham shu davrga to'g'ri keldi. Masalan, ayni shu murakkab davrda Samarqand shahri yodgorliklari bo'yicha mas'ul V. L. Vyatkin, muhandislar M. F. Mauer va B. N. Kastalskiy ishtirokida shimoli-sharqiy minora Shuxov loyihasi asosida, janubi-sharqiy minora esa I. M. Gendel loyihasi asosida ta'mirlandi. Samarqanddagagi Ulug'bek madrasasining og'ib ketgan minorasini to'g'rilash ishlari olib borilib, ijobjiy yutuqlarga erishildi [6.67;12.14].

Me'moriy yodgorliklarni muhandislik usullari yordamida, zamonaviy asbob-uskunalarini qo'llagan holda, zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanib ta'mirlash ham o'sha davr yodgorliklarini saqlashda muhim omil bo'lganligini qayd etish lozim.

Bu jarayonda 1937-yildan Samarqand shahrida o'z faoliyatini boshlagan qadimgi qurilish usullarini o'rgatishga ixtisoslashgan maktab-ustaxonaning o'rni katta bo'ldi. Buxorolik me'mor, mohir ganchkor usta Shirin Murodov o'z davrining yetuk arxitektori hisoblangan B. N. Zasipkin bilan hamkorlikda ushbu maktab uchun qadimgi qurilish texnikasi va geometrik naqsh usullari sirlarini o'rgatuvchi o'quv qo'llanmasini tayyorlab berdilar. Qo'lyozmaga 238 sahifadan iborat chizmalar ham ilova qilindi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida usta Usmon Umarov, usta Shamsiddin G'afforov, usta Abdulla Boltayev, Nasim G'ofurov, usta Muhiddin Rahimov kabi mashhur usta-restavratorlar ham faol ishtirok etishdi. Ko'p o'tmay, Ibrohim Shermuhamedov, Abdug'affor Haqqulov, Anvar Quliyev, Mirumar Azizov, Toshmuqum Qurbonov singari maktab bitiruvchilari yetuk usta-restavratorlar darajasiga yetdilar [7.3].

Ikkinci jahon urushi yillariga kelib O'zbekistonda faoliyat olib borgan me'moriy yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat organi uchun tashkiliy va tuzilmaviy o'zgarishlarning yangi bosqichi boshlandi. 1943 yilda Uzkomstaris tashkiloti bekor qilinib, O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida Me'morchilik ishlari bo'yicha boshqarma tuzildi, boshqarma qoshida esa Me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'limi faoliyat ko'rsata boshladи. Keyingi amaliyot dalolat berishicha, ushbu tarkibiy o'zgarish ko'plab tarixiy yodgorliklar yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Buning boisi shundaki, arxitektura ishlari qo'mitasi o'zining asosiy faoliyat yo'nalishidan kelib chiqqan holda mamlakat shahar va qishloqlarida, asosan, uy-joy va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarni qurish ishlariiga e'tibor qaratdi. O'tgan asning 50-60-yillarida qo'mitaning markazdagi rahbar tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan bosh loyihalarda tarixiy shaharlarda ham yangi binolar qurilishi nazarda tutilgan, ammo ushbu amaliyotni aholining an'anaviy yashash manzillarida amalga oshirish ko'zda tutilgan edi[10.36].

Respublikadagi Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda aholi uy-joylari yodgorliklarga yaqin yerlarda joylashganini hisobga olsak, bu amaliyot qadimgi binolarga zarar yetkazishi aniq edi. Xususan, reja bo'yicha olib boril-gan ishlarning keng ko'lama amalga oshirilishi natijasida Samarqanddagagi me'moriy yodgorliklarning yon-atrofi ularning asl qiyofasiga putur yetkazadigan inshootlar – ta'lim muassasalari, madaniyat saroylari, kinoteatrлar yoki ko'p qavatli binolar bilan to'ldirib tashlandi. Buxoroda esa ayni shu davrda shaharning tarixiy devorlari deyarli tashib ketilib, g'isht uchun xomashyo vazifasini bajardi, shahar markazidagi XVI asrda qurilgan Yormuhammad otaliq xonaqosi, Ernazar elchi madrasasi buzib tashlandi.

Ushbu ro'yxatni yana boshqa shu kabi ayanchli hodisalar bilan davom ettirish mumkin. Umuman olganda, agar o'sha davrda davlatning iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari cheklanmagan bo'lganida shaharlarning bosh loyihalarda ko'zda tutilgan ishlar to'liq amalga oshirilib, ko'pgina tarixiy-me'moriy obidalar hozirgi kungacha yetib kelmagan bo'lardi. Boz ustiga, yodgorliklarni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning ham moliyaviy imkoniyatlari, kadrlar bilan ta'minlanish darajasi o'ta ayanchli ahvolga tushib qolgan edi.

Vujudga kelgan vaziyat respublikada madaniy yodgorliklarni saqlash bilan bog'liq tashkilotlar faoliyatida islohot qilishni taqozo etgan. Shu bois respublikamizning bir qator jonkuyar ziyolilari tashabbusi bilan 1957-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 557-soni qarori bilan Moddiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish komiteti tashkil etildi[13]. Komitet qoshida kengash

tuzilib, uning tarkibiga Ya. G'ulomov, M. Masson, T. Qori-Niyoziy, G. Pugachenkova kabi soha mutaxassislari kiritildi. Kengash qisqa vaqt faoliyat olib borishiga qaramay (1957-1961-yillar), uning yordamida O'zbekistonidagi mavjud tarixiy va madaniy yodgorliklarning ko'pchiligidagi ma'lum tarkibiy qismini saqlab qolish, ayrimlarida esa ta'mirlash ishlarni rivojlantirish, ularni ilmiy o'rganish, respublikada restavratorlar maktabi ishini yanada jonlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

1968-yilda respublikamizda madaniy merosni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan ishlar uchun muhim voqyea yuz berdi – «Madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqida» qonun qabul qilindi[7.4]. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu hujjat sobiq Ittifoq darajasidagi ana shunday qonundan 8 yil oldin qabul qilindi.

Davlat muhofazasiga olish, ta'mirlash va konservasiyalash ishlari ko'laming ortib borishi yagona boshqaruvi organi tashkil etilishini taqozo etdi. Shu maqsadda, 1979-yil 24-fevraldan O'zbekistonda madaniy yodgorliklarni muhofaza qiluvchi davlat tizimi – O'zbekiston SSR KP Markaziy komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 149-son Qarori bilan Madaniyat yodgorliklarini muxofaza qilish bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi (GlavnPU) tuzildi. Keyinchalik uning tarkibida loyihalash instituti, ilmiy-restavrasiya ishlab chiqarish tashkilotlari, shu jumladan, me'moriy yodgorliklarni restavrasiya qilish, konservasiyalash, ularning dekorini bo'yicha noyob ishlarni bajarishga ixtisoslashgan restavrasiya ustaxonasi ham tashkil qilindi.

Ammo sobiq Ittifoq davrida qo'lga kiritilgan ijtimoiy yutuqlarga nisbatan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan madaniy merosga bo'lgan g'oyaviy-mafkuraviy yondashuvning zararli ta'siri ko'proq sezildi. Minglab tarixiy obidalar «revolyusion» o'zgarishlar ta'sirida buzib tashlandi, qolganlarining aksariyati esa tahqirlandi, madaniy merosligi inobatga olinmadi, ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish ommalashdi.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, madaniyat yodgorliklariga ham munosabat tubdan o'zgardi. Birinchidan, mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash, tarixiy haqiqat va adolatni tiklash yo'lida cheksiz imkoniyatlar tug'ilди. Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning sovet mafkurasi va uning g'oyaviy qoliplaridan xalos etilishi, oshkoraliq va hurfikrlilik tufayli ilgari soxtalashtirib kelingan tarixni tiklash, uni haqqoniy va xolisona yoritish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Uchinchidan, tarixiy haqiqatni tiklash va uni xalqqa yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi hamda bu borada ulkan ishlarni amalga oshirishga kirishildi.

Adabiyotlar

1. Buyuk va muqaddas mustaqil diyor (O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan albom, o'zb., rus va ingliz tillarida) / R. Abdullayev, U. Abdurasulov, D. Alimova, R. Nazarov, M. Rahimov, Sh. Rahmatullayev. – Toshkent, 2011. – 272-bet.
2. Қосимов Ф.Х. Темурйлар даврида Бухорода маданий ҳаёт // Из истории культурного наследия Бухары. Вып. 7. Бухара: Бухоро, 2001. С.24.
3. ЎМВ ММОМҚФИЙЧБ ЖА. «Уста Али Насафий» макбараси (Шоҳизинда мажмуаси) маданий мерос обьекти кадастр иши. Самарқанд, 2011. 16–17-бетлар.
4. Нильсен В.А. У истоков современного градостроительства Узбекистана... С. 15.
5. Арапов А.Р. Памятники средневековой архитектуры Самарканда как явление современной культуры // Архитектура и строительство Узбекистана. 2005. № 1.С. 13.
6. Шишгин В.А. К истории изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. - Ташкент: Фан, 1969. С. 68.
7. ЎМВ МЁБИИЧБ ЖА. Политика государства по сохранению памятников в Узбекистане. С.3.
8. Миронов А.М. Организационная, научная и практическая деятельность Средазкомстариса (бывш. Туркомстариса) за пятилетие его существования // Известия Среднеазиатского Комитета. Изд. Средазкомстариса. -Ташкент, 1926;
9. Нечкин Д.И. Задачи и ближайшие цели Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы в Средней Азии // Известия Среднеазиатского Комитета. Изд. Средазкомстариса. -Ташкент, 1926
10. Крюков К.С. Организационные формы охраны и реставрации памятников архитектуры Узбекистана (1920–1990 гг.) // Строительство и архитектура Узбекистана. 1990. № 8. С. 35.

11. Сидоренко В. Как охраняли памятники Бухарской старины в недалеком советском прошлом // <http://www.centrasia.ru/newsA.php?st=1296021300>.
12. Массон М.Е. Падающий минарет. Ташкент: Узбекистан, 1968. С. 14.
13. ЎМВ ММОМҚФИЙЧБЖА. Буйруклар йигма жилди.

UDK: 9(575):796

**TURKISTON O'LKASIDA XORIJY SAYYOH
VA TADQIQOTCHILAR FAOLIYATI TARIXIDAN
(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)**

D.B.Rasulova

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi
durdonarasulova@inbox.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz tarixshunosligining O'zbekiston tarixi (XIX – XX asr boshlari) bo'yicha manbaviy asoslari keng yoritilib, ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, fransuz tarixshunosligining rivojlanishi tavsiflanib, uning tarix fanida tutgan o'rni belgilab beriladi. Shu bilan birga, maqolada XIX–XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi fransuz tadqiqotlarining rivojlanish dinamikasi o'rganilib, uning ayrim namoyondalari faoliyati misolida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, tarixshunoslik, manbashunoslik, orientalism, fransuz sharqshunosligi, manbaviy asoslari, tadqiqotlar, tarix, ethnografiya, madaniyat, din, san'at, tashqi aloqlar.

**Из истории деятельности зарубежных путешественников и исследователей
в Туркестанском Крае (Вторая половина XIX – начала XX)**

Аннотация. В данной статье широко раскрываются и научно анализируются источниковедческие основы истории Узбекистана (XIX – начало XX вв.) во французской историографии. А также, описывается развитие французской историографии, трактуется её место и значение в системе исторической науки. Кроме того, в статье изучается динамика пребывание французских исследователей в регионе Центральной Азии в XIX – начале XX веков и анализируется на примере действий некоторых их представителей.

Ключевые слова: Туркестан, историография, источниковедение, ориентализм, французское востоковедение, источниковедческие основы, исследования, история, этнография, культура, религия, искусство, внешние связи.

From the history of foreign travelers and researchers in the Turkestan region (the second half of 19th - beginning of 20th centuries)

Abstract. In the article basic sources of French historiography on the history of Uzbekistan (19 – the beginning of 20-th centuries) are widely revealed and analyzed scientifically. Besides, it describes the formation and development of the French historiography and interprets place and its value in the system of history science. Moreover, in article it has been studied the dynamics of French researchers staying in Central Asia in 19 - the beginning of 20-th centuries on example of some their representatives.

Keywords: Turkestan, historiography, source studies, orientalism, French oriental studies, source bases, researches, history, ethnography, culture, religion, art, foreign relations.

XIX asrda avj olgan yer sharining turli mintaqalarini tadqiq etish jarayonlari Turkistonni ham chetlab o'tmadi. Bu davrdagi muayyan tarixiy sharoit mintaqaning chet elliq tadqiqotchilar tomonidan jiddiy o'rganishini taqozo etdi.

XIX–XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi yevropalik sayyoh va tadqiqotchilar tomonidan intensiv ravishda o'rganila boshlandi. Ular Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti bilan birga, geologiya, zoologiya, tabiatshunoslik kabi sohalarini o'rganishga ham katta qiziqish bilan qaraganlar. Fransiya va Rossiya o'rtasida o'rnatilgan iliq diplomatik munosabatlар fransuz sayyohlari va ilmiy ekspeditsiyalariga qulay imkoniyatlar yaratdi [25; 86-87]. Temir yo'lning qurilishi Sena daryosi bo'yalaridan keladigan tadqiqotchilar imkoniyatlarini yanada oshirdi.

Fransiya-Prussiya urushi natijasida ancha zaiflashgan va 1887-yildan Germaniyada yana urush kampaniyasiga hozirlik ko‘rilayotganligi sababli fransuzlarda Turkistonga nisbatan hech qanday strategik va siyosiy maqsadlar yo‘q edi [25; 86-87]. Fransuz sayyoohlari va tadqiqotchilar tomonidan Markaziy Osiyoda izlanishlar olib borish uchun yuzaga kelgan bunday qulay vaziyat boshqa yevropalik xalqlardan ko‘ra ularning imkoniyatlarini yanada oshirib, salmoqli tadqiqotlar olib borilishiga zamin hozirladi. Tadqiqotchilar sayyooh, diplomat, muhandis, harbiy, geograf, antropolog, etnograf kabi turli soha vakillari edilar. Ular o‘rgangan davr, zamon, makon, til, urf-odatlar, bitta mintaqada bo‘lsa-da, lekin turli soha vakillari tomonidan turlicha qarashlar asosida talqin qilingan.

1840–1917-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasiga Fransiyadan jami 161 nafar [26; 61] sayyooh va tadqiqotchilar turli maqsadlarda tashrif buyurganlar. Mintaqaga turli yo‘nalishlarda o‘rganilib, ushbu ekspeditsiyalar ilmiy, harbiy, muhandislik, tijorat va turizm maqsadlari asosida tashkil etilgan [26; 163].

Ushbu tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari hamda geografik masshtabiga ko‘ra bir necha guruhga toifalash mumkin. Ayrim tadqiqotlar asosan mintaqaga hududini o‘rganishga qaratilgan, boshqalarining maqsadi Pomir, Tibet yoki Kaspiyorti viloyati hududlarini o‘rganish bo‘lsa-da, ularda yo‘l-yo‘lakay qadimiy Samarcand, Buxoro, Shahrisabz tavsiflangan.

Ilmiy ekspeditsiyalar natijalari aks etgan asarlar, ilmiy maqolalar, hisobotlar, jadvallar, illyustratsiyalar Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid ko‘plab daliliy yangi ma’lumotlarga boy bo‘lib, muhim tarixiy manba hisoblanadi. Shuningdek, ekspeditsiyalarga hamrohlik qilgan shaxslarning safarnomalari va esdaliklari etnografik ma’lumotlar bayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransuz tarixshunosligining ushbu davri tarixiy faktlar va tahliliy materiallarga boy bo‘lib, asosan amaliy tadqiqotlar olib borilgan [27; 6-12]. Bular esa etnografiya, etnologiya, arxeologiya, numizmatika va madaniyatshunoslik kabi fanlarning rivojlanishiga turki bo‘lganligi bilan tavsiflanadi.

XIX asrning oxirgi o‘n yilligida tadqiqotlar ko‘lamini mahalliy aholining turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, etnik masalalar egallagan bo‘lsa, XX asrning boshlarida asosan mustamlaka siyosati masalalari aks etgan. Bu davrda tadqiqot obyektlari kengayib, hajmi va soni ham ko‘paydi, olingan ma’lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy qarashlar konseptual jihatdan asoslandi, izlanishlarda ilm-fan sohalari bo‘yicha ixtisoslashuv sodir bo‘ldi, tadqiqotlarni olib borishda Yevropa ilmiy markazlari tajribasidan unumli foydalanildi.

Markaziy Osiyorning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilishi yevropaliklar uchun mintaqaga yo‘l ochib, ularning qiziqishini yanada oshirdi. 1902-yil 29-iyunda Harbiy ishlar vaziri, general-ad'yutant A.N.Kuropatkin tomonidan “Xorijiy fuqarolarning Turkistonga tashrifi to‘g‘risidagi” maxsus qoidalar [28] qabul qilindi. Unga ko‘ra, Turkiston hududida ayg‘oqchilik yoki shunga o‘xhash boshqa jinoyatlar amalga oshirilganda, xorijiy fuqarolar zudlik bilan mahalliy prokuror yoki okrug sudiga topshirilishi ko‘rsatilgan. Jinoyat aniqlangach, hududlar kesimida Buxoro amirligida – Buxoro siyosiy agentligi huzuriga, Xiva hududlarida – Amudaryo bo‘limi boshlig‘iga, qolgan hududlarda viloyat harbiy gubernatorlari huzuriga jo‘natilishi talab etilgan. Termiz, Kushka, Kerki va Amudaryo yuqori havzalaridagi chegara qo‘riqlash postlari, Chatla, Atrek postiga borish qat’iyan taqilangan [28].

Chunki, Turkistonda bo‘lgan xorijiy sayyoohlarning pasportida qaysidir ilmiy jamiyat yoki muzey xodimi ekanligi to‘g‘risida qaydlar bo‘lsa-da, ular asosan harbiy masalalarga, shuningdek, mahalliy aholining turmush tarziga qiziqqanlar. Ular uchun eng qiziq masala Termiz temir yo‘lining qurilishi edi [29; 30]. Chunki, inglizlar rus hukumatining Afg‘oniston tomon har qanday harakatlarini sinchiklab kuzatib, ularni Britaniya Hindistoni haqida ma’lumot yig‘ishda ayblaganlar.

Xorijiy sayyoohlarning eng ko‘p tashrifi Buxoro amirligiga uyuştirilgan. Arxiv ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, amirlik hududlarida bo‘lish uchun Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agenti tomonidan ruxsat berilgan. Vaqtinchalik yashash uchun “Ochiq varaq” deb nomlangan hujjat taqdim etilgan. “Bu hujjat o‘z davrida amirlik hukumatining ekspeditsiya faoliyatini amalga oshirish uchun taqdim etgan ruxsatnomasi, shuningdek, amirlik hududida ekspeditsiya a‘zolarining xavfsizligini ta’minalash yo‘riqnomasi kabi vazifalarni bajargan” [30; 30-32]. Bu esa ekspeditsiya tadqiqotlarini amir tomonidan berilgan ruxsatnomasi va unga biriktirilgan amaldor vositasidagina amalga oshirish mumkinligidan dalolat berar edi.

Ushbu hujjat qo‘shbegi tomonidan Buxoro siyosiy agenti nomiga yo‘llangan rasmiy ruxsatnomasi mazmunidagi maktubga ilova qilingan. Boshqaruv tashkilotlari o‘rtasidagi bunday hujjat

almashish amaliyoti orqali siyosiy agentlik ekspeditsiyaning harakat yo‘nalishi, maqsadi va unga biriktirilgan mahalliy mas‘ul shaxslar haqida batafsil ma’lumot yig‘ish imkoniga ega bo‘lgan. “Ekspeditsiyani boshlash uchun amir hukumati tomonidan berilgan ruxsatnoma (ochiq list) va agentlik taqdim etgan guvohnomalar amir vakillari orqali ekspeditsiya a‘zolariga etkazilgan” [30; 30-32].

1890–1898-yillarda Turkistonga jami 260 nafar xorijiy sayyoh va tadqiqotchilar tashrif buyurib, ular tarkibida 75 nafar ingliz, 70 nafar nemis, 57 nafar fransuz, 24 nafar avstriya-vengriyalik, 15 nafar amerikalik, 7 nafar daniyalik, 4 nafar belgiyalik, 4 nafar italyalik, 3 nafar shveysariyalik, 1 nafar ispaniyalik bor edi [26; 14]. Faqat nemislар rus fuqaroligini olish uchun ariza berishgan (3 ta), bu ularning mintaqada nemis sanoatini rivojlanish manfaatlari bilan bog‘liq edi. Hujjatlarda Buxoroga tashrif buyurgan sayyoh va tadqiqotchilarining maqsadi aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, asosiy maqsad turizm va ilmiy safarlardan iborat bo‘lgan. Ayrim tadqiqotning natijalari yoki yaratilgan asarlar hozirga qadar topilmagan yoki ular haqida hech qanday qaydlar uchramaydi. Arxiv hujjatlarining xarakteri ham aynan tadqiqotning borishi yoki ilmiy natijalariga bag‘ishlanmagan. Bunday ma’lumotlar juda oz bo‘lib, asosan faktik ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA) fondlarida XIX–XX asr boshlarida fransuz tadqiqotchilarining Turkistondagi faoliyatiga oid statistik ma’lumot beruvchi hujjatlar, fransuz tilida yozilgan rasmiy murojaatnomalar, maktublar hamda telegrammalar, tadqiqotchilarining shaxsiy qo‘lyozmalarini saqlanib kelinmoqda [8].

Statistik ma’lumotlar beruvchi hujjatlarning aksariyatini Rossiya imperiyasi Buxoro siyosiy agentligining Buxoro va O‘rta Osiyo hududlarida bo‘lgan chet el fuqarolari haqidagi xabarları tashkil etadi [1]. Ushbu hujjatlarda tadqiqot maqsadi, murojaatlar va tashrif uchun ruxsat etilgan hududlar qisqacha aks ettirilgan.

Hujjatlarda asosan tadqiqotchilar tashrifining maqsadi, bu borada homiy tashkilot yoki vakolatli shaxslarning rasmiy murojaatnomalari va tadqiqot obyekti sifatida Turkiston o‘lkasining qaysi hududi tanlab olinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, tadqiqotchilarining mutaxassisligi, homiyalar, ekspeditsiyaga hamrohlik qiluvchi shaxslar va harakat marshruti ham belgilanib, tadqiqot maqsadi qisqacha ifodalangan.

Manbaviy asos sifatida xizmat qiluvchi hujjatlardan tadqiqotchi Aloizing ipakchilik faoliyatiga bag‘ishlangan materiallarini ko‘rsatish mumkin [2]. Ularda tadqiqotchi va tadbirkor Aloizi tomonidan ipakchilik korxonalarining tashkil etilishi [3], bunga mahalliy hukumatning munosabati va yaratilgan shart-sharoitlar [4], tadbirkor va mahalliy tashkilotlar o‘rtasida imzolangan shartnomalar [5] hamda ushbu ipakchilik kampaniyasida (mutaxassislarni tayyorlash, etishtirish, eksport qilish) mahalliy aholining ishtiroti [6] kabi ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Hujjatlarga tashkil etilishi rejalashtirilgan yangi ipakchilik korxonalarining loyihasi ham ilova qilingan [7]. Ushbu ma’lumotlar Turkistonda ipakchilikka katta e’tibor qaratilganligidan darak berib, o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida tasavvur uyg‘otadi.

Bu davrda Turkiston o‘lkasiga sanoat, transport harakatining kirib kelishi va yo‘l qurilishi jarayonlarining takomillashuvi kabi jahon standartlari darajasidagi yangiliklar ham kuzatilgan. O‘zR MDA fondlarida O‘rta Osiyo temir yo‘li qurilishi va uning tadqiqiga bag‘ishlangan hujjatlar ham salmoqli miqdorda [9]. Xususan, fransuz muhandislari Lesseps va Kottardlarning temiro‘l qurilishi uchun mahalliy sharoitni o‘rganish maqsadida maxsus missiya bilan yuborilishi masalalari yoritilgan [10].

Arxiv fondlarida Toshkent tramvay yo‘li qurilishiga oid materiallar ham mavjud bo‘lib, xususan 1898 yil 15 iyulda Rossiya imperiyasi Buxoro siyosiy agentiga yo‘llangan maktubda Gankar va Debal kabi fransuz muhandislari Toshkent tramvay yo‘li qurilishida ishtirot etish uchun Turkistonga kelishi [11] va ularning o‘lkada yashashiga [12] ruxsat berilganligi ma’lum qilingan.

Arxiv materiallarida Rossiya–Fransiya o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari hamda Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi o‘zaro yozishmalarda zamonaviy huquqiy me’yorlarda talab qilinganidek, yuqori darajadagi diplomatik munosabatlar ifodasini kuzatish mumkin. Bu hujjatlarda vakolatli tashkilotlarning yuqori organlarga bo‘ysunish prinsiplari o‘z ifodasini topgan. Masalan, tadqiqotching tashrifi uchun dastavval Sankt-Peterburgdagi fransuz elchisi yoki Rossiya imperiyasining Fransiyadagi vakolatli shaxslari tomonidan rasmiy murojaatnoma (*xodataystvo*) yo‘llangan. Harbiy ishlar vazirligining e’tirozi bo‘limgan taqdirda Turkiston harbiy okrugining Bosh Shtabi qoshidagi Harbiy-ilmiy qo‘mita tomonidan Turkiston general-gubernatorligi mahkamasiga javob xati (*otziv*) yo‘llangan. Shundan so‘ng, general-gubernator mahkamasining rasmiy maktubi bilan

tadqiqotchi tashrifi haqida Rossiya imperiyasi Buxoro siyosiy agenti xabardor etilgan. Shuningdek, mahalliy hukumatning xorijiy tadqiqotchilarga bo‘lgan munosabati ham keng yoritilgan.

Shuningdek, arxiv materiallari asosida XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonagi tashkilotlar o‘rtasidagi olib borilgan rasmiy yozishmalar, telegraf, pochta xizmatlari orqali o‘lkada diplomatik munosabatlar amaliyotini o‘rganib, tahlil qilish imkoniyati mavjud. Xususan, tadqiqotchi Pol Labbe (*Paul Labbé, 1867-1943*) faoliyati asosida Turkiston general-gubernatorligi mahkamasini va Rossiya imperiyasi Buxorodagi siyosiy agentligi o‘rtasidagi yozishmalar bunga yaqqol misoldir.

1897-yil 7-oktyabrda general-gubernatorlik mahkamasi tomonidan Buxoro siyosiy agentiga jo‘natilgan telegammada “Fransuz olimi, Parij geografiya jamiyatining a’zosi Pol Labbening Buxorodagi sayohatiga hech qanday qarshilik yo‘qligi” ma’lum qilingan [13]. 1897 yil 9 oktyabrdayoq siyosiy agent V.Ignatev tomonidan quyidagi mazmundagi javob xati yo‘llangan: “Amir Hazratlarida rus tilidan boshqa tarjimonlar bo‘limganligi bois xorijiy fuqarolar qabuli ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda” [14]. 1897 yil 11 oktyabrdagi Toshkentdan Buxoroga jo‘natilgan telegammada “Fransuz olimi Pol Labbe rus tilida bermalol muloqot qila olishi mumkinligi bayon etilgan” [15] edi. 1897 yil 7-11 oktyabr kunlari mahkama va siyosiy agentlik o‘rtasida olib borilgan yozishmalardan iborat arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘sha davrda pochta va telegraf xizmatining faoliyati tizimli ravishda va izchil tartibda yo‘lga qo‘ylgan. Turkiston o‘lkasida xorijiy, xususan, fransuz tadqiqotchilarining tashrifi, ularning samarali faoliyat olib borishi oldindan puxta rejlashtirilgan va kerakli shart-sharoitlarni yaratib berish masalalari mahalliy hukumat nazaridan chetda qolmagan.

Arxiv materiallari orasida Turkiston ilmiy jamiyatlarining o‘sha davrdagi faoliyati haqidagi ma’lumotlar ham uchraydi. Xususan, Rossiya imperatorlik geografiya jamiyatini tomonidan “1875 yil Parijda o‘tkazilishi rejlashtirilgan Xalqaro geografiya Kongressida ishtirok etadigan vakillar tarkibiga K.P. Kaufman ham tavsiya etilib” [16], bunga nisbatan imperatorning ijobiy mazmundagi rozilik maktubi bildirilgan [17]. Bunday hujjatlar tahlili orqali Rossiya–Fransiya munosabatlarida ilm-fan rivoji va madaniyat masalalariga ham e’tibor qaratilganligini anglash mumkin.

Arxiv fondlarida uchraydigan yana bir turdagisi ma’lumotlarni fransuz tilida yozib qoldirilgan rasmiy murojaatnomalar, minnatdorchilik so‘zları bitilgan maktublar va telegammalar tashkil etadi. Fransuz tadqiqotchilari yoki boshqa mansabdor shaxslar tomonidan yozilgan ushbu turdagisi hujjatlar fransuz tarixshunosligi uchun manbaviy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan birga, yuqori ilmiy qiymatga ham ega. Ushbu hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ekspeditsiyaning maqsadi, harakat traektoriyasi ko‘rsatilishi bilan birga, ularning ayrim ehtiyojlari va mahalliy hukumatga bildirilgan iltimosnomalar ham bayon etilgan.

Masalan, Sankt-Peterburgdagagi fransuz elchisining Buxoro siyosiy agenti V.Ignatevga 1897-yil 13-oktyabrda fransuz tilida yozgan maktubida: “*Fransiya Maorif vazirligi tomonidan Markaziy Osiyoda etnografik tadqiqotlar olib borish maqsadida jo‘natilgan tadqiqotchi Pol Labbening Buxoro amiri bilan uchrashib, o‘z hurmat va ehtiromini etkazish maqsadini amalgal oshirishga yordam berishingizni so‘raymiz*” [18], – deb bayon etilgan edi

Mazkur murojaatnomasi e’tiborsiz qoldirilmay, bunga javoban o‘z navbatida siyosiy agent V.Ignatev tomonidan Buxoro amiriga yo‘llangan maktubda: “*Fransiya hukumati tomonidan jo‘natilgan sayyoh Pol Labbe ertaga Buxoroni tark eta turib, Siz hazrati Oliylari bilan ko‘risha olmaganidan qattiq afsuslangan holda, fransuz geografiya jamiyatini nomidan eng yaxshi tilaklarini etkazish uchun mendan yordam so‘ramoqda*” [19], – deb murojaat etilgan.

Bundan tashqari, shaxsiy guvohlik asosida tuzilgan “Guvochnoma” (*Udstoverenie*) hujjatlari ham mayjud bo‘lib, ularda ham u yoki bu turdagisi murojaatlar ifodalangan. Masalan, 1898-yil 31-oktyabrdagi fransuz tadqiqotchisi Genri d’Alleman (*Henry d’Alleman, 1863-1950*) tomonidan yozilib, “Guvochnoma” sifatida tasdiqlangan maktubda fransuz fuqarosi, tadqiqotchi Mark Reno (*Marc Reynaud*)ning Turkiston sayohati davomida, xususan, Petroaleksandrovsdan Chorjo‘ygacha bo‘lgan masofada o‘zining milliy pasportini yo‘qotganligi ma’lum qilinadi. Guvochnomada “Genri d’Alleman va M. Reno tomonidan Kaspiyorti viloyati, Turkiston o‘lkasi va Buxoroga sayohat qilish haqida Turkiston general-gubernatorligi mahkamasining 1898 yil 28 avgustdagagi 6252 raqamli maktubi Buxoro siyosiy agentligiga jo‘natilganligi” to‘g‘risidagi faktlar bayon etilib, tadqiqotchi guvoh sifatida o‘zini tanishtirgan [20].

Fransuz tadqiqotchilar faoliyatining davom etishiga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida Buxoro siyosiy agenti tomonidan Rossiya imperiyasining Mashhaddagi konsuli I.E.Ponafidin nomiga yo'llagan rasmiy maktubda "Fransuz tadqiqotchisi Genri d'Allemanga Mashhaddagi sayohatini amalga oshirishda yordam ko'rsatish" [21] haqida so'z boradi. Bunday hujjatlar o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar berish bilan birga, fransuz tadqiqotchilar uchun katta imkoniyatlar yaratilganligidan ham dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Buxoro amirligi hududlarida mahkama guvohnomasi mavjud bo'lganlarning barchasiga ko'mak berilgan. Chunki, ularning Buxoroga tashriflari general-gubernator ruxsati orqali amalga oshirilgan. Ammo, bu haqda Buxoro siyosiy agentiga xabar jo'natilmagan. Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun 1887-yil 27-oktyabrda Turkiston general-gubernatorligi Mahkamasidan Buxoro siyosiy agentligiga yo'llangan 606 sonli maktubda "Tashrif haqida Mahkama tomonidan Buxoro siyosiy agentiga rasman murojaat etilib, yordam ko'rsatish haqida ogohlantirilgan shaxslargagina Buxoro mahalliy hukumati bilan aloqada bo'lish kerakligi so'ralgan" [22] edi.

Arxiv materiallari ichida mahalliy hukumat a'zolarining tadqiqotchilar haqida bergen ayrim ma'lumotlari ham uchraydi. Masalan, 1897-yil 24-noyabrda yozilib, Buxoro qo'shbegisining muhri bilan imzolangan maktubda Mulla Hirot To'qsaboning ma'lumot berishicha Hisorbekligiga borgan fransuz fuqarosi Karimzardan hech qanday xabar bo'lmay, Mulla Hirot uni surishtirib Qorategin va Hisorbeklariiga rasmiy talabnomasi (*zaprosv*) jo'natgan. Beklarning javob xatlarida, "fransuz fuqarosi Karimzarni hech kim ko'rmagan va u haqda ma'lumot yo'q. Agar ma'lumot kelsa, zudlik bilan sizga xabar jo'nataman" [23], – deyiladi. Shuningdek, uning 1897-yil 5-dekabrda Buxoro siyosiy agentiga yo'llangan maktubida Ko'lob begidan xat olinganligi va unda 1887-yil sentyabrida Karimzar Ko'lobga kelganligi, Ko'lob saroyida qabulda bo'lganligi va 1,5 oydan so'ng Qal'ai Xushga borishi aytib o'tilgan [23].

Arxiv hujjatlari ichida mahalliy hukumat tomonidan xorijiy tadqiqotchilarni rag'batlantirishga oid materiallar ham mavjud. Xususan, "Fransiya fuqarosi Pol Labbe Buxoro amirining marhamati bilan "3-darajali Buxoro oltin yulduzi" ordeni bilan taqdirlangan. Bu haqda Ostonaql Devonbegining 6 noyardiagi maktubida ma'lumot keltirilgan bo'lib, uning tomonidan fransuz geografiya jamiyatining e'tibori va yo'llagan salomi uchun minnatdorchilik izhor qilish so'ralgan edi" [24].

XIX–XX asrlarda olib borilgan tadqiqotlarning o'xshash va farqli tomonlari ko'p bo'lib, bu ularning maqsad va vazifalaridagi umumiyligidan kelib chiqqan. Ushbu sayyoqlik safarlari va ilmiy ekspeditsiyalar fanning alohida bir tarmog'iga mo'ljallanmay, bir necha sohalarni qamrab olgan. Masalan, bir ekspeditsiya doirasida tarix, antropologiya, arxeologiya, etnografiya, etnologiya, madaniyat kabi qator sohalar o'r ganilgan. Deyarli barcha tadqiqotchilar o'z faoliyatini Toshkentdan boshlab, Samarqand yoki Farg'ona yo'nalishida davom ettirganlar. Ularning farqli tomonlarini esa tadqiqotchilar faoliyati metodologiyasi, notanish iqlim, notejis rel'ef va boshqa omillar orqali aniqlash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XIX ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda yirik tadqiqotlar va ilmiy ekspeditsiyalar olib borilgan. Biroq tadqiqotlar Rossiya imperiyasi nazorati ostida tashkil etilgan. Shuning uchun XIX ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi fransuz tarixshunosligida Rossiya imperiyasining manfaatlarini yoqlash, uning olib borayotgan mustamlakachilik siyosatiga xayriyoh bo'lish kabi ayrim noxolis qarashlar va kamchiliklar ham uchraydi.

Adabiyotlar

1. ЎзР МДА, И.3-фонд, 15-рўйхат, 114-иш. 160-варак.
2. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, иш-487, вараклар-40.
3. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, иш-487, 6, 10, 11, 12, 13, ..., 31 вараклар
4. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, иш-487, 13-14, 23, 28 вараклар
5. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, иш-487, 32-34, 36 вараклар.
6. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, иш-487, 1, 3, ..., вараклар.
7. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, иш-487, 8-9-вараклар.
8. ЎзР МДА, И.1-фонд, 15-рўйхат, 487-иш, 21-22-вараклар [Ioachim Aloisi].
9. ЎзР МДА, И.5-фонд, 1-рўйхат, иш-129.
10. ЎзР МДА, И.5-фонд, 1-рўйхат, иш-129, 1-3-вараклар.
11. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 123-варак
12. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 140-варак

13. ЎзР МДА, И.1-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 40-варак.
14. ЎзР МДА, И.1-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 41-варак.
15. ЎзР МДА, И.1-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 42-варак.
16. ЎзР МДА, И.1-фонд, 20-рўйхат, 6336-иш, 1-2 вараклар.
17. ЎзР МДА, И.1-фонд, 20-рўйхат, 6336-иш, 3 варак.
18. ЎзР МДА, И.1-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 45-варак.
19. ЎзР МДА, И.1-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 47-варак.
20. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 154-варак.
21. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 153-варак.
22. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 232-варак.
23. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 68-варак.
24. ЎзР МДА, И.3-фонд, 1-рўйхат, 114-иш, 64-варак.
25. Фармонов Р., Қодиров Ж. Халқаро муносабатлар тарихи / ўкув қўлланма. – Тошкент: ЖИДУ, 2013. – Б.86-87.
26. Gorshenina S. La Route de Samarcande. L'Asie centrale dans l'objectif des voyageurs d'autrefois. – Genève, Editions Olizane, 2000. – P. 61.
27. Расулова Д. Францияда илк шарқшунослик илмий мактаблари // СамДУ Илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2012 № 1. – Б. 6–12.
28. Правила посещения Туркестана иностранными подданными // Туркестанские ведомости. 1902, 28 июль (11 август), № 60.
29. О посещении иностранцами Туркестанского края. Туркестанский сборник. Т. 466. – Санкт-Петербург: 1908. – 30 б.
30. Кличев О. Бухоро амирлигидаги руҳсатномалар тарихий манба сифатида // Ёш шарқшуносларнинг академик У.Каримов номидаги XIV Республика илмий-амалий конференцияси тезислари. –Тошкент, 2016. – Б. 30-32

UDK: 1(09)

“AVESTO” EZGULIKKA DA’VAT ETUVCHI FALSAFIY MANBA**M.X.Ergasheva***Samarqand davlat universiteti*

Annotatsiya. Maqolada “Avesto”dagi ezgulikning tantanasi g‘oyalari tahlil etilib, sinergetika metodologiyasi asosida asardagi taraqqiyotni orqaga qaytmasligi haqidagi fikrlarga e’tibor qaratiladi. Bu yangicha yondashuv va xulosalar chiqarishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki sinergetika dunyoga yangicha qarash uslubi sifatida “Avesto” g‘oyalarning ilmiy, falsafiy tomonlarini kashf etishga ko‘mak bera oladigan ilmiy yo‘nalishdir.

Kalit so‘zlar: “Avesto”, sinergetika, bifurkatsiya, fluktuatsiya, attraktor, tartib parametrlari.

«Авесто» – философский источник сознания

Аннотация. В статье анализируются идеи добра в Авесто и обращается внимание на мысль о том, что синергетическая методология не вернется к развитию искусства. Это основа для новых подходов и выводов. Потому что синергетика - это научное направление, которое может помочь открыть научные, философские аспекты идей Авесты как нового взгляда на мир.

Ключевые слова: «Авесто», синергетика, бифуркация, флуктуация, притяжение, параметры макета.

“Avesto” is a philosophical source of consciousness

Abstract. The article analyzes the ideas of goodness in Avesto and draws attention to the idea that the synergetic methodology will not go back to the development of the art. This is the basis for new approaches and conclusions. Because the synergetics are a scientific direction that can help to discover the scientific, philosophical aspects of the ideas of Avesta as a new way to look at the world.

Keywords: "Avesto", synergetics, bifurcation, fluctuating, attraction, layout parameters.

Barqaror rivojlanish yo‘lini tanlagan har qanday jamiyatda zamonaviy ilmiy izlanishlar va texnologiyalarni yaratishda ijodkor yoshlar va yangicha tafakkur sohiblarini tarbiyalash asosiy masala sifatida qaraladi. Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda jahon sivilizatsiyasi tizimida o‘ziga munosib, salohiyatlari o‘rinni egallash maqsadida o‘tkazilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlar fan va texnikaning jadal sur’atlarda rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu o‘rinda millat, davlat tarixini, yuksak ma’naviyatini o‘zida mujassam etgan benazir qo‘lyozmalar, asarlar, yodgorliklarni tadqiq etishda muayyan darajada an’anaviy tadqiqot usullari bilangina chegaralanib qolmasdan, mazkur obyektga fanning samarador ilg‘or yutuqlari asosida yangicha yondashib, uni kelajakda yoshlar ongiga yangicha usullar vositasida singdirish bugungi kun talablaridan biridir. Chunki *birinchidan*, “Avesto” yaratilgan davr bizdan kamida 3-4 ming yil orqada qolgan; *ikkinchidan*, “Avesto”da o‘ta murakkab ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, ma’naviy va huquqiy masalalar ustida bahs yuritiladiki, ularni chuqurroq anglab yetish uchun faqat dialektik tafakkurning o‘zi yetarli emas; *uchinchidan*, “Avesto”da bayon qilingan fikrlar an’anaviy chiziqli tafakkur doirasiga sig‘maydi, mazkur fikrlarni to‘la qamrab olish uchun nochiziqli tafakkurni ham o‘ziga qamrab oluvchi sinergetik yondashuvni talab qiladi. “Avesto”dagi insoniyatni yetuklikka, yuksak axloqqa, mehrshafqatga, barkamollikka, poklikka, bilimdonlikka, mehnatga, qo‘yingki, jami insoniy ezgu fazilatlarga yo‘naltiruvchi g‘oyalalar asrlar sinovidan o‘tsada, o‘z mohiyati va qadrini yo‘qotmagan va bu qadriyatlar bugungi kunda ham insoniyatga kerakdir. “Avesto”dagi mulohazalar necha ming yillar muqaddam kelajakni oldindan prognolashtirish tartibida bayon etilgani bilan ham e’tiborga loyiqdir.

Zardo‘shtiylik ta’limoti, uning muqaddas kitobi “Avesto”ni tadqiq etar ekanmiz, ushbu yodgorlikda ezgulikka intilish, ezgulikni ong va qalbga jo qilib, ezgu so‘zlar aytish, ezgu fikr va so‘zlarni birlashtirgan holda xatti-harakatda ham ezgu amallarni namoyon etish zarurligi haqidagi gohlar o‘z aksini topganligining guvohi bo‘lamiz. Mustaqillik tufayli ana shunday bebaho yodgorlikni, yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotni tadqiq va tahlil etish imkoniyati vujudga keldi. Shu ma’noda mazkur maqolada biz “Avesto”da ezgulikning tantanasi g‘oyalarini tahlil etib, sinergetika metodologiyasi

asosida asardagi taraqqiyotni orqaga qaytmasligi haqidagi fikrlarga e'tibor qaratamiz. Bu yangicha yondashuv va yangicha xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki sinergetika dunyoga yangicha qarash uslubi sifatida "Avesto" g'oyalarining yangi tomonlarini kashf etishga ko'mak bera oladigan ilmiy yo'nalishdir. Sinergetika asoschilaridan biri G.Xakenning fikricha: "Sinergetik qarashning an'anaviy qarashdan farqi shundaki, sodda tizimni tadtiq qilishdan murakkab tizimni tadtiq qilishga, yopiq tizimdan ochiq tizimga, chiziqlilikdan nochiziqlikka o'tishga, delokalizatsiya va beqarorlikdagi jarayonlar teng vaznligini ko'rib chiqishdan, teng vaznlikdan yiroqda sodir bo'layotgan jarayonlarni o'rganishga o'tishdan iborat" [7; 26-b]. Shuning barobarida sinergetika metodologiyasi qonuniyatlar va hozirgi zamon ilmiy bilishi borliqdagi voqeа-hodisalarini "qaytariluvchan" emas, balki "beqaror va fluktuatsiyaviy" [5; 7-b], "tasodifiy va qaytarilmas" [6; 50-b] ekanligini isbotlab bermoqda.

"Avesto"dagi ezgulikning tantanasi g'oyasini sinergetik tahlil qilar ekanmiz, ushbu g'oyalarga ko'ra insoniyat vujudga kelgandan boshlab ezgulik va yovuzlik, tartib va xaos, barqarorlik va beqarorlik vujudga kelgan, o'zaro kurashgan va oxir-oqibat ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi bilan yakunlangan.

"Avesto"dagi ezgulik xudosi hisoblangan Axuramazda madh etgan g'oyalar mavjud tizim elementlarini o'ziga bo'ysundirib, "tartib parametrlari" [8; 172-b] vazifasini bajargan. G.Xaken "tartib parametri" haqida fikr yuritib shunday yozadi: "Beqaror sistema bir holatdan boshqasiga o'tayotganda turli harakat modellari vujudga keladi. Bu harakat modellari sistema elementlarining barchasini o'ziga bo'ysundiradi va yangi struktura hosil bo'lishiga olib keladi. Bu harakat modellari sinergetikada tartib parametrlari sifatida e'tirof etiladi" [9; 41-b]. Zardo'shting harakatlari, fikr-mulohazalari, g'oyalari ham "tartib parametrlari"ga misol bo'la oladi. Zardo'sht ezgulik doim tantana qilishi uchun bani odamzotni jon-jahdi bilan hamisha to'g'ri yo'lga da'vat etgan.

"Ey Mazda!

Senda Ashah – Haqiqat siymosi ostida bizga madad ayla.

Aql-idrokimiz ojizlashib, e'tiqodimiz sustlashgan chog'ida qo'llagin, toki fikr, kalom va amalda bir ittifoq bo'laylik.

Ushbu gohdan biz sinergetikaga xos bo'lgan o'zaro hamkorlik, ittifoqlik xislatlari orqali yovuzlikni yengish mumkinligini anglab olamiz.

Zardushtiylik davri nuqtai nazaridan yondashilganda har xil joydagи turli fluktuatsiyalar yangi-yangi g'oyalar tarzida sodir bo'lган. Bu g'oyalarning ba'zilari rad etilib, ba'zilari boshqalari bilan almashtirilgan yoki qabul qilingan. Shuningdek yovuzlik rad etilib, ezgulik qabul qilingan. Bu jarayonda ezgulikni targ'ib etuvchi g'oyalar esa sinergetik nuqtayi nazaridan G.Xaken ta'biri bilan aytadigan bo'lsak "tartib parametrlari" bo'lib xizmat qilgan.

"Avesto"da ezgulikning tantanasini moddiy hayotni yaxshilashga urinish – yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblanganligida ham ko'rishimiz mumkin. Qo'riq yer ochib uni bog'-u rog'ga aylantirgan inson ilohlar rahmatiga uchrashi, aksincha, bog'lar, ekinzorlar, suv inshootlarini buzganlar katta gunohga qolishi ta'kidlanadi. Zardo'sht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni uqtiradi. Bunga ko'ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham shunday bo'lishi, har bir inson vafotidan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishlari uchun abadiy rohat – jannatga, yoki yomon amallari ko'p bo'lsa, na xursandchilik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy misvongatuga, ya'ni duzaxga tushishi e'tirof etiladi. Aynan ana shunday g'oyalardan ham biz sinergetikaga xos bo'lган kelajakni oldindan bashorat qilish, yoki kelajakni bugunda namoyon bo'lishi haqidagi fikrlarni ilg'ab olishimiz mumkin. Ya'ni har bir amalimiz bizni kelajagimizni belgilashi mumkin.

"Avesto"da tabiatsiz inson, insonsiz tabiat taraqqiy etmasligi, ular hamisha bir-biriga nisbatan oqilona, ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishligi eng ezgu g'oyalar sifatida tushuntiriladi. Shu o'rinda "XXI asrda paydo bo'lган yangi fanlar ham inson bilan tabiat, inson bilan inson orasidagi munosabat ziddiyatlar asosida emas, balki ular o'rtasida muloqot, hamkorlikka qaratilganligini ko'rsatdi" [4; 314-b]. "Avesto"ni varaqlar ekanmiz, uning har bir bandi, har bir bitigi, har bir g'oyasi ezgulik tantanasi uchun jamoaviy, hamkoriy harakat qilish sari chorlaganiga guvoh bo'lamiz.

"Avesto" g'oyalaridan biz o'tmishga, bugunga, kelajakka oid fikrlarni anglab olishimiz mumkin. Bu esa sinergetik vaqt va fazoga oid tushunchalarni o'zida ifodalaydi. Ya'ni bifurkatsiyagacha, bifurkatsiya oralig'ida va bifurkatsiyadan keyingi vaqt. Xaos va kichik fluktuatsiyalar makoni, mikrofluktuatsiya fazosi, bifurkatsiyaning fazoviy parametri, xaoslashtirilgan fazo [10; 43-b].

Shuningdek, targ‘ib etilgan axborotni (ezgulik g‘oyalarini) qabul qilishdan oldingi holat (bifurkatsiyagacha), qabul qilish chog‘idagi ikkilanish, tanlash (bifurkatsiya oralig‘ida), ezgulik yoki yovuzlik yo‘lidan ketish (bifurkatsiyadan keyingi) kabi holatlarni «Avesto» g‘oyalarida yaqqol ko‘rshimiz mumkin.

Zardo‘shtiylik bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan ingliz olimasi Meri Boys fikricha ham: “Zardo‘shtiylikning ulug‘vor va original ta’limotlari butun Yaqin Sharq hududida ta’sir etib, uning asosida iudaizm rivojlangan, xristianlik va islomda paydo bo‘lgan. Shuning uchun jahon dinlarining barcha jiddiy tadqiqotchilar zardo‘shtiylikni o‘rganadilar” [2; 4-b].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, biz zardo‘shtiylikning faqat diniy tomonlarini emas, balki dunyo, olam, odam, tabiat, hayot to‘g‘risidagi ilmiy xulosalari uchun ham qadrlaymiz hamda hozirgi zamон ilmiy yo‘nalishlari orqali tahlil etamiz. Xulosa qiladigan bo‘lsak, aynan bugungi kunda turli global muammolar – ekologik muammolar, terrorizm, ekstrimizm, odam savdosi, giyohvandlik, turli kasalliklar avj olayotgan bir pallada noyob g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, odamlarni ezgulik sari da‘vat eta oladigan, ezgulikka ergashtiradigan muqaddas «Avesto» kitobini yangi – ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblangan sinergetika metodologiyasi kategoriyalari orqali yangi qirralarini kashf etib, odamlar qalbi va ongiga yetkazish, singdirish eng oliy vazifamizdir.

Adabiyotlar

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Тарж. А.Махкам. – Т.: Шарқ, 2001.
2. Бойс Мери Зороастрйцы. Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987.
3. Каримов И., Рустамова М. Фалсафа фани тарихи ва назарияси. –Т., ТДПУ, 2007.
4. Назаров Қ. Билиш фалсафаси (гносеология). – Т.: Университет, 2005.
5. Николис Г. Пригожин И. Порпапис сложного. Введение. –М.: Мир, 1990.
6. Пригожин И. Сиенгере И. Порядок и хаоси. Новые диолог человека с природой. –М.: Прогресс, 1985.
7. Хакен Г. Синергетика. – М.: Наука, 1986.
8. Хакен Г. Тайны природы. Синергетика наука о взаимодействии. Перевод с нем. Логунова. –М.: Ижевек, 1997.
9. Хакен Г. Хакен Крэлль М. Тайны восприятия. – М.: Институт компьютерных исследований, 2002.
10. Қушоқов С.Ш. Синергетика ва ундаги парадигмал тушунчаларни туркумлаш муаммоси. Синергетиканинг табиий, илмий ва фалсафий муаммолари. НамДУ, 2009.

UDK: 1:008

INSON MA’NAVIY YUKSALISHIDA GO‘ZALLIKNING O‘RNI

S.T.Abdullayev

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada insonning ma’naviy borlig‘ini ijobjiy tomonga yo‘naltiradigan, o‘zgartiradigan go‘zallikning o‘rni, ahamiyati yoritilgan. Go‘zallik inson ma’naviy borlig‘ining bir shakli sifatida ifoda etilib, borliqdagi barcha narsa va hodisalarning inson ongida yoqimli taassurot, xush kayfiyat va quvonch uyg‘otadigan, zavqiy va xushnutlik kayfiyatini ko‘taruvchi xulqiy go‘zallik sifatida ifodalanib, inson hayotiga mazmun kasb e’tib boradigan mezonlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: go‘zallik, inson, inson ma’naviy borlig‘i, ma’naviyat, estetikdid, estetik zavq, axloqiy komillik, me’yor.

Роль прекрасного в духовном совершенствовании человека

Аннотация. В статье раскрыта роль и значение прекрасного в изменении в положительную сторону духовного бытия человека. Прекрасное отражается как форма духовного бытия человека и приносит наслаждение, радость, приятные представления и выражает прекрасный нрав, что является критерием для определения смысла жизни личности.

Ключевые слова: прекрасное, человек, духовное бытие, духовность, эстетический вкус, эстетическое наслаждение, нравственное совершенство, мера.

Role of beauty in person spiritual development

Abstract. This article deals the place and meaning of fine changls of positive sides of spiritual ontology of the person. Beauty is expressed as a form of spiritual ontology of the person and brings pleasure, happinees fine imagination, which is the criteria definition of the meaning of life personality.

Keywords: beautiful, person, spiritual ontology, aesthetic, aesthetic enjoyment, measure.

Inson dunyoga kelib, jismonan ulg'ayib borar ekan shu bilan birgalikda, uning ongi, tafakkurida ham o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi. Tevarak-atrofidagi narsa va hodisa hamda jarayonlarga ma'naviy-estetik baho bera boshlaydi. Shu asosda munosabatga kirishib, obyektiv borliqdag'i barcha narsa va hodisalarni ongda in'ikos etib, bilish ehtiyojini shakllantirib boradi. Bilish orqali insonning bilimi, tafakkuri va dunyoqarashi shakllanadi, shu asosida insonning ma'naviy olami yukslib boradi.

Insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishida, ma'naviy yetuk inson bo'lib shakllanishida muhitning o'rni katta ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Inson tug'ilib, voyaga yetayotgan muhitda erkinlikka burkangan tartib-intizom, tozalik va ozodalik hamda go'zallikka yo'naltirilgan faoliyat hukm sursa, shu muhitda ulg'aygan inson ma'naviy-axloqiy barkamol inson bo'lib shakllanib boradi. "Qush inida ko'rganini qiladi" deyishadi dono xalqimiz. Oilada ulg'ayib, jismoniy va ma'naviy shakllanib borayotgan yosh-avlodni ma'naviy borlig'i, dunyoqarashi va kelajagi o'sha muhitda olgan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, insonning o'tmishi, ichki olami ya'ni, maqsadi, niyati va orzu-umidiga qarab tashqi ko'rinishi ya'ni istarasi, avrasi va chehrasi botiniga qarab moslashib boradi. Albatta, buni hayotiy tajribaga boy, psixologiyasi rivojlangan, dunyo qarashi keng va bilimli inson anglab yetadi. Inson doim, ezgulik, to'g'rilik, rostguylik niyatida faoliyat olib borsa va eng asosiysi, Olloohni hamisha yod olib, shukronalik keltirib, qalbining tubida saqlasa insonning zohiri olami yorishadi, istarasi, avrasi va chehrasidan ilohiy bir nur ufirib turadi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlagandek, "Inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan bog'liq turli holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin Olloohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash-odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o'z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma'naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o'rinnlidir" [1]. Biz bunda insonning xulqiy go'zalligi, uning barcha hayot faoliyatida ijobiy ahamiyat kasb etishini misol qilib o'tdik. Chunki, inson hayotida go'zallik bilan ma'naviyat bir-birini boyitib, to'ldirib boradi. Shu bilan birgalikda, obyektiv borliqdag'i barcha narsa va hodisalarning inson ongida in'ikos etib, xushnudlik kayfiyatini uyg'otuvchi, go'zallik kasb etuvchi xususiyatlariga ko'proq e'tiborini qaratadi. Shuning uchun ham har bir inson o'zini o'rab turgan barcha narsa-hodisalarning go'zal bo'lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi. Chunki, o'zining tashqi ko'rinishidan tortib, u ishlataladigan, foydalanadigan narsalar va yashaydigan maskani bo'ladimi barchasidan nafis bir ruh ufurib turishini ichki botiniy his etib yashaydi.

Insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishida, ma'naviy yetuk inson bo'lib shakllanishida muhitning o'rni katta ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Inson tug'ilib, voyaga yetayotgan muhitda erkinlikka burkangan tartib-intizom, tozalik va ozodalik hamda go'zallikka yo'naltirilgan faoliyat hukm sursa, shu muhitda ulg'aygan inson ma'naviy-axloqiy barkamol inson bo'lib shakllanib boradi. "Qush inida ko'rganini qiladi" deyishadi dono xalqimiz. Oilada ulg'ayib, jismoniy va ma'naviy shakllanib borayotgan yosh-avlodni ma'naviy borlig'i, dunyoqarashi va kelajagi o'sha muhitda olgan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, insonning o'tmishi, ichki olami ya'ni, maqsadi, niyati va orzu-umidiga qarab tashqi ko'rinishi ya'ni istarasi, avrasi va chehrasi botiniga qarab moslashib boradi. Albatta, buni hayotiy tajribaga boy, psixologiyasi rivojlangan, dunyo qarashi keng va bilimli inson anglab yetadi. Inson doim, ezgulik, to'g'rilik, rostguylik niyatida faoliyat olib borsa va eng asosiysi, Olloohni hamisha yod olib, shukronalik keltirib, qalbining tubida saqlasa insonning zohiri olami yorishadi, istarasi, avrasi va chehrasidan ilohiy bir nur ufirib turadi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlagandek, "Inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan bog'liq turli holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin Olloohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash-

odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o'z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma'naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabil qilish o'rinlidir” [1]. Biz bunda insonning xulqiy go'zalligi, uning barcha hayot faoliyatida ijobiy ahamiyat kasb etishini misol qilib o'tdik. Chunki, inson hayotida go'zallik bilan ma'naviyat bir-birini boyitib, to'ldirib boradi. Shu bilan birgalikda, obyektiv borliqdagi barcha narsa va hodisalarning inson ongida in'ikos etib, xushnudlik kayfiyatini uyg'otuvchi, go'zallik kasb etuvchi xususiyatlari ko'proq e'tiborini qaratadi. Shuning uchun ham har bir inson o'zini o'rab turgan barcha narsa-hodisalarning go'zal bo'lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi. Chunki, o'zining tashqi ko'rinishidan tortib, u ishlataladigan, foydalananadigan narsalar va yashaydigan maskani bo'ladimi barchasidan nafis bir ruh ufurib turishini ichki botiniy his etib yashaydi.

Go'zallikni his etib yashagan inson borliqning barcha tomonlaridan go'zallikni axtaradi va e'tiborini go'zallikka qaratadi. Shu o'rinda inson ma'naviy hayotida go'zallikning o'rni muhim ahamiyat kasb etib, insonning ma'naviy borlig'ini yoritadigan, ma'naviy zavq baxsh etadigan, xushnudlik kayfiyatlarini paydo qiladigan, insonda yoqimli bir his uyg'otadigan jarayon bu go'zallikdir. Go'zallik – jamiki lazzat baxsh etadigan, yoqimli his uyg'otadigan, xushnudlik kayfiyatlarini paydo qiladigan narsa-hodisalarni qamrab oladi. Insonlarda go'zallikni idrok qilishni shakllantirish orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalari va tuyg'ularini his eta bilish, odamlarning xursand-chiligiga sherik bo'lish, qayg'usini yengishda madadkor bo'lishi kabi xususiyatlarni shakllantiradi, shular asosida insonning ma'naviy kamoloti shakllana boradi. Nafislikka, go'zallikka qalbi boy insonda yaratuvchanlik, ijodkorlik, bunyodkorlik, faollik, yashashga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi va ma'naviy kamolot sari ulg'ayib boradi. Insonning ma'naviy yuksalishida go'zallikning o'rni doimiy mavjud bo'lib, takomillashib, rivojlanib boradi. Bu esa, insonda xulqiy go'zallik deb ham ataladi. “Bizningcha, - deb o'z so'zini davom ettiradi estetik olim Abdulla Sher xulqiy go'zallik axloqshunoslik va estetika fanlari o'rtasidagi, axloqiylikka asoslangan ma'naviy-estetik hodisa bo'lib, u orqali insonning botiniy – ichki go'zalligi nazarda tutiladi” [2]. Insonning ongi, qalbi umuman, ma'naviy borlig'i go'zallikka boy bo'lsa, u yashayotgan borliqning barcha go'zallik tomonlarini ko'rib, his etib, zavqlanib, xushnudlik kayfiyatida yashaydi. Har bir insonning ma'naviy borlig'idan kelib chiqib, go'zallikni his etishi va anglashi orqali go'zallik kimgadir hodisa sifatida paydo bo'lsa, kimgadir jarayon sifatida paydo bo'lishi mumkin. Aslida, ma'naviy yetuk, ma'naviy barkamol inson go'zallikni jarayon sifatida anglab, borliqdagi barcha narsa va hodisalarning go'zallik kasb etuvchi tomonlarini anglaydi va his etadi. Insonning ma'naviy barkamolligi, xulqiy go'zalligi orqali moddiy olamning go'zalligini his etadi va anglaydi. Bunda, eng avvalo, go'zallikning qonuniyatlari mutanosiblik, hamohanglik, uyg'unlik, maqsadga muvofiqlik, me'yor kabi tushunchalar orqali ifodalananadi. Masalan, to'rtta faslning ham o'z hodisalaridan kelib chiqib e'tibor qilinsa, go'zallikka burkanganligini his etish mumkin, ko'z fasliga xoslik tabiatdagi o'simliklarning rangi sariq tusga kirishi, barglarning to'kilib, shig'irlashi va hokozo, qish fasliga xoslik, ulug'ver tog'learning, daraxtlarning oppoq qor bilan qoplanganligi va hokozo, bahor fasliga xoslik undagi yam-yashil tog'lar, maysazorlar, turli-tuman gullarning ochilishi, kamalakning jilolanishi va hokozo, yoz faslining go'zalligi daraxtlarda turli-tuman mevalarning jilolanishi-yu, quyoshning tongda chiqishidan tortib, uning botishi oldidagi go'zallik va hokozo, bularning barchasini anglanishi, idrok etilishi, eng avvalo, insonning estetik didiga, ma'naviy olamiga bog'liq hisoblanadi. Bu esa go'zallikning obyektiv borliqda jarayon sifatida aks etishini ko'rishimiz mumkin.

Falsafa ensiklopedik lug'atida “Go'zallik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, inson faoliyatining kishida mehr-muhabbat, quvonch, zavq, erkinlik tuyg'ulari hosil qilishga qodir bo'lgan xususiyatlarini ifodalaydi” [3], deb ta'rif berilgan. Taniqli estetik olim M.Olloyorovning fikricha, go'zallik – bu markaziy mezoniy tushuncha (kategoriya) bo'lib, unda borliqdagi narsa va hodisalarning shakl va mazmun uyg'unligi, mukammalligi va insonning ularga bo'lgan ma'naviy-ruhiy lazzatlanishi bilan shartlangan munosabati ifodalananadi [4]. O.G'aybullayevning fikricha, go'zalik – bu tabiat va jamiyatdagi estetik ong va faoliyat asosida vujudga keladigan subyektning voqelikni idrok etish qobiliyatidir, [5] deb ta'kidlaydi. Inson ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqe-hodisalarni go'zal jihatlarini mehr-muhabbat, zavq-shavq, erkinlik tuyg'ulari bilan his etadi. Inson olamda yuz berayotgan jarayonlarni o'zining his-tuyg'ulari, kechinmalari orqali bilib olishga intiladi. Ana shu intilishlarda kishining avvalo, go'zallikni his etishga bo'lgan qiziqishlari sodir bo'lib, nima go'zalu, nima xunukligini bilish jarayoni voqelikni idrok etishda yuz beradi. Go'zallik, eng avvalo,

bilishning mahsuli bo‘lib, voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go‘zalligi uning ishonchhlilik, haqiqiylik mezonlari bilan belgilanadi. Go‘zallik – jamiki lazzat baxsh etadigan, yoqimli his uyg‘otadigan, xushnudlik kayfiyatlarini paydo qiladigan narsa-hodisalarini qamrab oladi. Go‘zallik tushunchasi subyektda yoqimli taassurot, xushkayfiyat va quvonch uyg‘otadigan obyektdagi estetik xususiyatni tavsliflashga yo‘naltirilgan ilmiy atama. Estetik xususiyat sifatida esa go‘zallik muayyan komillik va yuksak qadriyatlar, insonni «erkinlikka olib boradigan yo‘ldir» [6]. Go‘zallik nazariyasini amaliyotga qo‘llash esa bevosita insonning estetik ongi, estetik faoliyati orqali amalga oshiriladi va shu bilan birgalikda insonning yashashga bo‘lgan ehtiyoji oshib, aqliy va jismoniy mehnat faoliyati natijasidan, ijod mahsulidan ma’naviy-estetik zavq oladi hamda insonning ma’naviy olami yuksalib boradi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, inson o‘z mehnatini go‘zallashtirishi orqali undan ma’naviy-estetik zavq oladi. “Mehnat natijalarini rag‘batlantirishning axloqiy-estetik mohiyati ulug‘. Inson o‘z mehnati samarasidan o‘zi qoniqibgina qolmay, boshqalar ham bahramand va xursand bo‘lganini sezsa uning kuchiga kuch, ilhomiga ilhom qushiladi. Mehnat insonda estetik madaniyatni shakllantiradi, inson mehnatiga zavqiy ma’no bag‘ishlaydi” [7]. Go‘zallikning falsafiy-estetik mohiyati shundan iboratki, mutanosiblik, hamohanglik, uyg‘unlik, maqsadga muvofiqlik, me‘yor kabi tushunchalar orqali ifodalansa, insonning ma’naviy borlig‘ida ham shu mezonlar o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, inson ma’naviyati tushunchasi bilan hamohanglikda shakllanib boradi. Borliqdagi narsa va hodisalardagi me‘yorning buzilishi xunuklikni yuzaga kelishiga, shakllanishiga sabab bo‘ladi, inson faoliyati jarayonida me‘yorning buzilishi ham inson ma’naviy hayotining salbiy tomonga yo‘nalishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davriga kelib turli ijtimoiy, siyosiy subyektlar o‘zlarining turli xil yovuz niyatlarini, maqsadlarini amalgga oshirish uchun inson ongi va qalbini egalashning usul va vositalarini ishlab chiqib, faoliyatga kirishmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda” [8], deb ta’kidlagan edi. Tarix manbalaridan yaxshi bilamizki, har bir davrda, ayrim insonlar o‘zlarining yovuz niyatlarini va maqsadlari turli yo‘llar bilan amalgga oshirishga harakat qilib kelgan. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “...hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzuksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim” [9]. Yuqoridagi muhim masalani e‘tiborga olsak, qachonki inson ongida bo‘shliq bo‘lsa, o‘zining shaxsiy fikr va qarashlariga ega bo‘lmasa, ma’naviy yuksaklik sari intilmasa va estetik didi shakllanmagan bo‘lsa ya’ni, xunuklik bilan go‘zallikni farqlay olmasa, eng asosiysi, borliqdagi barcha narsa va hodisalarni estetiklik xususiyatini anglamasdan faoliyat olib borsa, u insonning ma’naviy borlig‘i beqarorlik tomon yo‘nalish topadi. Shuning uchun, bugungi kunda har bir insonni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, ayniqsa yoshlarni ma’naviy yuksaltirish, bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish eng asosiy masalalardan biri bo‘lib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart sanasida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan video selektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bunda 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. “*Birinchi tashabbus* yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi; *ikkinci tashabbus* yoshlarni jismoniy chiniqtilish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan; *uchinchi tashabbus* aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishini tashkil etishga qaratilgan; *to‘rtinchi tashabbus* yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirish; *beshinchi tashabbus* xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash masalalarini nazarda tutadi” [10]. Inson ma’naviyatining yuksalishida ushbu besh tashabbusning o‘rnii muhim ahamiyatga egadir. Bu masalalarning ruyobga chiqishida albatta, oila, mahalla, ta’lim muassasalarini, davlat va boshqa tashkilotlarning hamkorligi muhim ahamiyatga egadir.

Inson jismonan ulg‘ayib borar ekan, shu bilan birgalikda uning ongi va tafakkuri orqali ma’naviy borlig‘i ham rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Inson tug‘ilib, voyaga yetayotgan muhitda erkinlikka burkangan tartib-intizom, tozalik va ozodalik hamda go‘zallikka yo‘naltirilgan faoliyat hukm sursa, shu muhitda ulg‘aygan inson ma’naviy-axloqiy komil inson bo‘lib shakllana boradi. Ijtimoiy hayotga kirib kelayotgan har bir yosh avlodning ongi va tafakkurida estetik ong, estetik bilim

va estetik dunyoqarash shakllansa u amaliy faoliyatida go‘zallikka intilib yashaydi. Har bir ma’naviy yetuk inson o‘zini o‘rab turgan barcha narsa-hodisalarning go‘zal bo‘lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi. Chunki, o‘zining tashqi ko‘rinishidan tortib, u ishlataladigan, foydalanadigan narsalar va yashaydigan maskani va hatto jismoniy va aqliy mehnat natijalaridan nafis bir ruh ufurib turishini, go‘zal bo‘lishini istaydi va shu asosda shaxsiy idealiga aylanadi. Go‘zallikni his etib yashagan inson borliqning barcha go‘zallik kasb etgan tomonlariga e’tiborini qaratadi va shu asosda faoliyat olib boradi. Nafislikka, go‘zallikka qalbi boy insonda yaratuvchanlik, ijodkorlik, buniyodkorlik, faollik, hayotdan zavqlanib yashash ehtiyoji shakllanadi va ma’naviy yuksaklik sari ulg‘ayib boradi.

Xulosa qilib aytganda insonning ma’naviy olamining boyib borishi, shaxs sifatida kamol topib borishi, jamiyatda go‘zallik va xunuklikning mohiyatini chuqur anglab yetishi bevosita tashqi muhit bilan bog‘liqdir. Shu asosda insonning ma’naviy yuksalish jarayoni rivojlanib, o‘zining xilma-xilligi va rang-barangligini vujudga keltiradi. Natijada insonning go‘zallik tuyg‘ulari va unga shaydoligi ma’naviy olamni boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.:Ma’naviyat, 2008. – 25-bet.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: O‘zbekiston, 2000. 491-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild, O‘zbekiston, 2017. 125-bet.
4. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. –T.: O‘zbekiston, 2014. – 207-bet.
5. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. –T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 86-bet.
6. Olloyorov M. Estetikaning asosiy kategoriyalari. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand. SamDU nashri, 2011. – 37-38-betlar.
7. O. G‘aybullayev. Estetika. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 57-bet.
8. G‘aybullayev O. Shaxs ma’naviy kamoloti va estetik madaniyat. –T., 2008. – 90-91-betlar.
9. Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 20-mart, son-54 (7284) 1-bet.

UDK: 130.1

QADRIYATLAR TIZIMIDA OILAVIY BAXT: IJTIMOIY-FALSAFIY TALQIN (subyektiv omillar misolida)

Sh.Q. Amirxo‘jaev
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda oilaviy munosabatlarning rivojlanish tendensiyasi haqida fikrlar bildirilgan. Maqolada jahon baxt indeksi bo‘yicha “New Economic Foundation” tadqiqot markazi tomonidan berilgan statistik ma’lumotlar qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, oilaviy baxtni ta’minlashda subyektiv omillarning roli va ishtirok darajasini belgilash uchun falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar o‘zaro tahlil qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, oilaviy baxt, nikoh, baxt indeksi, oilaning funksiyalari, oilaviy munosabatlar evolyutsiyasi.

Семейное счастье в системе ценностей: социально-философский анализ

Аннотация. В данной статье дается обзор тенденций развития семейных отношений в Узбекистане. Анализируются статистические данные, предоставленные Научно-исследовательским центром Нового экономического фонда. Кроме того, проведено исследование для изучения роли субъективных факторов в семейном счастье в области философии, социологии, юриспруденции, психологии и педагогики.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, семейное счастье, брак, индекс счастья, семейные функции, эволюция семейных отношений.

Family happiness in the religious system: social-philosophical analyzes

Abstract. This article gives an overview on the development trends in family relations in Uzbekistan. The article analyzes the statistical data provided by the New Economic Foundation Research Center for World Behavioral Index. In addition, research was conducted to investigate the role of subjective factors in family happiness in the field of philosophy, sociology, jurisprudence, psychology and pedagogy.

Keywords: family, family values, family happiness, marriage, happiness index, family functions, evolution of family relationships.

Baxt axloqiy ong va uning faoliyatiga taalluqli tushuncha hisoblanib, insonning maishiy va ijtimoiy turmushidan ichki mammunligini his etib, obyektiv vaziyatni yoki subyektiv holatni tavsiflaydi. Shu sababli, fanda baxtiyorlik indeksining ko'rsatkichlari belgilangan va uning asosida jahon baxt indeksi (The happy planet Index) bo'yicha "New Economic Foundation" tadqiqot markazi tadqiqotlar o'tkazib, davlatlar reytingini belgilab beradi [1]. Bu reyting ko'rsatkichi turli davlatlar aholisining hayotdan mammunligi va undan zavq olish tarzini tavsiflab, jamiyatda idrok va tafakkur madaniyatini shakllantirishni ijtimoiy-madaniy ahamiyatdorlik darajasini belgilash imkonini beradi.

Baxt insonni alohida holatdan (jarayondan) qoniqqanlikni, baxtiyorlik esa ijobiy kechinmalaridan zavqlanganlik sababli mammuniyatni harakatlarni ifodalash, munosabat bildirish, turli imoshoralar tarzida ifodalab beradi. Shu sababli, har bir inson aniq maqsadni belgilab, baxtga erishish uchun layoqat va salohiyatini ongli tarzda yo'naltiradi. Baxtni shaxsiy hayotni namunaviy kechishini ta'minlay olganligi, egallagan kasb tufayli ijtimoiy mavqe va nufuzga ega bo'lganlik bilan ham bog'lab, klassifikatsiyasini amalga oshirish falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlarida kuzatiladi. Bu klassifikatsiyalar qatorida oilaviy baxt mazmundorligi jihatidan, inson hayotining turli jabhalari bilan bevosita bog'liqligi sababli alohida o'ringa ega. Oilaviy baxt qadriyat sanalib, uning shakllanishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida oilaviy baxtni ta'minlashda bevosita ishtirop etuvchi ijtimoiy-falsafiy omillarni aniqlashga harakat qildik. Buning uchun ijtimoiy institut sifatida oilaning tarbiyalovchi, maqsadga yo'naltiruvchi, safarbar etuvchi, moslashtiruvchi, hordiq chiqaruvchi, nasl qoldiruvchi, psixoterapevtik, baxtga yerishtiruvchi kabi funksiyalarini bajarishini inobatga olib, uning zamirida insonni kamolotga yetaklash mujassamlashganligini belgilab oldik. Ta'kidlanishicha "oiladagi barqarorlik inson kamoloti uchun substrat hisoblanib, uning barqarorligi bir nechta omillarga bog'liq bo'lib, ularning tuzilmaviy jihatlarini inobatga olib, obyektiv va subyektiv kabi guruhlarga ajratish mumkin" [13] ekan. Ilmiy manbalarning qiyosiy tahlili va sotsiologik so'rovlarning natijasi asosida ularni quyidagicha ko'rsatib o'tish lozimki, obyektiv guruhga oilaning doimiy yashash joyining mavjudligi (makon), oilaning moddiy farovonligi, moddiy jihatdan oila a'zolari, ya'ni er-xotin o'zlarini ta'minlay olishi, oila a'zolarining soni kabilarni kiritish mumkin. Subyektiv guruhga esa oilada o'zaro munosabatlar tarzi, oila a'zolarining ma'lumot darajasi, oila a'zolarining ish bilan ta'minlanganligi, oila a'zolarining shaxsiy ma'naviyati, oila a'zolarining huquqiy madaniyati kabilarni kiritish mumkin.

Oilaviy baxtni ta'minlashda subyektiv omillarning roli va ishtirop darajasini belgilash uchun falsafa [4], sotsiologiya[14], huquqshunoslik[15], psixologiya[3] va pedagogika[10] fanlari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlilini amalga oshiridik. Aniqlanishicha, oilaviy baxtni ta'minlashda:

- yoshlarning oila va nikoh haqidagi tasavvurlari;
- oilaning funksiyalari haqida bilimdonligi;
- er-xotinning oiladagi roli haqida tasavvurining shakllanganligi;
- oilaviy hayotda vujudga keladigan maishiy va moddiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishga doir bilimi;
- farzandli bo'lish, ya'ni ota va onalik mas'uliyatini anglay olishi;
- ota-onalarning kelin/kuyovning vazifalari va roli haqidagi tasavvuri;
- ota-onalarning qaynona/qaynotalik vazifasini bajara olishi;
- oila a'zolarining yosh oilaga bo'lgan munosabatlari va boshqalar.

Oilaviy baxtga erishishni ta'minlash uchun, oilaviy munosabatlar evolyutsiyasini kuzatish lozim bo'ladi. Chunki, shu davr davomida er va xotinlar oilaviy baxt qadriyat ekanligini anglab, uni ta'minlash uchun harakat qilishadi. Nikohni davomiyligiga ko'ra oilalar quyidagicha guruhlanadi:

- 1 yilgacha – o‘ta yosh oilalar;
- 1-3 yil – yosh oilalar;
- 3-5 yil – o‘rta yoshli oilalar;
- 5-10 yil – yetuk yoshli oilalar;
- 10-19 yil va undan ortiq – keksa yoshli oilalar.

Har bir davr ma’lum bir nuqtadan boshlanadiki, uni birinchi bosqichi sifatida moslashish, ya’ni kelin va kuyov bir-birining individual ma’naviy dunyosiga “kirib borish”, o‘zaro ko‘nikishi, oilaviy majburiyatni o‘zlashtirishi va bajarishi, oila hayotining yo‘lini tanlashi, bo‘sh vaqtini maroqli o‘tkazishni tashkil etishi, bir-birlarini vazifadorligi jihatidan to‘ldirib borishni o‘rganishi kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Yosh kelin va kuyovda hali birgalikda umrguzaronlikning mahorati shakllanmagan davrda oilaviy majburiyatlarni to‘lig‘icha his qilmaslik, bir-birining xohishi, kayfiyati va fikri bilan hisoblashishi endi o‘rganilayotgan jarayonda, kelin-kuyovlarga shaxsiy va oilaviy hayot tarzini ta’minlashda muvozanatni ta’minlashga doir bilim va tajriba yetishmasligi sababli, ularga hayotiy tajribalarga suyanibgina emas, balki aniq vaziyatni inobatga olgan holda kompetentli maslahat berish lozim bo‘ladi. Shu sababli, “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida oila institutining hayotini rejalashtirish, oila a’zolarini farovon hayot tarzini ta’minlash masalalariga majmuaviy tarzda yondashilgan. Jumladan: “oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatga erishishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko‘rsatish, chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada amalga oshirish” ko‘rsatib o‘tilgan. [1]

Shu bilan birga mamlakatimizning har bir tumanida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining /3808/1410-sonli qarori asosida “Oila markazlari” tashkil etilib, oilalar hayotini ta’minlashga amaliy yordam ko‘rsatib kelinmoqda. Masalan, yoshlar endigina er va xotin roliga kirishishayotgan, er-xotin shaxsi shakllanayotgan bir davrda, ulardagi hayotiy tajriba yetishmasligi natijasida ma’naviy kamolot jarayoni silliq kechmaydi. Natijada turli shakldagi ziddiyatlar va kelishmovchiliklar vujudga keladi. Oilaviy hayotda muvozanatni ta’minlash jihatidan bu davr oilaning og‘ir va xavfli davri hisoblanadi. Bu davrda katta va kichik masalalarda o‘zaro qaror qabul qila olmaslik, bir-biriga turli da’volar va ochiq tarzda e’tirozlar bildirish bilan xarakterlanadi. Shu sababli, bu davrda oila ma’naviyati masalasi bo‘yicha yoshlarga maslahat va mahorat darslaridan saboq olishga ehtiyoj seziladi. Bunda Oila markazlari bilan bir qatorda mahalla raisi va faollari bu masalaga alohida e’tibor qaratib, aybdor yoki ayblov chiqarish emas, balki masalaning yechimiga ilmiy jihatdan yondashishlari maqsadga muvofiqdir.

Nazariy jihatdan ikkinchi bosqichda oila rivoji bolaning tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bola er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarning yanada o‘zgarishiga, ya’ni ularning otalik va onalik burchlarini shakllanishiga sabab bo‘lib, vaqt va oilani moddiy ta’minlash masalasini qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi. Bu paytda yosh ota va onalarda maqsad va qarorlar birligiga asoslangan munosabatlar hali shakllanib ulgurmagan bo‘ladi. Natijada yoshlar hayotiga katta avlodning aralashuvi yaqqol kuzatiladi. Agarda katta avlod vakillari hayot chig‘irig‘idan pozitiv xulosa chiqarib, yoshlarga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantirsalar, oilaviy hayot jarayoning galdeg‘i o‘sish jarayoning samarali kechishi ta’minlanadi. Shunga qaramasdan, yosh ota va yosh onalarga oilada farzand kamolotini ta’minlash masalasiga doir tibbiy, pedagogik, axloqiy va ruhiy jihatlardan faqatgina maslahat emas, balki amaliy yordam berish maqsadga muvofiqdir.

Oila rivojining uchinchi bosqichi er va xotinni bir-birini o‘zaro tushunishi va bir-biriga yon bosib hayotguzaronlik qilishi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda oilada er, xotin va farzand hamda boshqa avlod vakillarining o‘rni aniq belgilangan bo‘ladi, ularni o‘zgartirishga oid ortiqcha harakatlar ham kuzatilmaydi. Agarda tashqi (birovlarining ta’siriga tushmaslik, ya’ni aytdi, dedi kabilalar) omillarning ta’siri kuzatilmasa. Lekin qaynota va qaynonalarning oila hayotini ta’minlashdagi ishtiroti bu davrda sezilari bo‘ladi. Ular namuna, ibrat ko‘rinishida farzand tarbiyasiga yaqindan amaliy yordam berish bilan birga, oilaning moddiy ta’minotiga ham hissa qo‘shadilar. Shu tarzda yosh onaning shaxsi shakllanishi bilan birga, unda bo‘lajak qaynona rolini egallashga oid tasavvurlar shakllanadi. Ota shaxsida ham turli ko‘rinishdagi o‘zgarishlar kuzatiladi. Ularga ota va onaning farzand oldidagi majburiyati, ota va onaning burchiga oid maslahat berish tavsiya etiladi.

Oila rivojining to‘rtinchi bosqichi barqarorlik va mustahkam munosabatlar bilan xarakterlanadi. Bolalar o‘sib oilani yanada mustahkamlovchi asosga aylanishadi, bu vaqtida er-xotin o‘rtasida juda kam hollarda kelishmovchiliklar kelib chiqishi kuzatiladi. Ammo bu davrda er yoki xotinni doimiy ish bilan ta’minlanganligi oila hayotini muvozanatda saqlash uchun alohida ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirib, oila a’zolarini ish bilan ta’minlash uchun o‘qitish, qayta tayyorlash kabi kurslarini joriy etishlari samarali natija beradi.

Oila rivojining beshinchi bosqichi er-xotin munosabatlarining keyingi barqarorlashishi bilan izohlanadi. Bu davrda bolalar ulg‘ayib borishi bilan ota-onalarning tarbiya berish bilan bog‘liq hamkorligi masalasi dolzarblashadi. Bu davrda er-xotinlar kelishilgan tarzda farzand tarbiyasiga yondashishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bildirgan fikrlarni umumlashtirib, ta’kidlash mumkinki:

- birinchidan, oilani ijtimoiy institut sifatida ilmiy o‘rganish turli fanlar doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, ilmiy asoslangan tavsiyalar yaratilgan va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llash uchun ijtimoiy mexanizm yaratilgan, real vaziyatdan kelib chiqqan holda takomillashib bormoqda;

- ikkinchidan, inson kamoloti masalasini ilmiy o‘rganishda aniq metodikalarni qo‘llash nafaqat yosh, jins, etnik, hududiy, kasbiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi, balki kamolotga erishish jarayonining joriy holatini belgilab, uni ideal holatga yetkazish uchun zaruriy hisoblangan ma’rifiy tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish uchun amaliy xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining Farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda) strategy.regulatoin.gov.uz
2. Кричевская Е.В. Историко-культурные представления о роли отца в российской семейной традиции // Дисс. ...канд. пед. наук. – СПб., 2009. – 214 с.
3. Психология семейных отношений с основами семейного консультирования / Под ред. Е. Силяева. – М.: Академия, 2011. – 192 с.
4. Ращковский, Е.Б. Феномен семьи (междисциплинарные заметки) // Вопросы философии. – 2010. – № 10. – С. 27-37.
5. Соколюк Н.В. Проблема родительства в русской философской традиции // Вестник Тихookeанского государственного экономического университета. – 2010. – № 55. – Т. 3. – С. 119-134.
6. Социология семьи: учебник / Под ред. А.И. Антонова. – 2-е изд., переработанный и доп. – М.: Инфра-М, 2007. – 640 с.
7. Сычева, О.А. Медиатор в семейном споре (к вопросу о подготовке специалиста по семейной медиации) // Ульяновский государственный педагогический университет им. Н.И. Ульянова. Ульяновск. – 2012. – № 2 (2). – С. 125-130.
8. Филиппова, Г.Г. Психология материнства. – М.: Изд-во Института психотерапии, 2002. – 240 с.
9. Чикалова, Е.А. Социальные представления об отцовстве и нормы маскулинности у молодых мужчин // Автореф.. дисс. ...канд. психол. наук. – СПб., 2014. – 208 с.
10. Шапошникова Т.Е. Родительство как педагогический феномен // Вестник Новосибирского государственного университета. – 2010. – № 2. – Т. 11. – С. 86-91.
11. Шрайбер А.Н. Функционирование социального института родительства в Алтайском крае (по результатам социологических исследований 2009-2012 гг.): Дисс. ...канд. социол. наук. – Барнаул, 2014. – 198 с.
12. Эпштейн М. Отцовство / М. Эпштейн. – СПб. : Алетейя, 2003. – 159 с.
13. Samarov R. Inson kamoloti va ijtimoiy muhit (oila instituti misolida). Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat asosi // Xalqaro ilmiy–amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2012. – В.198–200.
14. Сычева О.А. Медиатор в семейном споре (к вопросу о подготовке специалиста по семейной медиации) // Ульяновский государственный педагогический университет им. Н.И. Ульянова. Ульяновск. – 2012. – № 2 (2). – С. 125-130., Социология семьи: учебник / Под ред. А.И. Антонова. – 2-е изд., переработанный и доп. – М.: Инфра-М, 2007. – 640 с.

15. Гусева Т.С. Социальное обеспечение семьи, материнства, отцовства и детства в России: теоретические и практические проблемы // Автореф... дисс. ...д-ра юрид. наук.– М., 2012.– 53 с.

UDK: 1(09):17

**MUNIS XORAZMIY DUNYOQARASHIDA
IJTIMOIY-AXLOQIY FIKRLARINING TUTGAN O'RNI**

G‘.Sapayev

Urganch davlat universiteti
gulom-bs@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvar olim Munis Xorazmiy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, olimning ijtimoiy-axloqiy fikrlari va uning siyosiy qarashlariga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Munis Xorazmiy, ma'naviy meros, ma'rifatparvar, ijtimoiy-axloqiy va siyosiy qarashlar, “Devoni Munis”, “Munis ul-ushshoq”, jamiyat, do'stlik, adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik.

Роль социально-этических мыслей Муниса Хорезми в формировании его мировоззрения

Аннотация. В статье проанализирована социально-политическая среда и социально-экономическое состояние народа, в период жизни ученого просветителя Муниса Хорезми, также освещено социально-этические мысли ученого и его влияние на политические взгляды.

Ключевые слова: Мунис Хорезми, духовное наследие, просветитель, социально-этический и политические взгляды, “Фирдавс ул-иқбол” “Девони Мунис”, “Мунисул-ушшоқ”, общество, дружба, несправедливость, лицемерие.

The role of Munis Khorezmiy's socio-ethical thoughts in his views

Abstract. The article analyses social and spiritual environment, the socio-economic condition of the people during the life period of Muniz Khorezmi, also highlighted the socio-ethical thoughts of the scientist and his influence on political views of that period.

Keywords: Munis Khorezmy, spiritual heritage, illuminator, socio-ethical and political views, “Firdavs ul-iqbol” “Devoni Munis”, “Munisul-ushshoq”, community, friendship, injustice, hypocrisy.

XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida Xorazm ma'rifatchiligi, ilm-fan va adabiyoti rivojida hamda jamiyat ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan ma'rifatpar olimlardan biri shubhasiz Munis Xorazmiydir(1778-1829). Munis mohir hattot, shoir, yozuvchi, zabardast tarjimon va tarixchi bo'lib qolmay, o'z davrining kuchli ma'rifatparvar olimi bo'lib, o'sha davr va undan keyingi Xorazm ma'rifati taraqqiyotiga, adabiy muhiti rivojiga katta hissa qo'shgan. Ayniqsa uning tarjima va tarixiy asarlari Xorazm tarixini yoritishda o'sha davr va bugungi kun uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu xususda akademik V.V.Bortold Munisning tarixiy asarlariga yuqori baho berib, “Munis va Ogahiyarning mufassal xronikalari Xorazmning oxirgi uch asr tarixiga oid ma'lumotlarimizning asosi sifatida ko'p zamonlargacha saqlanib qolsa kerak,” [1; 59] degan edi.

Munis asarlarida uning ijtimoiy-axloqiy va siyosiy fikrlari alohida o'ringa ega bo'lib, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ta'siri katta bo'lgan. Zero, Munis Xiva xonligining eng murakkab siyosiy davrida, ziddiyatlarga to'la ijtimoiy muhitda yashab ijod qilgan shoirdir.

Shuning uchun bo'lsa kerak, ma'rifatparvar olimning “Devoni Munis”, “Munisul-ushshoq” kabi yirik asarlarida, tarixiy-geografik va siyosiy mavzuga oid “Firdavs-ul-iqbol” (“Baxt bog'i”) tarjima asarida ijtimoiy-axloqiy mavzularga katta urg'u berilgan. Munisning yuqoridagi asarlarida ijtimoiy mazmunga ega ko'plab g'azallar, ruboiy, qit'a va muxammaslarni uchratish mumkin.

Shoirning ijtimoiy-axloqiy fikrlarining alohida xususiyatlardan biri shundaki, u o'z asarlarida asosan xon saroyidagi ma'naviy muhit va iflos ishlarni, maishiy va axloqiy buzuqlikni, amaldor va zadogonlarning xalqgaadolatsiz munosabati va zulmini ayovsiz tanqid qilib, oqibatda xalqning, oddiy kishilarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolganligini ro'yrost ochib beradi.

Mutafakkir o'z asarlarida o'sha davrdagi tuban illatlarni, yuqori tabaqa va toifadagi kishilarning axloqsizligini, boylikka hirs qo'yib, nafsga berilganligini, taxt uchun kurash va bu yo'lda har qanday qabib ishlarga qo'l urishlarini ayamay fosh qiladi. Jamiyatda avj olgan o'zboshimchalik, zo'ravonlik,

ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, o‘g‘rilik, poraxo‘rlik,adolatsizlik kabi illatlarni, ayniqsa o‘z davrining boy va mulkdorlarini, amaldorlarini ochiq tanqid qildi. Asosiy boyliklar, yer, suvgaga bo‘lgan ruhoniylar, qozi va amaldorlar kabi hukmron sinfning dehqonlarni xonavayron qilayotganini qo‘rmay olib tashlaydi. Bu haqda shoir o‘z she’riy misrasida ushbu holatni qattiq qoralab shunday deydi:

*Xos o‘lib joh ahlig‘a in‘oim sohib tojlar,
Zulmi omidin berib jon non uchun muhtojlar.
Har kim ul zolimlar ollida tazallum ko‘rguzub,
Yeb alardin bosh uza mushtu yuz uzra kojlar.
Axzu qatlu nahb mashg‘uli sitamgarlar tamom,
Elga sohib ixtiyor o‘lmish nega Xajjojlar.
Ahli donishlar to‘sharga buryoye topmayin,
Xayli nodonlar solib masnad uza debojlar.* [2; 331-332]

Darhaqiqat, Munis o‘sha davrda xalqning xonavayron bo‘lishiga, talon-taroj bo‘lib va ayanchli ahvolga tushishiga faqatgina xon va amaldorlarning xalqni qayg‘urmasligi, zulmi va adolatsizligi bo‘libgina qolmay, balki ularning faqat o‘zlarining rohatini o‘ylab, axloqiy va maishiy buzuqlikga berilganligi, maishat va ishratbozlik, ichkilikbozlik kabi illatlarga ruju qo‘yanligi, saroydagi guruhbozlik va o‘zaro ig‘vo-yu g‘iybatlar ham bunga sabab bo‘lgan, deb biladi.

Munisning ma’naviy merosi tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, uning ijtimoiy-axloqiy fikrlari, ijtimoiy-siyosiy qarashlariga katta ta’sir qilgan. Zero, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari zamirida u yashagan siyosiy muhit, ijtimoiy sharoit va shular asosida shakllangan ijtimoiy-axloqiy fikrlari yotibdi.

Munis siyosiy fikrlarida xon va amaldorlarning mamlakatni boshqarishda xalq manfaatini emas, balki ko‘proq o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yishini, taxt uchun turli nizolar va kurashlardan ham maqsad shu ekanligi, raiyatga nisbatan adolatsizlarcha munosabatda bo‘lishini va siyosiy nayranglarini qattiq qoralaydi. Taxt uchun kurash va siyosiy ziddiyatlar oqibatida xalq juda ko‘p aziyat chekkan. Hatto bu masalada saroydagi ayrim din va ma‘rifat peshvolar hamda adolat ustuni bo‘lishi lozim bo‘lgan qozikalonlar ishidan ham noroziligini bildirib, oxir oqibat bu holatlar davlat boshqaruvini izdan chiqarib, xalqni xonavayron qilishini kuyunub ta’kidlaydi.

*Bu dapd inshosining kulfat g‘uzori,
Bu g‘am devonining hasrat nigori.
Siyahpo‘ish musibat, ya’ni xoma,
Qilur tahrir mundog‘so‘g‘noma.* [3; 227]

XVIII-XIX asarlarda Xiva xonligida o‘zaro ichki nizolar, ziddiyat va taxt uchun kurashlar, boylik ilinjida boshqa yerlarga hujumlar yetmaganday, xalqning ahvolini og‘irlashtiruvchi mamlakat ichida amalga oshirilganturli soliq va iqtisodiy islohotlar sabab qo‘zg‘olonlar ham tez-tez bo‘lib turardi. Qo‘zg‘olonlar esa yovuzlarcha bostirilar edi. Bunday siyosiy voqealar, qarama-qarshiliklar bu davrda yashab ijod etgan shoir va mutaffakir Munis ijodiga ta’sir etmasdan qolmadidi. Shuning uchun ham shoir asarlarida yuqorida bildirilgan ijtimoiy-siyosiy illatlar muhim o‘rinni egallagani bejiz emas:

*Erur charx bir turfa berahmu qotil,
Ki osmish qilich mohi navdin hamoil.
Shafaq demakim, mehr qoni to‘lumish,
Ko‘mar chog‘ida yerga qilib nim bismil.* [4; 316]

Falsafa tarixidan ma'lumki, aksariyat Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida davlat boshqaruvi va hukmdorlik, monarxiyaga asoslangan davlat tuzumini yoqlaganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni, davlat tepasida adolatli va fozil shoh turishi kerak deb, hisoblaydilar, fikr-o‘ylarini odil shohda ko‘rdilar, asarlarida odil shoh obrazini yaratdilar. Shoirlar davlatni bunday shoh boshqarsa, jamiyat mukammalikka erishadi, mamlakat rivoj topadi, mo‘l-ko‘lchilik va farovonlik yuz beradi deb fikr yuritganlar. Munis Xorazmiy ham boshqa mutafakkirlar singari butun umidini odil shohga bog‘lagan va siyosiy dunyoqarashida adolatlatparvar hamda xalqparvar hukmdor siyoshi muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ular shohlarni mehnatkash xalqqa nisbatan odil va saxiy bo‘lishga, beva-bechora va mazlumlarga yordam berishga da’vat qiladi.

Munisning ijtimoiy va siyosiy qarashlari nafaqat uning she’riy asarlarida, balki tarixiy asarlarida ham ilgari suriladi. Masalan, uning «Firdavs ul-iqbol» («Baxtlar bog‘i») tarixiy asarida Xorazmning qadimgi davridan to 1825-yilgacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot atroflicha yoritilgan. Q.Munirovning yozishicha, «Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva

xonligining 1825-yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixi mufassal bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va shuningdek, Xiva xonlarining qo‘sni turkman va qorqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.»[5; 314]

Munis o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarida adolatparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, mamlakat tinchligi va osoyishtaligi, xalqning to‘kin-sochinlikda, baxtli va farovon hayotda yashashligi shohning odilligiga bog‘liq, deb hisoblaydi. Shoир qayerda odil shoh bo‘lsa o‘sha yer obod, mamlakat taraqqiy qiladi, xalqi esa baxtli yashaydi, dedi va shohlarga shunday murojaat qiladi:

*Sabot istasang mulk bunyodiga,
Adolat bila yet ulus dodiga.
Adolatdin o‘ldi el osoyishi,
El osoyishi - mulk oroyishi.
Qayu mulkkim shohi odildurur,
Anga barcha el ko‘ngli moyildurur.
Sharaf ko‘rki shahdinadolat chog‘i,
Erur xalq xushnud, xoliq dog‘i.[6; 16]*

Shoirning siyosiy dunyoqarashi ijtimoiy-axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki siyosiy hokimiyat vakillarining ma’naviy qiyofasi, axloq, insoniy fazilatlari tabiiyki mamlakat siyosiy boshqaruvini idora etishga, davlat va jamiyat boshqaruviga ta’sir qiladi.

Munis qarashlarini tahlil qilib chiqib aytish mumkinki, mutafakkir davlatdagi siyosiy boshboshdoqlik va tanazzulning, xalqning xonavayron bo‘lishiga shoh va amaldorlarning axloqsizligi va kayfu-safoga berilishi, xudbinlik va shafqatsizligida deb biladi. Zero, Munis saroy hayoti bilan yaxshi tanish bo‘lganliklari sababli u yerdagi amaldor va aslzodalar, zodagon boylarning yaramas ishlaridan xabardor edi. U shoh va uning atrofidagi saroy amaldorlarining maishatga va boylikka berilib, xalqqa nisbatanadolatsizlik va jabr qilayotganligini, noto‘g‘ri va yomon ishlar bilan shug‘ullanayotganliklari guvohi bo‘ladi. Bu to‘g‘rida Munis o‘zining “Ey falak” she‘rida nolib shunday yozadi:

*Ey falak, muncha nedur aylamak izhori sitam,
Urubon har nafas el bag‘riga yuz nishtari g‘am.
Yaxshilarga yetib anvoi hazon qahringdan,
Kim yomon eresa alar zahmig‘a qilding marham.
Kiminikim ko‘rsang ichar ishrat ayog‘i bila no‘sh,
Ul ayog‘ichra ezib berding ancha zahri alam.
Sarv qadlarg‘a qilib haml balolar borin,
Qarimay qilding alar qaddin o‘zing yanglig‘ xam.[6; 24]*

Shoir shohga murojaat qilib ularni xalq taqdiri, g‘am-tashvishlaridan ogoh bo‘lishga, mazlumlarga zulm qilmaslikka, muhtojlarga yordam berishga, o‘z qo‘l ostidagilarga adolatli bo‘lishga, ularga nisbatan saxiy va bag‘rikeng bo‘lishga da’vat etadi.

Afsuski, Munis o‘z zamonasida buning aksini ko‘rib, ma’nan ezilib, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ro‘y-rost ochib tashlaydi. Masalan, uning “Xos o‘lub shoh ahlig‘a” nomli g‘azalida shoh va amaldorlarning haddan ziyodadolatsizligi va zo‘ravonligi, muhtojlar ko‘payib ketganligi, zodagonlar ayshu ishratda bo‘lib, ilm va ma‘rifat ahli og‘ir qiyinchilikda qolganligini alam bilan yozadi: “Ahvol shu darajaga borib yetdiki, - deydi Yu.Yusupov,- zulm va istibdodga chiday olmagan yo‘qsil xalq, Xiva xonligi hududini tashlab, har tomonga bosh olib ketishga majbur bo‘ldi”.[6; 7]

Munisning ushbu qarashlari tahlilidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, shoир ijodining zamirini va mazmunini adolatparvarlik va insonparvarlik, ma‘rifat, insof va diyonat, mehr-oqibat, halollik kabi fazilatlar tashkil qiladi. Tadqiqotchi olim T.Ahmedovning fikricha, «Munis ijodining tub mohiyatini adolat va insonparvarlikni targ‘ib etish, shoир va olimlarni, hunarmand va mehnat ahlini samimiy kuylash,adolatsizlikni, ma‘rifatsizlikni keskin fosh etish, ilmga muhabbat, hunarga e’tiqod, ijodkor ahliga hurmat, do‘stlik va samimiy muhabbatni ulug‘lash, mardlik, shafqat, insof, marhamat, olijanoblik kabi g‘oyalar tashkil etadi.»[7;413] Zero Munis insondag‘i eng yuksak insoniy fazilatlarni doim qadrlagan.

*To ‘qquz ko‘kdan o‘tsang ham etma g‘ururi ,
Ki faqr ahli oldida hechdur bu to‘qquz ,
Emas mard, turg‘onni yiqlig‘ onni turg‘uz.[8; 132]*

Ushbu satrlar Munis insonparvarligining shiori sifatida gavdalananadi.

Adabiyotlar

1. Академик В.В.Бартольд. Новый источник во истории Хорезма. Известия Узбекского филиала АН СССР. 1941 г.
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – Т.: O'qituvchi, 1995.
3. Munis va Ogahiy. «Firdavs ul-iqbol». (Baxtu saodat jannati). Mas'ul muharrir. Sh. Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010.
4. Munis Xorazmiy. «Saylanma». Nashrga tayyorlovchi Yu. Yusupov. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.
5. Ma'naviyat yulduzları. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
6. Munis Xorazmiy. «Saylanma». Nashrga tayyorlovchi Yu. Yusupov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
7. O'zbek adabiyoti tarixi. IV- tom. – T.: Fan, 1978.
8. Munis. Tanlangan asarlar. – T.: O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957.

UDK: 1599:37

SOG'LOM OILANI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY MEROSNING TUTGAN O'RNI

S. Ro'zimurodov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad har tomonlama sog'lom va ma'naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu maqolada oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oilada farzandlarni komil insonlar qilib tarbiyalash masalasi o'rtaga tashlangan. Unda ma'naviy merosimizning oilani mustahkamlashdagi falsafiy ahamiyati olib berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, farzand, tarbiya, ma'naviyat, qadriyatlar, ota-onas, mahalla, an'ana, madaniyat, meros, yoshlar.

Роль духовного наследия при формировании здоровой семьи

Аннотация. Основная цель осуществляемых в нашей стране реформ состоит в воспитании всесторонне здоровой и духовно зрелой молодежи. В настоящей статье обсуждаются роль семьи в обществе, воспитание детей совершенными личностями. Так же в статье раскрыто философское значение духовного наследия в деле упрочнения семьи.

Ключевые слова: семья, ребенок, воспитание, духовность, ценности, родители, махалля, традиции, культура, наследие, молодежь.

Role of spiritual heritage in the formation of a healthy family

Abstract. The main goal of the reforms carried out in our country is to educate fully healthy and spiritually mature youth. This article discusses role of the family in society, the upbringing of children by perfect personalities. The article also reveals the philosophical significance of the spiritual heritage in strengthening the family.

Keywords: family, child, upbringing, spirituality, values, parents, mahalla, traditions, culture, heritage, youth.

Bugungi kunda mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri mustahkam oilani shakllantirish, jamiyatda har bir shaxsning ajdodlar ma'naviy merosi borasida chuqur bilimga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir. O'z xalqining kelajagi haqida qayg'uradigan inson avvalambor ma'naviy meros tushunchasining mazmun-mohiyatini yaxshi bilishi bu tushunchaning turmushimizni mustahkamlashda oilaning tutgan rolini anglab yetishi kerak. Oilaning har bir shaxs hayotidagi rolini, ayniqsa, farzandlar tarbiyasini prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tushuntirib berar ekan, «Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shilq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosи, noqonuniy

migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda» (1-505), deb ta'kidlaydi. Mana shu jaryonlarning barchasi uchun yo'l bu bizning yuksak ma'naviy merosimizdir.

Ma'naviy meros – ota-bobolardan qolgan eng aziz muqaddas kitoblar, madaniy, ma'naviy qadriyatlар, an'analar, ulug' umuminsoniy xislatlar, e兹gulik yo'lida odamlarga xizmat qiladigan g'oyalar to'plamidir. Shu boisdan bu buyuk qadriyatni asrab-avaylash, uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini kuchaytirish, barchamizning vazifamiz sanaladi. Ma'naviy merosni har bir inson uchun muqqadas sanalgan oiladan boshlab shakllantirib borish lozim. “Oila – har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, manaviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila – jamiyat negizi, bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushinish mumkin... Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlarga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi” (2-21). Ana shu oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish uchun davlatimizning amalga oshirayotgan islohotlarini barchamiz chuqr anglashimiz va o'zimizning bu muqaddas dargohdan ajralmas qism ekanligimizni his qilmog'imiz lozim.

Aslida oila – (arabcha - bola-chaqa, xonodon, urug', avlod degan manolarni anglatib), nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh hisoblanadi. Oila tushunchasiga bugungi kunga qadar xilma-xil ta'riflar ham keltirilgan. Masalan, “Oila – kishilarining tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, nasl qoldirish) ma'naviy (er-xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat tuyg'usi va hakozo) iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi bo'lib, inson yashashi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi, uning turli ehtiyojlarini qondiruvchi makondir” (3-243) deb ham ta'rif berilgan.

Shunday ekan, oila deb atalmish bu makon yuqoridagi fikrlar bilan bir qatorda er-xotin o'rtasidagi munosabatning haqqoniyligiga, bir-biridan sir yashirmsligiga asoslanishi, ayol eriga nisbatan e'tiqod qilmog'i, ro'zg'ordagi muammolarni eri bilan hamjihatlikda, birdamlikda olib bormog'i va shu tarzda yashashi kerak. Bu jihat albatta oilada farzand tarbiyasiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida shuni aytmoq kerakki, biz ota-onalar bir-birimizdan yashirin holatda ularga mehr-muruvvat ko'rsatishimiz kerak. Aks holda farzandimizni kelajakda oilamizni mustahkamligiga hech nima bilan qoplab bo'lmas darajada talofat yetkazishiga sababchi bo'lishimiz va oilamiz sha'ni qadr-qimmatiga putur yetkazishimiz mumkin. Ma'lumki, bola ota-onasini bir-biriga bo'lgan hurmatidan, ularni mehr-muhabbatidan ozuqlanadi va tarbiyalanadi. Demak, farzandlarimizga birdek ta'lim-tarbiya bilan moddiylik va ma'naviylikni muvozanatda tutgan holda ta'lim-tarbiya bermog'imiz zarur.

Oila tushunchasi uzoq tarixga borib taqaladi, hatto dindan oldin ham mavjud bo'lib, odob-axloq normalari bilan mustahkamlangan. Erkakning ayloga bo'lgan munosabati, uni himoya qilish va hokazolar ayloning erkak oldidagi burchi bilan ham mustahkamlangan. Qolaversa, an'analar asosida urug'boshi yoki jamoa sardorlari boshchiligidagi marosim uyiştirilib, nikohlangan va axloq normalari bilan tanishtirilib, ko'pchilik oldida yosh ikki oila a'zolari ya'ni yigit va qiz bir-birlariga so'z bergenlar. Yana ular marosimlarda ishtirok etishlari, ota-onalari oldida hurmat bajo keltirishi lozim bo'lgan. Bu ham madaniyat va ma'naviyatning ko'rinishi bo'lib, oila rishtalari mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ikki xil jinsga mansub bo'lgan shaxsnинг roziligi evaziga qurilgan oila, ikki kishi hissiyotidan iborat emasligi, oiladagi farzand tarbiyasi uni kamolotga yetkazish, bolalarini an'ana, qadiriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashdan iborat majburiyatlari ham bo'lgan. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Shunday ekan, oiladagi milliy-ma'naviy merosga sodiqlik an'analar o'z-o'zidan yoki bo'lmasam bir necha kun, yillarda paydo bo'lgan tushuncha emas, balki asrlar davomida sayqallangan qarashlar tizimidir.

Hozirda tarixning ulug'verligi kelajak uchun xizmat qilmoqda, ajdodlarimizning an'analarini davom ettirish har bir oilaning bosh maqsadidir. Oila mustahkamligi uchun albatta uning asoschilarini er va xotinning bir-biriga ishonchi, sadoqati bilan, ularning donoligi talab etiladi. Axir bola oilada umri davomida egallaydigan bilim va tasavvurlarini ota-onadan o'zlashtiradi. Tarbiyasiga kelsak, tarbiyan dan oldingi tarbiya, ya'ni ona qornidagi tarbiya ham muhimdir. Individning nuqson siz tug'ilishi umri davomida sog'lomligi garovidir. Sog'lom bolaga odob-axloq haqida o'rgatmoq osonroq va bu samaralidir hamda farzand oilani mustahkamligiga yana bir bor bosh vazifasini o'taydi. O'zbek

oilasida sog‘lom bola va uning tarbiyasi muhim va qadrli an’anadir. Shu o‘rinda ta’kidlamoq kerakki, oila qanday bo‘lsa, jamiyat shunday bo‘ladi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda oila muhim ahamiyat kasb etadi. Oila tarbiyasi, ota ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar masalasida milliy-ma’naviy merosimiz, ajdodlarimizning nodir axloqiy asarlariga tayanishimiz foydalidir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek “...aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi” (4-53).

Oilaning sog‘lomligi bola sog‘lomligining asosidir. Demak, mulohazamizga qaytib, shuni aytmoqchimizki, oila yuksak axloq normalariga qurilishi, ya’nikim ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlар, milliylik, sodiqlik asnosida quriladigan oila – otalar o‘giti, ma’naviy boylik, hikmatli so‘zlar, hayotiy tarix kechinmalari, vatan tuyg‘usi bilan oziqlanishi kerak. Eng asosiysi, unda maqsad bo‘lishi, ezgu fikrlar bo‘lishi lozim. Inson yaralibdiki, ongi bilan mavjuddir, shu sababdan inson oilada xoh ayol xoh erkak bo‘lishidan qa’tiy nazar o‘z fikriga ega bo‘lishligi, uning mustahkamligida oqilona va zukkolik bilan sabr bardoshli bo‘lib, o‘zbek oilasiga munosib yashamog‘i zarur.

Kundalik ijtimoiy jarayonda pokizalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, eng muhimi, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq holda kun kechirishi, har ishda to‘g‘riso‘zlik, sharqli, hayoli, or-nomusli, adolatli, diyonatli, vatanparvarlik kabi ma’naviy qadriyatlarni o‘ziga jo qilib, kelgusi avlodga yetkazmog‘i bilan – oila mustahkamlanishida oziq ildizini yaratadi va sog‘lom turmush tarzini tashkil etadi. Shu asosda biz farzandlarimizni yetuklik sari boshlay olamiz hamda bobolardan bizlarga qolgan milliy-ma’naviy meros bilan immunitetini shakllantirib erkinlikka qo‘yib tarbiyalamog‘imiz zarur. Shundagina oilamiz jamiyatda o‘rin topa oladi. Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqidir. Oilaning jamiyatdagi rolini A.Fitrat ta’kidlar ekan, “Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi” deydi o‘zining “Oila” nomli asarida. Shu sabab ham bugun oila va uning muqaddasligini ta’minalash bilan oila mustahkamligini shakllantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Shu boisdan yurtimizda bir qator yillar, jumladan, 1998-yil “Oila yili”, 1999-yil “Ayollar yili”, 2000-yil “Onalar va bolalar yili”, 2012-yil “Mustahkam oila yili” deb nom olishi ham e’tirofga sazovorligi hamda davlat dasturlari ishlab chiqib amalga oshirilayotgani tafsinga sazovordir. Eng asosiysi, birinchi chaqiriq Oliy Majlis 9-sessiyasida qabul qilingan “Oila kodeksi” esa oilaning mustahkamligini ta’minalashda ularning huquqiy manfaatlarini muhofaza etishda huquqiy kafolat vazifasini o‘tamoqda.

Albatta bu davlatimizning oilalarga berayotgan yuksak e’tibori va mukofatidir. Bunday bir-birini to‘ldirib kelayotgan yilnomalar bizning davlatimizda joriy etilganligini inobatga olib chuqur anglab etmog‘imiz zarur. Bugun jahonda kuchli jadallahuv vaziyatida kuchli ma’naviy tajribaga ega bo‘lishi bilan oilamizni mustahkamligini saqlab qolmog‘imiz, dunyodagi globallashuv jarayonida har xil buzg‘inchi g‘oyalar iskanjasiga tushib qolmasligimiz, ular tufayli oilamizga qoplab bo‘lmaydigan zarar yetkazmaslik uchun bu yo‘lda davlatimiz tomonidan ma’naviyat va ma’rifatga berilayotgan e’tibor hamda shart-sharoitlar beqiyosdir. Oilamiz uchun birinchi bo‘lib moddiylik emas, balki ma’naviylik zarur ekanligini mana shu fikrlar orqali bilib olmog‘imiz e’tiborga molikdir. Kelgusi hayotimizda farzandlarimiz tarbiyasida o‘z samarasini berishi, ulardan bobolaridagi kabi erksevarlik tuyg‘ulari shakllanishiga intilishimiz lozim.

Kelajakda Jalolidin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi or-nomusli, tug‘ilib o‘sgran joyi uchun sadoqatli, Vatani uchun jonini beradigan mard, jasur o‘g‘lonlar va To‘marisdek, Nodirabegimdek va Bibixonom kabi ayollarning yetishib chiqishi uchun biz ota-onalar tarix haqida chuqur bilimga ega bo‘lmog‘imiz, farzandlarimiz irodasining baquvvat bo‘lishi uchun bobolardan qolgan madaniy va ma’naviy meroslarga e’tiqodimizni yuksaltirmog‘imiz kerak. “Temur tuzuklari”da aytilganidek, “Dilda e’tiqod butun bo‘lsa aslo naslimiz yo‘qolmagay, tilimiz unitilmagay, e’tiqod susaysa til emas, imon ham unitilgay, haqiqat – sihat-salomatlik, haqiqat - tartib, haqiqat - adolat demakdir. Kuch adolatdadir” (5-243).

Demak, oilada ishonch va rostgo‘ylik bilan uning mustahkamligini muovazanatda ushlasak e’tiqod bilan mutnazam harakatda bo‘lsak, Vatanini sevadigan kelajakda yurt uchun ota-bobolaridek, millati, Vatani, insonlar uchun beshyuz, ming yillab xizmat qiladigan, yurtimizni kuch-qudratini oshiradigan farzandni biz oilada tarbiyalaymiz. So‘zimizni muxtasar qilar ekanmiz, oila mustahkamligini ta’minalashda temir matonat va sir saqlamoqlik, oiladagi moddiy yo‘qchiliklar asta-

sekinlik bilan bartaraf bo‘lishini barchamizga ma’lum ekanligini anglashimiz darkor. Oilani qancha ma’naviy meros bilan bo‘shliq qoldirmay mustahkamlasak, davlatimiz taraqqiyotini va uning mustaqilligining abadiyligini shuncha ta’milagan bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 21-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 53-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 505-bet.
4. Falsafa: qisqacha lug‘at. –Toshkent: Sharq, 2004. – 243-bet.
5. Falsafa: qisqacha lug‘at. –T.: Sharq, 2004. – 243-bet.

UDK: 1:004.9

GLOBAL SIYOSIY TEXNOLOGIYALARING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Sh. A. Maxmudov

Samarqand davlat universiteti

Annotasiya. Maqolada siyosiy jarayonlar, axborot xurujlari va ularning oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar, shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy texnologiyalar muayyan davlatlar tomonidan o‘z hududi yoki hududining bir qismi doirasida ko‘zlangan siyosiy maqsadlarga erishishda qo‘llanilganligi, axborot makonining globallashayotganligi, siyosiy jarayonlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining intensiv qo‘llanishi siyosiy texnologiyalarning yanada kengayishiga olib kelayotganligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Siyosiy texnologiyalar, siyosiy madaniyat, siyosiy hokimiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, siyosiy tanglik.

Особенности глобальных политических технологий

Аннотация. Статья посвящена политическим процессам, информационным атакам и их предотвращению, а также использованию политических технологий со второй половины XIX века.

Ключевые слова: политтехнология, политическая культура, политическая власть, информационно-коммуникационные технологии, политический кризис.

Features of global political technologies

Abstract. The article is about political processes, information threats and works carried on preventing them, also usage of political technologies in its region or in a part of its region in the second half of XIX century, globalization of information space, widening of political technologies due to intensive usage of informational-communicational technologies.

Keywords: political technologies, political culture, political government, informational-communicational technologies, political threat.

Yer yuzining turli hududlarida keyingi o‘ttiz yil ichida juda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda turli inqiloblar, ekstremizm va terrorizm keltirayotgan muammolar sababli qator mamlakatlar chuqur siyosiy tanglik va beqarorliklarni boshidan kechirmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to‘qashuv va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o‘choqlari kamayish o‘rniga ko‘payib bormoqda.

Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu – zamon talabi», – deb ta’kidlagan edi[1].

Bunday sharoitda har bir davlat, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi o‘z xalqining tub milliy manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishga katta e’tibor qaratishi lozim.

Xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan voqealarning aksariyati G‘arb davlatlarining oldindan ishlab chiqilgan ssenariylari asosida amalga oshirilayotgan bo‘lib, bu jarayonlarda turli siyosiy texnologiyalardan samarali foydalanilmoxda.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy texnologiyalar muayyan davlatlar tomonidan o‘z hududi yoki hududining bir qismi doirasida ko‘zlangan siyosiy maqsadlarga erishishda qo‘llanilgan bo‘lsa, keyingi yillarda axborot makonining globallashib borayotganligi, siyosiy jarayonlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining intensiv qo‘llanilishi siyosiy texnologiyalar ko‘laming yanada kengayishiga olib keldi.

Siyosiy texnologiyalarning global darajada rivojlanib borishi quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liqdir:

birinchidan, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi, shuningdek, 2018-yilda dunyo aholisining 55,1 % global Internet tarmog‘idan, 68% mobil aloqadan, 42% ijtimoiy tarmoqlardan foydalananayotganligi siyosiy texnologiyalarini global darajada qo‘llash uchun keng sharoitlarni yaratdi;

ikkinchidan, hech qanday milliy chegaralarga bo‘ysunmaydigan umumiy axborot makonining shakllanib borayotganligi natijasida rivojlangan davlatlar uchun siyosiy texnologiyalaridan foydanib, o‘z milliy manfaatlariga mos bo‘lgan tashqi siyosatni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarni yaratdi;

uchinchidan, xalqaro munosabatlар rivojlanib borgan sari davlatlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib, ma’lum bir davlatda yuz berayotgan siyosiy jarayonlar boshqa davlatlardagi jarayonlarga ham tobora jiddiy ta’sir ko‘rsatib bormoqda.

Mazkur omillar siyosiy texnologiyalarning global miqyosda qo‘llaniladigan yangi shakllarining yuzaga kelishiga sezilarini ta’sir ko‘rsatmoqda.

Siyosiy texnologiyalar – bu siyosiy sohada kutilgan muvaffaqiyatli natijalarga erishish va siyosiy jarayonning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tartiblar, usullar, yo‘llarning yig‘indisi tushuniladi[2].

Siyosiy texnologiyalar dastlab siyosiy partiyalar tomonidan ular oldida turgan vazifalarni hal etishda qo‘llanilgan bo‘lib, ular quyidagi afzalliklarga ega:

-belgilangan maqsadga erishishning barcha yo‘llaridan eng oqilona, oddiy va samarali usulini tanlash;

-kutilayotgan natijalarni aniq-lo‘nda belgilanishi hamda ularga erishish ehtimolining nisbatan yuqori bo‘lishi va nazorat qilinishini ta’minlash;

-belgilangan vazifalarni hal qilishga kadr resurslari va moddiy-texnika vositalarini jalg qilishning eng tejamkor usullaridan foydalanish;

-siyosiy texnologiyalarini amalga oshirish jarayoni ishtirokchilarida takrorlanuvchi sharoit va vaziyatlarda belgilangan vazifalarni bajarishning mustahkam ko‘nikma va metodikalarini shakllantirish [3].

Siyosiy jarayonlarning samaradorligini oshirishda siyosiy texnologiyalarning qo‘llanishi o‘z navbatida ularning turli shakllarini ishlab chiqilishiga olib keldi. Jumladan, mutaxassislar tomonidan hozirgi kunda siyosiy texnologiyalarning quyidagi shakllari mavjudligi ta’kidlanadi:

- muayyan siyosiy loyihalar va qarirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;
- siyosiy qarirlarni amalga oshirish;
- siyosiy hokimiyatni shakllantirish;
- elektorat bilan ishlash yoki saylov bilan bog‘liq;
- ijtimoiy fikrni shakllantirish;
- ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtirish;
- siyosiy partiyalar, tashkilotlar, birlashmalar faoliyatini tashkillashtirish;
- siyosiy madaniyat va fuqaroviylar ongini shakllantirish;
- siyosiy konfliktlarga yechim topish va boshqalar[4].

Hozirgi paytda siyosiy texnologiyalarning bu kabi shakllari mutaxassislar tomonidan chuqr o‘rganilib va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib borilmoqda. G‘arb siyosatchilari tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy texnologiyalardan nafaqat ichki siyosiy jarayonlarni, balki xalqaro doiradagi jarayonlarni boshqarish va unga ta’sir ko‘rsatishda ham foydalanilmoxda.

Hozirgi vaqtida siyosiy texnologiyalarning yangi shakllaridan biri global siyosiy texnologiyalar yuzaga keldi. Global siyosiy texnologiyalar – bu muayyan siyosiy kuchlar tomonidan o‘z siyosiy

manfaatlaridan kelib chiqib, xalqaro miqyosdagi siyosiy jarayonlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida qo'llaniladigan siyosiy texnologiyalardir.

Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida uni amalga oshirish uslublari ham rivojlanib bormoqda. Ilmiy tadqiqotchi P.Vasilyeva global siyosiy texnologiyalarni amalga oshirishning uslublari sifatida quyidagilarni qayd etadi:

- global tarmoq loyihalari;
- global siyosiy harakatlar tuzish va uni boshqarish;
- milliy tenglik masalasini dolzarblashtirish va separatistik harakatlarini rag'batlantirish loyihalari (uyg'ur loyihasi, fin-ugor dunyosi, kurdlar loyihasi va boshqalar);
- global geosiyosiy loyihalar («Buyuk Turon», Yevrosiyo loyihasi);
- destruktiv global texnologiyalar (xalqaro terrorizm, narkotrafikni nazorat qilish)[5].

Mazkur ro'yxatga qo'shimcha sifatida «yumshoq kuch» uslubini ham kiritish maqsadga muvofiq. Mutaxassislar orasida ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan «yumshoq kuch» (soft power)ning roli va ahamiyati bugungi kunda oshib borayotganligini alohida ta'kidlash joiz. «Yumshoq kuch» hodisasi qadimdan ma'lum bo'lsa-da, ushbu konsepsiyanı ilmiy muomalaga olib kirgan AQShlik siyosatshunos olim J.Nay hisoblanadi. «Yumshoq kuch» – bu majburlash vositalaridan foydalanimagan holda, ittifoqchi va hamkorlarni ixtiyoriy ravishda o'ziga jalb etish orqali, kutilgan natijalarga erishish layoqatidir. «Yumshoq kuch» mamlakat o'z madaniyati, siyosiy g'oyalari va dasturlari bilan o'ziga jalb etishida namoyon bo'ladi[6].

Global siyosiy texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda ko'rindi:

-siyosiy g'oyalarning global axborot maydonida keng tarqalishi va ushbu g'oyalalar tarafdarlarining ortib borishi. Hozirgi vaqtida global miqyosda yetakchilik qilayotgan BBC, CNN va Al Jazeera kabi xalqaro telekanallar keng jamoatchilikka psixologik ta'sir ko'rsatishda yetakchi rol o'ynamoqda. Bundan tashqari, axborotlarni tarqatuvchi Internet manbalari ham keyingi yillarda tobora rivojlanib bormoqda.

-internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy lashgan guruhlarning tashkil etilishi. Facebook, Twitter, YouTube, Instagram, Live Journal, Tumblr, Flickr, Google+ kabi ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy lashgan guruhlarni tashkil qilingan va ularning soni tobora oshib bormoqda. Misol tariqasida bu guruhlarga hukumatning qo'llab-quvvatlovchi vatanparvarlik ruhidagi jamiyatlardan tortib, turli radikal xarakterdagi guruhlarni keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarni nazorat qiluvchilar va siyosiy texnologlar tomonidan bu kabi ijtimoiy guruhlarga ta'sir ko'rsatish va ularni boshqarish imkoniyatlari mavjud.

-OAV va Internet tarmog'ida tarqatilayotgan, siyosiy maqsadlar yashiringan ma'lumotlarga aholini ishontirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida aholi onggiga manipulyativ ta'sir ko'rsatishning qudratli vositasiga aylandi. Turli davlatlar yoki siyosiy guruhlarni tomonidan o'z siyosiy maqsadlariga erishish yo'lida muayyan voqelik yuzasidan keng jamoatchilikka salbiy yoki ijobjiy munosabat uyg'otish uchun faol qo'llanilmoqda. Bu kabi uslublari sifatida davlat yoki mintaqadagi siyosiy tanglik yoki ma'lum bir voqealarni yashirish maqsadida OAVda targ'ibot kampaniyasini amalga oshirish; manipulyator tomonidan foydali axborotlarni bo'rttirishi va aksincha, foydasiz axborotlarni yashirish; kuchli emotsiya ta'sirida ishonchli axborotlarni soxtalashtirish kabilarni keltirish mumkin[7].

Yuqorida ko'rib o'tilgan global siyosiy texnologiyalar istiqbolda globallashuv jarayonining chuqurlashuvi va axborot-kommunikatsion texnologiyalarining yanada rivojlanishi ta'sirida yanada takomillashib boradi hamda yaqin kelajakda ularning yangidan yangi turlari paydo bo'lishini bashorat qilish mumkin. Shu sababli, mazkur siyosiy texnologiyalarning o'ziga xos jihatlarini chuqur tahlil qilib borishimiz jamiyatimizda turli beqarorliklar va milliy manfaatlarimizga zid bo'lgan holatlar paydo bo'lishining oldini olishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.aza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>.

2. Анохин М.Г. Современные технологии эффективной политики: Учеб. пособие. – М.: РУДН, 2008. – 239 с.

3. Васильева П. Глобальные политические технологии: теория и практика // Обозреватель - Observer, 2012, № 08. – С. 72-83.
4. Zamonaviy saylov texnologiyalari va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari (metodik qo'llanma). – T.: Navro'z, 2014. – B. 8.
5. Сарсенбаев. А. Новое информационное пространство РК: проблемы и перспективы. - Алматы, 1997. – С. 54.
6. J. Nye. Soft Power. The Means to Success in World Politics. - New York: Public Affairs, 2004. – R. 192.; Nay Dj. Мягкая сила государства // Свободная мысль-XXI. –М, 2004. - №10. - S. 78.
7. Шиллер Г. Манипуляторы сознанием. – М.: Мысль, 1980. – С. 42–47.

UDK: 130

**MODERNIZATSIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI
VA UNING JAMIYAT RIVOJIDAGI O'RNI**

B.Omonov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotosiya. Maqolada jamiyatni modernizatsiyalashning mohiyati, qarashlari, belgilari va tarixiy bosqichlari yoritilgan. Siyosiy modernizatsiya modellarining amalda qo'llanilishi G'arb va Sharq mamlakatlari misolida ilmiy ochib berilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, an'anaviy jamiyat, modernizatsiya jarayoni, globallashuv, o'tish davri, jamiyatni rivojlantirish modellari.

Суть модернизации и его роль в развитии общества

Аннотация. В статье представлены сущность, взгляды, признаки и исторические этапы модернизации общества. Научно обосновано практическое применение модели политической модернизации общества на примере странах Запада и Востока.

Ключевые слова: модернизация, традиционное общество, процесс модернизации, глобализация, переходной период, модели развития общества.

The essence of modernization and its role in the development of society

Abstract. The article presents dryness, views, signs and historical stages of modernization of society. Scientifically substantiated the practical application of the model of modernization of society on the example of countries of the West and East.

Keywords: modernization, traditional society, modernization process, globalization, transition, models of modernization society.

"Modernizatsiya" lotincha "modo" – "hozirning o'zida", "hozirgi vaqtda", "endilikda" (o'rta asr), fransuzcha "modern", "moderne" – "yangi", "zamonaviy" ma'nolarini bildiradi.

"Modernize"—"takomillashtirish", "yangilash", zamonaviy talablardan kelib chiqib "o'zgartirish" demak. "Modernity" esa "sivilizatsiyalashgan jamiyat" (XX asr). Modernizatsiya haqidagi qarashlar S.Lipsetning "Siyosiy odam" (1960), D.Apterning "Modernizatsiya siyosati" (1965), G.Almond, D.Pauellning "Qiyosiy politologiya. Taraqqiyot konsepsiysi nuqtayi nazaridan yondashuv" (1966), L.Payning "Siyosiy taraqqiyot aspektlari. Tahliliy tadqiqot" (1966), Sh.Eyzenshtadtning "Modernizatsiyalashuv: norozilik va o'zgarishlar" (1966), D.Rostouning "Millatlar dunyosi" (1967), S.Xantingtonning "O'zgarayotgan jamiyatlardagi siyosiy tartibot" (1968) nomli asarlarida ilgari surilgan.

Modernizatsiya – o'ta murakkab siyosiy kompleks jarayonni tashkil qiladi. Unda o'zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro'y berishi natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar va yondashuvlar ham yangidan shakllantirib boriladi. O'zbekistonda modernizatsiya tuzilmasining strukturaviy-funksional tarkibi mustaqil ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida kompleks-tizimli o'rganilmagani bu sohaga qiziqishni kuchaytiradi. Ba'zi ilmiy tadqiqotlarda, darslik va o'quv qo'llanmalarda modernizatsiyaga muqobil qarashlar berilgan bo'lsa-da, bugungi kungacha uning yagona tuzilmasi, jamiyatni modernizatsiyalash tushunchasining mohiyati va maqomini belgilovichchi

mezonlar ishlab chiqilmagan. Ilmiy adabiyotlarda ham uning mazmuni turlicha talqinda berilmoqda. Misol uchun “Falsafa qomusiy lug‘ati”da tushunchaga umuman ta‘rif berilmagan.

“Modernizatsiya” nima, degan haqli savol tug‘iladi. Tushunchaning ilmiy talqinlari juda ko‘p. G‘arb va Sharq mamlakatlarida unga munosabat va qarashlar farq qiladi. Shulardan kelib chiqib, quyidagi ta‘rifni keltiramiz: “Modernizatsiya deganda agrar (an‘anaviy) jamiyatni industrlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni transformatsiyalash tushunilib, bu jarayonda davlat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish, inson huquq-erkinliklarini yangi norma, standartlar asosida ta‘minlash, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlar tizimini yangicha, zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish tushuniladi”.

Bu siyosiy jarayon nima maqsadda amalga oshiriladi? Albatta, birinchi navbatda, unga davlat va xalq tomonidan katta ehtiyoj tug‘iladi, tobora shiddatli tus olayotgan globallashuv ham unga turki berib, jarayonni tezlashtirib yuboradi. Asli modernizatsiyalashdan ko‘zlangan maqsad: an‘anaviy turmush tarzidan zamonaviy jamiyatga o‘tish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda yuqoriq bosqichga erishish, farovon yashashdir.

Modernizatsiyalashning yangi tarixi XVIII asrda Yevropa mamlakatlarida ixtirolarning yaratilishi, inson faoliyatiga ilmiy, muhandislik bilimlarining kirib kelishi va ulardan foydalanish mahsuli sifatida dunyoga kelgandi. Bu atama asosan, XX asrning o‘rtalarida ilmiy taomilga kiritildi. Modernizatsiya nazariyasi 1950-1960-yillarda AQSh universitet ta’limida T.Parsons, R.Merton tomonidan ilgari surilgan edi. Uning asoschilari taniqli amerikalik mutaxassislar S.Lipset, F.Rigge, D. Enger, R.Uart, S.Xantington bo‘lishgan. XIX asr 80-yillarda modernizatsiyalash nazariyasi qayta ko‘rib chiqilib, u rivojlanishning sharti emas, balki funksiyasi sifatida qaraldi. Unda ko‘proq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarni o‘zgartirish ustuvor maqsad, deb qabul qilindi.

Biz maqoladagi mavzuni yoritishga kirishishdan oldin eng muhim masalalardan biri bo‘lgan “an‘anaviy jamiyat” va “zamonaviy modernizatsiyalashgan jamiyat” tushunchalariga aniqlik kiritib olishimiz zarur bo‘ladi (1-jadvalga qarang).

An‘anaviy jamiyat belgilari	Zamonaviy modernizatsiyalashgan jamiyat belgilari
Ijtimoiy hayotni tashkil etish ko‘p hollarda diniy tasavvurlarga asoslanadi	Bilim, innovatsiyalar an‘analardan ustunlik qiladi.
Rivojlanish bosqichli kechadi	Ijtimoiy hayot dunyoviy xarakterga ega bo‘ladi.
Individualizm ko‘rinishlari kuzatilmaydi	Individualizm va insonlarning faolligi kuzatiladi.
Jamiyatni avtoritar hokimiyat boshqaradi	Jamiyat davlat-jamoat tashkilotlari sherikligi asosida boshqariladi.
Shaxslar faoliyatsiz bo‘ladi	Shaxslar faollandashi. Tadbirkorlikka keng imkoniyat ochiladi.

XX asrning 90-yillariga kelib, Xitoy, Yaponiya, Malayziya, Singapur kabi davlatlarning jadallahsgan modellari olimlar tomonidan e’tirof etila boshlandi. Mazkur jarayonga o‘tishda “moddiy va madaniy boyliklar taqsimoti”, “o‘xshashlik”, “legitimlik” kabi inqirozlar sodir bo‘lishi e’tirof etildi. Demak, inqirozlarni yengib o‘tgan xalq va davlatgina yutib chiqadi va iqtisodiy farovonlikka erishadi...

Tadqiqotni yozish mobaynida jamiyatni modernizatsiyalash konseptual modellarining mohiyati va asosiy vazifalari, amaliyotda qo‘llanayotgan milliy modellarning tarixiy evolyutsiyasi maxsus o‘rganildi. Masalan, Yaponiya XIX asr o‘rtalarigacha ochiqlik siyosatini rad etib kelgandi. 1868-yilda Meydzi restavratsiyasi amalga oshirilgandan keyin u G‘arbdan saboq olishga kirishdi. Xitoy ham g‘arbiylashtirishdan o‘zini cheklar, o‘zini boshqalardan ustun qo‘yardi. Ammo britaniyalik-larning opium urushlari paytida (1839–1842) Yaponiya va Xitoyning dunyodan yakkalanib yashash tarziga barham berildi. Ikki mamlakat 40 yil ichida dunyodagi rivojlangan qatoridan mustahkam o‘rin egalladi.

2-jadval. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual modellarini

Model nomi	Mohiyati va vazifalari
Klassik	Bu model G‘arbiy Yevropa, Amerika va Avstraliyada keng qo‘llanilgan. Uning evolyutsiyasida o‘z aksini topgan mustamlakachilik davri erkin tadbirkorligi,

	protestant etikasi, burjuaziya inqiloblari va diniy urushlar hamda iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, madaniy omillarning bir-biriga mos holda yetishishi asos qilib olingan.
An'anaviy	Hozirgi kunda ushbu model ishlashi jarayonida eski an'analarni saqlab qolishga urinish va turg'unlik holati ko'zga tashlanadi. Shuning uchun an'anaviy modelda siyosiy islohotlar sekinlik bilan davom etadi.
Noan'anaviy	1980-yildan noan'anaviy modelga o'tgan Xitoy, 90-yillarda «Osiyo yo'lbarslari» nomini olgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy jihatdan yuksaldi. Ular G'arb va Sharq qadriyatlarini uyg'unlashtirib, G'arb texnologiyalariga ko'proq ishonch bildirishdi. Modernizatsiya jarayonini esa davlatning o'zi boshqardi.
Ildamlovchi (Skandinaviya)	Bu modelning ildizida iqtisodiy va siyosiy hayotni birga qurish orqali ildam rivojlanish g'oyasi yotadi. Biroq iqtisodiy-siyosiy tuzilmalar va jamiyat siyosiy tizimi funksiyalari qo'shib olib borilganda, boshqaruvda qiyinchilik tug'iladi.
Kechikuvchi (G'arb)	XVIII-XIX asrlarda Ispaniya, Portugaliya, Braziliyada boshlangan modernizatsiyalash davrida huquqiy davlat qurilmagan, fuqarolik jamiyatni institutlari shakllanmagan, bozor iqtisodi mexanizmlari yaratilmagan edi. Shu bois, hozirga qadar avtoritar hokimiyat va yashirin byurokratiya siyosiy islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.
Kechikuvchi (Sharq)	Yaponiya modernizatsiya jarayoni boshlanguncha iqtisodiy va texnologik jihatdan oqsagan edi. 1868-yilda Meydzi inqilobi davrida «Yapon ruhiyati va G'arb texnikasi» shiori o'rta tashlandi, unga to'liq amal qilindi. Buning natijasida mamlakat iqtisodiy yuksalishga erishdi.
Quvib boruvchi	Sobiq sovetlar ittifoqi, Hindiston, Argentina, Meksika kabi davlatlar Amerikaga yetib olish va uni ortda qoldirish uchun shu modelni o'ylab topishdi. Ammo texnikani boshqaruvchi yetuk kadrlar, fan-innovatsion iqtisod tuzilmalari ishlamagani sababli, bu davlatlar ijtimoiy-siyosiy muammolarning qurshovidan chiqa olmadidi. Buyuk Britaniya mustamlakasi ta'sirida yashagan Hindiston davlatigina rivojlanishdan to'xtamadi.
Jadallahgan	Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari (Janubiy Koreya, Singapur, Tailand, Malayziya va b.q.), Fors ko'rfazi (Saudiya Arabiston, Oman, Qatar, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari) va Janubiy Amerika (Chili)da jadallahgan model qo'llandi. Uning farqli jihat shundki, iqtisodiy va siyosiy tizimdagagi islohotlardan manfaatdor bo'lgan davlat tinchlik, tartibni saqlash va jamiyattdagi muammolarni hal etishni o'zining zimmasiga oladi. Bu modelda jamiyatning iqtisodiy sohasiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqarishning o'sishi, eksport salohiyatinining oshishi, ko'plab xorijiy investitsiyaning jalg qilinishi kuchayib, aholining iqtisodiy va siyosiy saviyasi ko'tariladi.

Ilmiy tahlilimizga ko'ra, «amerika modeli»da erkin bozor munosabatlari yetakchilik qilsa, «yapon modeli» va «fransuz modeli»da xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlat ishtiroti yuqori, «nemis modeli» va «shved modeli»da ijtimoiy yo'naliш, «Polsha modeli»da «falaj terapiya» (shok holati) orqali bozor iqtisodiga o'tish ustunlik qiladi. Modernizatsiya paradigma (andozasi) doirasida ko'pdan-ko'p nazariy-metodologik va xususiy fanlarga asoslangan yondashuvlar yaratilgan. Sharq mamlakatlari yangicha modellarni "kashf" etganidan keyin ularda G'arb turmush tarzini majburiy qabul qilish emas, balki uyg'unlashgan jamiyatni qurish imkonini vujudga keldi.

Modernizatsiyalash jarayonida quyidagi bosqichlar bosib o'tiladi (3-jadval).

Birinchi bosqich	O'rta sinf shakllanadi, an'anaviy institutlarning transformatsiya hodisasi yuz beradi.
Ikkinci bosqich	Jamiyatda kommunikatsiya, urbanizatsiya, innovatsiyani tarqatish jarayoni tezlashadi.
Uchinchi bosqich	Transformatsiyani izchil davom ettirish natijasida "postmoderniti" degan jamiyat vujudga keladi.

Ammo har bir mamlakatda siyosiy modernizatsiya jarayonlarini shakllantirish uchun shart-sharoit tug'diradigan omillarni, albatta, hisobga olish zarur bo'ladi:

Huquqiy omil: fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiluvchi tizim (oila, mакtab, олий ва о‘рта maxsus ta‘lim) darajasi modernizatsiyaning samaradorligiga ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkin. Huquqiy masalalarni yaxshi bilish fuqaroning faollashuvi va ijtimoiylashuviga olib keladi. Modernizatsiyalashda aholining siyosiy ongi, bozor iqtisodi, demokratiyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini qabul qilishga tayyorgarlik darajasi ham muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy omil: XVII asrda Yevropadagi sanoat inqilobi iqtisodiyotni rivojlantirib, odamlarning turmush tarzini yaxshilaydi. AQSh, Yevropa mamlakatlardan texnika va texnologiyalarning Osiyo va Afrika davlatlariga «eksport» qilinishi ham asta-sekinlik bilan bu o‘lkalarga g‘arbona yashash tarzini singdira boshlaydi.

Ma’naviy-axloqiy omil: siyosiy hokimiyat tizimida modernizatsiyalash ijobiy hodisa. Ammo ma’naviyat bobida u milliy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Demak, modernizatsiyalashgan zamonaviy jamiyatning ustuvorlik jihatlari ko‘p. Eng muhim natija shundan iboratki, takomilga yetgan bunday jamiyat bir qator sohalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi (4-jadval):

Iqtisodiy sohada	Chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi, mehnat taqsimoti o‘sadi, texnologiyalar takomillashadi, erkin raqobat usuli va tadbirkorlik uchun keng imkoniyat eshiklari ochiladi. Xususiy mulk, innovatsion iqtisodiyot rivojlanadi.
Ijtimoiy sohada	Individualizm, elita va o‘rta sinfning shakllanishi yuz beradi. Ta‘limning keng tarqalishi, kasbiy mahorat (professionalizm) kuchayishi, intellektual maxsus kasb institutlari shakllanishi, ommaviy kommunikatsiyaning rivojlanishi, kengayib borayotgan ijtimoiy makonga moslashib boruvchi yangi individual odatlar, qiziqishlar jabhasining kengayishi, fan va texnikaga ishonchning oshishi va inson qadr-qimmatiga munosabatning o‘zgarishi seziladi.
Siyosiy sohada	Siyosiy partiyalar faollashadi, parlament, saylov huquqi, yashirin ovoz berish kabi demokratik tamoyillar qaror topadi.
Ma’naviy sohada	Madaniy tabaqlanish, ijtimoiy ongdagi sekulyarizatsiya, savodxonlik ortishi, ilm-fan va texnikanering qadriyatga aylanishi kuzatiladi.

Mavzuni yoritishda amerikalik olim Olvin Tofflerning «Uchinchi to‘lqin» asari eng yaxshi manba vazifasini bajaradi, deb o‘ylaymiz. Olim G‘arb davlatlarida modernizatsiyalash jarayoni evolyutsion tarixini o‘rganib, quyidagi xulosaga keladi: «o‘zgarishlarning birinchi to‘lqini – qishloq xo‘jaligi inqilobi o‘z imkoniyatlarini namoyon etib bitirmog‘i uchun ming yil (qariyb o‘n ming yil – B.O.), ikkinchi to‘lqin, ya’ni sanoat sivilizatsiyasiga atigi uch yuz yil kerak bo‘lsa, uchinchi to‘lqin tarix osmonida quyunday yelib o‘tib, bir necha o‘n yilliklarda xotima topadi. Oilaviy rishtalarining uzilishi, iqtisodiyotdagi tebranishlar, siyosiy tizimlarning falajlanganligi, qadriyatlarimizning yemirilishi – bularning bariga Uchinchi to‘lqin o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu yangi sivilizatsiyadir, negaki u eskisiga qarama-qarshi turadi, byurokratiyanı ag‘darib tashlaydi, milliy davlatning rolini pasaytiradi, postimperialistik dunyoning yarim mustaqil iqtisodiyotlarining o‘sishiga yordam beradi. Bu yangi sivilizatsiya avvalgilaridan ko‘ra jo ‘nroq, samaraliroq va demokratikroq hukumatlarni talab qiladi... Ammo hammadan avval Uchinchi to‘lqin sivilizatsiyasi ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasida tarixan shakllangan uzilishni yo‘qota boshlaydi, u ertangi kunning alohida o‘ziga xos iqtisodiyotini barpo etadi» [1-181]. Yaxshi o‘xshatish va so‘nggi 50 yilda G‘arbda kechayotgan holat chiroyli tasvirlangan.

O‘zbekiston ham murakkab globallashuv va jahonda kechayotgan “to‘lqinlararo kurash”ning girdobida yashamoqda. O.Toffler tasvirlagan «industrial dunyo» voqealari asosan Shimoliy Amerika, Buyuk Britaniya, G‘arbiy va Sharqiy Yevropa, SSSR, Yaponiya, Tayvan, Gonkong, Singapur, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda kechayotgan bo‘lsa-da, bu – globallashuv sharoitida, xususan, yosh davlatlar tashqi xavf-xatarlardan xoli yashaydi, degan ma’noni bildirmaydi. Biz 2000-yillardan boshlab og‘ir moliyaviy va ma’naviy inqirozni boshdan kechirayotgan Yevropa mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan saboq chiqarib olishimiz kerak.

Mazkur masalaga oid tadqiqotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) XIX asr oxirlarida G‘arb mamlakatlarida markazlashtirish, ixtisoslashtirish, standartlashtirish, uyg‘unlashtirish va konsentrasiyalash (aholining biron joyda zinch joylashishi – B.O.) kabi omillarning jamiyatda ustuvorlik qila boshlashi natijasida an’anaviy tizimlar buzildi;

2) shahar ahli, hukumat va siyosiy hokimiyatlarning imkoniyat doirasi kengayib boraverdi, qishloq aholisi esa battar qashshoqlashdi;

3) industrlashtirish (sanoatlashtirish) avj olishi tufayli ko‘paygan pul oqimi Yevropa siyosiy tizimlari markazlashuviga olib keldi. XX asr boshida Parij, London, Rim kabi shaharlarda qudratli byurokratik tashkilotlar soni ko‘paydi, byurokratik apparat va chinovniklar G‘arb davlatlarining yirik markaziylidalariga mustahkam joylashib oldilar. Avlodlar almashinuvi davrida ular ustakorlik bilan o‘rinlariga o‘zlarining «odamlari»ni joylashtirdilar.

Muhim jihat shuki, har bir mamlakatda modernizatsiya taqdiri qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining o‘zaro aloqasi, bir-birini tushunishi va tutgan obyektiv pozisiyasiga bog‘liq kechadi. Avvalo, ular asosiy funksiyalari va o‘z maqomlarini bilib olishlari kerak. G‘arb tahlilchilarining fikricha, uchta tuzilmada qonun chiqaruvchi hokimiyatning o‘rnini doimo yuqori turadi. Davlat hokimiyati taqsimlanish modeliga ko‘ra, qonun chiqaruvchi hokimiyat jamiyatda mavjud barcha ijtimoiy guruhlarning vakillik organlarini ta’minlashi, siyosiy qarorlar qabul qilishda sezilarli ta’sir ko‘rsatishi lozim. Parlament «davlatning siyosatini belgilaydi» (J.Lokk), «uning faoliyati xalq tomonidan nazorat etilmaydi» (E.Berk) [2-35].

Ha, jamiyatni modernizatsiyalash faqat siyosiy-iqtisodiy masala emas. Demak, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy soha, odamlar turmush tarzi, axloq-odobida, mentalitetida, siyosiy ongidagi o‘zgarishlar, vujudga keladigan va kutilayotgan inqirozlarning ildizini jiddiy tadqiq qilish talab etiladi. Agarda har bir davlatda yashagan yuqori elita xuddi xitoylik yoki malayziyalikka o‘xshab ommaviy madaniyat, globallashuv muammosiga yechim izlaganda millat oldidagi vazifasini ado etgan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston tajribasida hokimiyatga va siyosiy yetakchiga nisbatan to‘la ishonch, hurmat ratsional legitim (qonuniy) usullar orqali namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda kuchli islohotlar samarasini o‘laroq, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning xalqaro siyosat maydonida nufuzi va obro‘sisi oshib bormoqda. Hatto xorij matbuoti siyosiy yetakchining o‘tkazayotgan dadil demokratik islohotlari va “ochiq eshiklar siyosati”ni 1980-yillarda Xitoyni boshqargan Den Syaopin faoliyatiga o‘xshatishadi. Hozirda O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatida, investitsiya va integratsiyalashuv jarayonlarida iqtisodiy islohotlarning samaradorligi ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Jamiyatda siyosiy maydonidagi “o‘yin qoidasi”ga ko‘ra, davlat va jamiyatdagi ijtimoiy guruhlardan o‘rtasida umummaqsad yo‘lida o‘zaro kelishuv shakllangan. O‘zbekistonda huquqiy kelishuv (konsensus)ga erishilgani, fuqarolik jamiyatni institutlari va ommaviy axborot vositalarining ochiqligi tamoyillari namoyon bo‘lishi jamiyatni modernizatsiyalashning kuchli omili hisoblanadi. Ammo, o‘z navbatida, Sharq mamlakatlarida jamiyat siyosiy tizimini modernizatsiyalashda ma’naviyat va axloq, milliy qadriyatlar, an‘analar ustuvorlik qiladi, murakkab o‘tish davrida kuchli siyosiy yetakchiga ijtimoiy zarurat tug‘iladi. Bu omilni hech yoddan chiqarmaslik lozim. Bugungi kunda Janubi-sharqiy Osiyo (Singapur, Malayziya, Indoneziya, Tailand, jami 11 davlat) milliy an‘ana va demokratik qadriyatlarni baravar ushslash hisobiga yuksak taraqqiyotga erishdi. Buyuk Xitoy rahbari Den Syaopin (1904-1997) tomonidan 1980-yillarda olg‘a surilgan «mamlakatni sevish», «xalqni sevish», «mehnatni sevish», «ilmni sevish», «sotsializmni sevish» g‘oyalari millatni yagona siyosat atrofiga birlashtirdi.

Mamlakatimizda jamiyat siyosiy tizimini modernizatsiyalashda Xalq qabulxonalarini, Elektron hukumat tizimi mexanizmlaridan foydalanish ma’muriy boshqaruva surf-xarajatining kamayishiga, ijro hokimiyati samaradorligi oshishiga, jamiyat va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvozanatlasinghtirishga, demokratiyanı takomillashtirishga imkoniyat yaratishga hamda xalq oldida siyosiy hokimiyat mas’uliyatining kuchayib borishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda jamiyatni transformatsiyalash jarayonida mamlakatni modernizatsiyalash, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishning mexanizmi sifatida Xalq qabulxonalarini joriy etilishi, davlat hokimiyati va boshqaruva organlari rasmiy veb-sayt va portallari takomillashtirilishi, sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalarining mustaqil bo‘lishi ma’muriy to‘siqlarni olib tashlash, korruption holatlarning kamayishi, fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga ishonchi ortishiga, jamiyatda ochiqlik va shaffoflik ta’milnishi natijasida davlat boshqaruva organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosaga kelindi: “siyosiy modernizatsiya”, “milliy rivojlanish”, “jamiyat siyosiy tizimini modernizatsiyalash” tushunchalarining siyosatshunoslik, falsafa, sotsiologiyaning maxsus kategoriyasi hamda tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi o‘quv

dargohlarida talaba yoshlar o‘rtasida siyosiy-falsafiy bilimlar mazmunining kengayishiga olib keladi [3-198].

Adabiyotlar

1. Toffler O. Uchinchi to‘lqin // Jahon adabiyoti, 2001, 1-son. – B.181.
2. Politologiya. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002. – B. 35.
3. Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 197-198.

UDK: 1:37

TALABA YOSHLAR ONGIDA BADIY KITOBXONLIK VA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

F.Z.Tillayeva

Samarqand davlat chet tillar instituti

Аннотация. Ushbu maqolada talaba yoshlar ongida kitobxonlik va estetik madaniyatni rivojlanirish, badiiy adabiyot mutolaasiga ega bo‘lish afzalligi, yoshlar intellektual saviyasini o‘sirish haqida fikr yuritilgan. Kitob mutolaa qilish yoshlarimizda vatanparvarlik, burchga sadoqat, dovyuraklik,adolatparvarlik, halollik va bilimdonlik kabi fazilatlarni kamol toptirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Kitobxonlik inson dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ehtiyojlar ma’naviyatini shakllanishida ulkan ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola talaba yoshlar onging shakllanishiga xizmat qiluvchi kitobxonlikning roli falsafiy tahlil etilgan.

Komit so‘zlar: Kitobxonlik madaniyati, mutolaa, estetik madaniyat, ma’naviy tarbiya, insoniq fazilatlar;

Развитие художественного чтения и эстетической культуры в сознании молодежи

Аннотация. Статья посвящена развитию чтения и эстетической культуры в сознании молодежи, преимуществам литературного образования и развитию интеллектуального уровня молодежи. Чтение книг является ключевым фактором в поддержании таких качеств молодых людей, как патриотизм, целеустремленность, смелость, справедливость, честность и знания. Чтение играет большую социально-психологическую роль в формировании мировоззрения человека, системы ценностей, духовности потребности среди молодёжи. В статье философски глубоко анализировано развитие книгочтения среди молодежи.

Ключевые слова: культура чтения, книгочтение, культура эстетики, духовное воспитание, человеческие качества.

Development of book reading and culture of esthetics in the minds of youth

Abstract. The article is devoted to the development of reading and aesthetic culture in the minds of young people, the benefits of literary education and the development of the intellectual level of young people. Reading books is a key factor in maintaining the qualities of young people such as patriotism, sense of purpose, courage, justice, honesty and knowledge. Reading plays a major socio-psychological role in shaping a person’s worldview, value system, and spiritual needs.

Keywords: reading culture, reading books, aesthetics culture, spiritual education, human qualities;

Kitob har daqiqa donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladigan do‘stdir.

Alisher Navoiy

Talaba yoshlarning ruhiyatini ijobji tomonga o‘zgartirish uchun chin ma’noda kitob mutolaasi eng zarur omillardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday zamonaviy axborot texnologiyasi yutuqlari kitob o‘rnini bosa olmaydi. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, mutolaa jarayonida inson bosh miyasi faol ishlay boshlar ekan. Tabiiyki, o‘qish davomida kitobda tasvirlanayotgan voqe-a-hodisalar, asar qahramonlarini tasavvur qila boshlaymiz. Demak, kitob o‘qish orqali nafaqat quvonch va zavq,

ma’naviy ozuqa olinadi, miyani mashq qildirib, uning faoliyat darajasi ham rivojlantiriladi, qolaversa, kitob o‘qish orqali yoshlarning ma’naviy-axloqiy, estetik tarbiyasi yanada rivojlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271 son qarori chiqarildi [1]. Bu esa hayotimiz, tafakkurimiz va ma’naviyatimizda ulkan voqeа bo‘ldi. Ushbu sa’y-harakat milliy adabiyotimiz va ma’naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarni debochasi bo‘lishiga astoyidil ishonamiz, ayniqsa bu o‘rinda yoshlar o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyasini o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi vaziyatni yaxshilash g‘oyatda tahsinga loyiq.

Bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Aflatundan Arastu hakimgacha, Abu Ali Ibn Sinodan Abu Rayxon Beruniygacha, Sohibqiron Amir Temurdan Alisher Navoiygacha yuzlab, minglab mutafakkirlar shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar o‘tsada ahamiyatini yo‘qotmaydigan tadqiqotlar-u kashfiyotlar faqat va faqat kitob orqali yuz bergen.

Kitob mutolaa qilish yoshlarimizda vatanparvarlik, burchga sadoqat, dovyuraklik, adolatparvarlik, halollik va bilimdonlik kabi fazilatlarni kamol toptirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilim saviyasini oshirish, kitobga bo‘lgan muhabbatini, ma’naviyatini yanada shakllantirish, noshirlik, matbaa sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi kitoblarni qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Haqiqatdan ham, kitob – bu avvalo, inson kamoloti uchun xizmat qiladigan, ruhiyatni ma’naviy oziqlantira oladigan kuchdir. Kitobsevarlik esa aslini olganda, kitobxonlikdan suv ichgan insoniy fazilat, binobarin unda insonning ma’naviy komillik darajasi aks etib turadi. Kitobxonlik mehnatdir. Inson manaviyatini yuksaltiradi, aqliy mehnat sifatida katta qunt va diqqatni, sabr va bardoshni talab etadi, inson ongini harakatga soladi. Mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantirib, fikrlarni charxlaydi.

Shuning uchun yoshlarning ijodkorlik tuyg‘ularini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda xalqimizning oliyjanob udumlari va tarbiyaviy an‘analaridan bahramand etish, tarix va bugungi kunni birlashtiruvchi ijtimoiy-falsafiy, estetik, insoniy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan badiiy asarlar, tarixiy romanlarni mutolaa targ‘iboti muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda estetik tarbiyaning eng asosiy vazifasi shaxsni yot ta’sirlardan himoya qilish, zavq-shavq bilan yashashga o‘rgatish, boshqalarga o‘rnak bo‘lib, hayotda ularning havasini keltiradigan darajada ma’naviy-ruhiy kamolotga erishishdan iboratdir.

O‘zbekistonimiz o‘g‘il-qizlarini yer yuzining eng go‘zal, eng latofatli va nafosatli, oqila ayollari, suluv va dilbar qizlari, pahlavon yigitlari, chirolyi yoshlari sifatida tarbiyalab, bunday yoshlarni voyaga yetkazish va tarbiyalash vazifasi shu bugunning eng zarur va dolzarb ilmiy-amaliy muammosidir. Mustaqillik davrida shaxsni, xususan yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalarda, jamiyat a’zolarining ehtiyoji yo‘lida qilinayotgan ishlarga jalb etish, faoliyatini yanada oshirish davlat siyosatining bosh vazifalaridan biriga aylandi.

Mamlakatimiz ijtimoiy siyosiy hayotida yuz bergen islohotlarning falsafiy-estetik mohiyatini, kitobxonlikni shaxs ongiga, tafakkuriga singdirib borish, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda ma’naviy hayotni kitobsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu asosda demokratik va fuqarolik jamiyatining bunyodkorlari bo‘lgan shaxslarni go‘zallik qonunlari asosida yashashiga imkoniyatlar yaratish dolzarb ahmiyat kasb etadi.

Yoshlarga kelajagi porloq hayotni yaratishda avvalo mutolaani oilada, mahallalarda, maktablarda, litsey va kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarda, korxonalarda ishlayotgan yoshlar bilan g‘oyaviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni muntazam olib borish muhim vazifa [2] ekanligi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev alohida ta‘kidlaydilar. Demak, yoshlar tarbiyasi tizimining har bir bo‘g‘inida jiddiy ishlar olib borish, xususan, har bir shaxs ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunini kitob orqali singdirish, ularning estetik madaniyatini zamon talabi asosida shakllantirish va rivojlantirish masalasini tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb ilmiy muammodir.

Adabiyot va san‘at muayyan davr ma’naviy hayotining ko‘zgusi. Unda milliy an‘analar, millat hayoti, zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot doirasida har bir ijodkorning individual salohiyati va dunyoqarashiga binoan aks etadi. Bu jarayonning natijasi xalq ongi va, ayniqsa, yoshlar tasavvuri va faoliyatiga badiiy estetik nur bag‘ishlaydi, ulardagи bunyodkorlik va ijodkorlik fazilatlarining ro‘yobga chiqishiga xizmat qiladi [2].

Kitobxonlik inson dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ehtiyojlar ma'naviyatining shakllanishida ulkan ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi. Bolada kitob o'qish, undagi voqeа-hodisalar haqida mushohada yuritish, mustaqil xulosalar chiqarish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va ayni vaqtida jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida olib borilayotgan islohotlar, yangilanishlar borasida qilinayotgan ishlар haqidagi ma'lumotlarga nisbatan qiziqishlarini orttirish, ularda vatanparvarlik, fidoiylik kabi shaxs xususiyatlarini shakllantiradi. Insoniy komilikka eltadigan bunday vazifalarni kichik mакtab yoshidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Kitobga muhabbat, kitobxonlik xususiyatini shakllantirishda boshlang'ich sinflarda, sinfdan tashqari o'qish darslari bu borada katta imkoniyatlarga ega. Atoqli o'zbek va xorij adiblarining hayoti, faoliyati haqidagi auditoriyadan tashqari o'qish qiziqarli ma'lumotlarni so'zlab berish kitobxonda ularning ijodiy merosiga nisbatan katta qiziqish uyg'otadi, o'smir mustaqil ravishda ularning boshqa asarlarini topib o'qydi.

Badiiy asarga bag'ishlangan bahs-munozaralar esa o'quvchi fikr doirasining charxlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tez-tez uyuştirilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar jumladan, olimlar, pedagoglar va siyosatchilar ishtirokidagi ilmiy konferensiyalar, seminar-treninglarni ham ana shu ezgu maqsadlarga qaratilgan. Ko'plab yangi kitoblar muhokama qilinib, adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilinmoqda. Bunday uchrashuvlarga asar mualliflarining taklif etilishi o'quvchilarda kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini yanada ortishiga sabab bo'ladi. Kitob bizga insoniyatni, dunyo xalqlarining qadriyatlarini, madaniyati, urf-odatlarini, yashash tarzini o'rgatadi. Qolaversa, har bir millatga xos an'analarni boshqa xalqlarga tanishtirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Kitoblarning foydali xususiyati shundan iboratki, kuniga 30-35 daqiqa mutolaa qilgan kishi alstgeymer (xotiraning susayshi) kasalligiga chalinmas ekan. Binobarin, kitob o'quvchini shaxs sifatida kamol toptirish, pedagogik mahoratini muntazam tarzda takomillashtirib borish qobiliyatini rivojlantirish vazifasini bajaradi. Yoshlar ongida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish oiladan boshlanadi. Ota-onha ilk bor bola qalbida kitobga bo'lgan mehrni uyg'otadi.

Yoshlar ongida badiiy va estetik tarbiya, ularning tafakkur doirasi, zavqiy fikrlashi, yoshlarning estetik madaniyati shu tariqa, bir tomondan tabiat va ijtimoiy hayot ta'sirida, ikkinchi tomondan badiiy ijod namunalari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Ayni paytda yoshlarimizda "badiiy didning barkamol yoki to'mtoq, yetuk yoki bachkana bo'lishi muayyan shaxsning ma'naviy ehtiyojiga, tarbiya muhitiga bog'liq"[2].

Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapiroyotganliklarining chuqur falsafasi bor. *Birinchidan*, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. *Ikkinchidan*, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Oila tarbiyasi uzlusiz jarayon sifatida – ijtimoiy-ma'naviy tarbiyaning bir turi bo'lib, oilaning barcha a'zolari unda faol ishtirok etishi jarayonida, ota-onalar, kattalar o'z bilim va tajribalarini bolalarga o'rgatadilar.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy taddiqot natijalariga ko'ra, ota-onalar o'z farzandining olti oylik vaqtidan boshlab unda bilim ko'nikmalari va yaxshi xotirani shakllantirishi kerak ekan. Buning uchun shunchaki bolalarga kitob o'qib berish kifoya. Mutaxassislar to'rt yil davom etgan tajribalar mobaynida 250 nafar bola va ularning onalarini kuzatishgan – bolalarning yangi so'zlarni eslab qolishi, keyinroq esa ularning bilim ko'nikmalari va o'qish texnikasiga oid xususiyatlari tekshirib borilgan.

Darhaqiqat, kitob otash qalblarni ziyoga, bilim va ilmga, dono bo'lishga, erkin va aqlli fikrlar yuritishga undaydi. Shuningdek, har bir inson kitob bilan oshno bo'lsa shaxsiy fikriga ega va eng asosiysi jamiyatda va kelgusi kelajagida o'z o'rnini topib oladigan inson bo'lib yetishadi.

O'zbek xalqida kitob bilim manbai ekanligi va zarur ta'lum-tarbiya olishga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol", "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chiroq'i", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq" va hakozolarni keltirish mumkin.

Taddiqot natijalariga ko'ra, ota-onha farzandi bilan erta bolalik chog'idanoq shug'ullansa – unga har xil kitoblar o'qib bersa, o'qilgan asarni muhokama qilsa, suratlarni birgalikda tomosha qilib, kitobni bolaga ishonib topshirsa – bu bolaning nutqi ravon, xotirasi esa mustahkam bo'lishiga poydevor bo'lib xizmat qilar ekan. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki bunday mashg'ulotlar bolaga

maktabdagi o‘quv darsliklarini yaxshi o‘zlashtirishga, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalay olishga va tengdoshlari bilan oson til topishishga yordam berar ekan.

Yuqoridagi fikrlarning davomi sifatida, oilada farzandlarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish borasida badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy hamda yoshlarning salohiyatini oshirishsga xizmat qiladigan adabiyotlarni chop etish, ularni ta’lim muassasalariga yetkazish, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni saralash hamda ularni o‘quvchi oson tushunadigan darajada tarjima qilish ishlarini ma’lum tizim asosida tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish nihoyatda muhimdir.

Har bir jamiyatning qanchalik rivojlanishi, dunyo tamadduniga o‘zining ilmiy manbalari bilan o‘z hissasini qo‘sishi, insonlarning kitobga bo‘lgan e’tibori bilan, ya’ni oiladagi ota-onaning qanchalik kitobga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Oila tarbiyasi – bu umumiy ijtimoiy tarbiya jarayonining shunday bosqichiki, u insonning keyinchalik butun umri davomida oladigan ma’rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o‘taydi. Oila tarbiyasi ota-ona va farzandlar, shuningdek, bir necha avlodga mansub shaxslarning o‘zaro qon-qarindoshchilik munosabatlari asosiga quriluvchi o‘ziga xos betakror ma’naviy-ruhiy jarayondir [3].

Oila tarbiyasi uzlusiz jarayon sifatida – ijtimoiy-ma’naviy tarbiyaning bir turi bo‘lib, oilaning barcha a’zolari unda faol ishtirok etadi, ota-onalar, kattalar o‘z bilim va tajribalarini bolalarga o‘rgatadilar.

Zotan, mustaqillik yillarda yosh avlodning kitobxonlik ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy adabiyot va san’atimizni yanada takomillashtirishga, yoshlarni g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarini yanada oshirishga va milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabatlarini rivojlantirishga, shoir va yozuvchilarning mehnatini munosib taqdirlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlar ijroga yo‘naltirildi.

Sharqona axloq, urf-odatlarimiz, an’ana va tarbiya tizimimiz, ma’naviy estetik qadriyatlarimiz tiklanishiga imkoniyat yaratilgan ekan, ijodiy niyat va faoliyatda ham o‘zgarish bo‘lish, tarbiyaviy tizimda milliy o‘zlikni anglash va badiiy adabiyot ancha chuqur tarixiy ildizga ega. Badiiy estetik va zavqiy imkoniyatlari keng bo‘lgan xalq ijodiyoti milliy ong, milliy tafakkur, milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini shakllantirishning, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning samarali vositasi bo‘lib xizmat qila boshladi. Badiiy estetik, ma’rifiy-falsafiy va tarbiyaviy imkoniyatlari sharqona axloq – odob va milliy hayot tarzini shakllantirishda juda katta ahamiyat kasb eta boshladi [4].

Badiiy adabiyot shunday tarbiyaviy, estetik va ma’naviy imkoniyat va ahamiyatga ega molik ijtimoiy mo‘jizadir, mutolaa zavqi inson o‘zligini anglash, poklanish va ma’naviy tiklanish jarayonlar, adabiyotda mujassam ilg‘or g‘oyalar va maqsadlarning ro‘yobidir.

Axloqiy tarbiyaning asosi badiiy adabiyot va kitob mutolaasidir. Axloq (lotincha "moralis" xulq-atvor ma’nosini anglatadi) ijtimoiy munosabatlar hamda yoshlar xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarida ma’naviy tarbiya hisoblanadi. Axloqiy tarbiya bolada dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg‘u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Estetik madaniyati go‘zal, aql zakovatni ifodalovchi estetik ongni, aql-zakovati, idroki, intellektual salohiyatlari muayyan ijtimoiy hayot va millatning tarixiy merosga oid adabiyotlar mutolaasi natijasida paydo bo‘ladi. Tasavvur qilaylik: biror go‘dak dunyoga kelgandan keyin uni faqat oziqlantirilsa, kiyintirilsayu, uning atrofidagi yaxshi-yomon narsalar, go‘zal yoki xunuk voqeahodisalar, o‘simliklar, hayvonot,dunyosi va uni anglovchi kitoblar bilan tanishtirilmasa, uning tafakkur doirasi, axloqiy-estetik ko‘nikmalari qanday bo‘lib qolishi ayon. Jismonan o‘sib borish tafakkur rivoji bilan bir xil kechmaydi. Tafakkurni albatta kitob mutolaasi rivojlantiradi. Tafakkur rivoji ijtimoiy hodisa sifatida juda ko‘p va xilma-xil ta’sir usul va vositalarni talab etadi. Shuning uchun yoshlarning hayot to‘g‘risidagi qarashlari tafakkur rivoji, fikr almashish, anglash, muloqotda bo‘lish, kitob mutolaa qilish, ijtimoiy faoliyat turlari orqali shakllanadi va rivojlanib boradi. Bilim, tafakkur – shaxs kamolotining ijtimoiy mohiyati va samarasidir.

Yuksak insoniy komillik, yurt ozodligi, obodligi, va xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo‘lish, o‘zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlari kabi barcha fazilatlarga ega bo‘lish uchun biz badiiy adabiyotni e’tirof etishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271 son qarori.
2. G‘aybullaev O. Shaxs ma’naviy kamoloti va estetik madaniyat. – Toshkent.: “CHASHMA PRINT,” 2008. – 126b.
3. Kitobxonlik madaniyati va badiiy tarjima mahorati. Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand, 2017. – 58-59b.
4. Ergashev O, Yo‘ldoshev E. Kutubxona va kitobxon. – Toshkent.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2008. – 135-136b.

UDK: 130.1

**GLOBALASHUV SHAROITIDA TURLI TAHDIDLARNING
YOSHLAR RUHIYATIGA TA’SIRI**

M. M. Fayzieva

Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
m.fayziyeva86@inbox.uz

Annotatsiya. Mazkur maqlolada bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan globalashuv jarayonlari keng yoritilgan. Xususan, globalashuv sharoitida turli tahdidlarning yoshlari ongi va qalbiga ta’siri ochib berilib, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rsatilgan. Yoshlar ruhiyatini to‘g‘ri shakllantirish va tarbiyalash jarayonida unga katta e’tibor qaratish maqolaning bosh g‘oyasi sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: globalashuv, tahdidlar, yoshlari, ta’lim, tarbiya, ruhiyat.

Воздействие разных угроз в условиях глобализации на духовную жизнь молодёжь

Аннотация. В данной статье широко раскрывается бурный темп роста процесса глобализации. В частности, показывается борьба за душу человека религиозных и идеологических угроз в процессе глобализации. Автором даётся несколько рекомендаций при профилактике этой ситуации.

Ключевые слова: глобализация, угрозы, молодёжь, образование, воспитание, духовность.

The impact of various threats in the context of globalization on the spiritual life of young people

Abstract. In this article reveals the rapid growth of globalization. In particular, the struggle for the human soul of religious and ideological threats in the process of globalization is shown. The author expresses several recommendations in the prevention of this situation.

Keywords: globalization, threats, youth, education, upbringing, spirituality.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz asrlarga teng voqealarni boshidan kechirmoqda. Bu o‘zgarishlar asosini O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar, odamlarning ongi, dunyoqarashida sodir bo‘layotgan jarayonlar belgilaydi. Inson uchun moddiy ehtiyojdan ko‘ra ko‘proq tafakkurni qamragan, ruhiyatni band etgan, ma’naviyatni belgilovchi shunday g‘oyalar, fikrlar, ideallar, orzu-niyatlar borki, ular jamiyatning asosiy tayanch ustunlari hisoblanib, shu jamiyat a’zolarini istiqbol sari chorlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat‘iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faoliyk ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat.

Bugungi kunda yurtimizda umumxalq muhokamasidan so‘ng besh yilga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyani ishlab chiqishda biz

o‘zimizga chetdan nazar tashlab, salohiyat va imkoniyatimizni xolis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72 assambleyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish taklifi bildirildi. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kansitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan.

G‘oyaviy qarama-qarshiliklar kuchaygan, globallashuv jarayonining rivoji avj olgan davrda – yoshlar tarbiyasi muhim ustuvor masala bo‘lib hisoblanadi. Yoshlar tez egiluvchan, ishonuvchan va orqaga qaramay oldinga shiddat bilan intiluvchan bo‘ladilar. Shuning uchun ham yurtimizda yoshlar siyosati davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Binobarin, qayerda ijtimoiy-tarbiyaviy hamda ma’naviy taraqqiyotga e’tibor susaysa, informatsiya olamida globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi paytda inson ruhiyati va ongi o‘z holiga tashlab qo‘yilsa uning ishqibozlari ko‘payadi, sodir bo‘layotgan mafkuraviy kemtiikkilni shoshilinch to‘ldirishga intiluvchi kuchlar harakatga tushadi. Ana shunday bir vaziyatda har bir jamiyat, har bir mamlakat, davlat va millat aniq va izchil mafkuraviy g‘oyalar tizimiga, o‘z milliy-ma’naviy qadriyatlari asosida shakllangan dunyoqarashga ega bo‘lishi va uni mustahkam iroda bilan hayotga tatbiq etishi zarur.

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983-yilda “Garvard biznes revyu” jurnalida e’lon qilgan maqolasida qo‘llanilgan edi. Unda aytishicha, Globallashuv - transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni hisoblanadi”[2; 27].

Rus olimi L.E.Grininning fikricha, globallashuv mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir”. U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta’rifni beradi: “Globallashuv bu jarayon, uning natijasida dunyo o‘zining barcha subyektlariga yanada aloqador va yana ham bog‘liq bo‘ladi”[3; 811].

Globallashuv jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, “hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganidir”[7.64].

Milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an‘analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma’rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishi lozim. Endigi vazifa fuqarolarimizni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttirishdir. Chunki, tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘la olmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim va murakkab texnologiyalarni egallah qobiliyati ma’naviy barkamollik bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat ma’rifatli insonning ikki qanotidir.

Mustaqillik tafakkuri va milliy mafkura ana shunday katta ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi. Bilmidon va tafakkuri teran, ma’naviyati pok va ma’rifatli insongina mustaqillik qadrini, ahamiyatini chuqur anglab yetadi va uni mustahkamlash ustida qayg‘uradi. Yuqoridagi fazilatlar bilan qurollangan insongina o‘zining va o‘z xalqining qadr-qiymati, or-u nomusini chuqur his qilib, uni himoya qila oladi. Chin ma’nodagi barkamol insongina o‘zidagi bor imkoniyat va iste’dodni el-yurt, Vatan uchun safarbar etishga qodir bo‘ladi.

Demak, kuch – bilim va tafakkurda ekan, mamlakat, jamiyat va davlat kuchi ham shu mamlakat, millat va jamiyatda shakllangan aqliy, ma’naviy potensialga bog‘liq. Qaysi mamlakat va jamiyatda inson erkin va ozod ekan, o‘z iste’dodni hamda bor imkoniyatini ro‘yobga chiqara olishga qodir ekan, bu jamiyat va millat kuchli, istiqboli porloq bo‘ladi.

Bunday g‘oyaviy tarbiyaning o‘ziga xos uslub va vositalari mavjud. Inson jamiyat a’zosi ekan, doimo turli guruh va jamoalarning vakili sifatida ularning ta’siri ostida bo‘ladi. Ya’ni har bir shaxsning fe’l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub bo‘lgan millat, xalq, jamoa va oilaning ijobjiy yoki salbiy ta’siri bo‘ladi. Dunyodagi yovuz niyatli siyosiy harakat va kuchlar o‘z ta’sir doirasini turli g‘oya va mafkuralar orqali kengaytirishga tinimsiz harakat qilishmoqda. Bunday kuchlar “Demokratiya va inson huquqlari”, “Demokratiya va so‘z erkinligi”, “Dunyo fuqarolari” kabi rangdor va ohangdor shakllardagi niqoblar kiygan bo‘lib, inson qalbi va ongini egallah maqsadida o‘zlariga millatchilik, shovinizm, neofashizm, neonatsizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi vayronkor,

umumbashariy qadriyatlarga zid mafkura va g'oyalarni quroq qilib olishgan [10]. Ularning asl maqsadi hokimiyatni egallash, hukmronlik qilish va boylik orttirishdir. Aynan shunday kuchlar yovuzliklarni, jinoyatlarni amalga oshiradi, millatlar orasiga rahna solib, urush olovini yoqadi

Bugungi kunda tahdidlarning turlari ko'p: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtayi nazaridan esa uzoq va yaqin bo'lishi mumkin. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularga nisbatan bamaylixotirlikka yo'l qo'yish yoki ularni "saralash" bilan ovora bo'lib vaqtini boy berish hollari uchrab turadi. XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy-iqlimiylar va ma'naviy tahdidlarga ajratib ko'rish va tahlil etish mumkin.

Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat yoki xalq, millat, elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuidir [8; 7-8].

Ma'naviy tahdidlar bir necha ko'rinishdan iborat bo'lib, birinchi ko'rinish mafkuraviy xurujlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o'zgartirishga qaratiladi. Noto'g'ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog'lomligini anglatadi [5; 191].

Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki turi mavjud:

1) makro bosqichdagi yoki keng ma'nodagi ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari;

2) mikro bosqichdagi yoki bevosita inson bolasi tug'ilib o'sadigan oila, ta'lim va tarbiya maskanlari, mehnat jamoasi, mahalla va do'stlar muhitidagi ta'sirlar.

Bir qarashda inson fe'l-atvorini ikkinchi bosqich ta'sirlarigina belgilaydiganday tuyuladi. Chunki, o'zbekchilikda odamning oilasi, nasli-nasabi, mahallasi, ta'lim olgan bilim dargohiga katta e'tibor beriladi va bunday munosabat hayotda o'zini oqlaydi ham. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini ham kamsitish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun yoshlarning mustaqillik g'oyasiga, milliy mafkura va istiqbolga ishonch tuyg'ularini shakllantirmsandan olg'a yurish qiyin bo'ladi. Ma'naviyati boy insongina komil inson bo'la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlari har jihatdan uyg'un bo'lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, keng ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson komil bo'ladi.

Tafakkurning ozod bo'lishi yangicha, mustaqil dunyoqarashni shakllantirishning muhim omilidir. Ertangi kunga ishonch tuyg'usining ustuvorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ahamiyati eng avvalo, shaxs dunyoqarashidagi barqarorlikni belgilovchi halqa sifatida chiqishida, ikkinchidan, mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, ularga qarshi tura olish va bartaraf etishning oqilona yo'llarini izlashga undashida, uchinchidan, xulqidagi sobitlik, izchillik va amaliyotidagi faollikni ta'minlashga xizmat qilishida ko'rindi. Ayni paytda, bu tuyg'u keng ma'nodagi ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallarining nechog'li aniq va asosli belgilab olinganining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi [7; 126].

Har bir jamiyat tayanadigan ma'naviy qadriyatlar qanchalik umuminsoniy mazmunga ega bo'lsa, u shunchalik umrboqiyidir. Inson ham shunday, u qanday xulq, axloqiy, madaniy sifatga ega bo'lsa, faoliyat tarzini namoyon etsa, uning qadr-qiymati ham shunchalik yuksak bo'ladi. Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy quadrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o'zining yuksak ma'naviyati bilan kuchlidir.

Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, hoziroq ularning oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir" [11; 9].

AQSHlik tanqli siyosatshunos Patrik Byukenenning ta'biri bilan aytganda, G'arbning ko'pgina davlatlarida "belanchakdan ko'ra tobutga ehtiyoj ko'proq". O'n minglab yosh amerikalik ayollar bola tug'ishni istamas ekan, ushbu mamlakatda muhojirlar soni ko'payib boraveradi. Demografik inqiroz oila-nikoh munosabatlarining inqiroziga, u esa, o'z navbatida, xudbinlik-individualizm tamoyillarining tantanasiga sabab bo'layotir [4; 23]. Egosentrizm o'taketgan xudbinlik bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslidir.

Ta'kidlash lozimki, globallashuv ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning intensivlashuvi bilan bevosita bog'liq holatda yuzaga keladigan jarayon hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyatini xalqlar va

davlatlar orasidagi o‘zaro aloqalar va o‘zaro bog‘liqliklarning keskin tarzda kengayib ketishi, murakkablashishi tashkil etadi. Bu – umumsayyora miqyosidagi ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichidir. Uning paydo bo‘lishi fan va texnika yutuqlari tufayligina mumkin bo‘ldi. U inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo‘layotgan ko‘pdan-ko‘p teran o‘zgarishlardan tarkib topadi.

Bugun ayrim G‘arb davlatlarida yoshlar ma’naviyati tanazzulga uchrab, o‘zining salbiy natijalarini berayotgani ma’lum. G‘arb turmush tarzining bunday salbiy jihatlari ba’zi g‘arb ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilinayotgani achinarli holdir. Garchi bunday holatlar boshqa ko‘p mamlakatlarda kuzatilmagan bo‘lsa-da, bu hol xotirjamlikka berilishga asos bo‘lmaydi [9].

Bunday tahdidlarga qarshi turishda ruhiy tarbiyaning o‘rni katta. Xususan, ruhiy tarbiyaga qaratilgan e’tibor barkamol avlod tarbiyasidagi asosiy omillar. Ruhiy tarbiyaning asosiy vazifasi bolaning maqsadi, e’tiqodi, diyonati, imonini shakllantirish, uning chin insoniy fazilatlarini kamol toptirish; hissiyotga beriluvchan va ta’sirchan bolalarda haqiqatni ko‘ra bilish, jasurlik, matonat kabi xislatlarni shakllantirish, aksincha, diydasi qattiq bolalarning qalbini yumshatadigan omillar yordamida ularni mayin hissiyotli qilib tarbiyalashdan iborat. Bolani ruhiy tushkunlikka tushishdan, qiyinchiliklar oldida esankirab qolishdan himoyalashda bunday tarbiyaning ahamiyati katta [1; 61].

Yoshlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli mafkuraviy tajovuzlar kun sayin, soat sayin o‘zining ta’sir etish vositalarini kengaytirib bormoqda. Ularni bunday ta’sirlardan saqlab qolishning chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

-yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida taarbiyalash;

-ularga milliy va umumbashariy qadriyatlar namunalarini chuqur singdirish;

-mehnat qilish hamda uning ortida turgan ulkan salohiyatni ishga solish asosida mansab va davlat xizmatlarida halol ishtirok etish;

-oilaning va Vatanning muqaddas ekanligini, uni avaylab-asrash uchun barcha choralarini safarbar etishga o‘rgatish.

Agar yoshlarning qalbi va ong-u shuuri ana shunday ezgu g‘oyalar hamda motivatsion fikrlar bilan limmo-lim bo‘lsa, bunday farzandlarimizni hech kim, hech qachon yo‘ldan ura olmaydi. Aksincha, ularda shakllangan milliy va mafkuraviy immunitet yot g‘oyalar tajovuziga bemalol qarshi tura oladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash o‘rinliki, hozirgi davr mustaqil davlatlari jahon hamjamiyatida rivojlanish istiqbollarini kengaytirish bilan birga ma’naviy omillar rolining ortib borishi shu yurt yoshlarning qay darajada vatanparvarligi bilan xarakterlanadi. Globallashuv jarayonlari keskin avj olib borayotgan bu davrda yosh avlod tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham ko‘proq e’tibor talab etmoqda. Insonning ongi va qalbini egallash jarayonlari tobora insonga ta’sir etish mumkin bo‘lgan barcha sohalar, ya’ni kino-televide niyatlari, radio, kiyinish, musiqa va hokazo sohalarni keng qamrab olmoqda. Shuningdek, islam dini niqobi ostida ko‘plab ekstremistik kichik guruuhlar o‘zlarining qabih niyatlarini amalga oshirish asosida muqaddas dinimiz nomini tahlikaga qo‘yishga urinmoqdalar. Ularning oldini olish uchun ta’lim muassasalarida olib boriladigan targ‘ibot-tashviqot ishlarida ruhiy tarbiyaga e’tiborni kuchaytirish, yoshlarninh bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2014.
2. Bahodir Zokir. Globallashuv ziddiyatlari // Tafakkur. 1996, 1-son.
3. Гринин.Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. – М.: №1, 2005.
4. Zokirov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur. 2007, 2-son.
5. Yo‘ldosheva S.M. Sog‘lom turmush tarsi – tahdidlarga qarshi kurash omili sifatida. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarning o‘rni. –Toshkent: 2009.
6. Ochilidiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –Toshkent: Muharir, 2009, 64 b.
7. Ochilidiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
8. Paxrudinov Sh. Tahdid tushunchasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998.
9. Turli tahdidlardan himoya // <http://hidoyat.uz/14700>
10. Xo‘janiyozova Z. Ommaviy madaniyatsizlik va ma’naviyat // <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/42803-ommaviy-madaniyatsizlik-va-manaviyat>
- 11.Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Akademiya, 2008.

UDK 37.035

SHAXS ETNOMADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ESTETIK MEZONLARI**G.X.Tagayev**

*Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
ganisher_tagayev@inbox.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs etnomadaniyatini shakllantirishning geografik, diniy va tarixiy mezonlari keng yoritilgan. O'zbekiston hududida etnomadaniy jarayonlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari davr nuqtayi nazari va mohiyati bo'yicha tahsil qilingan.

Kalit so'zlar: etnomadaniyat, an'anaviy madaniyat, milliy qadriyatlar va urf-odatlar, ma'naviy meros, etnos, etnogenez, etnik tarix.

Эстетические критерии формирования этнокультуры личности

Аннотация. В данной статье рассматриваются географические, исторические и религиозные факторы этнокультуры личности. В частности, анализируются методы формирования и её социальное значение.

Ключевые слова: этнокультура, традиционная культура, национальные традиции, духовное наследие, этнос, этногенез, этническая история.

Aesthetic criteria of formation of ethno-culture of personality

Abstract. The article discusses the geographical, linguistic and religious factors of ethnic culture of the individual. In particular, the methods of its formation and social importance are analyzed.

Keywords: ethnic culture, traditional culture, national traditions, spiritual heritage, ethnoscene, ethnogenesis, ethnic history.

Mustaqillikka erishgan yurtimiz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida an'anaviy xalq madaniyatini ajdodlarimiz merosining tarkibiy qismi sifatida muhim o'rinnegi egallab kelmoqda. Milliy merosimizni ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etishga bo'lган ehtiyoj kundan-kunga oshib borib, tarixiy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, an'anaviy xalq madaniyatini to'liq o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Zero, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, milliy o'zlikni anglash – millatning mustaqillik belgisi ekanligi, milliy manfaatlari, ehtiyojlar umumiyligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish, uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi[6:178].

Insoniy fazilatlar va qadriyatlar hayotda ustuvor ahamiyat kasb etib, jamiyatning ma'naviy-axloqiy normalari sifatida tan olingan. Yoshlarda ushbu fazilat va qadriyatlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, muayyan tayyorgarlikni talab etadi.

Shaxs etnomadaniyatini shakllantirish insoniyatning azaliy orzusi bo'lish bilan birga, zamnaviy tahlikali dunyoning dolzarb vazifasi hamdir. Har bir etnosning o'ziga xos xususiyatlari (etnomadaniyati) ularning nega, nima uchun va qanday ehtiyoj tufayli aynan ushbu xalqqa mansubligini o'rganish, bu orqali boshqa etnoslardan farqli jihatlarini aniq ajratgan holda ko'rsatib berish va zamonaviy etnologiyada etnomadaniyat masalalarini tadqiq qilishda asosiy mezon bo'lishi kerak.

Ushbu ko'pbosqichli va ko'ptarmoqli jarayon bir-birini to'ldirib boradigan murakkab sohalar yig'indisidan iboratdir. Shuningdek, etnomadaniyatni shakllantirish axloqiy, estetik va ma'naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadigan – *shaxs, jamiyat, tarix, madaniyat* kabi tayanch tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Birining mayjudligi ikkinchisi uchun asos sifatida xizmat qiladigan bu tushunchalar yig'indisi Farobiy ta'biri bilan aytganda "Fozil odamlar jamoasi" shakllanishiga imkon yaratadi. Quyida ushbu tayanch tushunchalarga qisqacha izoh keltirilib, etnomadaniyat shakllanishida ularning tutgan o'rni ochib beriladi.

Shaxs – tushunchasida dastavval insonning jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari ifodalanadi. Shunga ko'ra, jamiyatni o'rganadigan barcha fanlar doirasida shaxs masalalari qamrab

olingen[7:285]. Shaxsning madaniy ideali u mansub bo‘lgan millat, ijtimoiy guruhda amalda bo‘lgan qadriyatlar doirasida shakllanadi va rivojlanadi.

Shaxsning shakllanishi va unda ijobiy sifatlar qaror topishida u intiladigan madaniy-ijtimoiy ideallar va bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarning ham o‘rni kattadir. Bular falsafada insonning ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) yo‘li bilan shaxsga o‘tishi deb ataladi[7:285].

Jamiyat – esa umumiy madaniyatga mansub bo‘lgan individlarni o‘zaro bog‘lab turadigan aloqalar tizimidir. Birorta ham madaniyat jamiyatsiz yashay olmaydi, shuningdek, birorta ham jamiyat madaniyatsiz mavjud emas[1:170].

Madaniyat – insonga biologik jihatdan tegishli bo‘lmagan va kishilarning hayot faoliyati natijasida yaratiladigan ko‘rinishdir. Madaniyat – shu jamiyatdagi odamlar turmush tarzi, urf-odat va rasm-rusumlar, shuningdek, ular ishlab chiqaradigan moddiy noz-ne‘matlarga aloqador tushuncha. Madaniyatning bunday kompleks talqini ma’lum ma’noda etnomadaniyat iborasiga ham javob beradi[7:285].

Har bir jamiyat va davr o‘z madaniyatiga ega bo‘ladi. Jamiyat o‘zgarishi bilan uning madaniyati, tili ham o‘zgaradi. Shu bilan birga madaniy taraqqiyot uзilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat yo‘q bo‘lib ketmaydi, madaniy meros va an‘analar saqlanadi. O‘tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma’naviy madaniyat boyliklari majmuiga madaniy meros deyiladi.

Etnomadaniyat esa – bu ma’lum etnosga xos bo‘lgan xususiyatlarni saqlab qolish maqsadida o‘zlashtirilgan ko‘rinishlar majmuidir[1:171]. Etnomadaniyat tushunchasi tarixiy jarayonda urug‘, elat, millat madaniyatining rivojlanishi va shakllanishini aks ettiradi[7:52-58].

Aytish joizki, shaxs etnomadaniyatini shakllantirishda tarix va madaniyat kabi mezonlar asosiy o‘rin egallaydi. Ular shaxsning o‘tmish va kelajak haqidagi tasavvurlarini uyg‘unlashtirish bilan birga, tarixiy tafakkur doirasida bilimlar zaxirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Chunki, etnomadaniyat fani qadimiylar yodgorliklari, islomiy tafakkur muammolari, temuriylar davri ma’naviy-madaniy hayoti, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining birinchi va ikkinchi Uyg‘onish davrlariga xos bo‘lgan ilmiy-madaniy merosni, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni, ajdodlarimizning mumtoz merosini o‘rganishga sharoit yaratadi.

Shuningdek, o‘zbek xalqining etnik kelib chiqishi ham etnomadaniyat fanining asosiy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbek xalqi etnomadaniy jarayonlarida *etnogenez*, *etnik tarix*, *etnik identiklik*, *etnodemografiya*, *assimilyatsiya*, *konsolidatsiya*, *moddiy* va *ma’naviy madaniyat*, *transformatsiya*, *etnik o‘zlikni anglash*, *etnokonfessial mansublik*, *etnolingvistika*, *etnopsixologiya*, *madaniy muhit*, *jamoaviy va oilaviy munosabatlar*, *mahalla*, *urf-odatlar*, *marosimlar*, *an‘anaviylik* va *modernizatsiya jarayonlari* qorishiq bo‘ladi [2:52-58]. Etnosning shakllanishida madaniyat ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, har bir elat madaniy xususiyatlari bilan boshqa elatlardan ajralib turadi[8:99].

Etnosning madaniy xususiyati faqat etnografik tushuncha bilan chegaralanmaydi. Bu masalaga yondashganda, gap har bir etnosning madaniyatni barcha tarmoqlari bo‘yicha erishgan yutuqlari haqida, xususan, elat tarkibiga kirgan har bir etnik guruhning madaniyat umumiyligiga qo‘shgan hissasi haqida borishi kerak. Yangidan tashkil topgan elat ajdoddlardan meros bo‘lib o‘tgan moddiy va ma’naviy madaniyatning ijobiy an‘analarini davom ettirib, boyitib keyingi avlodlarga qoldiradigan etnik birlik bo‘lib qolishi kerak [8:99-100].

O‘zbek xalqining etnomadaniyatini tadqiq qilish bir necha yo‘nalishlar va ilmiy-nazariy konsepsiyalar, ya’ni tarixiy-arxeologik, sotsiolingvistik, folkloristik, geografik-etnografik, ijtimoiy-pedagogik, badiiy-estetik, falsafiy-madaniy yondashuvlarga asoslanadi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi etnomadaniyatini yozuvning paydo bo‘lishi, folklor va xalq og‘zaki ijodiyoti, teatr va raqs, xalq bayramlari, diniy e’tiqod kabi bir necha sohalar kesimida o‘rganish mumkin. Ularning har birida o‘ziga xos yo‘nalishdagi madaniyat namunalari aks ettiriladi.

Masalan, yozuv – etnomadaniy an‘analarni ajdoddlardan-avlodlarga o‘tib kelishini ta’minlaydigan madaniyat turi hisoblanadi. Ular insonlarning ijtimoiy faoliyati davomida yaratilib, tarixiy voqealar silsilasini o‘zida aks ettiradi. Etnomadaniy an‘analarning avlodlarga yetib borishida yozma manbalar muhim ahamiyat kasb etib, tarixiy manbalarning mavjudligi bundan dalolat beradi. Aslida milliy madaniyat va ma’naviyatning rivoji yozuv bilan chambarchas bog‘liqdir[3:183].

Bugungi kunda yoshlар ruhiy holatiga ta’sir qilmasdan, shaxs tarbiyasida samarali natijaga erishib bo‘lmaydi. Xalq og‘zaki ijodida folklor janri muhim o‘rin tutib, inson psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatishning eng madaniylashtirilgan shakli hisoblanadi. Jumladan, bunday g‘oyalarni “Alpomish” dostonida, “O‘g‘uznama”, O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida uchratish mumkin bo‘lib, ushbu yodgor-

liklar ayni paytda o‘zbek folklorini o‘rganish manbai hamdir. Folklor asarlarida tilga olingen ko‘plab ma’lumotlar arxeologik topilmalar orqali isbotlanmoqda. Xalqimizning uzoq yillik boy tarixi, urf-odatlari, ezgu fazilatlari folklor asarlarida badiiy in’ikosini topganligi Vatanimiz tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Shaxs etnomadaniyatini shakllantirishga salmoqli hissa qo‘shadigan san’at turlaridan yana biri bu – teatr va raqsdir. Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini teatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ma’lumki, mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog‘liq ulug‘vor g‘oyalar teatrda dunyoga kelgan. Sahna ko‘rinishlarida umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurtni jo‘shqin sevish, qadrlash e’tiqodlari tarannum etilgan.

O‘zbek xalqi teatr san’atining shakllanishida jadidchilik harakati o‘ziga xos mavqega ega edi. XX asr o‘zbek teatri madaniyat tarixida ro‘y bergen fenomen edi. 1914-yil sahna yuzini ko‘rgan “Padarkush” pyesasi Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yaratilgan va faxrlansa arzigulik ijod namunasi sifatida nom qozongan. Oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma’rifiy tarbiyalash, shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg‘onish g‘oyalarini tarannum etish jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyatlari edi.

Milliy urf-odat va qadriyatlar shaxs etnomadaniyatini shakllantiruvchi asosiy tamoyillardir. Ma’naviy merosimizga jiddiy e’tibor qaratilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan ularning yozma tafsifini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo‘lgan milliy qadriyatlarimizni xalq turmushi hamda an’anaviy madaniyatda tutgan o‘rni, ularning genezisi, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu borada diniy e’tiqodlar (bola tug‘ilishi, tarbiyasi, sunnat va nikoh to‘ylari, motam marosimi), etnik madaniyatga oid an’analar, simvollar, moddiy madaniyat namunalari (turar joylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar), folklor namunalari (epos, musiqa, raqs va boshqalar) yetakchi o‘rin egallaydi.

Shaxs tarbiyasida nafaqat ijtimoiy sohalar tadqiqi, balki tabiiy sohalarni o‘rganish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tabiat va jamiyat qonunlarini bilishning o‘ziga xos xususiyati shuki, tabiat va uning hodisalarini bilish obyekti, ammo ularning o‘zlarini bilish subyekti emas. “Jamiyat qonunlari ham bilish obyekti, ham subyektidir. Zero, jamiyat bir-biri bilan ehtiyojlar va manfaatlar mushtarakligida uyushgan odamlar va ijtimoiy guruhlarning yaxlit birligi, birlashmasidir” [5:80-81].

Bu jarayonda bir avlod egalari tomonidan yaratilgan ijtimoiy-madaniy yutuqlar keyingi davr avlodlari uchun faqat vorisiylik huquqini bermagan. Aksincha, ajdodlar madaniyatini o‘zlashtirish, uni yanada boyitish vazifasi avlodlar zimmasiga yuklatilgan majburiyat emas, balki fuqarolik burchi sifatida mas’uliyat bilan tan olingen. Shuning uchun ham ajdodlarimiz o‘z hayoti davomida qandaydir yangi san’at namunalarini yaratishga yoki umuman yangi sohani kashf qilishga urinib kelgan. Amaliy san’at turlaridan kandakorlik, bo‘yoqchilik, zargarlik, misgarlik, sopolchilik, shishasozlik, tikuvchilik, to‘quvchilik unga misoldir.

Avestoda keltirilgan ma’naviy-axloqiy qarashlar, estetik madaniyat g‘oyalari talqini vaqt o‘tib islom dinining ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashib bordi. Ta’kidlash shartki, Osiyo, Afrika, Yevropa qit’asiga tarqalgan aholining salmoqli qismi islom diniga e’tiqod qiladi. Lekin nima sababdan o‘scha hududlarda Imom Buxoriy, Moturudi, Marg‘inoniy, Termiziy, G‘azzoliy kabi shaxslar yetishib chiqmadi. Vaholanki, din barcha hududlarga bir xil tarqalganku. Hatto islom dini yuzaga kelgan Arabistonda ham bunday sivilizatsiya shakllanmagani.

Masalaning tub ildizi shundan iboratki, muayyan madaniyatning shakllanishi va boshqa xalqlarga ta’sir ko‘rsatishida “Etnografik muhit va etnografik dunyoqarash” ham muhim o‘rin tutadi. Aks holda, Ispaniya, Tunis, Aljir, Marokash bunday sivilizatsiya namunalarini yaratishda kashshoflik qilish baxtini Turon zaminida istiqomat qiladigan mutafakkir va olimlarga berib qo‘ymagan bo‘lar edi.

Milliy o‘zlikni anglash o‘z ichki ziddiyatlariga ham ega. O‘z-o‘zini anglash jarayoni real hayot vazifalariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo‘nalishini tanlash asosida olib boriladi. Bu tanlov esa inson uchun yetakchi bo‘lgan qadriyatlar majmuasi bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini va milliy o‘zlikni anglash uchun tanlab olgan yo‘nalish ta’sirida ideallik parchalanadi. Bir tomonдан milliy o‘zligini anglash darajasidagi shakllangan tasavvuri bo‘yicha o‘z millati va uning ma’naviy qadriyatlarini boshqa millatlarnikidan afzal deb biladi [4:86-87].

Mustaqillik milliy o‘zlikni anglash, vijdon erkinligi ta’minlash, milliy urf-odat va an’analarni tabiiy taraqqiyot me’yorlari asosida o‘z yo‘lidan rivojlanib borishini ta’minladi. Bir so‘z bilan

aytganda, etnomadaniy hayotda transformatsiya jarayonlari sodir bo'ldi. Unga nisbatan yagona xavf "Ommaviy madaniyat" hisoblanadi. Oqko'ngil va samimiylar ongi va qalbini egallashga qaratilgan mafkuraviy tajovuzlarga qarshi tura oladigan milliy qadriyatlarni bag'rikenglik asosida singdirish davrning asosiy vazifasi hisoblanadi. Vaholanki, hech qaysi millat yoki elat o'z qadriyatlari va ma'naviyatidan ayro holda uzoq yashay olmaydi. Ildizlari kesilgan daraxt kabi kuchsizlana boradi. Shuning uchun ham ming yillik qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni tazyiq emas balki tolerantlik tamoyillari asosida yoshlarga singdirish talab etiladi. Albatta bunday vorisiylik o'z navbatida yosh avlodning ijtimoiy ongida hurmat, ehtirom shukuhini uyg'otsa, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarga qaramay, bu merosdan mukammal foydalanish imkoniyatlarini oshirish zarur.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida ro'y berayotgan taraqqiyot barchamizda xalqimizning o'tmish madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Bunday harakat o'tmishda sodir bo'lgan madaniy taraqqiyotni to'laqonli tushunib o'rganishga da'vat etadi. Ushbu murakkab jarayon jamiyatning bugungi kundagi tub o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, etnomadaniyatni shakllantirish jarayonlari uzoq tarixga ega bo'lib, ibtidoiy jamoa tuzumi davridan bugungacha davom etib kelmoqda. O'z takomil bosqichlarida paydo bo'lish, rivojlanish va transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirgan. Uning dastlabki shakllari urug'va qabilo doirasidagi an'analar bilan chegaralangan bo'lsa, XXI asrda turli mafkuraviy xurujlarni, g'oyaviy ta'sirlarni sezish orqali zamonaviy jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Endi televiedeniya va radiokanallar o'z ta'sirida gegemonlikka intilib, "oynai jahon" butun dunyoni zabit etmoqda.

Adabiyotlar

1. Ashirov A. Etnologiya. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 171 b.
2. Doniyorov A.X. Zamonaviy etnologiyada etnomadaniyat masalalari // O'zbekiston etnologiyasining nazariy metodologik muammolari. "Akademik Karim Shoniyozov o'qishlari" turkumida VI Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Navro'z, 2014. – 52—58 b.
3. Jabborov I. O'zbeklar (an'anaviy xo'jaligi, turmush tarsi va etnomadaniyati). – Toshkent: Sharq, 2008. – 183 b.
4. Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va hayot. – Toshkent: Fan, 2001. – 86-87 b.
5. Karimov I. Noosfera geosiyosat va mafkura. – Toshkent: Fan, 2007. – 80–81 b.
6. Otamurodov S., Husanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 178 b.
7. Falsafa. / E.Yu. Yusupovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 1999. – 285 b.
8. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni / tahrir hay'ati: D.A.Alimova, E.X. Arifxanova, U.S.Abdullayev va boshq. – Toshkent: Sharq, 2001. – 99-100 b.

UDK 612.017.12

AXLOQIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING MUHIM JIHATLARI

J.Y.Oripov

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi

Annotatsiya. Mazkur maqolada axloqiy immunitetni shakllantirishning ustuvor jihatlari, shuningdek uning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni yoritilgan. Muallif tomonidan axloqiy qadriyatlarning eng nozik jihatlari va uning inson tarbiyasida tutgan o'rni aksiologik qadriyatlarni asosida yoritib berilgan. Shuningdek, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda oilaning muhim o'rin tutganligiga urg'u berilib, uning shakllantirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axloq, odob, tarbiya, immunitet, oila, jamiyat.

Важные аспекты семейных ценностей в формировании эстетического иммунитета

Аннотация. В данной статье раскрывается особое значение формирования морального иммунитета в воспитании гармонично развитого поколения. А также, с помощью аксиологических ценностей выражаются национальные особенности семьи в воспитании молодёжи.

Ключевые слова: мораль, этика, воспитание, иммунитет, семья, общество.

Important aspects of family values in the formation of aesthetic immunity

Abstract. This article reveals the special importance of the formation of aesthetic immunity in the upbringing of harmoniously developed generation. And also, through expressed axiological values expressed national characteristics of the family in the upbringing of youth.

Keywords: morality, ethics, education, immunity, family, society.

Insoniyat tarixida oilaning mustahkamligi, uning muammo va yechimlari hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlari dolzARB masala sifatida tadqiq etib kelingan. Ayniqsa, oiladagi axloqiy tarbiyaga oid masalalar o'zining dolzarbliji bilan doimiy ravishda tadqiqotchilarning diqqat-e'tiboridagi mavzu sifatida G'arb va Sharqda birdek tadqiq etib kelinganligini tarixiy ma'nbalardan bilib olishimiz mumkin.

Oila negizida shakllangan qadriyatlar yoshlarni axloqiy tarbiyalashda muhim o'rIN tutganligi sababli ham muqaddas hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy makonda farzandlar shaxs sifatida kamol topib, oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat singari axloqiy me'zonlar asosidagi omillar sog'lom muhitni yaratadi. Zero, axloqiy tarbiya natijasida oila a'zolari o'rtasida o'zaro yakdillik, fikrlar, maqsadlar mushtarakligi va orzu-umidlar uyg'unligi yuzaga keladi. Oilada axloqiy immuniteti shakllangan, axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalangan yoshlar milliy qadriyatlarini yerga urmaydi va zamonaviylik deb milliylikdan kechib ketmaydi. Aksincha, kattaga hurmat, kichikka izzat, o'zaro hamkorlik va g'amxo'rlik, ijtimoiy mas'ulyat, burch, mehr-oqibat hamda ahillik singari oilaviy qadriyatlar ruhida tarbiyalanadi.

Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" asarida: "Bolaning yuzi chiroyliliga ona qornida yoq zamin tayyorlanadi. Bundan keyin u chiroylilikni o'zgartiradigan kuch yo'q", – deb ta'kidlanadi. Mutafakkir o'z asarida bolaning tashqi go'zalligi emas, balki axloqiy bo'lish masalasiga hali u tug'ulmasdanoq e'tibor qaratish lozimligini ota-onalarga ibrat sifatida aytib o'tgan. Farzandning sog'lom tug'ilishi uchun hozirgi zamon psixologlari, ularning ota-onalarini yomon harakatlardan tiyilish, tug'ilajak farzandning onasi uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, ularga go'zal va chiroli narsalarni ko'rsatish, tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish kabilarni eng muhim ilmiy asoslangan omil sifatida e'tirof etmoqdalar. Bunday omillar bolalarning ongi va qalbiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etmoqdalar.

Bugungi globallashuv jarayoni kechayotgan davrda yoshlarda axloqiy immunitetning shakllanishida oilaviy qadriyatlar yanada dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida ota-onalarning tarbiya jarayoniga to'g'ri va aniq yondashuvi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Zero, axloqiy immunitetni shakllantirishda muhim bo'lgan axloqiy tarbiya, yosh avlodni shaxs sifatida voyaga yetishida oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq uzluksiz jarayondir. Oilaviy qadriyatlar oilaning har bir a'zosidagi ijtimoiy mas'ulyat, burch, kattaga hurmat, kichikka izzat, o'zaro hamkorlik, g'amxo'rlik, mehr-oqibat va ahillik hamda bag'rikenglik kabi asrlar davomida shakllanib, takomillaшиб kelgan tizimdir.

Faylasuf olim Erkin Yusupov tomonidan keltirilgan: "Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin, axloqiy buxronqa qarshi kurashishdan ko'ra uning oldini olish oson. Qayta oyoqqa turish qiyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi" [5: 82], - iborasi globallashuv jarayonida axloqiy me'yorlarimizni inkor etib, xalqimizni, ayniqsa yoshlarni tubanlikka undash kabi salbiy holatlarning ko'payib borayotganligiga ishora bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, milliy axloqiy me'yorlarimizning negizi bo'lgan oilaviy qadriyatlarimizni inkor etish va shu bilan birga oilaning qadriyat sifatida ahamiyatini pasaytirishga bo'layotgan tahdidlardan biri sanaladi.

Oilada faqatgina ota-onsa tarbiyasi, ularning shaxsiy namuna va ibrati orqali bola yuksak axloqiy sifatlar bilan tarbiyalanishi mumkin. Oilada tarbiya qanchalik to'g'ri va aniq maqsadga qaratilgan bo'lsa natija ham shunchalik yuqori bo'lishiga xizmat qiladi. Ammo, keyingi yillarda mehnat

migratsiyasi natijasida ko‘plab ota-onalarning chet davlatlarga ishga ketishlari, ularning farzandlari nazoratsiz, qarovsiz qolishi natijada yoshlardan tarbiyasiga oid muammolarni vujudga keltirmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma’rosimda: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman”, – deb ta’kidlagan edilar [1]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, tarbiya jarayonida milliy axloqiy qadriyatlarga tayanish va bu qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirib borish muhim o‘rin tutidi. Bu jarayonda ta’lim muassasalarini va oilaviy qadriyatlarni beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatimizga ma’naviy tahdid solayotgan, ezgu maqsadlarni niqob qilib, yoshlarmiz orasida axloqiy tubanlikni targ‘ib qiluvchilar, axloqsizlikni madaniyat deb singdirishga urinuvchilar, oilani, qadriyatlarni obro‘sizlantirish ilinjida yurganlar, ma’naviyat va e’tiqod qal’alarini vayron etishni maqsad qilganlarga qarshi hamisha xushyor bo‘lib kurashish barchamizning burchimizdir [4: 68]. Shunday ekan, yoshlarga bunday tahdidlarning mohiyatini tushuntirish va ularda axloqiy immunitetni shakllantirish hamda ogohlilikka da’vat etish lozim.

So‘nggi paytlarda ota-onalardagi tarbiyaga nisbatan loqaydlik va befarqlik hamda farzand tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi salbiy holatlar, yengilning ostidan, og‘irning ustidan yuradigan yoshlarning son jihatda ko‘payib borishiga sabab bo‘lib, bu esa bevosita oilaning muqaddasligiga putur yetkazmoqda. Darhaqiqat, befarqlik tufayli yoshlarni internet o‘yinlari va ijtimoiy tarmoqlardagi milliy axloqiy tamoyillarimizga zid, tubanlik illatlarini targ‘ib etuvchi axborotlar istemoli bilan o‘tkazmoqda. Yoshlarni bunday holatlardan asrashda, ularning bo‘sh vaqtlanini mazmunli tashkil etish va ta’lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishni ta’lab etadi.

Mamlakatimizda yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish va ta’lim-tarbiya jaryonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 14-avgustdagи “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sон qarorini dalil sifatida keltirishimiz mumkin. Jumladan, qarorda: “o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, mактабдан ташқари ta’lim muassasalarini, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani,” – ta’kidlab o‘tilgan [2].

Bundan tashqari qarorda, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlanini mazmunli tashkil etish, o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeini ko‘tarish, yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrab olish ko‘rsatgichlarni oshrish kabi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bu yoshlar faoliyati bilan bog‘liq masalalar davlat siyosati darajasidagi vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Bunday siyosatni mazmun-mohiyatini oila muhitida tushuntirish, targ‘ib qilish bevosita yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri bir so‘z bilan aytganda intelektual salohiyatining o‘sishiga xizmat qilsa, ikkinchidan, yoshlarda “burch” degan axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Shu o‘rinda, “burch” tushunchasining mohiyatiga izoh berib o‘tsak. “Burch – axloq falsafa-sining fundamental kategoriyalaridan biri. Bu tushuncha, oila va boshqa shu kabi tuzlmalarning shaxs zimmasiga qo‘ygan talablariga nisbatan insonning axloqiy mas’ulyatini, majburiyatini, ularni bajarish ichki ma’naviy zarurut ekanligini anglashni ifodalaydi”gan tushunchadir [3: 68]. Burch o‘z o‘rnida tushuncha sifatida mas’uliyat, o‘zlikni anglash, vijdon, xulq va shu kabi axloqiy tushunchalar bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan, insonning axloqiy qiyofasini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi.

Jamiyatda har bir xalq, millat va elatlar o‘ziga xos qadriyatlarni yaratgani kabi har bir oila ham o‘zlarini amal qiladigan an‘analar, qoida va me’yorlar majmuasi ya’ni o‘z qadriyatlarni yaratadi. Mazkur qadriyatlarni oiladagi odob-axloq tamoyillarining qaror topishi, oilada mustahkamlikni ta’minalash va axloqiy immunitetning shakllanishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

“Ajdodlar merosi – ma’rifat ziyyosi” kitobida: “Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilgan. Olimlar adab ilmini qadimdan chuqr o‘rganib, rivojlantirib

kelganlar. Yoshlar barcha sohada yetakchi bo‘lishlari uchun eng avvalo, go‘zal odob-axloqli bo‘lishlari lozim” [4: 70], - deb ta’kidlangan.

Yuqoridagi fikirlarimizdan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki,

birinchidan, oila yosh avlod axloqiy tarbiyasi va axloqiy immunitetni shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega maskan hisoblanadi,

ikkinchidan, agar oilada ota-onalar va katta yoshdagi a’zolari tomonidan yoshlardagi befarqlik loqaydlik hamda mas’uliyatsizlik singari salbiy illatlar yo‘qotib borilmas ekan, bu – yoshlar tarbiyasidagi salbiy holatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ushbu xulosalarimizdan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etamiz:

birinchidan, ta’lim-tarbiyada oila, mahalla va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tarbiya jarayonini tashkil etish;

ikkinchidan, oilada ota-onalar tomonidan yoshlardagi befarqlik loqaydlik va mas’uliyatsizlik singari salbiy illatlarni yo‘qotish ishlarini muntazam takomillashtirib borish.

uchinchidan, yoshlarda axloqiy immunitetni shakllantirishda innovatsion tenologiyalar, xalqaro tajribalarlar bilan birga milliy pedagogikamiz asosi bo‘lgan rivoyatlar, ertaklar, hikoya va o‘gitlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirdor xalq – farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, –2018-yil 8-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-3907-son qarori.
3. Falsafa: qomusiy lug‘at. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. –T.: “Sharq” nashryot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, 2004. – 63 b.
4. Ajodolar merosi – ma’rifat ziyosi / M. B. Yo‘ldoshev [va boshq.]. – Toshkent: Movaraunnahr, 2015. – 68 b.
5. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 82 b.

UDK: 314.15**O'SMIRLIK DAVRIDA MUSTAQIL QAROR QABUL QILISHNING EMPIRIK TAHLILI****G. O. Sodiqova***O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlik davrida mustaqil qaror qabul qilish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu davrda mustaqil qaror qabul qilishning psixologik jihatlari empirik tahlil etilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, qaror qabul qilish, mustaqil qaror qabul qilish, empirik tahlil, psixologik omillar.

Эмпирический анализ самостоятельного принятия решения в подростковом периоде

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы самостоятельного принятия решений в подростковом возрасте. Также был проанализирован эмпирический анализ психологических аспектов самостоятельного принятия решений в этот период и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: подростковый возраст, принятие решений, самостоятельное принятие решений, эмпирический анализ, психологические факторы.

Empirical analysis of rational solution in adolescence period

Abstract. In this article the issues of rational solution in adolescence period are analysed. And also psychological features of rational solution in this period are empirically analysed and concluded.

Keywords: adolescence, solution, rational solution, empirical analysis, psychological factors

Umr davrlari psixologiyasidan bizga ma'lumki, o'smirlik davri inson shaxsining rivojlanishi va kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr inson hayotidagi tub burilish davri bo'lib, tashqi ko'rinish va xulq-atvordagi ahamiyatli o'zgarishlar bilan birga kechadi.

O'smirlik davri o'tish davri, murakkab, inqirozli va shu bilan birga inson shaxsi kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega davr sifatida talqin etiladi. Aynan shu davrga kelib insonda faoliyat doirasi kengayishi, xarakter sifat jihatdan o'zgarishi, ongli xulq-atvor poydevoriga asos solinishi, axloqiy tasavvurlar shakllanishi ta'kidlanadi. Bu davr bolaning psixologik yetilishida eng qiyin davr ekanligiga e'tibor qaratiladi. Keskin o'sish va organizmdagi fiziologik qayta qurish jarayonida o'smirlarda bezovtalanish, yuqori qo'zg'aluvchanlik, o'zini o'zi baholashning pasayib ketishi kuzatiladi. Bu yosh davrining umumiy xususiyatlari sifatida kayfiyatning o'zgaruvchanligi, emotsiyonal noturg'unlik, quvnoqlikdan kutilmaganda tushkunlik va pessimizmga o'tish holatlari qayd etiladi. O'z yaqinlariga qaysarlik munosabatlari o'zidan o'zi qoniqmaslik bilan birga kechadi. [1,530]

Shuningdek, o'smirlarda o'zini o'zi anglashda ham sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi: tezroq yetuklik davriga etishish xohishi, boshqalar uni katta odam deb hisoblashlarini istash, mustaqil qaror qabul qilish yuzaga keladi. O'smirdagi jismoniy yetilish unga yetuklik hissiyorini beradi, biroq oila va maktabdagi ijtimoiy mavqeい o'zgarmay qoladi. Ana shunda o'z huquqlarining tan olinishi, mustaqillikka erishish uchun kurash boshlanadi, bu holat kattalar va o'smirlar o'rtasida ko'pincha nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'smirlik davri inqirozi yuzaga keladi.

Binobarin, o'smirlarda mustaqil qaror qabul qilish xususiyatini ilmiy jihatdan o'rganish muammosi o'ta muhim bo'lib, ko'pgina ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, biz tadqiqotimizda o'smirlik davrida mustaqil qaror qabul qilishning empirik tahlilini o'rganishga harakat qildik.

Qaror qabul qilish – bu murakkab jarayon, u mumkin bo'lgan imkoniyatlarni tushunish uchun axborotni izlash va qayta ishlashni, yangi yoki kreativ yechimlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlardan aniqlanishicha, o'rta yoshdagagi o'smirlar kichik yoshdagagi o'smirlarga nisbatan qaror qabul qilish jarayoniga nimalar kirishini yaxshi anglay oladilar. Kichik yoshdagagi o'smirlar qaror qabul qilish jarayonini bajarish uchun aniq maqsad qo'yish, yechimlarni topish, qandaydir harakatni amalga oshirguncha turli yo'naliishlarni takror ko'rib chiqishni yetarlicha anglamaydi. Mazkur xulosa tadqiqotning boshqa ma'lumotlari bilan muvofiqlashtiriladi, unga ko'ra kichik yoshdagagi o'smirlar kattalarga nisbatan kamroq

yechimga oid yo'llarni ishlab chiqadilar, o'z qarorlarining natijasini oldindan ko'ra oladilar hamda manbalarning ishonchlilagini baholashlari tabiiy hol.

Ma'lumki, muammoli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishning samaradorligi ko'p jihatdan qaror qiluvchining shaxs va individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Shundan kelib chiqib, biz o'quvchilarda shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga harakat qildik. Buning uchun biz tadqiqotimizda R.B.Kettellning "16 omilli shaxs savolnomasi"dan foydalandik. Mazkur savolnomma 9-10-sinf o'quvchilarida o'tkazildi.

1-jadval

9-sinf o'quvchilari shaxslilik xususiyatlari umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari

Shkalalar	N	X	σ
Muloqotga moyillik	26	5,85	1,48
Hissiy barqarorlik – beqarorlik	26	5,25	1,81
Hukmronlikka intilish – tobelik	26	5,60	1,44
Ijtimoiy etuklik – onglilik	26	5,50	0,76
Dadillik – tortinchoqlilik	26	6,27	1,80
Ishonuvchanlik – shubhalanish	26	5,37	1,29
O'ziga ishonch – ishonmaslik	26	5,02	1,48
Mustaqillik – tobelik	26	5,46	1,80
O'zini nazorat qilish	26	6,25	1,59
Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish – bo'shashish.	26	5,48	1,78

2-jadval

10-sinf o'quvchilari shaxslilik xususiyatlari umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari

Shkalalar	N	X	σ
Muloqotga moyillik	27	6,17	1,56
Hissiy barqarorlik – beqarorlik	27	5,44	1,38
Hukmronlikka intilish – tobelik	27	5,72	1,36
Ijtimoiy etuklik – onglilik	27	6,00	1,42
Dadillik – tortinchoqlilik	27	5,83	1,60
Ishonuvchanlik – shubhalanish	27	5,13	1,75
O'ziga ishonch – ishonmaslik	27	4,63	1,34
Mustaqillik – tobelik	27	5,57	1,63
O'zini nazorat qilish	27	6,48	1,72
Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish – bo'shashish.	27	6,31	1,83

1-2 jadvaldan ko'rinish turganidek, o'quvchilar shaxslilik xususiyatlarining umumiy o'rtacha ko'rsatkichi "Muloqotga moyillik" shkalasi bo'yicha 9-sinf o'quvchilarda 5,85 ni 10-sinf o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 6,17 ni tashkil etadi. Bu esa standart ko'rsatkich bo'yicha o'rtachani tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat e'tiborli, qattiq g'azablanish yoki xursand bo'lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros)ga berilmaydilar, xulqini boshqara olish qobiliyatiga ega, rahmdil va samimiyl, lekin talabchan bo'lishadi. Hissiy barqarorlik – beqarorlik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinf o'quvchilarida 5,25 ni 10-sinf o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 5,44 ni tashkil etadi. O'quvchilar o'z hislarini va kayfiyatlarini boshqara olishadi. Menining "kuchli yoki zaifligi" haqida fikr bildirish kerak bo'lsa, u holda menining kuchi yuqoriroq bo'lib, "Men" konsepsiyasini ijobjiy bo'lishiga olib keladi. Faoliyatda ma'lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlashi mumkin. Agar o'quvchilarda, hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hukmronlikka intilish – tobelik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinf o'quvchilarida 5,60 ni 10-sinf o'quvchilarida esa 5,72 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega o'smirlarning atrofidagi odamlar ta'siriga to'liq beriladi, deb aytib bo'lmaydi. O'smirlarning tutgan yo'li "Men konsepsiysi"ni ijobjiy namoyon bo'lishini talab qiladigan kasbining ta'siri bilan bo'ladi. Shu bilan bir vaqtida ular atrofdagilarning talabini ham hisobga olishadi. O'quvchilarning mustaqilligini belgilovchi huquqlarini himoya qilishda aggressiv emas, shu bilan birga ularidan yuqori turuvchi shaxslar oldida tobe bo'lishni ham xohlashmaydi. Ijtimoiy yetuklik, onglilik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinf o'quvchilarida 5,50 ni 10-sinf o'quvchilarida esa bu

ko'rsatkich 6,00ni tashkil etadi. O'smirlar hayotga va ishga yengil qaraydilar, javobgarlikni his qilmaydilar, tejamsizlik kabi xislatlaridan butunlay ozod emas. Ammo, bunday holat o'quvchilarda "Men-konsepsiysi"ning salbiy ekanligini ko'rsatmaydi, balki ular o'z xulqini boshqara olishi va o'smirlarda biroz qa'tiylik yetarli emas. O'quvchilar umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va axloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxs sifatidagi mavqega egadirlar. Ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik) shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinfda 6,27 ni 10-sinfda esa 5,83 ni tashkil etadi. O'smirlarning faoliyati uchun eng maqbul ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar yetarli darajada botir, odamlar bilan aloqaga erkin kirisha olishadi, muomaladagi qiyinchiliklarni enga olishga va kutilmagan holatlarga tushib qolishganida o'zlarini yo'qotib qo'yaydilar. Ishonuvchanlik – shubhalanish shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinf o'quvchilarida 5,37 ni 10-sinfda esa 5,13 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar asosan o'z aql-idrokiga asoslanib ish ko'rishadi, o'smirlarning bunday faoliyati samarali bo'lishiga olib keladi. O'ziga ishonch – ishonmaslik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinfda 5,02 ni 10-sinfda esa 4,63ni tashkil qiladi. O'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonch darajasi o'z muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo'layotgan voqealarni to'g'ri baholashni va ularga munosib javob bera olishni, o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchni yuzaga keltiradi. O'quvchilarda o'zini kamsitishga moyillik bo'lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo'lish, ta'sirchanlik bor. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'smirlar o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga harakat qilishi va ular kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berishlari kerak. Mustaqillik – tobeklik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinf o'quvchilarida 5,46ni 10-sinf o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 5,57 ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar hamma narsani o'zlar qilishni ma'qul ko'rishadi, ota-onalari, do'stlari, o'qituvchilarining tavsiyasi va takliflarini ham rad etishmaydi. Ular mustaqil bo'lishni ham, atrofdagi insonlarga tayanishni ham, ularning qo'llab-quvvatlashlarini ham xohlashadi. O'smirlarning bu kabi mustaqilliği faoliyatining yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. O'zini nazorat qilish (nazorat qilish istagi – ta'sirchanlik) shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinfda 6,25 ni 10-sinf o'quvchilarida esa 6,48 ni tashkil etadi. Umuman olganda, bu ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar ijtimoiy va axloq normalarini bajarishda qat'iyatlidirlar. Ko'pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qilishadi. Lekin har doim ham ular qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olishmaydi. O'smirlar o'z faoliyatini samarali tashkil qila olsada, ular o'zlarini nazorat qilishga ko'proq e'tibor berishgani ma'qul. Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish – bo'shashish shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 9-sinf o'quvchilarida 5,48 ni 10-sinfda esa bu ko'rsatkich 6,31 ni tashkil etadi. Ehtiyojlarning miqdori ko'pligi tufayli o'smirlarda bir muncha zo'riqish bor, xarakteri notinch, asabiy ruhiy olami qo'zg'aluvchan. Murakkab maqsadlardan o'zini olib qochadi va zo'riqish birinchi navbatda kasbiy faoliyat natijasi bo'lib, bunga o'z navbatida, temperament tiplarining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bilan birga qo'zg'alish va zo'riqishni namoyon bo'lgan darajasi o'smirlarda "tolerantlik" shakllanganligini ko'rsatadi. Tolerantlik – yoqimsiz omillar ta'siriga berilmaslik, ruhiy chidamlilik. Bu holat o'smir faoliyatining muvaffaqiyatli davom ettirishi uchun imkoniyat beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, o'smirlarning shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlari ularning shaxslararo munosabatlar tizimiga, mustaqil qaror qabul qilish jarayonining samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Завалишина Д. Н. Оперативное мышление и принятие решения. – М. : Наука, 2003. - С. 105-111.
2. Kelly G. A. The psychology of personal constructs. A theory of personality. Vol. 1. -New York: Norton, 2011. Pp. 526-565.
3. Козелецкий Ю. Психологическая теория решений:/ Юзеф Козелецкий; Пер. с польск. Г. В. Минца и В. Н. Поруса. Послесловие Б. В. Бирюкова и О. К. Тихомирова. - М. : Прогресс, 2000. -С.504.
4. Левин К. Динамическая психология: Избр. тр. / К. Левин; Пер. с нем. и англ. Е. Патяевой, Д. Леонтьева. - М. : Смысл, 2001. -С.568.
5. Ларичев О.И. Теория и методы принятия решений. Учебник. – М.: Логос, 2000.-С.33.
6. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A., Solihova G, Niyozmeiova G. Oila psixologiyasi. – Т., 2010. - 295, 16-b
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Т.: 2000, 546 b.

UDK: 301:008

“MADANIYAT” MAVZUSINING SOTSILOGIK TALQINI**K.Kalanov***O‘zbekiston Milliy universiteti*

Annotastiya. Maqolada muallif sotsiologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblangan “madaniyat” mavzusining davriy shakllanib borish dinamikasini yoritadi. Muammoning vujudga kelishi va uning turli tarixiy davrlarda aks etgan sotsial jihatlari sotsiologik nazariya va yonda-shuvlarda qanday aks etganligi bayon etiladi. Ijtimoiy hayot, xususan insonlarning turmush va tafakkur tarzida madaniyatning tutgan o‘rnining sotsiologik jihatlari tahlil etiladi.

Tayanch so‘zlar: madaniyat, kultura, sivilizastiya, madaniy talvasa, sotsial madaniyat, madaniyatlar to‘qnashushi, kultivastiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, sotsial antropologiya, sotsiomadaniy tahlil.

Социологическое интерпретация темы “Культура”

Аннотация. В статье описывается динамика периодической формулировки понятия «культура», которая является одной из актуальных проблем социологии. Проблема возникновения проблематики и ее социальных аспектов, отраженная в разные исторические периоды, так же и в социологической теории и подходах. Анализируются социальные аспекты социальной жизни, в частности роль культуры в образе жизни людей.

Ключевые слова: культура, цивилизация, культурный шок, социальная культура, столкновение цивилизаций, культивация, социология, культурология, социальная антропология, социокультурный анализ.

Sociologic interpretation of the subject of “Culture”

Abstract. Dynamics of periodic formulation of the concept of "culture" is described, which is one of the important problems of sociology. The issue of perspective and its social aspects as reflected in the different historical periods, as in sociological theories and approaches. the social aspects of social life, in particular the role of culture in the lifestyle of people are analyzed.

Keywords: culture, civilization, cultural shock, social culture, the clash of civilization, cultivation, sociology, cultural studies, social anthropology, socio-cultural analysis.

O‘zbek tilidagi ko‘plab ensiklopedik lug‘atlarda “Madaniyat” arabcha – madina (shahar, kent) so‘zidan kelib chiqqanligi yozilib, u tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usulidir, degan ma’noda talqin qilinadi. “Madaniyat alohida shaxs (individ), sotsial guruh yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradigan tushunchadir. Dastlab, madaniyat tushunchasi insonning tabiatga nisbatan maqsadga muvofiq ta’siri (yerga ishlov berish, ya’ni kultivastiya qilish, lotincha “culture” so‘zidan olingan), hamda insonning o‘zini tarbiyalash, o‘ziga ishlov berish ma’nolarida ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi vositasida “sivilizatsiya” (taraqqiyot) bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlandi. Madaniyat inson faoliyatining mahsuli va sifat ko‘rsatkichi sanaladi. Insonning o‘zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Jamiyatdagi madaniy muhit qanday bo‘lsa, inson ham shunday shakllanadi.” [1-230].

“Madaniyat” so‘zining tarixiga e’tibor qaratilsa, u ijtimoiy hayotda ma’no jihatidan murakkab talaffuzga ega mazmun kasb etib, ilmiy amaliy va kundalik hayotda keng qo‘llaniladi. Turli ijtimoiy-gumanitar fanlarda ong va tafakkur bilan bog‘liq turli sotsial tizimlardagi murakkab tushunchalarning izohini ta’riflashda ham unga murojaat qilinadi.

Madaniyat atamasining ma’nosи fanga qanday qilib kirib kelgani va shakllanganligi to‘g‘risida tilshunos tadqiqotchi R.Uilyams bildirgan fikrlar alohida ahamiyatga ega [2-RR.76-82]. Ushbu atama “colere” so‘zidan olingan bo‘lib, uning turli Yevropa tillari talaffuziga o‘rnashishida lotincha “cultura” so‘zining ta’siri yuqori bo‘lgan. Ijtimoiy fanlarda solere atamasи “o‘rnashib olmoq”, “madaniylashtirmoq”, “otaliqqa olmoq”, “bo‘ysunmoq”, “amal qilmoq” kabi ma’nolarda keladi. Ushbu jumlalarning ayrimlari vaqt o‘tishi bilan o‘zining mustaqil ma’nosiga ega bo‘lib bordi va ilmiy atamashunoslikda keng qo‘llanilib, ayrim holatlarda joyi kelsa ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib turadi. Jumladan, “o‘rnashib olmoq” so‘zi ma’nosи lotin tilidagi “colonus” so‘zidan olingan bo‘lib,

keyinchalik koloniya so‘zining kelib chiqishi uchun sabab bo‘lgan. “Amal qilmoq”, “bo‘ysunmoq” fe’llari esa lotincha “*cultus*” so‘zidan olingan bo‘lib, hozirgi adabiyotlarda “*sig’inish*” (kult) ma’nosida ishlatalidi.

“*Sulture*” atamasi dastlab “xizmat qilmoq”, “amal qilmoq” so‘zlariga mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan “rivojlantirish”, “kultivastiya qilish” ma’nolarini berib, o‘rtalarda ingliz tilida u to‘g‘ridan to‘g‘ri “xizmat ko‘rsatish” ma’nosini anglatgan. Qadimgi fransuz tilida “*couture*” so‘zi qisman biomadaniyat izohida qo‘llanilib, kundalik hayotda alohida mazmun kasb etgan va keyinchalik “*culture*” shaklida talaffuz qilina boshlandi. Fransuzlarda *sulture* so‘zining arxaik foydalanilgan jumlalarining barchasida nimanidir, masalan, hayvonot yoki o‘simpliklar dunyosini madaniylashtirish (kultivastiya qilish) jihatlari tushunilgan. Bu esa o‘z navbatida ushbu atamaning boshqa Yevropa xalqlari lahjasida qo‘shimcha ma’nolarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Xususan, ingliz tilidagi “*coulter*” – (plug, so‘qaning tishi ma’nosida keladi) so‘zi lotin tilidagi mehnat qurolini anglatuvchi “*cultur*” so‘zidan kelib chiqqan. Uning keyingi evolyutsiyasi madaniylashtirish (kultivatsiya qilish), tabiiy hodisa va jarayonlarni insoniyat bilan bog‘lash, odamlarni unga o‘rgatish va madaniy rivojlantirish bilan bog‘liq tasavvurlar bilan izohlanadi. Shunday bo‘lsada ushbu so‘zning qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq ma’nosini ko‘p asrlar davomida saqlanib qolgan. Agrokultura, kultivastiya kabi so‘zlar shular jumlasidandir.

XVIII asrning o‘rtalarida Evropa mamlakatlari, xususan Angliyada madaniyat yoki ilmiy ma’noda kultura atamasi aql va tarbiya bilan uyg‘unlashtirildi. Ingliz faylsasufi F.Bekon o‘z qarashlarida “madaniyat va aqlni parvarishlash” haqida fikrlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, parvarishlash – bu kultivatsiyaning sinonimi o‘rnida keladi. Shu davr ruhoniylari “zodagon kishilarning o‘z farzandlarini tarbiyalash uchun cherkovga topshirishni istamayotganlari va buning o‘rniga “bola tug‘ilganidan uning aqlini madaniyatlashtirib borililayotganligi” (persons of eiter birt or culture) to‘g‘risida noliydlar” [3-534.]. Bunda ikki jihatga to‘xtalib o‘tish muhim. Birinchidan, metafora, ya’ni majoziy ma’noda madaniyat bilan tarbiyaning uyg‘unlashuvi odatiy bo‘lib bora boshladi va unda aql (ong va tafakkur) inson ma’naviy yuksalishini shu ikki omil bilan parvarishlab bordi. Ikkinchidan, insonning ruhiy erkinligi va uning individual sotsial imkoniyatlari ijtimoiy hayotda rivojlanish va takomillashib borish uchun madaniyat atamasidan unumli foydalanishga sabab bo‘ldi. Bu esa ushbu atamaning fanlar tizimida yanada universallashuviga olib keldi.

XVIII-XIX asrlarda zamонавијат со‘зининг ко‘пқиррали, ammo chalkash ma’noli tarixi boshlandi. Bu davrda madaniyatning izohini ifodalovchi “*culture*” talaffuzi yoniga “*civilis*”, ya’ni “fuqaroga taalluqli”, “fuqaroga oid” ma’noni beruvchi atama qo‘shildi. U lotincha “*civis*” – fuqaro so‘zi bilan qo‘shilgan holda “sivilizastiya” jamlanmasining o‘zagini tashkil qiladi. XX asrning 90 yillarda (keyinchalik ham) o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani forsiydagи “*tamaddun*” so‘zi bilan izohlashga harakat qildilar. Ta’kidlash mumkinki, bu izoh o‘zbek tilida o‘zining to‘liq lug‘aviy ifodasini bera olmadi. Xususan, sotsiolog va siyosatshunos tadqiqotchilar orasida keng munozarali asar hisoblangan S.Xantingtonning mashhur asari ingliz tili (*The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*)dan tarjima qilinganda “*Tamaddunlar yoki sivilizastiylar to‘qnashuvi...*” deb emas, balki “*Madaniyatlar to‘qnashuvi...*” deb talaffuz qilinmoqda (K.K.). [4-603]

Ijtimoiy fanlarning uzoq muddatli evolyutsiyasi davomida “stivilizastiya” atamasi dunyodagi tarixiy jarayonlar va uning yutuqlarini, insonning jismoniy, ma’naviy va ruhiy kechinmalaridagi axloqiy tarbiyaning poklanishi, qonunchilik ustuvorligi hamda jamiyatdagi sotsial tartib ma’nolarini anglatib keldi. XIX asrning oxirlarida dastlab Fransiya, keyinchalik Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlari sivilizastiya so‘zi ko‘plik ma’nosida qo‘llanila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati bir vaqtning o‘zida yangi madaniyatlar bilan to‘qnash keldi va buning natijasida turli xil sivilizastiylar to‘g‘risida fikr-mulohazalarga oid asarlar paydo bo‘la boshladi.

Sobiq ittifoq paytida madaniyat atamasiga berilgan izohlar tabiiyki, rus tilidagi manbalardan olib izoh berilardi. Shu vaqtarda madaniyat so‘zini “*Madina*” shahriga qiyoslab yozilgan kitob yoki maqolalar qariyb uchramasdi. “*Kultura*” so‘zi rus tilida N.Kirillovning 1845 yili chop etilgan “*Horijiy tillar cho‘ntak lug‘ati*”da ilk bor iste’molga kiritilgan. Lekin unga shu vaqtarda jamiyatshunos mutaxassis va davlat arboblarining alohida e’tibor qaratmaganligi ma’lum. Rus mutafakkir olimi I.Pokrovskiy o‘zining “*Rus tilidagi xatolar bo‘yicha qaydlar varog‘i*” asarida hattoki ushbu so‘zni muloqot uchun keraksiz deb e’lon qiladi. Faqatgina XIX asrning 80 yillariga kelib kultura, ya’ni madaniyatning zaruriyati xususida g‘arb tillarida berilgan ma’no bo‘yicha iste’molga kiritilishiga

ruxsat etiladi. Atoqli tilshunos rus olimi V.Dal tomonidan yozilgan to‘rt jildlik lug‘atning ikkinchi qismida “kultura” so‘ziga qisqagina to‘xtalib o‘tadi [5-S.217.]. Bunda madaniyat ma’nosni Yevropa tillarida qanday shaklda bo‘lsa, shu holatda beriladi. Sivilizastiya atamasi esa jamiyatning umumiy holatidan kelib chiqib, alohida shaxslarning tarbiyasi va xulq-atvori darajasida tushunilib, yovvoyilik va varvarlikka to‘la-to‘kis qarshi holatda tasvirlanadi.

Zamonaviy Yevropa tillarida ijtimoiy fanlarga qo‘llab madaniyat so‘zining to‘rtta asosiy ma’nosni qiyoslab ko‘rsatiladi:

1) umumiy jarayonlarning intellektual, ma’naviy, estetik rivojlanishidagi mavhum ma’nolar (masalan, oliy ma’lumotlilar madaniyatli kishilar; ammo barcha oliy ma’lumotlilarning intellektual darajasi baland bo‘lmasligi, estetik didi yuksak darajada shakllanmagan bo‘lishi ham mumkin va h.z.lar);

2) jamiyatning sotsial taraqqiyotida huquq, tartib, axloq tolerantligiga asoslangan ma’noda keluvchi madaniyat (ushbu vaziyatda madaniyat so‘zi sivilizastiya so‘zining ma’nosni bilan mos keladi);

3) qaysidir bir jamiyat yoki insonlar guruhining ma’lum bir tarixiy davrga xos bo‘lgan mavjudlik usuli yoki hayot tarzining xususiyatlariga mavhum ishora (masalan, sug‘dlar madaniyati, maya madaniyati va b.);

4) aqliy-intellektual madaniyat, bunda dastavval badiiy faoliyat shakllari va mahsulotlarining mavhum tavsifini ifodalovchi musiqa, adabiyot, rangtasvir, teatr, kino va shu kabilarni anglash mumkin. Asosan madaniyat vazirligi tasarrufiga kiruvchi ushbu jarayonlarni katta ehtimol bilan aholi “madaniyat” sifatida talqin etilishi ko‘p kuzatiladi.

Yuqorida keltirilgan ta‘riflardan kelib chiqib “madaniyat” so‘zining ma’nosni umumiy jihatdan bir-biriga qisman bog‘liq bo‘lib, insonning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilashda yuksak tuyg‘ularni ifodalovchi atama sifatida shakllandı. Lekin madaniyat talaffuziga faqat ijobiy jihatdan yondashilgan, deyish xato bo‘ladi. Tarixda bir madaniyatning ikkinchisi ustidan bo‘lgan tayziqi tufayli, unga salbiy dushmanlik munosabati hissiyotlar orqali shakllangan davrlar bo‘lgan. Dastlabki ko‘rinish Angliyada XIX asrda vujudga kelib, unda muhtasham “estestizm” va “lirk hayot” o‘rtasidagi qarama-qarshilik M.Arnold asarlarida paydo bo‘ladi [6-467]. Bu davrda estestizm tanqidchilari iste’moldagi “culture” so‘zi o‘rniga raqiblari tomonidan “kashf qilingan” masxaromuz o‘xshatish shaklidagi “culcha” so‘zidan foydalanganlar. Madaniyatga nisbatan salbiy istehzoli qarashlar keyinchalik boshqa xalqlarning turmush tarzlarida ham tez-tez ifodalanadigan bo‘lindi.

Madaniyatga nisbatan dushmanona kayfiyatning shakllanishi mustamlakachilik va ikkita jahon urushini vujudga keltirdi. XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida nigelizm va avangardchilar, 60-70 yillardagi yoshlar harakatlari esa G‘arbda madaniyatni an’ana tayanchi hamda insoniyat kelajagi yo‘lidagi asosiy to‘siq sifatida ko‘rib, uni butkul bartaraf qilish uchun bo‘lgan turli xil ziddiyatlarni paydo qildi. Madaniyatga nisbatan doimiy dushmanlik munosabati bir tomonidan ma’lum toifa ziyoli kishilarning tanadagi aql va qalb haroratini baholashda o‘zlarini haddan ziyod yuqori baholovchi nisbatan asossiz da’volari bilan bog‘liq edi. Ikkinchidan, oddiy insonlarga nisbatan kamtarona munosabatning hamma vaqt ham yetishmasligi “madaniyatli hisoblangan” kishilarga norozi munosabatlarni keltirib chiqarardi. Shu tipda tushuniladigan madaniyatni ta‘riflash uchun, turli millatlarda kamsituv ma’nosidagi ba’zi bir maxsus atamalar yuzaga keldi. Jumladan Amerikada *culture-vulture*, Rossiya va rusiyabon MDH davlatlarida shunga yaqinroq *kultur-multur* jumlesi ishlatsa, o‘zbeklar orasida ko‘pincha *madaniyat-padaniyat* kabi norozi ohanglar qo‘llanilib turadi. Masalan, “... yo‘qot-e madaniyat-padaniyatning”, degan e’tirozli jumlalarni hozir ham uchratish mumkin.

Madaniyat sostiologiyasi sohaning tarmoq yo‘nalishi hisoblanib, u madaniyatning vujudga kelishi, zamoniaviy holati va istiqbolini tarixiy va sotsial tadqiqotlar yordamida o‘rganadi. Madaniyatning jamiyat hayotidagi roli haqida tasavvurlar jiddiy ravishda o‘zgarib borar ekan, shunga mos ravishda fanning predmeti, maqsadi, tuzilmasi va usuli haqidagi tasavvurlar ham yangitdan shakllanmoqda. AQSh universitetlarida madaniyat sostiologiyasi fani o‘rniga madaniy antropologiya yoki sotsial antropologiya o‘qilib, asosan madaniyatning etnik jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Sotsial antropologiya va madaniyat sostiologiyasi umuman olganda madaniyat falsafasining ilmiy metodologiyasi va tahliliy apparatini keng qo‘llaydigan, hamda o‘z oldiga sostiomadaniy o‘zgarishlar qonuniyligini aniqlash va tahlil etishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Ko‘p holatlarda u sostiomadaniy tahlil deb ham ataladi. Sostiomadaniy tahlil – bu ilmiylikka qo‘yiladigan keskin

intizomdan ko‘ra ko‘proq nazariy taddiqot yo‘nalishi bo‘lib, o‘zida obyektivlik va subyektivlik jarayonlarini ham gavdalantiradi.

“Sotsial madaniyat” atamasi sostiologiyada “sotsial munosabatlardagi madaniyat” deb ham nomlanishi mumkin. [7-S.125] U kishilarning jamiyatdagi xulq-atvorlari va sotsial o‘zaro munosabatlari asosida shakllangan qadriyatlar tizimi bo‘yicha tartibga solinib keltingan. Sotsial madaniyatning asosiy o‘zagi jamiyat, davlat va boshqa sotsial institutlarning (O‘zbekistonda mahalla instituti alohida ahamiyat kasb etadi) faolyatida namoyon bo‘ladi. Shulardan kelib chiqqan holda, sotsial madaniyatning asosiy shakllari o‘zida axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyat turlarini qamrab oladi.

Kishilik jamiyatining insoniyat dunyosi va tabiatga nisbatan aynan to‘g‘ri kelmasligida biz sotsial tarix qonuniyatlarini hamda sotsial taraqqiyotning o‘ziga xos jihatlari mavjudligini qayd etamiz. Shuningdek, bunda biz sostiumning faqat insonga xos bo‘lgan faoliyat shakli, ya’ni madaniyatning yuzaga kelish va mavjud bo‘lish jarayonlarini hisobga olamiz, umumlashtiramiz.

Insoniyat turining tabiiy yashash muhiti – bu organik butunlik, insonlar mavjudligining zaruriy asosidir. Inson va uning yashash muhiti bu butunlikning o‘zaro tobe qismi sanaladi. Biroq insoniyat dunyosi va aniq insonning o‘z tabiatini yoki o‘zga kishilarga aynan to‘g‘ri kelmasligida insonning o‘z tabiiy organik butunligiga moslashish jarayoni “fojeaviy” o‘rin tutgani yo‘q. O‘ziga o‘xshaganlar bilan muloqotga kirishish zarurati – sotsial tarix, ijtimoiy taraqqiyot va kulturogenezning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib chiqdi [8-№2.S4]. XXI asrning so‘nggi o‘n yilligida sotsiallik bilan bog‘liq masalalar dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turadigan bo‘ldi. Uning ahamiyati shundaki, taraqqiy etib borayotgan jamiyatda mazkur masala, ya’ni “*sotsiallik*”ga nisbatan qo‘simcha o‘zlashtirilgan yoki o‘zgartirilgan, ammo natijasiz “sayqal” berish yuqorida ta’kidlaganimiz sostiumda kutilmagan tug‘yonlarga olib kelishi mumkin.

Sostiologik nuqtayi nazardan har qanday madaniyatning sotsial munosabatlari tizimini tahlili qiladigan bo‘lsak, fan nuqtayi nazaridan mutaxassislar, ushbu jarayonni “madaniyat”, “ijtomiyat” yoki “siyosat” deb alohida talqin qilishdan ko‘ra, ilmiy asosda “sotsiomadaniy” deb fikr bildirishga odatlanganlar. Shundan kelib chiqib, sotsial madaniyatni “sotsiomadaniy” jarayon sifatida qarash ham mumkin. XX asrning taniqli mutaffakiri S.Xantington fikricha “yangicha shakllanayotgan dunyoda mohiyatan mayjud nizolarning asosini yo mafkura va yoki iqtisod tashkil etmaydi. Insonlarning bir-birlaridan uzoqlashuvi va ular o‘rtasidagi nizolarning manbalari madaniyat orqali sodir bo‘ladi” [9-S.10].

Axborot kommunikastion madaniyat bo‘yicha jiddiy taddiqotlar olib borgan kanadalik antropolog va madaniyatshunos taddiqotchi G.Maklyuen insoniyat tarixida muloqot va madaniyatning uchta shakli bo‘lib o‘tganligiga alohida e’tibor beradi. Demak, bular a) og‘zaki an’ analarga asoslangan madaniyat, b) yozuv va bosma yozuv an’ analariga asoslangan madaniyat, v) madaniyatning elektron shakli [10-R.92.]. Bundan kelib chiqqan holda, biz O‘zbekiston sharoitda G.Maklyuen tomonidan keltirilgan izohning uchinchisi, ya’ni madaniyatning elektron shakli tobora rivojlanib borayotganligini e’tirof etmoqchimiz.

Sotsiomadaniy jarayonlar ichida keng tarqalgan hodisalardan biri – “madaniy talvasa”, aniqrog‘i madaniy talvasaga tushish hisoblanadi. Ushbu atamani ilk bor 1960-yili amerikalik taddiqotchi Kalervo Oberg (*Kalervo Oberg*) ilmiy muhitga kiritgan. Madaniy talvasaning paydo bo‘lishi oddiydan murakkabga qarab boradi va insonda pessimistik, ya’ni noxushlik kayfiyati darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u shunchalik ko‘p madaniy talvasaga tushadi. Bunda eski bilan yangi o‘rtasidagi to‘qnashuv, kechagi kun bilan bugunning bir-biriga mos tushmasligi, avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, geografik hududning o‘zgarishi asosida psixologik va sotsial kayfiyatdagi tushkunlik holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Boshqa bir amerikalik mutaxassis F.Bok fikricha, “madaniy talvasa insonda o‘zga dunyo bilan o‘zaro faoliyatga kirishish natijasida o‘zi uchun notanish bo‘lgan belgi va ramzlar bilan to‘qnash kelish oqibatida vujudga keladigan tashvishli holat, hadiklar asosida paydo bo‘ladi” [11-R.23]. U o‘zining madaniy antropologiya bo‘yicha maqolalar to‘plamining kirish qismida (bu qism Culture Shock, ya’ni Madaniy talvasa deb nomlangan) muammoga quyidagicha ta’rif beradi: “Madaniy talvasa so‘zining keng ma’nodagi mazmuni – bu, aytaylik kimdir o‘z uyini tark etayotganida, keyinchalik shu uyga o‘zining begona bo‘lishidir. Inson madaniy talvasa holatida xuddi iblisning vasvasasiga tushgandek, mutlaqo o‘ziga notanish bo‘lgan, ammo mayjud makonda hamma vaqt bayon etib kelgingan ishonchli va qabul qilingan hodisalarining guvohi bo‘ladi. Siz tasodifan kirib kelgan

guruhda odamlar har kuni ijro etadigan umumiy madaniy rollarga sherik bo‘lishingizga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘zingiz o‘ylab ko‘rgandek so‘z va muomalaringizni loyihalashtirishning iloji bo‘lmaydi. Chunki barcha, shu jumladan siz ham ko‘pchilik qatori dunyonи amalda bir xil ko‘rasizlar, bir birlaringizdan nimani kutishni bilasizlar. Shunday bo‘lsada, begona jamiyatga o‘tib, siz qiyinchiliklarga duch kelasiz, tanangizda ojizlik va adashish hissini tuyasiz va buni ilmiy tilda madaniy talvasa deyish mumkin”[12-R.23]. O‘quvchimizga muammoni yanada tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi misolni keltirish o‘rinli bo‘ladi. Tabiatan hisob-kitobli va o‘ziga xos tartibga amal qilib yashaydigan g‘arb kishisi uchun o‘zbeklar turmush tarzida alohida ahamiyat kasb etadigan nahorgi osh marosimi madaniy talvasa holatini keltirib chiqarishi aniq. Erta tong sahardan muzika sadolari ostida to‘kin dasturxon ustida issiq somsa va yog‘li palovni 200 tadan 500 tagacha odamga tekinga tarqatilayotganini ko‘rib, u o‘zida diskomfort sezadi. Shuningdek, uning ertalabki nonushta vaqtida bir chashka kofe yoki apelsin sharbatini ichib, ish joyiga ketishini hisobga olinsa, ushbu marosim jarayoni bilan ilk to‘qnash kelgan har qanday odamdagи noqulaylikni his etish oson. O‘z navbatida boshqa jamiyat kishisining o‘zga madaniy dunyoga tushib qolganda shu kabi marosim yoki odatlar oldida dezorientastiya, ya’ni ajralib qolish holatini zamonaviy dunyoda tez-tez kuzatish mumkin.

Madaniy talvasaning mazmuni eski va yangi o‘rtasidagi madaniy me’yor va oriyentastiylar to‘qashuvda namoyon bo‘ladi. O‘tmishga aylangan davrning ishtirokchisi va guvohi bo‘lgan shaxs avval shu jamiyatga xos bo‘lib, keyinchalik uni tark etishi natijasida yangi bir ijtimoiy hayotning ifodalovchisiga aylanishi mumkin. Buni biz sobiq ittifoq davrida ta’lim olib, butun hayotini mustaqillikka baxshida qilgan odamlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, madaniy talvasa – bu individual (shaxs) ong darajasidagi ikki madaniyat to‘qnashuvdir. Zinhor uni etnik yoki diniy madaniyatlardagi kelishmovchilik omillari bilan bog‘lash kerak emas. Qaysidir bir insonning madaniy talvasa holatiga tushishi, uning o‘zga muhitdagi madaniyat bilan to‘qnash kelib, shuning natijasida o‘zida diskomfort, ya’ni noqulaychiliklarni his etishi bilan bog‘liq.

Madaniy talvasa faqat bir shakl bilan uzoq muddatli davom etmaydi. Buning uchun individ o‘zida mujassam bo‘lgan stereotip (ongda qotib qolgan odat)larni qaysidir tartibda sindirib boradi. Jumladan, XX asr ta’lim tizimida erkak va ayol jinsiga mansub bo‘lgan kishilarning bir sinfda bilim olishi madaniy talvasa sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, bugun bu jarayon oddiy holatga aylanib ulgurdi. Yoki ayol kishining avtomobil rulini boshqarishini bundan 15-20 yil oldin ko‘rib, o‘zida noqulaychiliklarni his etgan qanchadan qancha odamlarni uchratish mumkin edi.

Dunyoning globallashuvi va axborotlar ko‘lami tarqalishi avj olib borayotgan bugungi davrda har qanday odam bir necha bor u yoki bu darajadagi madaniy talvasa holatini o‘z tanasida his etishi mumkin. Bunga milliy yoki diniy farqlar, kiyinish, ovqatlanish, musiqa, oilaviy muhit tarbiyasi kabi omillar ta’sir o‘tkazadi. Tanganing ikki tomoni bo‘lganidek, ta’kidlash kerakki, bir jihatdan madaniy talvasa holatida kimdir tezda o‘zini o‘nglab olsa, ikkinchidan, unda insonlar og‘ir noqulayliklar ichida qolib ketishi mumkin.

F.Bok fikricha, talvasa holatidagi madaniy to‘qnashuvli nizoni yechishning besh usuli mavjud. Birinchi usulni u shartli ravishda “gettolashgan” (“getto” so‘zidan olingan) deb ataydi. Zamonaviy jamiyatda migrastiya jarayonlarining avj olishi gettolashish omilini kuchaytirmoqda. Shaxsning o‘zga jamiyatga kelib qolganida mahalliy tilni bilmasligi, tortinchoqlik, o‘zga dinga e’tiqod va boshqa shu kabi sabablar tufayli o‘ziga notanish bo‘lgan madaniyat bilan muomalaga kirishishga majbur bo‘ladi. Shunday sharoitda u o‘zining shaxsiy madaniy muhitini yaratishga harakat qiladi. Boshqa hamyurtlari, qarindosh-urug‘lari, qabiladoshlari bilan o‘zlariga mos bo‘lgan muhit yaratib, mavjud “begona” madaniyat ta’siridan o‘zini o‘rab oladi, ya’ni himoya vositasini yaratadi.

Ko‘plab g‘arbdagi katta, o‘rtacha va hatto kichik shaharlarda mahalliy madaniyatdan keskin farq qiladigan ghetto madaniyatları paydo bo‘ldi. Bularga hind, xitoy, turk, arab va shu kabi kvartallarni misol qilish mumkin. Masalan, Berlinning Kroysberg tumaniga bir necha o‘n yilliklar davomida turk migrantları va qochoqları kelib joylasha boshladilar. Nemis olami va turmush tarzini qabul qilishni istamagan turklar o‘zlarining sotsial dunyosini ajdodlar an‘analari asosida davom ettirib, butunlay yopiq tizim yaratadilar. Natijada turk diasporasi o‘rniga o‘ziga xos ghetto paydo bo‘ldi. Bu kabi tumanlarda istiqomat qiluvchilar nafaqat turkcha talaffuzda gaplashishadi, unda hatto ko‘chalarning nomlari va qiyofasi, undagi reklama va e‘lonlar ham turk tilida bitilgan. Turkcha tamaddixonalar va restoranlar, turk banklari va sayohat byurolari, turk partiyalari vakolatxonalarini va devorlarda turk tilidagi siyosiy shiorlarni har qadamda uchratish mumkin. Kroysbergda butun umr nemis tilida biror so‘z gapirmasdan yashab o‘tish mumkin. Bunday ghetto – arman, gruzinlar hamda Moskvada bo‘lgan.

Kanadaning Toronto shahrida gettolashgan tumanlar shu darajada o‘ziga xos milliy ahamiyat kasb etganidan, amerikalik kinorejissyorlar Kalkutta, Bangkok yoki Shanxayda olinishi kerak bo‘lgan sahnalarini Torontodagi kvartallarda olishni ma’qul ko‘rishadi.

Madaniy to‘qnashuvga oid nizolar yechimini hal etishdagi ikkinchi usul – assimilyatsiya, ya’ni “qorishib ketish” bo‘lib, u o‘z mazmuniga ko‘ra, gettolashgan jarayonning aksi sanaladi. Assimilyatsiya jarayonida shaxs o‘zining asriy madaniyatini rad etib, o‘zi uchun yangitdan o‘zlashtirilgan vatanning madaniy-ma’naviy boyliklarini to‘lig‘icha o‘zlashtirishga harakat qiladi.

Talvasali holatdagi madaniy to‘qnashuv nizosini yechishning uchinchi usuli “oraliq masofali” bo‘lib, unda madaniy aloqalar o‘zaro hamkorlikda mujassam bo‘ladi. Aloqalar to‘g‘ri amalgalashadi. O‘zaro munosabatlarda tomonlarning biri “avtoxton” (mahalliy) va ikkinchisi “muhojir” (qochoq) bo‘lsada tarixda muvaffaqiyatli madaniy aloqalar ko‘p uchragan. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbekiston, xususan Toshkent shahriga juda ko‘p sonli turli millat vakillari evakuatsiya qilinadi. Odamlar bilan birga yirik sanoat korxonalari, ilmiy akademik tashkilot va muassasalarning ko‘chirib kelinishi fan va ta’limning rivojlanishiga muhim hissa qo‘sadi. O‘zbek va turli millatga mansub madaniyatlarning yaqinlashuvi o‘ziga xos madaniy simbiozni shakllantirdi. Aholi orasida ko‘ptillilik paydo bo‘ldi, jamiyatning intellektual iqlimi o‘zgarib, dinlararo va millatlararo totuvlik kuchaydi. Umuman olganda o‘zaro madaniy aloqalarning natijalari birdaniga amalga oshishi bilan ko‘zga ko‘rinmaydi. Ular vaqt o‘tishi bilan o‘z ahamiyatini namoyon qilib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatdan jiddiy tus olib boradi.

To‘rtinchchi usul qisman, yoki “vaqtinchalik assimilyatsiyalashuv” deb nomlanib, unda shaxs ijtimoiy hayotning qaysidir bir tarmoqlarida o‘zga madaniyat foydasiga o‘z madaniyatini qisman qurbon qiladi. Masalan, xizmat joyida o‘zga madaniyat muhiti me’yor va talablariga moslashsa, oilasi va qarindosh urug‘lari davrsasi, ma’naviy-maishiy sohalarda o‘zi mansub madaniyat normalariga amal qiladi. Madaniy talvasani bartaraf etishning ushbu usuli bugungi zamонави jamiatning eng omma-lashgan ko‘rinishi hisoblanadi. Ko‘pincha muhojirlar o‘zga dunyoga qisman assimilyatsiyalashadi va o‘z turmush tarzini ikkita, lekin bir-biriga teng bo‘lmagan qismga ajratishga majbur bo‘ladi. O‘zga hududda gettolashgan madaniyat to‘liq shakllanmasa, unda shaxsning mavjud muhitga qorishib ketishi qisman yuz beradi. Lekin qisman assimilyatsiya jarayoni keyingi avlodlarga o‘tganda to‘liq assimilyatsiyalashuvga o‘tib ketishi mumkin.

Davriy o‘zgarishlar natijasida XX asr tadqiqotchilarining e’tibori ko‘proq “konstant” madaniyatlar, ya’ni barcha xalqlarning turmush tarzidagi doimiy barqaror elementlarni ozmi-ko‘pmi darajada o‘zgartirmagan holatda o‘rganishga qaratiladi. Bunda insonning borlig‘ini madaniy bezovchi rango-ranglikdagi farqlar alohida ajratib olinadi. Natijada madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarning mavzusi ham o‘zgarib boradi. Sotsiologiyada asosiy mavzu sifatida insoniyatning tarixiy madaniyati emas, balki aniq mavjud madaniyatlar tadqiqot obyektiga aylandi. Asta-sekinlik bilan bunday yondashuvlar global-evolyutsionizmga oid qarashlardan voz kechishga olib keldi. Yakunda ta’kidlash mumkinki, zamонави jamiatda taraqqiyot omili yetakchilik qilar ekan, hech bir jabha madaniyat mavzusidek e’tirof etilmaydi. Biz buni dolzarb tadqiqot muammolariga aylangan “axborotlar olish madaniyati”, “intellektual madaniyat”, “kasbiy madaniyat”, “ekomadaniyat”, “tafakkur tarzi madaniyati”, “e’tiqod madaniyati” kabi ko‘plab jumlalarda uchratmoqdamiz.

Adabiyotlar

1. Фалсафа: комусий луғат. (Тузувчи ва масъул мухаррир Q.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. - 230 б.
2. Соколов, В.В. Европейская философия XV-XVIII веков / - М.: Слово, 2004. - С. 212.
3. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций / С. Хантингтон; Пер. с англ. Т. Велимееева. Ю. Новикова. – М: ООО «Издательство АСТ», 2003. – 603.
4. Даль В. Тольковій словарь живаго великорусскаго язіка. М.: Издание книгопродавца-типографа М.О.Вольфа, 1881. – С. 217.
5. Arnold M. Culture and Anarchy. London : Cambridge University Press, 1960.-P.467.
6. Фролов С.С. Социология. – М.: Гардарки., 1999. – С. 125.
7. Культура, культурология и образования (Материалы «Круглого стола»). Выступления В.А. Лекторского // Вопросы философии, 1997. № 2. С.4
8. Грачев Г.В. Информационные технологии политической борьбы в российских условиях // Полис. 2000. № 3. С. 10
9. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. - Cambridge, 1994. – P. 92.
10. Ph.K.Bock. Culture Shock.A reader in modern cultural anthropology.New York, 1970. – P. 23.

UDK: 301:37

**TA'LIM TIZIMIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH
MADANIYATINING SOTSIAL MASALALARI**

U. Sabirova

O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lif tizimida shaxsning axborotlar bilan ishlash madaniyatini ta'minlashning sotsial jihatlari dolzarb masala sifatida ko'rsatiladi. Individual va ommaviy ongning shakllanish jarayonidagi xususiyatlari, shaxs va jamiyatning o'zaro aloqadorlik xususitlariga e'tibor qaratiladi. Muallif sotsiolog pozitsiyasidan turib shaxsning axborotlar bilan ishlash madaniyatini tahlil qilar ekan, zamonaviy ta'lif tizimida ommaviy kommunikatsiyalar va axborot kommunikatsiyalar jarayonlarining sotsiologik tahliliga e'tibor qaratadi.

Tayanch so'zlar: axborotlashgan jamiyat, internet, axborot manbalari, axborot almashish madaniyati, gibrild intellettek.

Социальные вопросы культуры работы с информацией в образовательной системе

Аннотация. В данной статье рассматриваются социальные аспекты культуры в работе с информацией в системе образования. Особенностям индивидуального и коллективного сознания, отношения личности и общества уделяется особое внимание. Анализируя культуру работы с информацией с позиции социолога, автор обращает внимание на социологический анализ процессов массовой коммуникации и информационных коммуникаций в современной системе образования.

Ключевые слова: информационное общество, интернет, информационные ресурсы, культура обмена информации, гибридный интеллект.

Social issues of the culture of working with information in the educational system

Abstract. This article discusses the social aspects of culture in the handling of information in the education system. It is paid special attention to peculiarities of individual and collective consciousness, the relationship of the individual and society. Analyzing the culture of working with information from the perspective of a sociologist, the author draws attention to sociological analysis of processes of mass communication and information communication in the modern education system.

Keywords: information society, Internet, information resources, culture of sharing information, hybrid intelligence.

Bugungi kunda jadal tarzda ko'payib borayotgan axborotlardan xabardor bo'lish, kerakli ma'lumotni ajratib olish va undan foydalanish mumkin bo'lgan holatda qaydlash tezkorligi va sifati har bir shaxsning axborot olish madaniyati qay darajada shakllanayotganligiga bog'liqdir. Ta'lif tizimi zamonaviy jamiyatda nafaqat kapital, balki madaniyat timsoli bo'lib gavdalanadigan bo'ldi. Insoniyat dunyosining ishtirokchilari va yaratuvchilari – subyektlardir. Ular o'z butunligiga nisbatan subyektivlikni ishga soladi. Bu kishilarning tabiatga va o'zlariga o'xshash subyektlarga turli ko'rinishlarda shakllangan usul va vositalar bilan ta'sir etishida namoyon bo'ladi. Subyektivlikning predmetli shakli madaniyatni hosil qiladi.[1,33]

Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lif muassasalari kutubxonalari faoliyatini ham zamonaviy talablar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish, takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga qo'yamoqda. Chunki ular ta'lif tizimi mazmunan va shaklan yangilanayotgan bir pallada hosil bo'layotgan kuchli axborot oqimini qabul qilish, jamlash va o'z o'rnida ularni keng jamoatchilik, professor o'qituvchilar, talabalar hamda o'quvchilarga eng manzur yo'llar bilan taqdim etishdek muhim vazifani bajarishlari lozim. Ushbu axborot manbalariga, birinchi galda, o'quv adabiyotlari, me'yoriy hujjatlar, metodik qo'llanmalar va bevosita ta'lif jarayoniga taalluqli bo'lgan boshqa manbalar kiradi. Tadqiqotchi N.Bogomolova esa, "kishi o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotni ilk bor mavjud hayotiy tajriba, o'zaro muloqot asosida olsa, keyingi eng muhimlarini turli xil axborot manbalar (kitob, radio, televidenie, gazeta, jurnal va boshqa simvolik-belgi xarakteriga ega bo'lgan vositalar)dan yig'adi", - deb yozadi [2,69]. Shu o'rinda e'tirof etish mumkinki, jamiyatning ijtimoiy-sotsial taraqqiyoti insonning ichki imkoniyatlaridan ko'ra tashqi axborot vositalariga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Respublikamizda ta’limni modernizatsiyalashtirilayotgan jarayonda jamiyatni tezkor axborotlash-tirish, o‘quv nashrlari bozorini barpo etish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan uyg‘un tarzda kechmoqda. Bularning barchasi ta’lim muassasalari kutubxonalarining ajralmas qismi, chinakam axborot ta’minoti markazi, shaxsnинг axborot olish madaniyatini shakllantiradigan bazasiga aylanti-rishni taqozo etadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir ta’lim muassasasi global axborot tarmog‘idan o‘ziga zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olishi va qayta ishlab foydalanishi lozim. Ilgarilari moddiy ne’matlar jamg‘arishga katta ahamiyat berilgan bo‘lsa, endilikda axborotlar va bilimlar jamiyatning bosh resurslariga aylanib bormoqda, ya’ni axborotga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib, u jamiyat va davlatni rivojlantirishning tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslari bilan bir qatorda turgan strategik resurs sifatida angvana boshlandi.

Zamonaviy axborot resurslari, axborot tizimidagi hujjatlar oqimining tavslif va xususiyatlari tobora o‘zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishining bugungi darajasiga ko‘ra, qog‘oz shakldagi axborot tashuvchilar elektron vositalarga o‘tkazilmoqda. Bu holat hujjatlar va ma’lumot-nomalargagina emas, balki badiiy matnlar, nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlarga ham taalluqlidir. Internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyati axborotlarni mislsiz tezlikda, yer yuzining istalgan nuqtasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda kitob nashr qilish ko‘لامi kengaydi, jurnallar va gazetalar (davriy nashrlar) miqdori kun sayin ortib bormoqda, sifati yaxshilanmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi tufayli hayotimizga Internet kirib keldi, kitoblar ham, matbuot asarlari ham elektron shaklda taqdim etila boshlandi. Axborot oqimining ko‘pligi u bilan tanishish, qayd qilish, unga ishlov berish, undan foydalanishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ya’ni axborot olish madaniyatini egallash zaruriyatini keltirib chiqardi. Endi kutubxona deganda o‘quvchilarning kitob o‘qishi haqidagina emas, balki pedagoglar boshqacha aytganda, aholining mutolaa madaniyati to‘g‘risida fikr yuritish odat tusiga aylandi.

Jamiyatimiz beqiyos darajada axborotlashayotgan shunday bir sharoitda kutubxonachining kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash, kutubxonachilar, o‘quvchilar, talabalar va professor-o‘qituvchilarning axborot olish madaniyatini shakllantirish, bu borada ularning o‘zaro hamkorlik qilishlarini ta’minalash vazifasi yuzaga keldi, bu vazifa davlat buyurtmasiga aylandi.

Axborotlashayotgan jamiyatda fuqarolarning axborot olish madaniyatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Mana shu jarayonning samarali kechishida esa pedagoglarning o‘rni beqiyos. O‘quvchi, talabaning kitob o‘qishi, pedagoglarning nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar bilan o‘z vaqtida tanishib borishlari, shu yo‘l bilan o‘z bilimlarini oshirishlari, dunyo-qarashi, o‘qimishli kishilarga xos jihatlarini tarbiyalashlari, kasb mahoratlarini yuksaltirishlari bevosita axborot olish madaniyatining shakllanishi bilan bog‘liq. Axborot-resurs markazlarining tashkil etilishi o‘quvchilarga axborot olishning zamonaviy, avtomatlashgan shaklini taqdim etadi.

Axborot olish madaniyati o‘zi nima va u kutubxonachilar va kitobxonlardan qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni talab etadi? Pedagog va o‘qituvchining axborot olish madaniyatini egallash yo‘lida ko‘rsatadigan o‘quv-biluv faoliyati o‘z-o‘zidan izga tushib ketmaydi, albatta. Buning uchun ma’lum miqdordagi resurslar yuzaga keltirilishi, muayyan mazmundagi qo‘sishma ta’lim zarur bo‘ladi. Metodik adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirish hamda ularni tahlil etish kitobxonlarda axborot olish madaniyatini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiquvchi omillar quyidagilardan iboratligini e’tirof etish imkonini beradi: ta’lim modeli o‘zgarib, bir umrga yetadigan bilim olish o‘rnini umr bo‘yi ta’lim olish egallay boshlaganligi; axborot ko‘lamining jadal ortib borayotganligi; jamiyatning keng miqyosda axborotlashayotganligi; axborot olishda u bilan tanishishning o‘zi yetmasligi; axborot olish oz miqdordagi adabiyotlar bilan cheklanishni ifoda etmasligi; axborotni imkon qadar ko‘proq o‘zlashtirish jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi eng muhim omil ekanligi; tobora taraqqiy etayotgan axborot texnikasi va texnologiyasidan foydalanilayotganligidir.

Bugun kompyuterga ega bo‘lgan, Internetga ularish imkoniyati mavjud bo‘lgan xonardonlar, tashkilotlarga axborot jadal kirib bormoqda. Bunday axborotlashuv jarayoni jamiyatning axborot resurslari zaxirasida, ya’ni axborotlashtirilgan makonning yuzaga kelishi va kutubxonalarining yangi sharoitda innovatsion faoliyat ko‘rsatishi hamda shunga yarasha kitobxonning axborot olish madaniyatini egallashida o‘z ifodasini topmoqda. Zamonaviy axborot makoni kitobxonlar uchun katta imkoniyatdir. I.G.Zaxarovning fikricha, “ushbu imkoniyatlardan jamiyatning yangi axborot makonida mo‘ljal ola bilishga imkon beradigan zarur bilimlarga ega bo‘lgan a’zolarigina oqilona foyda-

lanadilar”. Aks holda, yangilik topish ilinjida axborot ummoniga sho‘ng‘igan kitobxon hech narsa topolmay chiqishi mumkin.

N.I.Gendina ta’kidlaganidek, «Bugun axborot jamiyatini “ta’lim oluvchi” jamiyat deb beziz atalayotgani yo‘q. Bunday deyishga quyidagilar asos bo‘la oladi: axborot va bilimlar – jamiyatning bosh bunyodkor kuchi; yangilik, tezkorlik, jadallahuv – bugungi kunning eng tavsifli belgilari; xoh ishlab chiqarish, xoh ijtimoiy hayot bo‘lsin texnologiyalarining yangilanish maromi olti-yetti yilni tashkil etmoqda; ta’lim olishning uzlusizligi va qayta tayyorlovdan o‘tishga qodirlik – shaxsning o‘z ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismi; har bir insonning taqdiri o‘z vaqtida yangi axborotni qidirib topish, olish, mos ravishda qabul qilish va undan samarali foydalanishiga bog‘liq» .

Respublikada “axborot olish madaniyati”, axborot-resurs markazlarining paydo bo‘lishi munosabati bilan esa “o‘quv jarayonining metodik ta’mnoti” tushunchalari keng ommalashib bormoqda. Mutaxassislarining bergan ta’rif va izohlariga ko‘ra axborot olish madaniyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash; shaxsda axborot olishga intilishning vujudga kelishi (shaxsning sifati); axborot olishga doir bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallah; axborot vositalari manbalaridan samarali foydalanish; shaxs erkinligi, uning axborotlashgan jamiyat-dagi xulq-atvori, huquqiy bilimlari.

Jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash deganda: axborotning jamiyatda amal qilishi; yagona axborot makonining yuzaga kelishi; axborot olish imkoniyatlarining ortishi; aniq bir jamiyat, xalqlar, millatlarning axborotlashuvi; muayyan faoliyat sohalarining rivojlanish darajasini ifodalashi nazarda tutiladi.

Demak, jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash uning jadal axborotlashuvi va yagona axborot makonining yuzaga kelishi, jamiyat a’zolarining axborot oqimidagi o‘zgarishlarni anglashlaridan iborat.

Shaxsning ichki olamida axborot olishga intilishning paydo bo‘lishini axborotlashayotgan jamiyatga monand axborot olishga qiziqish, ehtiyoj sezish, ham kasbiy, ham ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga intilish, axborot yaratish va uni uzatish, axborotni sifatli o‘zlashtirish hamda undan samarali tarzda amaliy foydalanish sifatlarini namoyon etish, huquqiy savodxon bo‘lish, xulq-atvor me’yorlariga amal qilish tarzida ta’riflash mumkin.

Axborot olishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni egallah: insonning axborotni o‘zlashtirish saviyasi va undan foydalanish sifati; axborot olish faoliyatining sifat tavsifi (inson hayot faoliyatining axborot olish, uzatish, saqlash va undan foydalanish sohasidagi sifat tavsifi); axborot ustidagi ish turlarida: uni olish, to‘plash, kodlashtirish va unga qayta ishlov berishda, shu asosda sifat jihatdan yangi axborot yaratishda, uni uzatishda, undan amaliy foydalanishda inson, jamiyat yoki muayyan qismining kamol topganlik darajasi; axborot manbalarini ongli ravishda tanlash va ularga qayta ishlov berish algoritmini egallah; kutubxonachilik-bibliografik savodxonlik, mutolaa (kitob o‘qish) madaniyati, axborotlashuv jarayoni nima ekanligini va uni kutubxona joylashgan tumanda, hududda amalga oshirish xususiyatlarini bilish; axborotlashuv huquqiy maydonida, mualliflik huquqi muammolarida, so‘z erkinligida, shaxsning axborot jihatdan xavfsizligida va hokazolarda mo‘ljal ola bilish; “kutubxonachilik-bibliografik bilimlar”, “kitob o‘qish madaniyati”, “kutubxonachilik-bibliografik madaniyat”, “axborot olish savodxonligi”, ta’lim jarayonida axborotning roli muhim ekanligini anglab yetish, an’anaviy, elektron, tarmoqli va boshqa axborot resurslaridan majmuaviy foydalanish, o‘zini axborot tashuvchisi va tarqatuvchisi deb bilish, faol axborot olish; odamning axborot jamiyatidagi xulq-atvor qoidalari majmuida namoyon bo‘ladi. Yangi axborot texnologiyalarining ijtimoiylashuv jarayonlari-dagi o‘rni masalasi shu paytgacha tizimli ravishda o‘rganilmagan. Biroq Internetda o‘zini prezentsiyalash strategiyalari va ularning reallik bilan bog‘liqligini o‘rganish yo‘lida dastlabki qadamlar qo‘yilganini qayd etish mumkin.[3,8]

Axborot vositalari va manbalarini ishlatish metodlarini egallaganlik: kompyuter savodxonligi; axborot makonida, uni shakllantirish va o‘zaro axborot almashishda erkin mo‘ljal ola bilish imkonini beradigan bilimlar va ko‘nikmalar; turli moddiy axborot tashuvchilar yordamida qayd etilgan subyekt-subyekt va subyekt-obyekt munosabatlarining mohiyati; zamonaviy axborot resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi kutubxonalar, arxivlar, jamg‘armalar, ma’lumotlar banklari tavsiya va xususiyatlarini tushunish; turli xil axborot tashuvchilardan foydalanish imkoniyatlari, axborotni to‘plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an’anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo‘lish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilish; suniy intellekt tizimi bilan muloqot qilish, “gibrild intellekt” odam-mashina tizimida dialogik muloqot yuritish,

telematika vositalari, global va lokal axborot-hisoblash tarmoqlaridan foydalanish, olamdagi axborot manzarasini ramzlar va belgilar, bevosita va aks axborot aloqalari tizimi sifatida anglash va o‘zlashtirish, axborotlashgan jamiyatda erkin mo‘ljal olish, unga moslashish qobiliyati, maktabda informatikani va axborot texnologiyalarini tashkili suratda o‘qitish va axborot uzatishning zamonaviy elektron vositalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga olib kirish kabilarda namoyon bo‘ladi. Umumlashtirib ta’riflaganda: u zamonaviy axborot resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi kutubxonalar, arxivlar, jamg‘armalar, ma’lumotlar banklarining xarakteri va xususiyatlarini tushunish; turli xil axborot tashuvchilarini ochish imkoniyatlari, axborotni to‘plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an‘anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo‘lish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilishdan iboratdir. Avvalo kompyuterning ixtiro qilinishining o‘zi kitob tamaddunini yo‘q qilishi, xat (yozuv) orqali muloqot esa to‘xtashi to‘g‘risidagi xavotirni qayd etishi mumkin.

Yozuvni yozishni bilmagan Suqrot bilan dialogida aytilgan Platon fikrlarini yozuvning kashf etilishiga qarshi aytilgan gap sifatida talqin etmasdan, ogohlantirish sifatida qabul qilish kerak: har qanday qilingan kashfiyot natijalaridan «tushungan odamlar» ham, tushunmagan odamlar ham tushishi mumkin: «...Yozuvning xususiyatlari rassomlik san’atiga juda o‘xshash: uning hosilalari jonlidek turadi. Ulardan biron bir narsani so‘rasang, ular ulug‘vor va mag‘rur sukut saqlashadi. Xuddi shunday yozma asarlar ham: ular aqli mavjudodlardek so‘zlashayapti, deb o‘ylaysan, ammo kishi ularni so‘zlayotganlaridan nimanidir o‘zlashtirish uchun so‘ralsa, ular doimo bir xil javob beradi. Bir bora bitik qilingan har qanday yozma asar barcha joyda atrofdagilar bilan muloqotda bo‘ladi. Buni tushungan odamlar ham, ularni o‘qishi kerak bo‘lmaganlar ham yaxshi anglashadi. Bitiklarning o‘zi ham kim bilan “muloqot”ga kirishish mumkin, kim bilan mumkin emasligini bilmaydi. Agarda uni bee’tibor qoldirishsa yoki nohaq koyisa, haqorat qilsa, u o‘z otasining hamoyasiga muxtoj bo‘ladi, o‘zi esa na o‘zini himoya qilishga va na o‘ziga yordam berishga qodir emas» [4,217-218]. Tabiiyki, yozuvga nisbatan bo‘lgan ehtiyoj samarasini barcha davrlarda shu kabi jumlalar bilan ifodalanib kelgingan.

Kompyuter savodxonligiga ma’lum ma’noda axborot olish madaniyatini egallash harakatlarini ta’minlovchi asosiy vosita deb qarash lozim. Kompyuter savodxonligi axborotga asoslangan jamiyatda faoliyat ko‘rsatish maqsadida kompyuter bilan ishlash uchun barcha zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda axborot zaxiralarini elektron tashuvchilarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “Axborot olish madaniyat” tushunchasi tarkibiga kirgan “axborotni sifatli o‘zlashtirish hamda samarali tarzda amaliy foydalanish”ga shunchaki kerakli adabiyotlarni o‘qish bilangina erishish mumkin emas. Bu o‘rinda axborotni tezkor qayd etish, unga ishlov berish katta ahamiyatga ega. S.Xollning fikriga ko‘ra, “xabarning ramziy (simvollar orqali ifodalangan) ko‘rinishlari kommunikatsion almashinuvda imtiyozli o‘ringa egaligini e’tiborga olishimiz lozim. Kodlashtirish va kodlarni yechish jihatlari, ularning kommunikatsiyaning umumiylaridanagi nisbiy avtonomiya holatiga qaramasdan, hal qiluvchi jihatlar hisoblanadi”[5,2]. Agar axborot sifatsiz qayd etilsa, keyinchalik undan foydalanish imkoniyati cheklanadi.

Axborot olish madaniyatini egallash, axborot yordamida ijtimoiylashuv uchun shaxs qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘lga kiritishi lozimligi, ularni qayerda, qaysi usullar bilan egallash mumkinligi, amaliyotda qo‘llash uchun nimalar qilish zarurligi masalasidir.

Kitobxonning ijtimoiylashuvi axborot olish madaniyatining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. V.A.Borodinaning bergan ta’rifiga ko‘ra, “Kutubxona – ijtimoiy institut, kutubxona xizmati esa – subyektlarni kutubxonalar tizimi orqali ijtimoiylashtirishga qaratilgan faoliyat”. Boshqacha aytganda, ijtimoiy institut kitobxoni ijtimoiylashtirish uchun xizmat qiladi. Bizningcha, kitobxonning ijtimoiylashuvi deganda, insoniyat tomonidan to‘plangan kitobxonlik tajribasini egallash jarayoni va shu jarayonda erishilgan natijalarni o‘zlashtirish tushuniladi. Kitobxonlikning ijtimoiylashuvi murakkab pedagogik-psixologik hodisa bo‘lib, mutolaa ko‘nikmalarining shakllanishidan tashqari, uning natijasi, usuli, shaxsda axborotga nisbatan munosabatning hosil bo‘lishida ham ifodalanadi.

Kitobxonning ijtimoiylashuvi – ijtimoiy-tarixiy hamda pedagogik zarurat. Jadal axborot-lashayotgan jamiyatda shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish, ijtimoiylashuviga erishish zarurati kitob va uning o‘rnini bosadigan bilim manbalarining tobora ortib borayotganligi, ushbu manbalar sirasiga Internet tarmog‘i kelib qo‘shilgani sababli mutolaa savodxonligini egallash yoshlar-

da qisqa vaqt sarflab, ko‘p narsani bilib olish ko‘nikmasini egallahsga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning yangi texnologiyalari, innovatsion shakllari o‘quv jarayoniga chuqurroq kirib borar ekan, insoniyat tomonidan yaratilayotgan bilimlar zaxirasi ko‘paymoqda, ularni o‘zlashtirish imkoniyati esa deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda. Zero, axborotning katta oqimi va u bilan tanishish imkoniyatlarining o‘zaro chegaralanganligi natijasida yuzaga keladigan ziddiyat axborot olish madaniyatini egallah orqaligina bartaraf etilishi mumkin. Buning uchun kutubxonachilar, ta’lim muassasalari mutaxassislari, metodist olimlar oldiga ta’lim oluvchilarga bilim berishgina emas, balki, eng avvalo, ularni bilim olishga, ya’ni axborotni topish, ajratib olish va ulardan foydalanishga o‘rgatish masalasini yechish vazifasi qo‘yilmoqda. Lekin buning uchun pedagogning o‘zi axborot olishga doir bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘libgina qolmay, ularni o‘zgalarga uzatish borasida ham alohida ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak. Bugungi kunda har bir insonga axborot olish madaniyatini egallah zaruriyati tug‘ilgan bir paytda kutubxonachilarda o‘rgatuvchilik imkoniyatining ortishi, u o‘quvchilarga ham, o‘qituvchilarga ham kutubxonachilik sohasidagi yangiliklarni yetkazib turishi, an’anaviy kataloglar qatori elektron kataloglarning yuzaga kelayotganligi, kutubxonachi bunday kataloglarning imkoniyatlaridan kitobxonlarni voqif etib borishi talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Покровский Н.Е. Глобализация и конфликт//Вестник Моск. Ун-та. Сер.18. Социология и политология. 1999. -№ 2. С. 33.
2. Богомолова Н.Н. Социальная психология печати, радио и телевидения. -М.: МГУ. 1991. – С. 69.
3. Жичкина А.Е., Белинская Е.П. Пространство, населенное другими // Интернет. 1999. № 16 (июнь-август); Жичкина А.Е. Взаимосвязь идентичности и поведения в Интернете пользователей юношеского возраста. Автореф. дис. ... канд. психол. наук. -М.,2001; Талъниших Н.К. Культура «сетевых сообществ». Автореф. дис канд. филос.наук. Ростов н/Д, 2004; Талъниших Н.К. Социокультурный статус индивида в «чате» // Труды аспирантов и соискателей РГУ: Т.8. -Ростов н/Д: РГУ, 2002; Куприянов И. В. Компьютерный андеграунд в контексте становления культуры информационного общества. Автореф. дис.... канд. филос. наук. -Ростов н/Д, 2003.
4. Платон. Цит. соч. -С.217-218.
5. Hall S.Encoding and decoding in the television discourse. CCS occasional paper, 1973.- P.

UDK: 008:316

MA’NAVIY YUKSALISHNING TARIXIY KONSEPSIYALARI

Sh. Yaxshiboyev

Xorazm viloyat madaniyat boshqarmasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada insoniyatni ma’nан yuksaltirgan tamaddunlar va ularning shakllanish davri hamda bu borada Sharqda yaratilgan konsepsiylar xususida so‘z boradi. Ma’naviy kamolotning aynan Markaziy Osiyo allomalari qarashlariga muvofiq, Sharqdagi konsepsiylari mohiyatan komil inson omili va ijtimoiy muhitning fuqarolarni faollikka undovchi xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy kamolot, davlat va jamiyat, fuqaroviy ong, umumiyl manfaat, jamoatchilik ishlarida ishtirok etish.

Исторические концепции духовного роста

Аннотация. В данной статье рассмотрены факторы, которые духовно возвеличили человечество, а также концепции созданные в данном направлении на Востоке. В соответствии с взглядами центральноазиатских ученых о духовной зрелости, сущность восточной концепции человечества анализируется с точки зрения человеческого фактора и социальной среды, которая мотивирует граждан.

Ключевые слова: моральное развитие, государство и общество, гражданское сознание, общие интересы, участие общественности.

Historical concepts of spiritual growth

Abstract. The article discusses the cultures that spiritually exalted humanity, as well as the Eastern concepts in this direction. In accordance with the views of Central Asian scholars on spiritual maturity, the essence of the eastern concept of humanity is analyzed from the point of view of the human factor and the social environment that motivates citizens.

Keywords: moral development, state and society, civic consciousness, common interests, public participation.

Tarix davlat va fuqarolarning o‘zaro ta’siri, jamiyatni boshqarishda fuqarolarning intilishlari, turli guruhlarning yangi asoslarda davlatchilikni shakllantirishga urinishlari shaxsiy ma’naviy o‘sish uchun sharoitlarni yaratib berdi. Qadimgi dunyo davlatlarida uzoq tarixiy muddat davomida odamlarning jamiyat hayotidagi ishtiroki fuqarolarning umumiy tadbirlarga jalb qilish bilan cheklanilgan. Qadimgi jamiyatlarda davlatga ilohiy taqdir va samoviy tartibot sifatida qaralgan. Davlat qurilishi qadimgi dunyo uchun ilohiy taqdir tuhfasi, Xudo tomonidan berilgan in’om sanalgan. Shunday qarashlar asosida hokimiyatga bo‘ysunulgan va unga itoat etilgan.

Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlar Sharq falsafiy dunyosida tadrijiy tarzda diniy-samoviy qarashlardan yana ham aniqroq tasavvurlarga o‘tish jarayoni kechdi. Bu jarayon qadimgi dunyoda keng tarqalgan zardo‘shtiylik dini va Zardo‘sht ta’limoti bilan bog‘lanadi.

Zardo‘shtiylik dining muqaddas kitobi sanalgan “Avesto”da keltirishicha, Zardo‘shtlar davlatni osmondagи hukmronlikning yerdagi aksi va uning tarixini ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi doimiy kurash sifatida bilgan. Ta’kidlanishicha, har bir inson mayjudligining maqsadi va mohiyati ezgulikni ko‘paytirish va yovuzlikka qarshi kurashishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Shuning uchun ham mansabdar shaxslar va monarx o‘z vakolatidan kelib chiqqan holda yaxshilikni ko‘paytirib o‘z hududlarini kengaytirish va dunyoda yovuzlik kuchini kamaytirish ularning majburiyati sanalgan [1]. Bu esa fuqarolar ongi va ma’naviy kamolotida ham o‘z aksini topa boshlagan. Fuqarolarda yaxshilikni ko‘paytirishga va yovuzlikka qarshi kurashishga bo‘lgan faollikni orttirishga xizmat qilgan. Natijada bu fuqarolarning davlat ishidagi ishtiroki va hokimiyat bilan bir maqsad yo‘lida yashash va intilishga rag‘bat bo‘lgan.

Olimlar fuqaroviylar faollikning shakllanishini Xorazm zaminida paydo bo‘lgan zardo‘shtiylik dini bilan bog‘likagini ta’kidlashadi [4, 46].

Bundan uch ming yil burungi odamlar tasavvuridagi ilk aqliy va madaniy o‘zgarishlar bevosita “Avesto” orqali umuminsoniy qadriyatlar maqomini egalladi. Jumladan, “Avesto” turli qabilalar, guruhlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan ko‘pxudolik hayot tarziga nuqta qo‘yib, yakkaxudolik g‘oyasini ilgari surdi. Bu diniy ta’limotda inson qanday guruh, urug’, qabila yoki irqqa mansub bo‘lmasin, yer yuzining qaysi hududida yashamasin, u yolg‘iz Allohning bandasi va yagona Alloh uning asraguvchidir, degan g‘oyaga olib keldi [4,46]. Yakkaxudolik orqali “Avesto” turli qabila va urug‘larni yagona e’tiqod, yagona maslak va yagona g‘oya orqali birlashtirib, umumiy manfaatlar atrofida jipslashishiga da’vat etdi. “Avesto” odamlarni ezgulikka da’vat etuvchi, yaxshilikni himoya qiluvchi, yovuzlik va jaholatdan uzoqlashishga chaqiruvchi g‘oyalarni ilgari suradi [1, 6-8].

“Avesto” o‘zbek zaminida tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviy-ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg‘unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni, uning taraqqiyot omillarini o‘rganishga, hayot mazmunini anglashga chorlaguvchi manba bo‘lib xizmat qilib keldi.

“Avesto” uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”. Mana shu uchta qoidaga rioya qilish jamiyatda odamlarning yuksak darajadagi ma’naviy kamol topishini ta’milagan.

Shuningdek, bu dinda mehnatsevarlik, jamiyatni va o‘zi yashab turgan zaminni asrash va qadrlash g‘oyasiga katta e’tibor berilgan. Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal tamoyilini har bir kishi ongiga singdirishga muhim ahamiyat qaratilgan. Bu uchlik tamoyiliga rioya etish, har bir odamdan, avvalo, jamiyat manfaati yo‘lida halol ishslash, o‘z elini yomon kuchlardan asrash va o‘z mehnati bilan yurtga sadoqatni ifodalash talab etilgan.

Inson ma’naviy tamaddunining tarixiy konsepsiyalari qadimgi Hindistonda ham kuzatiladi. Fuqaroviylar faollikning qadimgi hind konsepsiysi asosan jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari shakllanishi bilan bog‘liqdir. Hind kastalari vorisiylik kasb etib, tabaqalanishda bitta tabaqadan ikkinchi tabaqaga o‘tish ta’qiqlangan. Tabaqalanish ham fuqaroviylar faollikning negizlarining shakllanishiga xizmat qilgan [7]. Braxmanlar jamiyat uchun ibodat bilan shug‘ullangan, boshqalar haqqiga duo qilish

ularning vazifasi bo‘lgan, kshatriyalar davlatning harbiy xavfsizligini, mudofaasini ta’minlagan, vayshiyalar esa mehnat bilan shug‘ullanishgan, braxmanlar va kshatriyalarga yashash uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur mahsulotlar yetishtirish va tayyorlash bilan band bo‘lgan. Bu bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm esa jamiyatning rivojlanishiga xizmat qilgan. O‘z tabaqasi vazifasiga mas’uliyat va unga munosib bo‘lish hissi fuqarolarda fuqarovi faoliyatlarni shakllantirigan.

Sharqda “fozil odamlar” konsepsiysi ham Sharq xalqlari hayotida katta ahamiyat kasb etgan. Fozil odamlar timsolidu fuqarovi faoliyatlarni namunalari ko‘rilgan.

Forobiy fikricha, har bir inson tabiatiga ko‘ra o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko‘p narsalarni bir o‘zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun u turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi. Boshqa insonlar ham shunday holatda bo‘ladilar. Insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashuvlari zarur bo‘ladi. Bu jamoada har bir shaxs o‘z tabiatiga, iste’dodi va qobiliyatiga yarasha kasb-hunarlarini o‘rganib, har kun o‘z san’atida (hunarida) kamolotga yetishga harakat qiladi. Shu sababli (turli millat va turli dingga mansub) turli joylarda yashovchi odamlar turli jamiyatlarga birlashadilar. [2]

U odamlarning ma’naviy o‘zaro munosabatlari haqida ham yozadi. Ya’ni “Haqiqiy baxtsaodatga yetishuv yo‘lida bir-birlariga yordam berib yaxshi, go‘zal ish amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar fozil shahar, ya’ni fozil odamlar shahridir. Barcha shaharlarda baxtsaodatga yetishuv yo‘lida go‘zal, xayrli ishlarga bir-biriga yordam beruvchi xalqlar fazila, ya’ni fazilatli xalqlardir. Zero, inson barcha a’zolari sog‘lom, butun, mukammal ishlab turganida sog‘lom bo‘lganiday, barcha aholisi go‘zal yaxshi xulqli, yaxshi ishlar va bir-biriga yordam beruvchi shahar ham fozil odamlar shahridir”. [2]

Forobiy orzu qilgan fozil jamoaning johil odamlardan farqi shundaki, unda odamlar eng go‘zal va yaxshi maqsadlarga hamda umumi manfaatlarga erishish yo‘lida bir-birlariga yaqindan yordam beradilar. Ko‘rinib turibdiki, Forobiy fozil jamoa qurish uchun insonlarning fuqarovi faoliyatlari faoliyatlarga ega bo‘lish talablarini ilgari suradi. Forobiy fuqarovi faoliyatlarning bosh mezonini xususida shunday ta’rif beradi: “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos ‘insoniylik’dir”.

Ma’naviy yuksalishning muhim konsepsiylaridan bir bu – javonmardlikdir. Bu Abu Rayhon Beruniy asarlarida o‘z ifodasini topadi. Bu konsepsiya mohiyati shundaki, oliyanob odam o‘zining joni va o‘zining mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o‘ziga tegishli mulknini boshqaradi. Agar bunday odam boshqalarning og‘ir ishini o‘z yelkasiga olib, ular uchun o‘zi mashaqqat tortib, Olloh unga in‘om etgan narsalarini muhtoj odamlarga bersa, unday odam javonmard deb ataladi. Javonmard o‘zining oliyjanobligi va xayr-saxovati bilan mashhur bo‘lgan odam. Ayni vaqtida javonmard o‘zining xushmuomalaligi, mehr-shafqati, sabot-matonati, sabr-toqati, obro‘-izzati bilan ham nom chiqargan odamdir”. [5, 14]

Beruniyning e’tirof etishicha, odamlarning hayot darajasi kishilarning kundalik ehtiyojlarining qanchalik qondirilishi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta’minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir [5, 70, 125, 161].

Yusuf Xos Hojib «Qutadg‘u bilig» asarida insonning ma’naviy ulg‘ayishi, fuqaro tarbiyasi va uning hayotdagagi o‘rnini, ijtimoiy vazifasi muallif tomonidan turli yo‘nalishlarda tahlil etiladi. Yusuf Xos Hojibning fuqarovi faoliyatlari – shaxsning o‘z manfaatlari doirasini yorib chiqib, boshqalarg‘ami bilan ham yashashi, ko‘pchilik manfaati uchun fidoyi bo‘la bilishdir, deb ko‘rsatadi. [8]

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘z ijodida inson ma’naviy kamolotiga oid boy ilmiy meros qoldirdi. Uning o‘zi esa komillik namunalarini ko‘rsatgan inson hisoblanadi. Ma’naviy yuksalish xususiyatlari sifatida adolat, mehru-muruvvat, mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, vatanparvarlik, qahramonlik kabi fazilatlarning mohiyatini keng va chuqur ochib bergen. Alisher Navoiyning qarashicha, fuqarolik jamiyatini yuksak fazilatli, ma’naviyatlari insonlarga barpo etishlari mumkin.

Navoiy jamiyatdagi ma’naviy yuksalishni o‘zi ta’riflagan “ahli ma’ni”ga mansub kishilar qiyofasida ko‘radi. “Ahli ma’ni” – o‘z ehtiyoj va manfaatlarini o‘zgalarniki bilan uyg‘unlashgan holda idrok qiladilar, jamiyat va xalq uchun xizmat qilish va yashashdan lazzatlanadilar, har bir xatti-harakat va vogelikning oqibatini o‘ylab ish tutadilar, bu dunyoning qisqa va o‘tkinchi ekanligini chuqur his qiladilar. Bu toifaga mansub kishilar erkin, dovyurak, haqiqatparvar, burch va mas’uliyatni his etuvchi, kamtar, xalq uchun fidoyi, imonli, o‘zga insonlar uchun hamdard, har qanday zulmga qarshi bora oladigan, o‘z fikriga ega fuqarolar bo‘ladilar. [3, 35-38]

Alisher Navoiyning buyuk beshligi – “Xamsa”ga kirgan dostonlarining har birida fuqaroviylar faoliyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” va boshqa dostonlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Suqrot, Aflatun timsollarida yuksak axloq va insoniylikka asoslangan fuqaroviylar fazilatlar jamlangan. Navoiy odamiylik, vafodorlik, mehr-oqibat, xalq g‘amida yashash, uning farovonligi, baxt-saodati yo‘lida hatto jonini fido qilish, xayr-ehson, o‘zgalarga saxiylik qilish kabi fazilatlarni hamma narsadan yuqori qo‘yadi.

Tarixdan ma’lumki, jamiyat hech qachon o‘zi-o‘zicha shakllanmagan, uni doim inson yo‘naltirib turgan. Ma’naviy yuksalishning Sharqdagi konsepsiyalarida ham asosiy e’tibor insonga qaratiladi. Insonlarning umumiy maqsad va vazifalar borasidagi ijtimoiy hamjihatligi jamiyatning asosini tashkil etadi. Binobarin, jamiyatdagi insonlarning erkinligi, o‘z huquq va burchclarini chuqur idrok etishi, o‘z manfaatini jamoat manfaatlari bilan muvofiqlashtirib, boshqalar uchun ham qayg‘urib yashashi ularning ma’naviy kamolotini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Avesto (A.Mahkam tarjimasi) . – T. “Sharq” nashriyoti. 2001.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlod, 2016. - 239 b.
3. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. – T.: Adabiyot va san’at nashr. 1974. - 262 b.
4. Артюхович Д.В. Гражданская активность личности: социально-философский анализ: дисс.к.ф.н.09.00.11.- Ставропол, 2002, С. 46
5. Беруни А.Р. Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей. – М., 1963. – 518 с.
6. Beruniy A.R. Hindiston. Asarlar. Т. II. – Т.: Fan. 1965.
7. Древнеиндийская философия. Начальный период. – М.: Мысль. 1972.
8. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent. Akademnashr, 2015.

UDK: 316.35

RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASH – IJTIMOIY SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING MUHIM YO‘NALISHI

X.X.Xaydarova

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti
hilolahaydarova@mail.ru*

Annotatsiya. Bu ishda raqobatbardosh kadrni shakllantirishda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish yo‘lidagi muammolar o‘rganilgan va bu muammolarni yechim topishida ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Maqolaning so‘ngida raqobatbardosh kadrni shakllantirishda to‘rtta vazifaga alohida e’tibor berish lozimligi tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: kadr, raqobatbardoshlilik, ijtimoiy soha, raqobatbardosh kadr.

Подготовка конкурентоспособных кадров – важнейшее направление в проведении реформ в социальной сфере

Аннотация. В данной работе освещено значение социальных реформ в подготовке конкурентоспособных кадров. Рассматриваются проблемы подготовки конкурентоспособных кадров и подчеркивается важность реформ в социальной сфере для решения этих проблем. Сформулированы важнейшие задачи, которые необходимо решить в сфере подготовки кадров.

Ключевые слова: кадр, конкурентоспособность, социальная сфера, конкурентоспособный кадр.

Training of competitive personnel is the most important direction in the implementation of reforms in the social sphere

Abstract. In this work we give consequence of social reform of formation competitive personnel. The problems of creating competitive personnel and emphasizes the importance of social reforms to solve these problems are discussed.

Keywords: personnel, competitiveness, social sphere, competitive personnel.

Bugun jamiyatimiz har doimgidan ko‘ra ancha ilg‘or qadamlar bilan rivojlanish sari ildam qadam qo‘ymoqda. Biroq bu ildam qadamlar tashlaganimiz sari jamiyatimizning ko‘pchilik sohasi kabi ijtimoiy sohada ham ma’lum bir kamchiliklarga va muammolarga duch kelinmoqda. Xususan, shunday bir kamchiliklardan biri bu raqobatbardosh kadr masalasidir.

Ushbu masalaga chuqur yondashilganda shunchaki kadr va raqobatbardosh kadr o‘rtasida katta farq borligini payqash qiyin emas.

Kadr (fransuzcha cadre – shaxsiy tarkib) bu – korxona, muassasa, firma, hissadorlik jamiyatlari, banklar, kasaba uyushmalari, ta’lim sohasida va jamoat tashkilotlarida malakali xodimlarning asosiy tarkibi bo‘lib, o‘z sohasida bilim va malakaga ega o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashadigan shaxsnı anglatadi.

Raqobatbardosh kadr deb kadrning raqobatli bozor talablariga, xalqaro korxona, muassasa, firma, hissadorlik jamiyatlari, banklar, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlaridagi malakali xodimlar bilan bemalol tenglasha oladigan qobiliyatli shaxslarga aytildi. Bilamizki, raqobatbardoshlik asosan kadrning sifati, bilimi va malakasining jamiyat tomonidan yuqori baholanishi bilan asoslaniladi. Ayni damda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash har bir davrning hamda xar bir mamlakatning oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir. Biroq, bu yo‘lda turgan mammolarni aniqlash va bartaraf etish masalasini ham unutmasligimiz lozim. Ushbu muammolar haqida gapirganimizda bilimsizlik, malakasizlik, korrupsiya, mahalliychilik, gender tengsizlik, shuningdek ko‘plab tahdidlarni keltirib o‘tish mumkin.

Mamlakatimizda ham ushbu muammolarga alohida yondashilmoqda. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishda zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni qamrab oluvchi jihatlar inobatga olinib, ular raqobatbardosh kadrlar yetishtirishda to‘sqinlik qiluvchi muammolarga qarshi yo‘l xaritasi vazifasini o‘tamoqda, desak adashmagan bo‘lamiz.

Joriy yilda mamlakatimizning barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar aholining keng qatlami bilan birgalikda yoshlarning ham ijtimoiy hayotini yaxshilanishiga xizmat qilayotganligi tahsinga loyiq. Xususan, bu islohotlarning tizimli ravishda muntazam amalga oshirilayotgani mamlakatimiz yoshlarning dunyoqarashini o‘zgartiribgina qolmay, ularni tobora raqobatbardosh kadr bo‘lib shakllanishida, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, madaniy gumanitar sohadagi o‘zgarishlar bunga yaqqol misoldir.

Madaniy gumanitar sohalarini rivojlantirish bo‘yicha qilingan ishlar haqida Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev “madanayat, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari sohasiga taalluqli 12 ta muhim hujjat qabul qilinganligini ...”[1] alohida qayd etib o‘tdilar. Bu kabi qilinayotgan islohotlar samarasi o‘laroq yoshlarni qalbida ma’nayiyatida, g‘oyasida tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Xususan, amalga oshirilayotgan islohotlarga tizimli ravishda bosqichma-bosqich yondashadigan bo‘lsak, dastavval, maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlar diqqatga sazovor ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aytaylik, Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, xususiy maktabgacha ta’lim muassasalarining kengaytirilishi, ko‘plab zamonaviy talablar asosida yangi bog‘chalarning qurilishi nafaqat inson kapitaliga sarmoya, balki, kelajakda mamlakatning taraqqiyotiga xissa qo‘sheyotgan raqobatbardosh kadrlarga qilingan sarmoyadir.

Raqobatbardosh kadrlar haqida so‘z yuritganimizda gender holatni ham tahlil qilish kerakligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Sababi, ayrim shaxslar hali-hanuz xotin-qizlarga kadr sifatida qaraganda ularda ko‘proq ojiza, ro‘zg‘or ishlari bilan ko‘milgan shaxs sifatida qarashadi. Shu sababli va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra ularni kadr sifatida mehnat qilishlariga yoxud ta’lim olib raqobatbardosh kadr bo‘lishlariga to‘sqinlik qilishadi. Biroq bu jarayonni ham tartibga solish vaqt yetdi. Buning uchun dastavval, xotin-qizlarning yaqinidagi insonlarni, ya’ni oilasining fikrini o‘zgartirish lozim. Chunki, 2018-yil 12-oktyabrda o‘tkazilgan so‘rovnomada respondentlarga “Qizlar mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishlariga xalal berayotgan eng katta to‘sqini

ko‘rsating” degan savol bilan murojaat etganlarida 43% respondentlar “Oilaning qo‘llab-quvvatlamasligi” degan javobni bergan bo‘lsalar, 21 % i “Qizlarning o‘zida xohish yo‘qligi” degan javobni, 18% i “Malakani oshirish markazlari yo‘q”, yana 18% i “Davlat tomonidan qo‘llash yo‘q”[5] degan javobni berishgan. Bu javoblarni mufassal ko‘rib chiqqanimizda qizlarning raqobatbardosh kadr bo‘lib shakllanishlarida oilaning o‘tni katta ekanligini hamda gender holatga ko‘ra qizlar oilada ko‘p holatlarda qo‘llab-quvvatlanmasligini kuzatish mumkin. Ushbu holatni chuqur o‘rgangan holatda Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng xuquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” [3]gi hamda “Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” [4]gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunlarda gender tenglik masalasiga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, ularni xotin-qizlarga har tomonlama tazyiq o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmasligi, qonun oldida teng huquqliligi alohida ta’kidlangan.

Yana bir tizimli islohotlardan biri “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil qilinganligidir. Bu maktablarga chuqur bilimga ega malakali kadrlarning jalg etilishi kelajakda raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish uchun poydevor vazifasini o‘tamoqda.

Yana bir e’tiborga loyiq islohotlardan biri bu bolalar va yoshlarning majburiy mehnatiga chek qo‘yilishi bo‘ldi. Yurtboshimizning “Davrning, hayotning keskin talablaridan orqada qolmaslik uchun barchamiz har kuni o‘qib o‘rganishimiz, o‘z ustimizda ishlashimiz, bilim va saviyamizni doimo oshirib borishimiz kerak” [1] degan fikrlarining debochasi o‘larоq umumta’lim maktablarida 11 yillik tizimning tiklanishi, oxirgi uch yilda 35 ta yangi oliy o‘quv yurtining tashkil qilinishi bilan ularning soni 112 taga yetganligi ham qisqa muddatda yoshlarimini o‘z yo‘lini topib olishi uchun yaratilgan imkoniyatlaridan biri ekanligini unutmasligimiz lozim. Xususan, ularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiali ekanligi diqqatga sazovor. Jumladan, Samarqanddagи “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universitetining, Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti”ning Olmaliq shahridagi filialining, Toshkent shahridagi Janubiy Koreyaning Puchon universitetining faoliyat olib borishi raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishda mamlakatimiz tomonidan amalga oshirilgan muhim qadamlardan biridir.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha ham kadrlarning raqobatbardosh bo‘lishi muhim bo‘lib, bugun 2 mingdan ortiq oliy ma’lumotli murabbiylarga ehtiyoj mavjudligi asosiy vazifalardandir. Biroq quvonarlisi oliy ma’lumotli murabbiylarga ehtiyoj mavjudligiga qaramay sport sohasida o‘zgarish katta bo‘lib, raqobatbardosh sportchilarimiz soni tobora ortmoqda. Jumladan, sport sohasidagi islohotlarning samarasи o‘larоq, o‘tgan yilgi Osiyo o‘yinlarida jami 70 ta medal qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, joriy yilning o‘tgan davrida xalqaro musobaqalarda jami 442 ta medal [2] qo‘lga kiritilgan. Bu natijaga samarali ijtimoiy islohotlar olib borish jarayonida erishildi.

Shuningdek, dalatimiz rahbarining farmoni bilan Vazirlar Mahkamasи xuzurida “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etilib, bu jamg‘arma xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan vatandosh olim, mutaxassis va ekspertlarni O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda nafaqat ishtirokini ta’minkaydi balkim, ularning faolligini oshiradi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi rivojlangan mamlakatlarda yurtimizdagи iqtidorli yoshlarimizni ta’lim olishini, xorijiy tashkilotlarda va ilg‘or xalqaro institutlarda malaka oshirishini ta’minkaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmunini to‘g‘ri tahlil qilish va uni jadallashtirishda aholining ishtirokini kengaytirish asosida raqobatbardosh kadrlarni shakllantrishga alohida e’tibor berish lozim. Albatta, bu jarayonda galdeg‘i vazifalarni unutmaslik lozim:

Birinchidan, yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishda individual yondashish, ularni tomoshabin emas, balkim daxldor shaxs sifatida tarbiyalash. Ijtimoiy islohotlar olib borish jarayonini jadallashtirishda bu muhim vazifalardandir.

Ikkinchidan, jamiyatda raqobatbardosh kadrlarning shakllanishida gender tengsizlik masalasiga tubdan chek qo‘yish.

Uchinchidan, raqobatbardosh kadrlar masalasida oila - ta’lim-jamiyat – davlat alohida-alohida “yo‘l xaritasi”ni shakllantirishi va tizimli ilohotlarni olib borishni jadallashtirishi lozim.

To'rtinchidan, fuqarolarga raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish uchun yoshlikdan emas, bolalik davridan boshlab sarmoya qilish lozimligini singdirish, zero, ota-onalar farzandining kelajagini yuksak orzu qilishdan oldin farandiga benazir sharoitni yaratishi lozim.

Yuqoridagi vazifalar o'z o'rnida amalga oshirilganda islohotlar o'z samarasini beradi hamda raqobatbardosh kadrlar mamlakatimizning rivojlangan davlatlar orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Islohot – islohot uchun emas, inson uchun xizmat qilmog'i lozim".

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 T. –T.: O'zbekiston, 2018.
2. Xalq so'zi. O'zA. Jismoni tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha vazifalar belgilandi. 2019-yil 5-sentyabr, №184 (7414)
3. Xalq so'zi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng xuquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019-yil 2-sentyabr, № O'RQ-561. 2019-yil 3-sentyabr, №182 (7412).
4. Xalq so'zi. "Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019-yil 2-sentyabr, № O'RQ-562. 2019-yil 3-sentyabr, №182 (7412).
5. <https://uzbekistan.ureport.in>

UDK: 301(575.1)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AYRIM JIHATLARI HUSUSIDA

Sh.Rahimov

*O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti
raximov099@mail.ru*

Annotasiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yoshlar siyosati huquqiy asoslarining yaratilishi, yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni tarixiy kontekstda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining mexanizmlari, yo'naliishlari, joriy holati, bu borada to'plangan milliy tajriba-ning o'ziga xos jihatlari, yutuqlari va istiqbollari, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning jahon miqyosdagi yoshlar manfaatlari borasidagi tashabbuslarining obyektiv sabablari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, siyosat, yoshlar siyosati, yoshlar qatlami, yoshlar huquq va manfaatlari, yoshlar faolligi, yoshlar tashabbuslari, iqtidorli yoshlar, yosh kadrlar, milliy tajriba, dunyo yoshlari, yoshlar muammolari, yoshlar va diniy ekstremizm, yoshlar tarbiyasi, yoshlar konsepsiyasi.

В условиях глобализации отдельные аспекты государственной молодежной политики Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается содержание осуществляемых за годы независимости в Республике Узбекистан реформ по созданию правовых основ молодежной политики, повышению социальной, политической, экономической активности молодежи и повышению ее роли в жизни общества в историческом контексте. В статье также рассказывается о механизмах, направлениях, текущем состоянии реализуемой в Узбекистане молодежной политики, особенностях, достижениях и перспективах накопленного в этом направлении национального опыта, объективных причинах инициатив президента Узбекистана Шавката Мирзиеве в сфере интересов молодежи на мировом уровне.

Ключевые слова: молодежь, политика, молодежная политика, уровень молодежи, права и интересы молодежи, активность молодежи, молодежные инициативы, талантливая молодежь, молодые кадры, национальный опыт, молодежь мира, проблемы молодежи, молодежь и религиозный экстремизм, воспитание молодежи, концепция молодежи.

In the context of globalization, certain aspects of the State Youth Policy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. In the article, reforms to establish a legal basis for youth policy, to increase younger generation's social, political, economic activity and their position in a society in the years of independence are researched with historical context. The article also discusses the mechanisms, trends, current status of the youth policy implemented in Uzbekistan, the specifics, achievements and prospects of the national experience in this field and objective reasons for the initiatives of the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev in the interests of the youth in the world.

Keywords: youth, politics, youth policy, youth rights and interests, youth activism, youth initiatives, talented youth, young cadres, youth problems, youth and religious extremism, youth education.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga doir siyosatning muhim masalasi globallashuv sharoitida yoshlar siyosatini yangi bosqichga ko'tarishdir. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar masalasiga berilayotgan alohida e'tibor hamda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqining tashkil etilishi davlat tomonidan masalaga muhim va dolzarb deya qaralayotganligidan dalolatdir.

Bugungi kunda globallashuv dunyo miqyosida muhim omil sifatida namoyon bo'limoqda. Yer yuzida biror bir davlat yoki xalq bu jarayondan chetda qolayotgani yo'q. Globallashuv jarayonlari ishlab chiqarishni eng yangi, ilg'or texnologiyalar asosida qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalarini rivojlantirish, odamlarning hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan ilmiy, texnik va boshqa axborotlarni jamlash va taqsimlashga, ayniqsa, yuksak mehnat unumdorligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib, bu borada cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Biroq globallashuv taraqqiyotning tabiiy mevasi ekani va uning ijobjiy jihatlari ko'pligini inkor etmagan holda, hozirgi vaqtida u turli ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotganini ham ta'kidlash o'rinni.

Globallashuv bilan bog'liq ziddiyatlar, avvalo, madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo'limoqda. Shu jihatdan globallashuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob deb ta'rif berish ham mumkin. "Globalashuv" tushunchasining bir to'xtamga kelingan ta'rifi bo'lmagani bois, bu hodisa turlicha talqin qilinmoqda. Iqtisodchilar uchun globalashuvning moliyaviy tomonlari muhim. Bunda jahon savdosining tezlashuvi, iqtisodiyotni mintaqlashtirish nazarda tutiladi. Faylasuflar uchun globalashuvning mohiyati insoniy qadriyatlarning murakkablashuvida, sotsiologlar fikricha globalashuv deganda turli mintaqada yashovchi xalqlar turmush tarzining bir xillashi uchun tutiladi.

Qanday ta'rif berilishidan qatiy nazar globalashuv jarayonlari dunyo qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda: geosiyosiy ta'sir doiralar qayta taqsimlanmoqda, g'arb madaniyati namuna sifatida talqin qilinib, zimdan g'arblashtirish siyosati olib borilmoqda, kishilar ongini egallash uchun harakat qilinmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, avvalo, madaniyat va uning o'zagi bo'lgan ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash lozim. Chunki bugungi kunda ular har qanday mamlakat, jumladan, O'zbekiston uchun ham taraqqiyotning sharti, jamiyat ma'nnaviy-axloqiy sog'lomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiatida munosib o'rinni egallashda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Globalashuv sharoitida barqaror rivojlanishimizning muhim sharti bo'lgan milliy qadriyatlarmiz va yoshlar masalasining dolzarbligi tabiiydir. Qolaversa yoshlar ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarmizni kelajak avlodga yetkazuvchi qatlam sanaladi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda yoshlar tafakkuri va ma'nnaviyatini globalashuvning zararli ta'siridan asrash, milliyligimiza yot mafkuraviy oqimlardan himoyalash eng muhim vazifamiz bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...yurtimizda ijtimoiy-ma'nnaviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun asosiy bo'lib turibdi"[1,531].

Yoshlarni "huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash"[2] borasida davlatimiz tomonidan ko'rilibayotgan chora-tadbirlarni e'tirof qilgan holda,

mafkuraviy ishlarimiz samaradorligini yanada oshirishga doir quyidagilarga alohida e'tibor bermog'imiz shart:

- birinchidan, yoshlarga oid targ'ibot-tashviqot ishlarida turli ixtisos va yo'naliшhлardagi mutaxassislardan unumli foydalangan holda, uchrashuvlarda jonli muloqot va amaliy ishlarga ko'proq e'tibor qaratishimiz, mavjud muammo va kamchiliklarni ochiqroq muhokama qilishimiz lozim;
- ikkinchidan, targ'ibot-tashviqot ishlarida turli vositalarni mukammal darajada ishga solishimiz kerak. Masalan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yoshlar ongi va tafakkurida milliy qadiyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, o'zligimizga hurmat ruhini kuchli darajada shakllantirishimiz zarur;
- uchinchidan, yoshlarni milliyligimiz, o'zligimizga sadoqat, hurmat ruhida tarbiyalashda kino va musiqa san'ati imkoniyatlaridan unumli foydalanishimiz zarur. Lekin shuni tan olish kerakki "yoshlar tarbiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy qahramon obrazni haligacha yaratilgani yo'q. Suratga olinayotgan aksariyat filmlarda kinochilarimizning bugungi kunning haqiqiy manzarasi, uning o'tkir muammolarini chuqur his eta olmasligi, oddiy odamlar hayotidan uzoqlashib qolgani sezilib turadi". Albatta, keyingi yillarda yurtimizda milliy seriallar, tarixiy filmlar yaratilishi kuzatilmoqda. Ammo hali qoniqarli deb bo'lmaydi. "Bu ahvolni tubdan o'zgartirish uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan istedodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim"[3,147].

Musiqa san'atining buguni va ertasi haqida o'ylar ekanmiz "bizning milliy an'analarimizga, odob-axloq qoidalariغا mutloq to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qorishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni" o'ziga yangi uslub qilib olgan "san'atkor"larni manaviyatimiz uchun o'ta xavfli ekanligini anglashimiz zurur.

Bu o'rinda birinchi prezidentimizning "sir emas, ba'zan beozorgina bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi" [4, 58-59] degan, fikrlarini eslash o'rinnlidir.

To'rtinchidan, yashayotgan asrimiz axborot asri deb ta'riflanar ekan, bunda yoshlarni yetarli darajada axborot bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Milliy internet portallari, matbuot nashrlari faoliyatini yanada kengaytirishimiz va jonlantirishimiz lozim. "Bugungi xalqaro atamashunoslikda "axborot hokimiyyati"ni anglatuvchi "mediokratiya" so'zi ham qo'llanmoqda. Inson bilgan narsalaridan emas, balki bilmagan narsalaridan qo'rqiб yashaydi. Shuning uchun ham u o'sha mavhumlikka chek qo'yish maqsadida axborot izlaydi. Kimda-kim insonga ana shu mazmundagi axborotni yetkazib berish orqali ishonchga kira olsa, u o'sha inson ongi ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Axborot urushi, mafkuraviy xurujlar ham aynan mana shu asos ustiga qurilgan"[5,56-57].

Beshinchidan, targ'ibot-tashviqot ishlarida yoshlarimiz imkoniyatlaridan to'g'ridan to'g'ri, unumli foydalana olishimiz kerak. Iqtidorli yoshlarni targ'ibot-tashviqot ishlariga yanada keng jalb etilishi mafkuraviy ishlarimiz samaradorligini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Respublikamiz rahbaryati yoshlarni har jihatdan barkamol insonlar bo'lib tarbiyalash masalasiga juda katta e'tibor bilan qaramoqda. Bugungi kunda "Erkin fuqaro manaviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb masaladir"[6,381].

Mustaqillik yillarda yoshlar muammolari va ularni bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar tushunchasining mohiyat-mazmuni, ta'lim sohasida barkamol insonni tarbiyalash muammolari va uning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish muammolari yoritildi.

Mustaqillik yillarda yoshlar siyosati muammolari va ularni bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar, bunda davlat va jamoat tashkilotlari, ayniqsa, yoshlar tashkilotlarining o'rni, yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirishda ma'naviy omillarning qaror topishi va rivojlanishi bevosita demokratik qadriyatlар bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilindi. Respublikamizda mustaqillik yillarda shakllangan yangicha siyosiy tafakkur tomonidan ilgari surilayotgan ma'naviy jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligi to'g'risida muhim xulosalarga tayangan holda, shuningdek, barkamol inson, komil inson mavzusidagi yaratilgan ilmiy maqola va asarlarni tahlil etib, mustaqillik yillarda yoshlar muammolari va ularni bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlar, ularni barkamol insonlar qilib tarbiyalash muammolariiga yanada jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Insoniyatning ulug' mutafakkirlari hamma davrlarda ham donishmandlikka, ilm-ma'rifatga, barkamollikka intilganlar, uni qadriyat sifatida e'zozlaganlar. Fuqarolik jamiyatida shaxs erkinligi, o'z

matbuot, vijdon erkinligi to‘la qaror topishi bilan barkamol insonning ma’naviy tarbiyasi shakllana boshlaydi.

Yuqoridagi muammolarni tadqiq etish natijasida yoshlarga oid siyosatning samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1) mustaqillik yillarda yoshlarni muammolari va ularni bartaraf qilishga qaratilgan tadbirlarning mohiyat-mazmuni va funksiyalarini sistemali ravishda tadqiq etish va tegishli dasturlar ishlab chiqish;

2) yoshlarni muammolari va ularni bartaraf qilishda O’zbekiston yoshlari ittifoqining o‘rnini yanada oshirish;

3)“Barkamol inson” – aqlan yetuk, ma’nan boy, shirinso‘z, insonparvar, o‘ziga ta’labchan, kamsuqum, epchillik, donolik kabi xislatlarni o‘ziga jamlagan holda, o‘z tarixi, o‘z xalqi, o‘tmishi haqida muayyan tushunchaga ega bo‘lgan inson ekanligini nazarda tutgan holda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligining monitoringini qat’iy yo‘lga qo‘yish;

4) fuqarolik jamiyatida yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik omillarning ahamiyatini oshirish;

5) yoshlarning intellektual salohiyatini yanada oshirishda ma’naviy qadriyatlarning o‘rnini to‘g‘ri baholash va ulardan unumli foydalanish;

6) O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashga qaratilganligidan kelib chiqqan holda ta’lim tizimiga innovatsion-pedagogik texnologiyalarni olib kirish;

7) ma’naviy yangilanishlar jarayonida yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasiga yanada e’tibor berish, yangicha axloqiy muhit, sifat jihatidan yangicha munosabatlar tipini yaratish.

8) globallashuv jarayoni va u yoshlarni masalasida yanada xushyorroq munosabatda bo‘lishga undayotganligini nazardan qochirmslik, internet sohasida barcha yoshlarni qamrab olish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar yaratish.

Yoshlarni muammolarini nazariy tadqiq etish, yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, shaxs intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish borasida erishilgan natijalarni hayotga tatbiq etish uchun esa quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- yoshlarni muammolarini hal qilish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va bu borada erishilgan yutuqlarni keng ommalashtirish, bu borada yoshlarni siyosatida erishgan yutuqlarimiz va tajribamizni xalqaro miqyosda e’lon qilish;

- yoshlarning intellektual salohiyatini yanada rivojlantirish uchun davlat homiyligini yanada kuchaytirish, qonunchilikda belgilab berilgan ijtimoiy sherikchilik normalarini hayotga tadbiq etishda davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarish;

- mashhur fan va davlat arboblarning ibratli hayoti, ilmiy faoliyatini yoshlarni o‘rtasida keng targ‘ib qilish, asarlar orqali zamonaviy yoshlarni qahramoni obrazini yaratish;

- globallashuv jarayoni va uning mazmun-mohiyati, “ommaviy madaniyat” kabi tushunchalar to‘g‘risida yoshlarda keng tasavvurlar hosil qilish.

Yoshlarga oid masalalar jamiyat hayotida doim muhim va ahamiyatlari bo‘lib qolaveradi. Chunki bugungi kun va kelajak yoshlarni dunyoqarashi, intilishi, faolligi, amalga oshirilayotgan islohotlarga kirishuvchanligi va islohotlarni amalga oshirishda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashishi bilan bog‘liq. Shu ma’noda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish borasida yangi nazariy va amaliy uslublarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. - Toshkent: O’zbekiston, 2017.
2. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi.
3. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O’zbekiston, 2008.
4. Islom Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. – T.:O’zbekiston, 1998.
5. Baxtiyor Isoqov. Ziyolilik mas’uliyati. – T.:Ma’naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7 t. – T.: O’zbekiston. 1999.

UDK: 338.32

ISTE'MOL SAVATI AHOLI TURMUSH DARAJASINING O'ZGARISHI INDIKATORI**M.M.Fazilova***Samarqand davlat chet tillar instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotda iste'mol tushunchasi qanday ahamiyatga ega ekanligi va u jamiyat a'zolari iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanish jarayonini anglatishi o'rganilgan. Undan tashqari, maqolada aholi daromadlari ko'rsatkichi sifatida iste'mol savati tushunchasi muhim o'rinn egallashi yoritilgan.

Kalit so'zlar: iste'mol, iste'molchi, xaridor, tovar, xizmat, bozor, daromad, xarajat, talab, ehtiyoj, ishchi kuchi, tadbirkor, bandlik, turmush tarzi, iste'mol savati.

Потребительская корзина как индикатор изменения уровня жизни населения

Аннотация. В данной статье рассматривается важность концепции потребления в экономике для удовлетворения потребностей людей, которые возникают в процессе жизнедеятельности общества. Кроме того, в статье рассматривается потребительская корзина как один из индикаторов изменения доходов населения.

Ключевые слова: Потребление, потребитель, покупатель, товар, услуги, рынок, доходы, расходы, спрос, необходимость (нужда), рабочая сила, предприниматель, занятость, образ жизни, потребительская корзина.

Consumer basket as an indicator of changes in living standards of population

Abstract. This article discusses the importance of the concept of consumption in the economy to meet the needs of people that arise in the process of society. In addition, the article considers the consumer basket as one of the indicators of changes in household incomes.

Keywords: Consumption, consumer, buyer, product, services, market, income, expenses, demand, need (need), labor, entrepreneur, employment, lifestyle, consumer basket.

Iste'mol savati haqida gap borar ekan, avvalambor biz iste'mol va iste'molchi tushunchalarini ko'rib chiqishimiz kerak. Iqtisodiyotda iste'mol – bu ma'lum bir davr mobaynida sotib olingan va iste'mol qilingan tovarlarning umumiyligini hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, iste'mol bu iste'molchining yoki samarali talabning ifodasidir. Iste'mol bu tovar va xizmatlardan foydalanish jarayoni. Bu mamlakatning real xarid qobiliyatining ko'rsatkichi. [2, 322 b.]

Iste'molchi ko'plab ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mahsulotni sotib olish maqsadida bozorda paydo bo'ladi.

Nima uchun iste'molchi bozordagi mavjud bo'lgan har qanday tovarlar va xizmatlarni qo'lgan kiritmasdan, ularning ma'lum bir to'plamini sotib olishini bilish uchun, biz quyidagilarni aniqlashimiz kerak, ya'ni ehtiyoj o'zi nima, ehtiyojlarning aynan qaysi birini qondirish maqsadiga muvofiq va buni oqilona yo'llanish bilan qanday bajarish kerakligini hamda bozorda iste'molchining xulq-atvorini belgilovchi omillarni, ya'ni uning talabini shakllantiradigan mavjud pul daromadlarini oshirish uchun qanday qilib maksimal foyda olish mumkinligini aniqlashimiz kerak.

Ehtiyoj – bu insonning hayotiy faoliyatini ta'minlash, shaxsiyatini rivojlantirish uchun kerak bo'lgan obyektiv zaruratidir. Iqtisodiyotda ehtiyojlarni tasniflashning turli me'zonlari mavjud, lekin gap iqtisodiy subyekt (inson va iqtisodiy faoliyat) haqida borar ekan, uning shaxsiy ehtiyojlarini birinchidan, ishchi kuchini takror hosil qilish va ikkinchidan, shaxsning har tomonlama shakllanish (takomillashish) ehtiyojlariga bo'linadi. [2, 172 b.]

Ishchi kuchini takror hosil qilishga bo'lgan ehtiyoj insonning ishlab chiqarish sharoitlarini aks ettiradi. Bunga quyidagilar kiradi: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, transport, sog'liqni saqlash, kasbiy ta'limni takomillashtirish, axborot va hokazolarga bo'lgan ehtiyojlar. Ishchi kuchining mehnati va kayfiyati bu ehtiyoj guruhlarining qanchalik to'la qondirilganligiga bog'liq. Ehtiyojlarni yanada to'laroq qondirishga intilish insonni doimo sifatlari mehnat qilishga, o'z malakasini oshirib borishga undaydi.

Boshqa ehtiyoj guruhlari – bu shaxsning har tomonlama rivojlanish ehtiyojlarini bo'lib, u jamiyatda insonning barcha turmush sharoitlarini aks ettirganligi sababli juda murakkab va ko'p qirrali

hisoblanadi. Bular ijtimoiy jihatdan faol insonlarning ehtiyojlaridir, ular jismoniy va ruhiy yuksalish (rivojlanish), ijodiy faoliyat, madaniy va estetik ta'limga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi. Shaxs sifatida har tomonlama rivojlanish insonni noziktab va ulug'vor qilib, mahsulot va xizmatlarning maxsus turini (musiqa-cholg'u asboblari; adabiyot, axloq qoidalarini o'rganish; sport, musiqa va rassomchilik san'ati bilan shug'ullanish va h. k.) iste'mol qilishini nazarda tutadi.

Iste'molchilarining xatti-harakati – bu xaridorlarning narxlar va shaxsiy byudjet o'zgarishini hisobga olgan holda tovarlar tanloviga bo'lgan talablarining shakllanish jarayonidir. Bizga ma'lumki, pul daromadlari to'g'ridan to'g'ri va bevosita talabga ta'sir etadi, narxlar esa xarid qilinayotgan tovarlar miqdoriga. Bu ta'sir iste'molchilar xatti-harakatlarining xususiyatlardan kelib chiqqan holda tadbirkor tomonidan narxlar siyosati sharoitida kuzatilishi mumkin. Tadbirkor yuqori sifatli tovarlar narxini qay darajada oshirishni va buning chegerasi qanaqa ekanligini yetaricha bilishi shart. Yoki aksincha, bunday tovarga talab kamayganda, daromad xavfini kamaytirmasdan narxni qancha miqdorda kamaytirish zarur. Bu va bunga o'xhash savollarga iste'molchilar xatti-harakati xususiyatlarni o'rganish bilan javob topish mumkin.

Iste'molchilar xatti-harakati, ularning tanlovi tovarlar dunyosida individual xarakterga ega. Har bir iste'molchi o'zining didi, moda (urf) ga bo'lgan munosabati, tovarlar dizayni va boshqa sub'ektiv o'ziga xosslklari bilan yetakchilik qiladi. Bu yerda xaridorlar ijtimoiy-demografik omillarga asosan guruhanishi mumkin: ushbu hudud aholisining umumiyl soni; yoshga nisbatan taqsimlashishi; erkaklar va ayollar soni; bandlik va turmush tarzi xususiyatlari va h. k. [3, 111 b.]

Odamlarning tanlovini "Xarid jarayonining o'zaro ta'sir natijasi" deb nomlanuvchi sabablarga asosan hisobga olish ancha qiyin. Masalan, xaridorlarning xatti-harakatlarida ba'zan boshqalar (qo'shni Ivanovlar, Petrov do'stlari va boshqalar) tomonidan sotib olinganligi uchun xaridlarning amalga oshirilishida "taqlid ta'siri" o'rinn tutadi. Shuningdek, xaridlar "Snob ta'siri" asosida "aksincha, boshqalar tanloviga zid" amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotlar yana "Betakrorlikning namoyishi ta'siri"ni aniqladi, bunda xaridorlar tomonidan qo'lga kiritilayotgan qimmatbaho tovarlar faqat iste'mol uchun emas, balki boshqalarda "tassurot qoldirish" uchun qo'lga kiritiladi. Ko'pchilik xatti-harakatlar narxning shakllanish omillari soniga kirmaydi va iste'molchilar talabini tahlil qilishda hisobga olinmaydi.

Misol uchun, xaridor doimo kam miqdordagi tovarlar o'rniga xuddi shu narxga to'g'ri keladigan ko'proq miqdordagi tovarlarni xarid qilishni afzal ko'rishadi; sifatlari mahsulotlar sifatsiz va eskirganlarga qaraganda talabgir; ekologik toza mahsulotlar ham xuddi shunday narxdagi shunga o'xhash boshqa mahsulotlardan afzalroqdir.

Xaridorlar tanlovini iste'molchilar guruhlari (yoshlar, bolalar, erkaklar, ayollar va pensiya yoshidagilar) va tovar (qishki va yozgi, sanoat va oziq-ovqat, moddiy va nomoddiy xizmatlar va boshqalar) turlari guruhlari bo'lib o'rganish mumkin.

Lekin bunday holatlarda tovar va iste'molchi guruhlari orqali narxlarning harakatlnishiga real sabab topish uchun aniq asos talab qiladi. Talabning shakllanishi va savdoga qo'yilgan tovarlar narxlarining belgilanishi nuqtayi nazaridan iste'molchilar daromadlari darajasi ko'p yoki kam bo'ysunadigan aniq omillarning eng reali (haqiqiysi) hisoblanadi.

Ayrim xaridorlar daromadlarini iste'mol mahsulotlari va kiyim-kechak o'rtasida teng miqdorda taqsimlay oladilar, shu o'rinda har qaysi turdag'i tovarga kam yoki ko'p ahamiyat bergen holda. Boshqalar esa tovar va xizmatlarni shunday xarid qilishadiki, natijada daromadlarning bir qismini tejash orqali xarajatlarini kamaytirishga harakat qilishadi. Uchinchi guruh xaridorlari esa o'z daromadlari doirasida "mos kelmaydilar", ular xaridlarini amalga oshirish uchun qarz olishga murojaat qilishadi. [3, 113 b.]

Iste'molchilarining xatti-xarakatlari nazariyasi bir nechta taxmindan boshlanadi, bular iste'molchilar iste'mol tovarlari va xizmatlarning ma'lum to'plamini boshqalariga nisbatan afzal ko'rishlariga aloqadordir. Bu taxminlar ko'pchilik kishilar uchun ko'pchilik holatlarda o'z kuchini saqlab qoladi.

Birinchi taxmin afzal ko'rish allaqachon shakllanib bo'lgan deb hisoblashdan iborat. Bu iste'molchilar iste'mol tovarlari va xizmatlarning barcha to'plarini solishtirib ko'rish va turkumlashtirishga qodir degani. Boshqacha aytganda iste'molchi ikkita A va V to'plamdan A ni V dan yoki V ni A dan afzal ko'radi. Bu afzal ko'rish tovarlar qiyamatini inobatga olmasligini aytish kerak.

Misol uchun, iste'molchi bifshteksni gamburgerdan afzal ko'radi, lekin baribir gamburgerni sotib oladi, chunki u arzon turadi. Ikkinchisi muhim taxmin – afzal ko'rishning tranzitiv bo'lishi. Tranzitivlik shu deganiki, agar iste'molchi A to'plamni V to'plamga nisbatan, V to'plamni S to'plamga nisbatan afzal ko'rsa, bunda iste'molchi A to'plamni S ga nisbatan ham afzal ko'rigan bo'ladi. Masalan, "Roll-Roys" markali avtomobil "Kadillac" dan afzalroq bo'lsa, "Kadillac" esa "Shevrolet" dan afzalroq bo'lsa, bunda "Roll-Roys" ham "Shevrolet" dan afzalroq bo'ladi.

Uchinchi taxmin shuki, hamma tovarlar ma'qul tovar qiymatini chetda qoldirgan taqdirda iste'molchi har qanday tovarning ko'p miqdorini uning oz miqdoridan afzal ko'radi. Albatta, ba'zi bir ishlab chiqarilgan, masalan havoni ifloslaydigan tovarlar ma'qul emas va iste'molchilar imkonini boricha uni olmaslikka intiladilar. Mana shu taxminlar iste'mol nazariyasi modelining asosini tashkil etadi. [1, 57 b.]

Iste'molchilar xatti-harakatlari mantiqan qonuniy jihatdan birinchi navbatda cheklangan resurslar toifasini va iste'molchi xarid qobiliyatini aniqlovchi pul daromadlari imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Ushbu holatda pul daromadlari va barcha iste'molchilar xarajatlarini aks etturuvchi shaxsiy byudjet kategoriyasi haqida gap boryapti.

Har qanday holatda iste'molchilarining daromadlari aniq qat'iy pul mablag'larini o'zida aks ettiradi. Muxandisning oylik, xafyalik, yoki yillik hajmdagi ish haqi; talaba stipendiyasi; qariyalarga to'lanadigan nafaqa; biznesmenning tadbirdorlikdan oladigan daromadlari va hokazolar. Daromadlarning har bir turi uning egasiga to'lov qobiliyatini belgilovchi joriy davr uchun qat'iy belgilangan pul mablag'larini o'zida aks ettiradi. Hajm jihatdan daromadlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin, ammo uning qiymati har bir alohida xaridorning xarid qobiliyatiga nisbatan byudjet cheklavining bir turi bo'lib xizmat qiladi.

Bunday holatda har bir iste'molchi yakka tarzda o'zi uchun ma'lum bo'lgan pul daromadlari "resursi" cheklanganligi va tovar-xizmatlarga bo'lgan cheksiz ehtiyojlari dilemmasini hal etadi.

Bu yerda byudjet cheklavlari yuzaga keladi. Pul daromadlari resursining cheklanganligi joriy va kelgusidagi joriy va kelgusidagi iste'mol uzoq muddatli qisqa muddatli tovarlar iste'moli, kam miqdordagi qimmatbaho va ko'p miqdordagi arzon tovarlar o'rtasida taqsimplanishi mumkin. Iste'mol doirasida qilinishi mumkin bo'lgan pul daromadlarining cheklangan xarajatları "byudjet cheklavlari" deyiladi. Shaxsiy daromadning qat'iy summasiga xarid qilish mumkin bo'lgan iste'mol tovarlari hajmi ehtiyoj va daromadlarga nisbatan cheklangan. Pul daromadlariga xarid qilinayotgan tovarlar iste'mol resursi bo'lib, unga bo'lgan cheksiz ehtiyojga nisbatan cheklangan. Tovar resurslsri iste'molining cheklanganligi ularni eng kam daromad oluvchi aholi huquqlari uchun ham bepul qilishga yo'l qo'yaydi. Shu sababli har bir tovar o'zining puldag'i ifodasiga ega. Iste'mol narxlari pul daromadlarini hisobga olgan holda ayrim tovarlar to'plamini va turmush darajasini cheklaydi va bu holatni xaridorlarning shaxsiy byudjeti bilan bog'laydi. [3, 114 b.]

Har qanday mamlakat aholi turmush darajasi to'g'ridan to'g'ri iste'mol savati mavjudligiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida alohida shaxsning moddiy boyliklarini yetarli darajada ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Iste'mol savati – bu oddiy oilaning odatiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlari (moddiy va ma'naviy) va xizmatlarning to'liq to'plamidir.

Iste'mol savatiga kiritilgan tovar va xizmatlar majmuasi har bir davlatda farqlanadi. Uning tarkibi davlat doirasida belgilanadi va iqlim sharoitlari, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab-chiqarish xususiyatlari, tovar va xizmatlar real iste'mol qilish omillariga bog'liq.

Iste'mol savati uch qismga bo'linadi: oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar. Oziq-ovqat mahsulotlari savati asosiyasi hisoblanadi, chunki kambag'allik chizig'idan ham pastga mansublarga oziq-ovqat xarajatlarining asosiy qismni tashkil qiladi.

Ite'mol savati turmush darajasiga asos sifatida xizmat qiladi, boshqa tomondan iste'mol savatining tarkibiy qismiga (oziq-ovqat mahsulotlari savatidan tashqari) nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar kiradi. Turmush darajasi qiymatiga soliqlar va majburiy to'lovlar ham kiradi.

Ba'zi bir tushunchalar kiritish lozim. Masalan, minimal oziq-ovqat savati – bu O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan ilmiy asoslangan va tasdiqlangan iste'molning tabiiy normalari asosida insonning fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining minimal yig'ilmasidir.

Turmush darajasi – bu sarflar va majburiy to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi aholining kam xarajatli byudjetiga to‘g‘ri keladigan minimal iste’mol savati darajasini ifodalovchi ijtimoiy normativdir.

Odatda iste’mol savati aholining 3 asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun ishlab chiqiladi: mehnatga layoqatlari aholi, pensiya yoshidagi qariyalar va boshqalar. Ya’ni aholining turli qatlamlari turmush darajasini aniqlash uchun ma’lum bir davrning iste’mol savatiga kiritilgan barcha tarkib normalarini aniqlash zarur. Masalan, fuqaroning hayot kechirishi kundalik iste’mol mahsuloti miqdorini hisoblab chiqish. Yoki har oylik kommunal xarajatlarini qoplash uchun qancha miqdorda pul unga kerak. [4]

O‘zbekiston xalq iste’moli mollari savati loyihasini ishlab chiqmoqda, u jamoat muhokamasiga taqdim etiladi. Minimal iste’mol savati va eng kam miqdordagi turmush darajasi ko‘rsatkichini hisoblash tartibi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Hujjat ikkita arizani tasdiqlaydi:

- to‘liq va sog‘lom ovqatlanish uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va iste’molning o‘rtacha kunlik minimal tibbiy mezonlari ro‘yxati;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida minimal iste’mol savati va eng kam miqdordagi iste’mol savatini hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxatiga 46 turdagи mahsulotlar kiritilgan. Bular: no‘xat, mosh, loviya, bo‘g‘doy uni, guruch, so‘li yormasi, bo‘g‘doy noni, javdar noni, makaron, kartoshka, karam, bodring, pomidor, lavlagi, sabzi, piyoz, sholg‘om, turp, bolgar qalampiri, limon, ko‘kat, baqlajon, qovun, tarvuz, qovoq, olma, nok, quruq o‘rik, mayiz, yong‘oq, uzum, mol go‘shti, qo‘y go‘shti, parranda go‘shti, yangi baliq, sut va sut mahsulotlari, smetana, qaymoq, sariyog‘, tvorog, pishloq, oq pishloq, tuxum, shakar, o‘simlik yog‘i, choy (ko‘k / qora), yodlangan tuz, bolalar uchun maxsus mahsulotlar. [5]

Kundalik ovqat odatiy va zerikarli ishga o‘xshaydi. Lekin "Och Planeta. Dunyo nima iste’mol qiladi" loyihasi bunga boshqacha nazar bilan qarashga undaydi. Ushbu g‘oya ikki amerikalik, fotograf Peter Menzel (Peter Menzel) va yozuvchi Feyt Daluisio (Faith D’Alusio) ga tegishli. Ular butun dunyodagi oilalarning haftalik ratsionini o‘z ichiga olgan fotosuratlar seriyasini taqdim etdilar.

2000-yildan 2013-yilgacha olingan ushbu loyiha tufayli dunyodagi xalqlar madaniyati, iqtisodiy, ijtimoiy, irqiy va boshqa xilma-xilligi, parhezi, kaloriya miqdori va sifati, oziq-ovqat uchun qancha miqdorda mablag‘ sarflashi haqida ma’lumot olish mumkin. Masalan, Sturm oilasi, Germaniya. Oziq-ovqat xarajatlari haftada 253,29 €(325,81 AQSh dollari). Sevimli taomlar: salatlar, qisqichbaqalar, sariyog‘li sabzavotlar, makaron, shakar va shakarli shirin guruch. Ottersland Dal oilasi, Norvegiya. Haftalik oziq-ovqat xarajatlari 2211,97 norvegiya kroni (379,41 AQSh dollari). Eng sevgan taomlari - sariyog‘ va shakar bilan yangi non, quymoq, pomidor sho‘rva, qatiq. Ukit oilasi, Yaponiya. Haftalik oziq-ovqat narxi 37,699 yen (317,25 AQSh dollari). Sevimli taomlari - sashimi, meva, xamir ovqatlar, kartoshka chipsi. Abubakar oilasi, Chad. Haftalik ovqatlanish narxi 685 frank (\$ 1, 23 \$). Sevimli taomlari - qo‘y go‘shtidan yangi sho‘rva. Al Haggan oilasi, Quvayt. Haftada oziq-ovqat xarajatlari 63,63 dinor (221,45 AQSh dollari). Sevimli taomlari - basmati guruchli tovuq bryanisi. Revis oilasi, AQSh. Haftalik oziq-ovqat narxi 341,98 dollarni tashkil etadi. Sevimli taomlari - spaghetti, kartoshka, sedonali tovuq. Ahmed oilasi, Misr. Hafta davomida oziq-ovqat xarajatlari 387,85 Misr funt sterlingi (68,53 AQSh dollari). Sevimli taomlari – qo‘y go‘shti. Selik oilasi, Turkiya. Haftalik ovqatlanish narxi 198,48 turk lirasi (145,88 AQSh dollari). Sevimli taomlari – Melahat pechenyasi. [6]

Shu bilan birga iste’mol savatining tarkibiga inson ularsiz yashashi va sog‘lom bo‘lishi mumkin bo‘lgan tovarlar kiritilmaydi, masalan, tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar, noyob va “xashamat” predmetlari.

Shuningdek xizmatlar inson uchun muhimligi va hayotiy zarurligi bilan farqlanadi. Agar oziq-ovqat mahsulotlari ancha tushunarli bo‘lsa, u holda talab qilinadigan xizmatlar turlarini aniqlashda savollar tug‘ilishi mumkin. Aholining turmush darajasini aniqlashda qanday xizmatlar to‘lovi hisobga olinishi zarur? Albatta, birinchi navbatda communal va transport xarajatlari turadi. Shu bilan birga hayot faoliyat davomida inson boshqa tarzdagi xizmatlardan ham foydalanadi, bular: mobil aloqa va internet, tibbiy yordam, har xil mutaxassislar maslahat xizmatlaridan foydalanadi. Undan tashqari

madaniy-ma'rifiy tadbirlarga qilinadigan xarajatlarni alohida e'tiborga olish zarur, ularga: teatr va muzeylarga tashrif buyurish. Axir inson nafaqat jismoniy ehtiyojlarini, balki intellektual va axloqiy-madaniy holatini qondirish zarur. Shu bois, ichki iste'mol savatini ishlab chiqishda yuqorida aytib o'tilganlarning hammasini hisobga olish kerak.

Davlatlarning zamonaviy byudjet daromadlari bir vaqtning o'zida xarajatlarni sezilarli darajada oshirishga imkon bermaydi, shuning uchun zamonaviy sharoitlarda farovonlik savati iste'mol savatidan ajralib turadigan mustaqil toifaga aylanishi va ish beruvchilar uchun samarali mehnatga yo'naltirilgan kadrlar siyosatini ishlab chiqishda yo'lboschchi bo'lishi kerak, deb o'laymiz.

Adabiyotlar

1. Пиндайк Р., Рубинфельд Д. Микроиктисод. Т. Шарқ, 2002. 448 б.
2. Экономическая теория. Под науч. ред. Акад. В. И. Видяпина. Ташкент, 1999. 640 с.
3. Экономическая теория. Москва Владос, 2002. 640 с.
4. https://www.norma.uz/nashi_obzori/potrebitelskaya_korzina_i_projitochnyy_minimum_chto_uchityvat_pri_sostavlenii.
5. <https://kun.uz/ru/news/2018/06/13/vase-mnenie-potrebitelskaa-korzina-prozitocnyj-minimum-i-46-vida-produktov>.
6. <http://tsenomer.ru/new/golodnaya-planeta-chto-est-mir/>.

UDK: 338.48

TURIZMNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

K. Suyunova

Samarqand davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm milliy iqtisodiyotning biriga aylanayotganligini, shu bilan birga mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'shining asosiy manbai ekanligi kabi dolzARB masalalarni o'z ichiga oladi. Ushbu sohalarini inobatga olib, turizmni davlat tomonidan tartibga solishga va uni izchilik bilan rivojllantirishga berilayotgan imkoniyatlar ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, xalqaro tashkilotlar, turizm, salohiyat, raqobat.

Основные направления государственного регулирования туризма

Аннотация. В статье исследовано превращение туризма в одну из сфер национальной экономики и вместе с тем, его значение в качестве важного источника роста внутреннего валового продукта государства. Научно обоснованы основные направления государственного регулирования туризма и возможности для его интенсивного развития.

Ключевые слова: Национальная экономика, международные организации, туризм, эффективность, конкуренция.

The main directions of tourism optimization by the state

Abstract. This article discusses urgent tasks, which include the transformation of tourism into one of the income items of the national economy, and tourism is also the main source of growth of the country gross domestic product. Given these facts, the article scientifically substantiates the opportunities provided by the state to optimize tourism and its consistent development.

Keywords: National economy, international organizations, tourism, efficiency, competition.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida turizm milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Ushbu tarmoq mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishning aholi daromadlari va ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligini ta'minlashning, tashqi savdo balansini faollashtirishning hamda mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizmning boshqa tarmoqlarga nisbatan eng ustun jihatlardan biri shundaki, u milliy iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga, jumladan transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, savdo, umumiyl ovqatlanish, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish, qurilish, kommunal xizmatlar kabi tarmoq va sohalar taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib ifodalaganda, turizm milliy iqtisodiyotining bir qator tarmoq va

sohalari holati va taraqqiyotiga ta'sir etuvchii, multiplikativ turki beruvchi o'ziga xos katalizator bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro turistik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, jahon xo'jaligi yalpi ichki mahsulotining 6 foizi, jahon kapitalining 7 foizi, aholi iste'mol xaratjatining 11 foizi, davlat byudjetiga soliq tushumlarining 5 foizi ushbu tarmoq zimmmasiga to'g'ri keladi. Dunyo mamlakatlari bo'yicha turizmning aholi bandligini ta'minlashdagi roli beqiyos bo'lib, har 16 ish o'rinnaridan bittasi shu tarmoq faoliyati bilan bog'liq.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliislari bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq O'zbekistonda turizmni mamlakat milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlardan biriga aylantirish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Bizningcha, O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirishni hamda kelajakda uni milliy turizmni jadal rivojlantirish hamda kelajakda uni milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish muammosini hal etishda masalaning ikki muhim jihatiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Birinchidan, mamlakatda turizmni ustuvor soha sifatida tan olish, uni boshqa tarmoqlarga nisbatan ustun rivojlantirishning dolzarbligini, o'tkir zarurat ekanligini asoslash.

Ikkinchidan, turizmni boshqa tarmoqlarga nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlantirish yullari va vostilarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslab berish. Qayd etilgan muammolarni yechish bo'yicha o'zimizning ayrim ilmiy mulohaza va qarashlarimizni qayd etmoqchimiz.

O'zbekistonda turizm harakatlari bozorini ustuvor soha sifatida jadal rivojlantirish va kelajakda uning mamlakat milliy iqtisodiyotidagi mavqeini mustahkamlashning o'ta muhim ekanligini quyidagilar bilan asoslab berish mumkin.

1. O'zbekiston ulkan turistik salohiyatiga ega. O'zbekiston tarixiy obidalariga boy bo'lib, azal-azaldan xorijlik sayyohlarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Bundan tashqari, O'zbekistoni Harakatlar strageyasiga muvofiq milliy iqtisodiyotini jahon xo'jaligi mavqeiga ko'tarish hamda dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar mamlakatga ish va tadbirdorlik yuzasidan keluvchi turistlar sonini, ayni paytda shu maqsadlarda boshqa mamlakatlarda chiquvchi turistlar sonining ko'payishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. 2018-yilda O'zbekistonda tashrif buyurgan xorijlik turistlar soni 5300 kishini, turistik xizmatlar eksporti esa 1040.9 mln. dollarni tashkil etdi. Tashrif buyurgan xorijlik turistlarning asosiy qismi (88.1%) O'zbekistonga tanish va qarindoshlar bilan uchrashish maqsadida, yana bir qism (9.6%) uz ta'tilini o'tkazish, dam olish, xordiq chiqarish uchun tashrif buyurgan. Xorijdan tashrif buyurgan turistlarning 86.1%, 7.2 % – MDH ning boshqa mamlakatlaridan, 6.2 % – uzoq xorij davlatlariga to'g'ri keladi. Lekin O'zbekistonda turizmda mavjud ulkan salohiyatdan foydalanish darajasi hali juda pastligicha qolmoqda. Ushbu tarmoqning mamlakat YAIM dagi ulushi 2.5% atrofida.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra O'zbekistonga tashrif buyuruvchi xorijlik turistlar soni 2025-yilga qariyb 2 marta ko'paytirish va 9.1 mln. kishiga yetkazish, turistik xizmatlar hajmini esa 2 martadan ziyodroqda ko'paytirib, 2233 mln. dollarga etkazish mumkin.

2. Harakatlar stratejiyasida 2017-2021-yillarda va undan keyingi davrda ham iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash va shu asosda aholi moddiy farovonligini yuksaltirish vazifasi qo'yilgan. Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra turizmda investitsiyalar rentabelligi ko'rsatkichlari boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha yuqori. Demak, turizmni jadal rivojlantirish mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish muammosini hal etishda milliy iqtisodiyotining boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori natija beradi.

3. Turizm sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirish mamlakatda qo'shimcha yangi ish o'rirlarni yaratish va aholi bandligini ta'minlashning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sababi, turizm xizmatlari hajmini ko'paytirish milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, xususan, savdo, umumiyl ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, aloqa, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kommunal xizmatlari kabi muhim tarmoqlarda ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirishning muhim omili hisoblanadi. Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida keskin nomuvofiqlik mavjud bo'g'an, ishsizlik darajasi yuqori O'zbekiston turizmini jadal rivojlantirish evaziga, ko'plab yangi ish o'rinnarini yaratish imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Turizm sohasining istiqbolida mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishning, aholi real daromadlari va iqtisodiyotda bandligini oshirishning, davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirishning asosiy manbaiga aylantirish turistik sohani umummilliy darajada davlat tomonidan tartibga solishni

kuchaytirish, zamon talablari darajasiga ko‘tarish bilan uzviy bog‘liq. Ayniqsa turizmni jahon bozoriga ko‘tarishda davlatning roli juda katta.

Mavjud ilmiy-nazariy qarashlarga muvofiq bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasini rivojlantirishning davlat tomonidan tartibga solish – bu turistik sohani rivojlantirishda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklarini ta‘minlash hamda yagona konsepsiya ishlab chiqish maqsadida xo‘jalik subyektalari faoliyatiga va bozor konyukturasiga ta’sir ko‘rsatishdir. Shuni alohida qayd etish kerakki, turizmni davlat tomonidan tartibga solish o‘z mazmun mohiyatidan o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq unsurlardan tarkib topgan. Ushbu tarkibiy unsurlar qatoriga turizmni rivojlantirishning tartibga solish borasida davlat siyosatini ishlab chiqish tartibi, uning maqsadi, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari, shunigdek, uni amalga oshirish vositalari va usullarini kiritish mumkin. Turizmni davlat tomonidan tartiblash jarayoning mohiyatini yanada yaqqol ochib berish maqsadida uni chizma shaklida izohlashga urinib ko‘rdik.



Chizma 1. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Tadqiqot natijalarini jahon amaliyotida turizmni davlat tomonidan tartiblashga 3 turdag'i yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatdi va ushbu yondashuvlar bir-biridan muayyan bilan farqlanadilar.

Birinchi yondashuv asosan rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lib, unga muvofiq joylarda turizmni rivojlantirish masalalari xo‘jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan mustaqil hal qilinadi. Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlari tarmoqni rivojlantirishga oid muhim masalalarni hal etishda tegishli qarorlar qabul qilishda bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari va tamoyillariga tayangan holda ish tutadilar. Bunday vaziyatda turizm xizmatlari bozorini tartibga solish bo‘yicha maxsus davlat organlari bo‘lishligi uchun ehtiyoj sezilmaydi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, qonun ustuvorligi ta‘minlangan va bozor iqtisodiyoti tamoyillari to‘siksiz amal qiladigan G‘arb mamlakatlarida soha xo‘jalik subyektlari mustaqil ravishda turizmni rivojlantirishga oid to‘g‘ri va ijobjiy natija beradigan qarorlar qabul qilishga qodir. Bunday mamlakatda milliy turistik mahsulotni jahon bozoriga reklama qilishga, uni tartibga solishda maxsus davlat organi ishtirokiga katta zarurat sezilmaydi va bunday mamlakat xorijlik sayyoohlар uchun jozibador hisoblanadi.

Ikkinci yondashuv turizm xizmatlari bozorini jadal sur’atlar bilan rivojlantirish siyosatini amalga oshirayotgan mamlakatlarga xos bo‘lib, bunda ushbu sohani tartibga solish maxsus davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus tashkil etilgan davlat organi tegishli vakolatlar va katta miqdordagi moliya resurslariga ega bo‘lib va unda turizm sohasini rivojlantirish jarayonlariga kuchli ta’sir kursatish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Bunday davlat tuzilmalarini tashkil etish milliy turistik mahsulotni yaratish va turizm infratuzilmasini shakllantirish katta xarajatlar talab qiladigan hollarda yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, turizmni tartibga soluvchi maxsus davlat tuzilmasi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda, tarmoqda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda, xorijlik turistlarning xavsizligini ta‘minlashda va boshqa bir qator sohalarda ham faol ishtirok etadi.

Uchinchi yondashuv turizmni tartibga solish maxsus vazirlik tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu vazirlik faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, u turizmni rivojlantirishga doir masalalarda tegishli vazirliklar, mintaqaviy hukumat, muassasalar bilan muvofiqlashtirish ishlarini, turizmning amal qilishi huquqiy-me’yoriy bazasini ishlab chiqish hamda takomillashtirishga oid masalalarni hal qiladi. Bundan tashqari, vazirlik mamlakatda turizmni rivojlantirish bo‘yicha boshqa davlatlar bilan va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatadi, chet elda milliy turistik biznesni tegishli axborotlar bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina mamlakatlarda turizm sohasini taritibga solish davlat va xususiy sektorlar ishtiokida, ularning o‘zaro amalga oshiriladi. Bugun Jahon Turizm Tashkiloti (BTT) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ham xususiy tuzilmalarning jahon turizmini rivojlantirishga faol ishtirok etishi davlat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlash natijasida sodir bo‘ladi.

Bozorning o‘z-o‘zini tartiblash mexanizmlari davlatning tegishli aralashuviziz iqtisodiy o‘sishga to‘sinqinlik qiluvchi katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bular jumlasiga iqtisodiyot monopollashuvining kuchayishi, aholi moddiy tabaqlashining tezlashuvi, ijtimoiy tarmoqlar (sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, ta’lim) faoliyatining qisqarishi kabilarni kiritish mumkin.

Davlat va uning turli darajasidagi tuzilmalarni milliy turizmni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda, sohaga bozor stixiyasi ta’sirini kamaytirishda muhim rol uynaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning turizm xizmatlari bozorini tartibga solish bir qator vazifalar qatoriga quyidilarini kiritish mumkin :

- Turizmni rivojlantirish sohasida tashkiliy- iqtisodiy va ijtimoiy siyosat ishlab chiqish bo‘yicha qarorlar qabul qilish ;
- ijtimoiy turizmni rivojlantirish muammolarni yechish chora-tadbirlarini amalga oshirish ;
- turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- turizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb etish va undan samarali foydalanishni ta’minlash.

O‘zbekiston sharoitida yuqorida qayd etilgan vazifalar bilan bir qatorda, turizmni eng istiqbolli soha sifatida mamlakatda ustuvor rivojlantirish zaruratidan kelib chiqqan holda, uning holati hamda rivojlantirish yo‘nalishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishni ham davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida qarash lozim, deb hisoblaymiz. Ayniqsa , mamlakatda turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda, turistik obyektlar joyibadorligini ta’minalashda, milliy turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishda, turistlar xavsizligini ta’minalashda davlat faol ishtirok etmog‘i lozim.

O‘zbekistonda turizmni istiqbolli soha sifatida ustun rivojlantirish strategiyasini inobatga olgan holda, uni davlat tomonidan tartibga solishni ikkita asosiy muhim yo‘nalishida amlaga oshirishni taklif qilamiz.

Birinchi yo‘nalish – bozor mexanizmlarining amal qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va muayyan vositalar yordamida ularni tartibga soluvchi xuquqiy bazani takomillashtirish, tarmoqda monopoliyalarning vujudga kelishining oldini olishi lozim. Davlat turizm xizmatlari bozoriga birinchidan talab va daromadni boshqarish, ikkinchidan, taklif va narxlarni boshqarish orqali ta’sir ko‘rsatish mumkin. Talabga ta’sir kursatadigan davlat marketing (mijozlarda talabni shakllantirish) cheklovlari belgilash, narxni shakllantirish kabi vositalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yo‘nalish – ijtimoiy dasturlar va ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirlar vositasida aholini himoyalash va kam ta’milangan aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy siyosatini amalga oshirish.

Har ikkala yo‘nalish o‘zaro chambarchas chora-tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish – mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish strategiyasini hayotga tatbiq etishda katta ijobjiy natijalar beradi.

Turizmni rivojlantirishda va uni iqtisodiy o‘sishning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirishga erishgan mamlakatlarning ilg‘or tajribasi ham turistik xizmatlar bozorining holati va uni kengaytirish imkoniyatlari aynan davlatning ushbu bozorini samarali tartibga solish, turizm infratuzilmasini uzluksiz rivojlantirish muammolarini hal etishdagi faolligi bilan uzviy bog‘liq ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat– yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagagi “O’zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘sishma tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326 son Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6-fevraldagagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509 son Qarori.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28-fevraldagagi “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3571 son Qarori.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Birlashgan mamlakatlar tashkiloti Bosh assambliyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2017-yil 20-sentyabr.
6. Shoislom Shomuhamedov. Xazinalar jilosi. – T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1981.
7. Jahon A.V. O’zbekistonda turizm industriyasi jadal sur’atlarda taraqqiy etayapti. //Xalq so‘zi. 2016-yil. 19-fevral.

UDK: 371.2

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA NOMUTAXASSIS TA'LIM YO'NALISHLARI
TALABALARIGA "SANOQ SISTEMALARI" MAVZUSINI O'QITISHDA MULTIMEDIALI
DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH**

S.Z.Rahimov

Samarqand davlat universiteti

Annotastiya. Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalarida ta'limga olayotgan nomutaxassis ta'limga yo'naliishlari talabalariga "Sanoq sistemalari" mavzusini o'qitishda multimediali didaktik vositalardan foydalanan mexanizmlarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi. Talabalar uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, mutaxassisligi fanlari bilan shug'ullanishi uchun zamонавиy vositalar, uslublar va texnologiyalarni qo'llashni o'rganishlari mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'lar: axborot texnologiyalari, multimedia, multimedia fayllari, didaktik vositalar, fotomateriallar, sanoq sistemalari, multimedia vositalari, didaktik usul, integrastiyalashgan dars.

**Использование мультимедийно-дидактических средств в преподавании темы
"Числительные системы" для студентов неспециализированных высших учебных
заведений**

Аннотация. В данной статье рассматривается создание многофункциональных дидактических инструментарий для обучения студентов неспециализированных высших учебных заведений. Актуальность темы определяет важность обучения и использования современных инструментов, методов и технологий для получения студентами больших объемов данных, обработки объектов и специализации.

Ключевые слова: информационные технологии, мультимедиа, мультимедийные файлы, дидактические средства, фотоматериалы, мульимедийные средства, дидактический метод.

**The use of multimedia and didactic tools in teaching the theme "Number Systems" for
students of non-specialized higher educational institutions**

Abstract. This article discusses the creation of multifunctional didactic tools for teaching students to non-specialized higher education institutions. The relevance of the topic determines the importance of teaching and using modern tools, methods and technology for students to obtain large amounts of data, processing objects and specialization.

Keywords: information technologies, multimedia, multimedia files, didactic means, photographic materials, multimedia tools, didacticus methods.

Ma'lumki, jamiyatimiz hayotida ta'limga tizimida kechayotgan o'zgarishlar, innovastion jarayonlar o'ta savodli, har jihatdan intellektual kadrlarni tayyorlashni kun tartibiga qo'yemoqda. Oliy ta'lismuassasalarida ta'limga olayotgan har bir talaba katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, mutaxassisligi fanlari bilan shug'ullanishi uchun zamонавиy vositalar, uslublar va texnologiyalarni qo'llashni o'rganishi lozim. Bu esa nafaqat mutaxassis, balki nomutaxassis ta'limga yo'naliishlarida o'qiydigan talabalar uchun «Axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari» fanini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi.

Nomutaxassis ta'limga yo'naliishi talabalariga axborot texnologiyalari bilish o'z mutaxassisliklari doirasida masala va misollarni, muammolarni yechishda katta yordam beradi. Shuning uchun nomutaxassis ta'limga yo'naliishlari talabalariga «Axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari» fani integrastiyalashgan usulda o'qitilishi kerak. Buning uchun esa amaliy mashg'ulotlar, topshiriqlar berish va ularni yechish namunalarni ko'rsatishda multimedia texnologiyalarni qo'llash o'z samarasini beradi. Sababi dars mashg'ulotini turli didaktik o'quv materiallaridan, ya'ni turli format, ranglar va shakllarga ega bo'lgan matnlar, jadvallar, statik va dinamik grafiklar, animastion modellar va interfaol servis dasturlaridan foydalanim o'tish dars sifatini oshirishga xizmat qiladi. An'anaviy ma'ruzadan ko'ra multimedia texnologiyalariga asoslangan ma'ruza natijasida talabalarning dars jarayonida qatnashish faolligi oshadi, mavzuga diqqat bilan yondashishlari kuzatiladi.

Mazkur maqolada oliy ta'lif muassasalarida nomutaxassis ta'lif yo'naliishlari talabalariga "Sanoq sistemalari" mavzusini o'qitishda multimediali didaktik vositalardan foydalanish xususida fikr yuritamiz.

Oliy ta'lif muassasalarida «Axborot texnologiyalari va dasturlash asoslari» fani tarkibida mavjud mavzular ichida "Sanoq sistemalari" mavzusini o'qitish bir muncha qiyin. Sababi sanoq sistemalari haqida umumiylashtirish ega bo'lgan talaba ular ustida amallar bajarishni, bir sanoq sistemasidan boshqasiga o'tish kabi amallarni ham mustaqil bajara olishi zarur. Bu o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chuqur bilimni talab etadi. «Sanoq sistemalari» mavzusini o'tishda sonlar kompyuter xotirasida ikkilik sanoq sistemasida tasvirlanadi, sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalari esa kompyuterli hujjatlarni rasmiylashtirish va dasturlashda, raqamlar qurilmalar bilan bog'liq sohalarda foydalananiladi. «Sanoq sistemalari» mavzusi matematika fani bilan bilan bog'liq. Nomutaxassis ta'lif yo'naliishi talabalarida ushbu mavzuni o'rganishga deyarli motivatsiya bo'lmaydi, chunki ular matematika fanidan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishmaydi.

O'qituvchi ushbu mavzuni o'qitishda, amallarni bajarishda multimediali didaktik vositalardan foydalansa, talabalarga mavzuni o'zlashtirish nisbatan oson kechadi. Ushbu mavzuni o'rganishda biz Micromedia Flash Player 6 paketidan foydalandik. Ikkilik sanoq sistemasi poziston sistema bo'lib, unda sonlar faqat ikkita **1** va **0** yordami bilan ifodalanadi. Masalan, ikkilik sanoq sistemasida berilgan 11110 sonini 11 ga ko'paytirishni doskada bajarib ko'rsatgandan ko'ra, uni quyidagicha tasvirdan foydalanim ko'rsatish mumkin.


$$\begin{array}{r}
 11110 * 11 = \\
 \begin{array}{r}
 * \quad 11110 \\
 \hline
 + \quad 11110 \quad 1 + 1 = 10 \\
 \hline
 1011010
 \end{array}
 \end{array}$$

Bunda har bir son va amallar, hosil bo'lgan natija alohida ranglar vositasida ifodalanganligi uni oson tushunishga yordam beradi.


Yoki, 211_{10} ni o'nlik sanoq sistemasidan ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazishning tasviri quyidagi rasmda ko'rsatilgan:

$$\begin{array}{r}
 211_{10} = 101001_2 \\
 \begin{array}{r}
 -211 \\
 \hline
 105 \\
 \begin{array}{r}
 -105 \\
 \hline
 52 \\
 \begin{array}{r}
 -52 \\
 \hline
 26 \\
 \begin{array}{r}
 -26 \\
 \hline
 13 \\
 \begin{array}{r}
 -13 \\
 \hline
 6 \\
 \begin{array}{r}
 -6 \\
 \hline
 3 \\
 \begin{array}{r}
 -3 \\
 \hline
 1 \\
 \begin{array}{r}
 -1 \\
 \hline
 0
 \end{array}
 \end{array}
 \end{array}
 \end{array}
 \end{array}
 \end{array}
 \end{array}$$


O'nli kasr ko'rinishidagi sonlarni sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazishning usuli xususida fikr yuritamiz. Sakkizlik sanoq sistemasining asosi 8 ga bo'lib, undagi 0,1,3,4,5,6,7 raqamlari orqali ifoda qilinadi. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari 8 lik sanoq sistemasi qoidalari asosida bajariladi.



O'n otilik sanoq sistemasining asosi 16 ga teng bo'lib, undagi sonlar 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, B, C, D, E, F raqamlari orqali ifodalanadi. Bunda A- o'nni, B – o'n birni, C- o'n ikkini, D- o'n uchni, E- o'n to'rtni, F- o'n beshni bildiradi. O'n otilik sanoq sistemasida ko'paytirish amalini bajarish:



Bo'lish amalini bajarish:



Xulosa qilib aytganda, nomutaxassis ta'lif yo'nalishlari talabalariga "Sanoq sistemalari" mavzuni o'qitishda multimediali didaktik vositalardan foydalanish talabalarning hisoblash ishlarni bajarishga ketadigan vaqtini tejaydi hamda zerikarli tuyuladigan mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qildi.

Adabiyotlar

1. Aripov M.M., Yuldashev Z.X., Yuldashev U.Yu. Informatika fanini uzlusiz o'qitish muammolari haqida // Ta'lifda axborot texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferenstiya materiallari. –Toshkent: TDPU, 2000, – B.19 - 20.
2. Musaev P. O'quv fanlarining funksional vazifasi va ularni integrastiyalash masalalari // DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar. Seminar materiallari. – Toshkent: 2002. – B. 34 - 37.
3. Rasulova G.A. Informatika darslari samaradorligini oshirishda multimediali didaktik vositalardan foydalanish // Uzlusiz ta'lif tizimida matematika va informatika fanlarini o'qitishni takomillashtirish masalalari, respublika miqyosidagi ilmiy-texnik konferensiya. –Qo'qon: QDPI, 2012. – B. 195-197.

4. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'limga informatikani o'qitishning muammolari // Uzluksiz ta'limga jarayonini takomillashtirishning dolzab muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: O'zPFITI, 11- 12 may, 2004. – B. 34 - 36.

5. Филатов О.К. Основные направления информатизации современных технологий обучения // Информатика и образование. 1999. -№ 2. – С. 2 -4.

UDK: 373.3 (575.1)

BOSHLANG`ICH TA'LIMDA SO`Z YASALISHI MAVZUSINI O`RGANISH VA O`RGATISH YUZASIDAN MUSTAQIL ISHLAR

A.Nomozov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada talabalarning mavzuni mustaqil o`rganishi va o`rgatishi yuzasidan uslubiy tavsiyalar , yo`l-yo`riqlar berilgan. Shuningdek, muallif boshlang`ich ta'limga mavzuning o`rganilishi ta'limga keyingi bosqichlaridan farqli tomonlariga to`xtalgan.

Kalit so`zlar: asos, so`z yasovchi qo`shimcha, yasama so`z, ot, sifat, fe'l, ravish, morfologik usul, sintaktik usul.

Самостоятельные работы по изучению и преподаванию словообразования в начальном образовании

Аннотация. В статье даются основные научные рекомендации и руководства по освоению и изучению темы студентами самостоятельно. Кроме этого, автор подробно освещает вопрос изучения темы на начальной стадии образования и её отличительные черты от последующего образования.

Ключевые слова: основа, слова, суффиксы, сложные слова, имя существительное, имя прилагательное, глагол, наречие, морфологические способ, синтаксические способ.

Independent work on the study and teaching of word formation in primary education

Abstract. The article provides scientific recommendations and guidelines for the development and study of students by themselves. In addition, the author covers in detail the issue of studying the topic at the initial stage of education and its distinctive features from the subsequent education.

Keywords: the foundation, word, suffixes, compound words, noun, adjective, verb, adverb, morphological method, syntactic method.

Ma'lumki, so`z yasalishi boshlang`ich ta'limga yo`nalishidagi ona tilining nazariy va amaliy mashg`ulotlarida alohida o`rgatilishiga qaramay, uni yanada chuoqroq bilish niyatida talabalarning shu fandan tayyorlaydigan mustaqil ishlaring ham mavzusiga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Bunga sabab – hali ham talabalarda so`z yasalishi hodisasining mohiyatini to`g`ri tushunmaslik, bu hodisaning qaysi so`z turkumlarida mavjudligini idrok etmaslik, yasama so`z atamasini izohlashda so`z yasalish usullarini inobatga olmaslik kabilarning uchrab turishidir. Bu kabi muammolarning mavjudligi mavzuning dolzarbligini anglatish bilan birga uning o`quvchilarga sodda ko`rinishda tushuntirish zarurligini ham ko`rsatadi. Vaholanki, bunga: “tilda oldin mavjud bo`lgan so`zga ma’lum yasovchi vositalar qo`shish bilan yangi so`z hosil qilinishiga so`z yasalishi hodisasi, shunday hodisani o`rganadigan tilshunoslik bo`limiga esa so`z yasalishi deyiladi” [1.183-bet] mazmunida to`g`ri izoh berilgan.

O`zbek tilshunosligida so`z yasalishi hodisasi maxsus tadqiqot sohasi sifatida bir qator ilmiy manbalarda o`rganilgan[2.,3.]. Bu singari manbalardagi nazariy xulosalar, ilmiy atamalarining sodda, tushunarli tarzda bayon etilishi talabalarda uchrab turgan noto`g`ri qarashlarni parchalar?

Boshlang`ich ta'limga yo`nalishida ona tili fanidagi mavzularning, xususan, so`z yasalishi mavzusining sifatli, zamon talablariga mos holda o`rgatilishiga alohida e'tibor qaratilayotgani bejizga emas. Chunki bu mavzular bo`yicha dastlabki nazariy tushunchalar shu bosqichda shakllanadi. Shuning uchun tushuncha va xulosalarning to`g`ri kamol toptirilishi ta'limga keyingi bosqichlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. So`z yasalishi mavzusi boshlang`ich ta'limga yo`nalishining I bosqichida o`rgatiladi. Mavzu ilmiy asosda o`rgatilgandan so`ng, egallangan nazariy bilim va

ko`nikmalarning darajasini aniqlash maqsadida o`qituvchi so`z yasalishi bo`yicha mustaqil ish yozishni talabalarga tavsiya etadi. Yetarli tushunchalarga ega bo`lgan talaba – bo`lajak o`qituvchi boshlang`ich ta'limda mavzuni o`quvchilarga qanday qilib sodda tushuntirish usullarini qidiradi. Aslida, nazariy bilimlarini namoyon qilmoqchi bo`lgan talaba o`zi topgan va mashg`ulot davomida qo`llashni ma`qul ko`rgan usulni yoritib berishi mustaqil ishning maqsadi bo`lishi kerak. Mavzuning boshlang`ich ta'lim yo`nalishida o`rgatilishi oquvchining yoshi, ma`lumotlarni qabul qilish layoqati kabi xususiyatlarga mos holda bo`lishi zarur. Ta'limning keyingi bosqichlaridagi o`rgatilishiga qaraganda mavzu sodda, tushunarli, qiziqarli, esda qolarli misollarga boy, muhim, ko`rgazmali bo`lishi ma`qul bo`ladi. Ilmiy qoidalar va atamalarни hali yaxshi idrok eta olmagan o`quvchilarga mavzuni esda qoldirish, tushuntirish oson bo`lmaydi. Shu sababli bo`lajak o`qituvchi o`zining bilim va malakalariga tayanib, avvalo, so`z yasalishi, uning usullari haqida sodda ko`rinishdagi reja asosida ish olib borishi zarur bo`ladi. Rejada quyidagi bandlarning bo`lishi maqsadga muvofiqli:

- So`z yasalishi haqida tushuncha berish;
- So`z yasalishi usullarini misollar asosida tushuntirish;
- So`z yasalishida ishtirok etadigan yasovchi qo`shimchalar haqida ma`lumot berish;
- Asos, so`z yasovchi qo`shimcha, yasama so`z atamalarining sodda izohi;
- So`z yasalishida ishtirok etadigan turkumlar;
- Yasama so`zning tub so`zdan farqi haqida ma`lumot.

Talaba reja bandlari ustida ishlar ekan, avvalo, o`quvchilarga so`z yasalishi haqidagi ta'rifni havola qilishi, tushuntirishi kerak, ya`ni so`z asosiga yasovchi qo`shimcha qo`shish orqali yangi so`z yasalishi hamda ikki mustaqil asosning o`zaro tobe bog`lanib, bir urg`u ostiga birlashishidan hosil bo`lgan qo`shma so`z haqida ma`lumot beradi. Odatda so`z asosiga qo`shilib, shu asos ma`nosini bilan bog`langan yangi so`zni hosil qiluvchi qo`shimchalar so`z yasovchi affikslar hisoblanadi. Shu ta'rif so`z yasovchi qo`shimchalarning shakl hosil qiluvchi qo`shimchalardan farqli tomonini ifodalaydi. Bunday qo`shimchalar asosan 4 mustaqil so`z turkumida mavjud bo`lib, ular quyidagilar: ot, sifat, fe'l, ravish. O`quvchilarga yasalish xususiyatiga ega bo`lgan so`z turkumlarining nomi haqida ma`lumot berilgach, ularning nomini yodda tutish zarurligini uqtirish, har biriga misollar yoza olish qobiliyatini shakllantirish zarur:

- Otning yasalishi: bog`bon, paxtakor, suvchi; -Sifatning yasalishi: sezgir, chiroqli, jo`shqin;
- Fe'lning yasalishi: ishla, birlash, ikkilan; -Ravishning yasalishi: ko`plab, mardlarcha;

Bu singari misollar o`quvchilarga taqdim qilingach, yuqorida turkumlarning birortasiga tegishli yasama so`zni izohlabilish o`rinli bo`ladi. Masalan, bog`-ot, -bon so`z yasovchi qo`shimcha, bu qo`shimcha asosga qo`shilgach, bog`ga qaraydigan, parvarish qiladigan ma`nosidagi yangi so`zni yasaydi. Demak, so`zning asosi ifodalagan ma`nodan uzoqlashmagan yangi so`z yasalmoqda. Bunda o`quvchining e'tiborini qaratish uchun asos va qo`shimchani turli rangda yozish zarurdir. Bunda tashqari, mustaqil ishda nazariy ma`lumotlar geometrik shakllar asosida tushuntirilsa, ma`lum bir qolipga solinsa, mashg`ulot ham ko`rgazmali, ham qiziqarli bo`ladi:

Asos	So`z yasovchi qo`shimcha		Yasama so`z
Bog`	bon	=	Bog`bon
Sez	gir	=	sezgir
O`y	la	=	O`yla
Erta	lab	=	ertalab

Talaba o`z mustaqil ishida bu kabi misollarni nazariy fikrlarning dalili sifatida keltirar ekan, bu usulni qo`shimchalar yordamida so`z yasash usuli ekanini ta'kidlashi, ya`ni tilshunoslikda bu affiksatsiya usuli (morphologik usul) deb nomlanishini aytishi zarur. Bu usulning yuqorida nomlari tilga olingan to`rtta turkumda borligi haqidagi bilimni o`quvchiga singdirishi kerak. Talaba ayni damda ot, sifat, fe'l, ravish turkumlarida so`z yasovchi qo`shimchalar yordamida yangi so`zlarni yasash mumkinligi haqidagi ma`lumotiga shu turkumlarda ikki va undan ortiq asosni biriktirish orqali ham yangi so`zlar yasalishini ham aytishi, tegishli misollar vositasida tushuntirishi kerak:

Bel + bog` (belbog`)


Qimmat + baho (qimmatbaho)

Har + mahal (har mahal)

Olib + kelmoq (olib kelmoq)

Talaba mustaqil ishda yuqoridagi to`rt turkumga doir qo`shma so`zlarning birikish usuli tilshunoslikda sintaktik usul (kompozitsiya usuli) deb nomlangani haqida ma'lumot berib o`tadi. Bunday qo`shma so`zlarning so`z turkumlarida qo`shib yoki ajratib yozilishi haqidagi tushunchalarini ilova qilish orqali o`quvchida imloviy savodxonlikni oshirishga yordam beradi. Masalan, talaba fe'l turkumidagi qo`shma so`zlar har doim ajratib yozilishi, sifat turkumiga mansublari hamisha qo`shib yozilishi, ot va ravish turkumlaridagi qo`shma so`zlarning ayrimlari qo`shib, ayrimlari ajratib yozilishi haqidagi ma'lumotlarni 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan imlo qoidalarining bandlari asosida taqdim etib, har biriga misollar keltira olishi zarur.

Fikrimizcha, talaba-bo`lajak o`qituvchi o`quvchiga so`z yasalishi haqidagi nazariy bilimlarni berishdan oldin unda qo`shimchalarning tasnifi haqida tushunchani shakllantirishi kerak. Bu orqali o`qituvchi o`quvchida so`zga istalgan qo`shimcha qo`shilsa, u yasama so`z bo`lmasligi haqidagi dastlabki tushunchani kamol toptiradi. Bu tushuncha boshlang`ich ta`lim bosqichidagi bolalarda to`g`ri shakllantirilsa, esda qolarli misollar yordamida tushuntirilsa, ta`limning keyingi bosqichlarida ham bu ma'lumot bolaning esidan chiqmaydi. Qo`shimchalar haqidagi ma'lumotlarni ham jadvallar, shakllar yordamida asoslash o`qituvchining tushuntirishida yengillik, o`quvchida tez ilg`ash, o`zlashtirish ko`nikmasini hosil qiladi:



Ushbu shakl o`quvchilarga ot, fe'l, ravish, sifat so`z turkumlarida so`z yasovchi qo`shimchalarning mavjudligini uqtirish barobarida Son va Olmosh so`z turkumlarida bunday qo`shimchalarning yo`qligidan xabardor qiladi. Bu shakldan foydalaniib, so`z yasovchi qo`shimchalar o`rniga qo`shma so`zlar atamasini yozish orqali nomlari sanalgan turkumlardagi yasama so`zlarga qo`shma so`zlarning ham misol bo`la olishini ko`rsatish o`rinlidir.

So`z yasalishi haqidagi bilimlarini kengroq namoyon qilish istagida bo`lgan talaba qaysi turkumdan qaysi biriga tegishli so`zlarni yasash mumkinligi haqidagi ma'lumotlarni o`quvchiga misollar yordamida tushuntiradi:

Otdan ot yasash: ishchi, adabiyotshunos; **Sifatdan sifat yasash:** ulug`vor, noto`g`ri;

Ravishdan ravish yasash: ertalab, hozircha; **Fe'lidan fe'l yasash:** bu o`zbek tilida uchramaydi.

So`zning asosi fe'l bo`lib, unga so`z yasovchi qo`shimcha qo`shish orqali fe'l yasalmaydi, fe'lidan boshqa turkum yasaladi. Demak, fe'l yasash uchun asos har doim boshqa so`z turkumiga doir so`z bo`lishi kerak. Bu ma'lumotning muhimligi shundaki, fe'l asosiga juda ko`p o`zining qo`shimchalar qo`shiladi, natijada fe'l turkumidan boshqa turkumga chiqilmaydi, o`zidan o`zi yasalmagani uchun yasama so`z hisoblanmaydi: **kiy +in + tir + ish + di, ko`n + dir + il + gan** kabi.

Shuningdek, mustaqil ishdan ko`zlangan yana bir maqsad: qaysi turkumdan qaysisiga oid so`z yasalyapti, degan savolga asosli javob bera olish. Talaba buni ongli ravishda idrok etib, izohlab bera olishi zarur. Masalan, *chiroyli* so`zida otdan sifat yasalgan, buni sifat otdan yasalgan deyish ham mumkin. Ikki holatda ham bir xil fikr aytilyapti. Ba`zan so`z asosiga yasovchi qo`shimchalarning ketma-ket qo`shilishi, bunda yasalish asosining o`zgarib borishi haqida talabada to`g`ri tasavvur bo`lishi kerak. Masalan, *terimchi* so`zida 2 ta so`z yasovchi qo`shimcha qatnashib, bunda yasalish asosi *terim* hisoblanadi, chunki oxirgi so`z yasovchi qo`shimchadan oldingi qism har doim yasalish asosi bo`ladi. Demak, bu so`zda otdan ot yasalgan deyishga asos bor. Ayrim talabalar bunday misollarda so`z asosini topadi va fe'lidan ot yasalgan degan noto`g`ri xulosani qattiq himoya qilishadi.

So`z yasalishi haqida ma'lumot berilayotganda “yasama so`z”, “tub so`z” atamalarining bir-biridan farqi haqidagi tushunchalar misollilar vositasida isbotlanishi o`rinli bo`ladi. Masalan, *paxtakorlik* va *odamlarimizni* so`zlarining tarkibiy qismlarini solishtirishda birinchisini sodda yasama, ikkinchisini sodda tub so`z deb tushuntirishi kerak.

Yana bir mulohaza. Ona tilida o`zi yasalmasa-da, yasalishga asos bo`ladigan va bo`lmaydigan so`z turkumlari bor. Talaba o`z mustaqil ishida bularga izoh berib o`tsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Masalan, so`z yasashda son, olmosh, taqlid so`z, undov so`z, modal so`z kabilar asos bo`lsa, bog`lovchi, ko`makchi, yuklama asos bo`la olmaydi. Boshlang`ich ta`lim sinflarida tahsil olayotgan o`quvchilarga sodda, tushunarli tarzda o`rgatish uchun quyidagicha dalillash o`rinli bo`lar: Uy qurish

uchun dastlab joy kerak bo`ladi, shu joyda yasalgan uyning birini OT, ikkinchisini SIFAT, yana birini RAVISH, keyingisini FE'L deb nomlasak bo`ladi, lekin qurilgan imoratni Son, Olmosh, Undov so`z, Taqlid so`z, Modal so`z deb nomlab bo`lmaydi, chunki bular uy quriladigan joyning o`rni, nomi bo`ladi, xolos. Shu sababli bunday nomdagi uylarni topolmaymiz. Bizningcha, o`quvchiga hayotdan olingan bunday misol vositasida ma'lumotni tushuntirish ancha oson, esda qolarli bo`ladi.

Adabiyotlar

1. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.: O`zbekiston, 2005. 230 bet.
2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 1-2-3-4-sinflari uchun ona tili darsliklari. – T., 2014.
3. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. –Т.: ФАН, 1975. 610 бет.

UDK: 138. 37

“GEOMETRIYA” VA “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISH TAMOYILLARI

J. B. Ergashev

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotasiya. Ushbu maqolada matematika va informatika fanlarini integratsiyasini amalgalashirish orqali ta`lim jarayonida qo'llaniladigan maxsus kompyuterli matematik tizimlarning talabalarda matematikaga bo`lgan motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan bo`lib, uning natijasida bo`lajak matematika o`qituvchisini kasbiy kompetentlikka tayyorlash haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so`zlar: pedagogik jarayon, matematika, informatika, integrasiya, giperbola, assymptota.

Принципы усиления интеграции "Геометрии" и "Информатики и информационных технологий"

Аннотация. Статья посвящена математической мотивации учащихся в специализированных системах математической математики, которые используются в учебном процессе путем интеграции математики и информатики, что дает им возможность подготовить будущих учителей математики к профессиональной компетентности.

Ключевые слова: педагогический процесс, математика, информатика, интеграция, гипербola, ассимптота.

Principles of integration of “Geometry”and“Informatics and information technologies”

Abstract. The article focuses on the mathematical motivation of students in specialized mathematical mathematics systems that are used in the educational process by integrating mathematics and informatics, giving them the opportunity to prepare future mathematics teachers for professional competence.

Keywords: pedagogical process, mathematics, informatics, integration, hyperbola, assymptot.

Ta`limda integratsiya bugun fan va jamiyat hayotida ro`y berayotgan integratsion jarayonlarning yaqqol ifodasi bo`lib hisoblanadi va u oliv o`quv yurtlarida tayyorlanayotgan bo`lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol o`ynaydi. Integrativ yondashuv orqali talabalarni o`qitish, rivojlantirish va tarbiyalash masalalari nafaqat sifat jihatdan yangi bosqichda hal etiladi, balki real borliqning murakkab muammolarini majmuaviy holda ko`rish va hal etish uchun poydevor ham qo`yiladi. Aynan, shuning uchun ham u oliv o`quv yurti talabalarini o`qitish va tarbiyalashga majmuaviy yondashuv sharti bo`lib hisoblanadi [1].

Pedagogik oliv o`quv yurtlari matematika o`qitish metodikasi ta`lim yo`nalishiga o`qitiladigan matematik bilimlar va “informatika va axborot texnologiyalari” fanlari bir-biriga kuchli ta’sir ko`rsatadi, ammo bu – hamma vaqt ham o`qitish amaliyotida o`z aksini topa olmayapti. Chunki oliv o`quv yurtlaridagi matematikani o`qitishda ularning integratsiyasidan foydalanish matematik ta`lim sifatini oshirish, o`z bilimlarini kelgusi faoliyatida qo’llash va takomillashtirishga qobiliyatli, malakali mutaxassis tayyorlashga imkon beradi.


Ma'lumki, matematika nafaqat umumta'lim, balki kasbiy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Matematika va informatika fanlarining o'zaro bir-biriga kuchli ta'siri ko'rsatishiga qaramasdan, bu ta'sir o'qitishda hech qachon adekvat baholanmaydi va foydalanilmaydi. Integratsiyadan samarali foydalanish bu – eng avvalo ta'lim dasturini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida undan foydalanishdir. Shu bilan birga matematika va informatika fanlarining integratsiyasidan foydalanish ularni o'qitish samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi [2].

Integratsiyani quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshirish mumkin. 1) o'qitish mazmunda; 2) pedagogik faoliyatda; bu yo'nalishlarni matematika o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishida geometriya fanini o'qitish misolida qarab chiqamiz.

Buning uchun esa dastlab ushbu fanni o'qitish jarayonida uning informatika va axborot texnologiyalari fani bilan integratsiyasini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash maqsadida mazkur yo'nalish bitiruvchisi kasbiy tayyorgarligi mazmuni hususiyatini tahlil qilamiz.

Matematika keng ma'noda mazmuniga ko'ra matematik modellashtirish bilan ustma-ust tushadi va matematik modellashtirish elementlari, geometriya fanini o'rganishda doimiy ravishda ishtiroy etadi. Talabalarning matematik modellashtirishga murojaati esa ko'p hollarda tartibsiz, tasodifiy tartibda ro'y beradi. Shu bilan birga geometriya fanini o'rganish jarayonida modelli jihatni maqsadli kuchaytirish, talabalarda informatikada masalalar yechishning barcha texnologik zanjiri haqida yanada to'la tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Talabalarning matematik qurilma real munosabatlarning modellarini o'z ichiga oladi degan fakt (dalil)ni anglashi esa, ularga matematik instrumentlar (uskunalar) informatikaning amaliy kontekstida qanday qo'llanishini tushunishga imkon beradi.

```
a11=5;          k3=Det[({{a11, a12, a13},{a12, a22, a23},{a13, a23, a33}})];
a12=13;
a13=14;         i2=Det[({{a11, a12},{a12, a22}})];
a22=-7;
a23=-6;
a33=8;
c=-5;
d=5;
ContourPlot[{a11 x2+2a12 x y+a22 y2+2a13 x+2a23 y+a33==0,a11 x2+2a12 x y+a22 y2+2a13 x+2a23
y+a33==k3/i2},{x,c,d},{y,c,d},Axes->True]
```



1-rasm. Giperbola

Geometriyaning informatika va axborot texnologiyalari fani bilan integrasiyasini rivojlantirish asosiga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblangan birinchi tamoyilga asoslangan. Geometriya fanida algoritm tushunchasi muhim o'rinni egallaydi. Algoritmnini tahlil qilishni geometriya fanidagi ikkinchi tartibli egri chiziq bilan qarab chiqsak bo'ladi. Geometriya va "informatika va axborot texnologiyalari" fanlarida esa algoritmlarni o'rganishga yondashuvlar tarqoq. Xususan, matematikada algoritm – bu jarayon, informatikada esa algoritm – bu jarayon yozuvi, faoliyat modeli. Bo'lajak matematika o'qituvchisi kasbiy faoliyatida "Geometriya" va "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlarida integratsiyani o'rnatishga yondashuvlarni muvofiqlashtirish va yaqinlashtirish uchun maxsus kompyuterli matematik tizimlardan foydalanishning nazariy jihatini kuchaytirish muhim va maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday holda "Geometriya" fanini o'qitish jarayonida yaratiladigan vizual tasvirlar (chizmalar, animasiya, 3D grafik tasvirlar), ularni yaratishga integrativ yondashuvlarning muvofiqlashuviga ko'ra informatika fani algoritmlar bankiga tegishli. Bir vaqtida bunday muvofiqlashuv va yaqinlashuv, Geometriya fanida algoritmlarni detalli tavsiflash zaruriyatiga ko'ra, talabalarga matematik masalalarni yechish jarayonida shaxsxi faoliyat usullarini anglashga imkon beradi [3].

"Geometriya" fanini o'qitishda matematika va informatikaning integratsiyasini rivojlantirishning ikkinchi tamoyili mohiyati quyidagidan iborat. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanida kompyuterli matematik tizimlar yordamida masalalarni yechishga o'rgatishning an'anaviy amaliyoti shundan iboratki, unda asosiy urg'u algoritmnini tuzish va ularni dasturiy tizimga kiritishga qaratiladi. Masalaning muvaffaqiyatlari yechilishi esa bu kompyuterli matematik tizim yordamida yechilish jarayoni zanjiri tarkibiga kiruvchi barcha amallarning to'g'ri bajarilganligiga bog'liq.

Turli fanlarni o'rganishda talabalar o'zлari bilmagan holda matematik modellarga duch keladi. O'qitishning muhim momenti kompyuterlarni qo'llashning to'la zanjirini qurishdan iborat: real jarayon, matematik model, yechish usuli, algoritm, dasturli amalga oshirish, sonli tajriba va natijalar tahlili.

Modellashtirish murakkab ko'p qirrali jarayondan iborat. Modellashtirishning birinchi bosqichida modellashtirish maqsadini aniqlash zarur. Masalan, quyidagilar: real obyektning tuzilishi va xususiyatlarini obyektning atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'siri qonunlarini, obyektni boshqarish usullarini; obyektga ta'sir etish natijasida oqibatlarini bashorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Keyingi bosqich obyektning hattiharakatiga bog'liq bo'lgan kattaliklarni aniqlash (va ahamiyatliroqlarini tanlash) dan iborat. Bunday kattaliklar aniqlanganda modelning abstraktli ta'rif uni modelning matematik ta'rifiga o'tishi mumkin.

Modelni ta'riflab bo'lgach, uni o'rganish usuli tanlanadi. Kompyuterli matematik tizimda modellashtirish sonli hisoblashlar kabi soddaroq va universal ekanligini ta'kidlash lozim. Keyin kam ahamiyatli bo'lmagan sonli modellashtirish bosqichiga o'tiladi, bu bosqich algoritmnini ishlab chiqish va kompyuterda nisbatan soddaroq dasturini tuzishdan iborat. Olingan dastur sinaladi va sonli tajriba boshlanadi. Modelning real obyektga mosligi aniqlashtiriladi, ya'ni obyektning ayrim olingan tafsiflari tajribadagilar bilan berilgan aniqlikda mos kelishi aniqlanadi. Agar natijalar tajriba ma'lumoti bilan mos kelsa, u holda ular to'planadi va qayta ishlanadi. Aks holda oldingi bosqichlarga qaytishga to'g'ri keladi, u holda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ularni modellashtirish modellarni tasniflash haqida masalani qo'yadi. Aniq model bir nechta tasniflanuvchi alomatlarga ega bo'lishi mumkin. Qayd qilinganlardan ko'rinish turibdiki, "Geometriya" fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida uning "informatika va axborot texnologiyalar" integratsiyasini rivojlantirishning mohiyati bo'lib quyidagilar hisoblanar ekan: "Geometriya" va "informatika va axborot texnologiyalari" fanlarida kompyuterli matematik tizimlarni o'rganishga yondashuvlarni muvofiqlashtirish va yaqinlashtirish maqsadida o'rganiladigan algoritmlarning sintaktik jihatini kuchaytirish; talabalarda kompyuter texnologiyalari vositalari yordamida masalalar yechishning barcha texnologik zanjiri haqida to'la tasavvur yaratish maqsadida modelli jihatini kuchaytirish.

Adabiyotlar

- Ergashev J.B. The computer mathematical system – Wolfram Mathematica as a methodological system in the Math subject, Eastern European Scientific Journal, Germany, 2018 y.
- Ergashev J.B. Matematikani o'qitishda integrativ yondashuv, Monografiya, "Fan va texnologiya", 2016 y.
- Ergashev J.B., Ergasheva M.B., Sagatova G.T. Matematika va informatika kurslarining o'zaro aloqadorligini rivojlantirish tamoyillari, "Samarqand axborotnomasi", O'zbekiston, 2015 y, №4.

UDK: 42:38

MODERN METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

F.Sattorova

Samarkand State University

Abstract. Actuality of the theme of research is to show the importance of language instructions, their usage and implementation in English classes. The problem of giving instructions is very important and actual nowadays because knowledge of language is valued by the simplicity and correctness of instructions using it in a proper way. In this work both theoretical and practical approaches of teaching and learning instructions are described in details. Moreover, knowing the instructions and following it are significant for an effective learning. Instructions during lesson have great educational value. Instructions should be treated as central not peripheral to the foreign language teaching program. There are many advantages of using instructions: they are highly motivating and entertaining and they can give shy students more opportunity to express their opinions and feelings. They also enable learners to acquire new experiences within a foreign language which are not always possible during a typical lesson.

Keywords: the classical method, grammar translation method, the direct method, the audio lingual Method, the structural approach, total physical response, the natural approach, the lexical syllabus, suggestopedia, communicative language teaching

Xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy o'qitish uslublari

Annotatsiya. Tadqiqot mavzusining dolzarbliji til ko'rsatmalar, ulardan foydalanish va amalga oshirishning muhimligidir. Til bilimi to'g'ri tarzda foydalanib ko'rsatmalar soddaligi va aniqligi bilan baholanadi, chunki ko'nikmalar muammosi juda muhim va bugungi kunda haqiqiy hisoblanadi. Bu ishda o'quv va o'quv-yo'riq, har ikki nazariy va amaliy yondashuvlar batafsil tasvirlanadi. Bundan tashqari, ko'rsatmalarini bilish va u samarali ta'lim uchun muhim hisoblanadi. Dars davomida ko'rsatmalar katta tarbiyaviy ahamiyatiga ega. Ko'rsatmalar chet tili o'qitish dasturi periferik emas markaziy deb qaralishi kerak. Ular tortinchoq talabalarni darsga jalb qilib juda maqsadli faoliyatni belgilab, ko'rsatmalar yordamida ko'plab afzalliklari bor. Ular, shuningdek, odatda, bir dars davomida har doim ham imkonni bo'lмаган chet tilida o'rganishda o'quvchilar uchun yangi tajriba olish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: klassik usul, grammatik tarjima usuli, to'g'ridan to'g'ri tarjima usuli, audio – muloqot usuli, tizimli tahlil usuli, to'g'ridan to'g'ri javob berish usuli, tabiiy yondashuv usuli, leksik baza usuli, sajjestopedia usuli, kommunikativ til o'rganishda o'quvchilar uchun yangi tajriba olish imkonini beradi..

Современные методы обучения иностранным языкам

Аннотация. В данной статье теоретические и практические подходы преподавания и обучения инструкции описаны в деталях. Кроме того, знание инструкций важны для эффективного обучения. Все методы реализованы в теории и практической части. В теории приводятся исследования профессиональных преподавателей языка, которые изучали методы и они рассматривают как полезными и эффективными по преподаванию английского языка. Также описываются коммуникативные методы, которые доказывают свою эффективность. Затем следует практическая часть, которая содержит примеры применения этих методов и мероприятий в классе.

Ключевые слова: классический метод, грамматический перевод, прямой перевод, аудиоречевой метод, структурный подход, материальный ответ, метод натуральный подход, метод лексического плана, коммуникативно-компетентный подход;

Today's one of the main requirement is to learn and have a good command of some foreign languages and to be able to use them in the professional activity. In English Language Teaching says, "Speaking is a skill which deserves attention every bit as much as literary skills, in both first and second language. It is the skill students are frequently judged. It is also the vehicle par excellent of social solidarity, social ranking, professional advancement and business". [1; p.134]. Furthermore, Jones (1989) defines speaking as a form of communication in which the effective conveyance of what

the speaker says is very crucial. In line with this definition, Kush clarified for what is called as effective speaking as an utterance in a set of voices spoken by someone and understood by someone else. It means that speaking is not as simple as we say something but more than that it is related to the meaning that is constructed so that people can understand what we are saying. As a complement, Brown added that the process of constructing meaning involves producing, receiving, and processing information. Another expert said that "speaking is an intentional activity; it serves a purpose the speaker wants to realize" [2; p.286]. Therefore, speaking is somebody's aptitude that is uttered eagerly to make an expression for some reasons.

Speaking is the presence of communication goal that has to be realized, for instance the speakers want to express wish and desire to do something; negotiate and solve particular problem; or establish and maintain social relationship with others. The ability to produce utterance (utterances) is not enough for being a good speaker because speaking is a complex skill that requires the simultaneous use of a number of different abilities that have to be mastered by language learners in order to be able to express their feelings and ideas appropriately. This serves as an important guideline in development of new textbooks for teaching foreign languages, introduction of advanced teaching methods using modern pedagogical and information-communication technologies, education of a new generation to foreign languages, cardinal improvement of the system of training of specialists, fluent in these languages, creation of conditions and opportunities for wide use of information resources by students. The English language teaching tradition has been subject to tremendous change, especially throughout the twentieth century. Perhaps more than any other discipline, this tradition has been practiced, in various adaptations, in language classrooms all around the world for centuries. In an attempt to reveal the importance of research in the selection and implementation of the optimal methods and techniques for language teaching and learning.

The Classical Method – in the Western world back in the 17th, 18th and 19th centuries, foreign language learning was associated with the learning of Latin and Greek, both supposed to promote their speakers' intellectuality. At the time, it was of vital importance to focus on grammatical rules, syntactic structures, along with rote memorization of vocabulary and translation of literary texts. There was no provision for the oral use of the languages under study; after all, both Latin and Greek were not being taught for oral communication but for the sake of their speakers' becoming "scholarly?" or creating an illusion of "erudition." Late in the nineteenth century, the Classical Method came to be known as the Grammar Translation Method, which offered very little beyond an insight into the grammatical rules attending the process of translating from the second to the native language.

It is widely recognized that the **Grammar Translation Method** is still one of the most popular and favorite models of language teaching.

The Direct Method – the last two decades of the nineteenth century ushered in a new age. In his *The Art of Learning and Studying Foreign Languages* (1880), Francois Gouin described his that language learning is a matter of transforming perceptions into conceptions and then using language to represent these conceptions. Nevertheless, this approach to language learning was short-lived and, only a generation later, gave place to the Direct Method, posited by Charles Berlitz [3; p.178-180]. The basic tenet of Berlitz's method was that second language learning is similar to first language learning. In this light, there should be lots of oral interaction, spontaneous use of the language, no translation, and little if any analysis of grammatical rules and syntactic structures. In short, the principles of the Direct Method were as follows:

- Classroom instruction was conducted in the target language
- There was an inductive approach to grammar
- Only every day vocabulary was taught
- Concrete vocabulary was taught through pictures and objects, while abstract vocabulary was taught by association of ideas

The Direct Method enjoyed great popularity at the end of the nineteenth century and the beginning of the twentieth but it was difficult to use, mainly because of the constraints of budget, time, and classroom size. Yet, after a period of decline, this method has been revived, leading to the emergence of the Audiolingual Method.

The Audiolingual Method – the outbreak of World War II heightened the need for Americans to become orally proficient in the languages of their allies and enemies alike. To this end,

bits and pieces of the Direct Method were appropriated in order to form and support this new method, the "Army Method" [4; p.158-160] which came to be known in the 1950s as the Audiolingual Method.

The Audiolingual Method was based on linguistic and psychological theory. The following points sum up the characteristics of the method:

- Dependence on mimicry and memorisation of set phrases
- Teaching structural patterns by means of repetitive drills
- No grammatical explanation
- Learning vocabulary in context
- Use of tapes and visual aids
- Focus on pronunciation
- Immediate reinforcement of correct responses

The structural approach – this method sees language as a complex of grammatical rules which are to be learned one at a time in a set order. So for example the verb "to be" is introduced and practiced before the present continuous tense which uses "to be" as an auxiliary.

TPR – total physical response, works by having the learner respond to simple commands such as "Stand up", "Close your book", "Go to the window and open it." The method stresses the importance of aural comprehension.

Community Language Learning

In this method attempts are made to build strong personal links between the teacher and student so that there are no blocks to learning. There is much talk in the mother tongue which is translated by the teacher for repetition by the student.

Immersion

This corresponds to a great extent to the situation we have at our school. ESL students are immersed in the English language for the whole of the school day and expected to learn math, science, humanities etc. through the medium of the target language, English.

Task-based language learning – the focus of the teaching is on the completion of a task which in itself is interesting to the learners [5; p.98-99].

The Natural Approach – this approach, propounded by Professor S. Krashen, stresses the similarities between learning the first and second languages. There is no correction of mistakes. Learning takes place by the students being exposed to language that is comprehensible or made comprehensible to them.

The Lexical Syllabus – this approach is based on a computer analysis of language which identifies the most common (and hence most useful) words in the language and their various uses. The syllabus teaches these words in broadly the order of their frequency, and great emphasis is placed on the use of authentic materials.

The "Designer" Methods of the 1970s – the Chomskyan revolution in linguistics drew the attention of linguists and language teachers to the "deep structure" of language, while psychologists took account of the affective and interpersonal nature of learning.

Suggestopedia promised great results if we use our brain power and inner capacities. Lozanov believed that we are capable of learning much more than we think. Drawing upon Soviet psychological research on yoga and extrasensory perception, he came up with a method for learning that used relaxation as a means of retaining new knowledge and material. It stands to reason that music played a pivotal role in his method. Lozanov and his followers tried to present vocabulary, readings, role-plays and drama with classical music in the background and students sitting in comfortable seats. In this way, students became "suggestible."

A relaxed mind is an open mind and it can help a student to feel more confident and, in a sense, pliable.

The Silent Way rested on cognitive rather than affective arguments, and was characterized by a problem-solving approach to learning. Gattegno held that it is in learners' best interests to develop independence and autonomy and cooperate with each other in solving language problems.

The Silent Way came in for an onslaught of criticism. More specifically, it was considered very harsh, as the teacher was distant and, in general lines, the classroom environment was not conducive to learning.

Strategies-based instruction – the work of O'Malley and Chamot , and others before and after them, emphasized the importance of style awareness and strategy development in ensuring mastery of a foreign language.

Communicative Language Teaching – the need for communication has been relentless, leading to the emergence of the Communicative Language Teaching. Having defined and redefined the construct of communicative competence; having explored the vast array of functions of language.

At this juncture, we should say that Communicative Language Teaching is not a method; it is an approach, which transcends the boundaries of concrete methods and, concomitantly, techniques. It is a theoretical position about the nature of language and language learning and teaching.

Let us see the basic premises of this approach:

- Focus on all of the components of communicative competence, not only grammatical or linguistic competence. Engaging learners in the pragmatic, functional use of language for meaningful purposes
- Viewing fluency and accuracy as complementary principles underpinning communicative techniques
- Using the language in unrehearsed contexts

From all the above we can see that the manageable stockpile of research of just a few decades ago has given place to a systematic storehouse of information. Researchers the world over are meeting, talking, comparing notes, and arriving at some explanations that give the lie to past explanations.

"Our research miscarriages are fewer as we have collectively learned how to conceive the right questions" [6; p.203] Nothing is taken as gospel; nothing is thrown out of court without being put to the test. This "test" may always change its mechanics, but the fact remains that the changing winds and shifting sands of time and research are turning the desert into a longed-for oasis [7; p.93].

Reference

1. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Longman, 2000. 378 p.
2. Doff, Adrian. Teaching English. Cambridge: Cambridge University Press 1989. 286 p.
3. Douglas Brown, Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy: San Francisco State University, 1994. 298 p.
4. French F.G. The Teaching of English Abroad. - Oxford University Press: London, 1961. 381 p.
5. Larsen Freeman Diane Techniques and Principles in Language Teaching. New York: Oxford University Press, 2000. 134 p.
6. Rogova G.V. Methods of teaching English, 1975. 231 p.
7. Sharma R.K. Problems and Solutions of Teaching English. – New Delhi: Janki Prakashan, 1999. 294 p.

UDK: 378.2

OLIY MAKTABDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA

S.X.Kurbaniyazov, M.Q.Qodirov, I.Jabbarov¹, A.S.Kurbaniyazov²

¹*Samarqand davlat universiteti, ²TATU Samarqand filiali*

Annotatsiya. Mazkur maqola oliy ta'lif muassasalarida talabalar mustaqil ta'limi tashkil qilish va baholashning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, Samarqand davlat universitetida o'qitish tajribalari asosidagi takliflarni o'z ichiga olgan. Mustaqil ta'larning hajmi ma'ruza, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarida qanchadan bo'lishi, ularni baholash tartibi bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lif, ta'lif tizimi, mustaqil ta'lif, innovatsion ta'lif, bilimni baholash, standart, referat, ma'ruza, tezis, amaliyot, laboratoriya.

О своеобразных аспектах организации самостоятельной работы в высшей школе

Аннотация. Настоящая статья посвящена организации самостоятельного образования и анализа особенностей оценки студентов в высших образовательных учреждениях. На основе опыта обучения студентов Самаркандского государственного университета даются рекомендации об объеме часов самостоятельных работ по лекционным, практическим и лабораторным занятиям, порядок и правила вставления оценок.

Ключевые слова: высшее образование, система образования, самостоятельная работа, инновационное образование, оценка знаний, стандарт, реферат, лекция, тезис, практика, лаборатория.

The specific aspects of the organization of independent education at higher schools

Abstract. This article is about of organizing an independent study of students in higher education institutions and analyze the peculiarities of evaluation, and also the recommendations are based on the experience of teaching at Samarkand State University. The opinions commented on the content of independent study in the lecture, practical and laboratory classes, and their assessment.

Keywords: higher education, education system, independent study, innovative education, knowledge assessment, standard, synopsis, lecture, thesis, practice, laboratory.

Ma'lumki, har qanday ta'limgan shu jumladan, oliy ta'limning sifatini jahon standartlari darajasida ko'tarish ta'limgan muassasalarining zamonaviy moddiy-texnik bazasi yoki o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish bilangina bog'liq bo'lib qolmasdan, talabaning bilim va malakasini, ilmiy-ijodiy sifatlarini shakllanishiga olib keladigan mustaqil ta'limgani tashkil qilish asosiy omil hisoblanadi. Fan o'qituvchisi yoki rahbar-murabbiy qanchalik salohiyatlari, nufuzli bo'lmasin talaba auditoriyada olgan nazariy bilimlarini darsdan bo'sh vaqtida kutubxona yoki uyda, ilmiy tadqiqot laboratoriyalarda, ishlab chiqarishda mustahkamlama da ko'zda tutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar innovatsion ta'limgan tizimida mustaqil ta'limgan alohida o'rinni tutadi.

Oliy ta'limgan o'quv jarayonini jadallashtirishning muhim yo'naliishi – bu o'qitishni individuallashtirish va bo'lajak mutaxassislarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Bunga erishish esa o'qitishning faol shakllari va usullarini joriy qilish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy-ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini tashkil etish hamda talabalar mustaqil ta'limgani tashkil etishning yangi va samarali shakllarini yaratishni taqozo etadi.

Talabalar mustaqil ta'limgan oliy ta'limgan muassasalarida ta'limgan jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va uning muvaffaqiyatli bajarilishi oliy ta'limgan muassasasining o'qituvchisi tomonidan uni rejallashtirish va nazorat qilishga hamda mutaxassis tayyorlovchi kafedra, o'quv-uslubiy boshqarma, ta'limgan sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan o'quv rejasida mustaqil ta'limgan hajmini belgilab berilishi kerak. Talabaning mustaqil ishi(ta'limgan)ni tashkil qilishning samarali shakllari va natijasi bo'yicha fan o'qituvchisining faoliyatiga baho berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Talaba mustaqil ishi boshqa o'quv mashg'ulotlaridan shu bilan farq qiladiki, bu jarayonda talaba o'ziga o'zi maqsad qo'yadi va uning bajarilishini ta'minlaydigan vazifa va ish turini tanlaydi. Talaba mustaqil ishi uni o'zi o'zini ta'limgan olishga olib keladi. Shuning uchun ham mustaqil ishi (ta'limgan) bu – talabaning o'qituvchining bevosita topshirig'i va uslubiy rahbarligidagi, lekin uning ishtirokisiz amalga oshiriladigan rejali faoliyat bo'lib, talabaning bilish faoliyatida muhim rol o'ynaydi[1].

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'limgan muassasalarida mustaqil ta'limgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgan vazirligining 2009-yil 14-avgustdaggi 286-sonli

buyrug'i 1-ilovasi (Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomasi)ga asosan tashkil qilinmoqda. Mazkur yo'riqnomada talabaning mustaqil ish faoliyatining barcha qirralarini o'z ichiga qamrab olganligi bilan ham ahamiyatlidir. Jumladan, talabalar mustaqil ishlari tarkibiga referat tayyorlash, ko'rgazmali qurollar yasash, test va munozarali savollar tuzish, ilmiy maqola va slartezi yozish, ma'ruzalar tayyorlash kiritilgan[2]. Shunga qaramay OTM professor-o'qituvchilari o'rtasida mustaqil ta'lim qanday bo'lishi kerak mavzusida munozaralar hanuzgacha davom etmoqda. Haqiqatan ham biror bir fan, masalan, astrofizika fani bo'yicha mustaqil ta'lim miqdori – ma'ruza, amaliyot va laboratoriya ishlari uchun qanchadan bo'lishi kerak? Va bu mustaqil ishlari qanday baholanadi? Ta'kidlangan yo'riqnomada talabalar mustaqil ishini baholash "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan bo'lishi belgilab qo'yilgan. Vaholanki, vazirlikning 2009-yil 11-iyundagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizomda mustaqil ish(ta'lim)ni baholash bo'yicha aniq bir ko'rsatma yo'q. Quyida biz mustaqil ta'limni tashkil qilish va baholash bo'yicha ba'zi fikr-mulohazalarimizni bayon qilmoqdamiz.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim talabaning professionallik darajasi shakllanishi, malaka va tajribasini oshishiga, nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, intellektual mulk (mahsulot) yaratishga xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki talabaning auditoriyada olgan bilimlari, o'quv-ilmiy laboratoriyalardagi tajribalarini mushohada (idrok) etishi, ularni amaliy masalalarni yechishda qo'llay bilishi mustaqil ta'limsiz, erkin fikrlashsiz amalga oshmaydi.

Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llanilayotgan mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Rossiyalik oliy ta'lim muassasalari pedagoglarning fikricha talabalar mustaqil ishlari 3 ta darajaga bo'lish maqsadga muvofiq: reproduktiv, rekonstruktiv va ijodiy. Reproduktiv (mashq qilish, o'rganish) darajasida bilimlarni mustahkamlash, bilish va malakalarni shakllantirish, rekonstruktiv (qayta o'zlashtirish, mustaqil rejalshtirish) darajasida talabaning mustaqil rejalshtirish, ijodiyda esa ilmiy-ijodiy asoslarni o'rganish, ilmiy tadqiqotlarni mantiq jihatdan istiqbolli rejalshtirish maqsad qilib qo'yiladi. Ko'rinish turibdiki, ijodiy daraja ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Unda talaba mustaqil ravishda referat, tezis, ma'ruza matnlari tayyorlash, ilmiy va o'quv materiallariga taqriz yozish ko'nikmasiga ega bo'lishi talab etiladi[3].

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, talabalarning mustaqil ishlari ularni tashkil qilish prinsip(tamoyil)lari, turlari va tavsiflari, murakkablik darajalariga qarab ham bo'linadi. Talabalarga mustaqil ishlarni taqsimlashda ularning savodlilik va bilimlilik darajasi, mustaqil ishslash va fikrashi, tajriba va malakalari qay darajada ekanligi e'tiborga olinishi shart. Boshqacha aytganda, tug'ma iqtidorlilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar o'ta ko'p mehnati tufayli a'lo va yaxshi baho oladigan, shuningdek, o'rtacha bilimli talabalardan farq qilishi lozim. Aks holda bir talaba (o'rtacha layoqatli) uchun bajarilishi qiyin bo'lgan mustaqil ish ikkinchi talaba (layoqatli, iqtidorli) uchun oson, va binobarin zerikarli bo'ladi. Bu esa iqtidorli talabalarning yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizning mamlakatimiz oliy ta'limiga endigina kirib kelgan yoshlarda, 1-bosqich talabalarida, mustaqil ishslash tajribasi va malakasi yetarli emas. Chunki umumta'lim maktablarida yangi g'oyalar yaratish, chuqur ilmiy bilimlarni talab qiladigan tajriba(eksperiment)lar o'tkazish yoki ma'lum bir muammoni yechishga qaratilgan ilmiy tadqiqot rejalarini tuzish o'quv rejalarda ko'zda tutilmagan, ikkinchidan, mamlakatimiz umumta'lim maktablarining bugungi darajasi, holati bunday faoliyatlarini olib borishga hali tayyor emas. Shu sababli OTMlarning 1-kursiga kelgan talabalarning mustaqil ishlari hajmi bilan 3 va 4- kurs talabalaring mustaqil ish hajmi va darajalari keskin farq qilishi tabiiy. Bu

esa mustaqil ishlarning miqdori (hajmi) bilan auditoriyada o'tiladigan ma'ruza, amaliyot, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari orasidagi nisbat bиринчи va yuqori bosqich talabalari, shuningdek, magistratura ta'limida qanday bo'lishi kerak degan savolga ilmiy-mantiqiy javob izlashga undaydi.

OTMlarda mustaqil ta'lif muayyan fan bo'yicha qancha bo'lishi masalasi ham munozarali. Ma'lumki, professor-o'qituvchining 1 juftlikda 80 minutda o'rta ga tashlagan, muhokama qilgan yoki tushuntirgan mavzusi bo'yicha o'nlab o'quv adabiyotlari va yuzlab ilmiy adabiyotlar bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan 1 juftlikdagi mavzuni anchagina to'liqroq o'zlashtirish uchun talaba kamida 4-6 barobar ko'p vaqtini sarflashi muqarrar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda sanalar, raqamlar, voqeа-hodisalarni yodlash xotira orqali o'zlashtirish mumkin bo'lganligi sababli bunga ozroq vaqt ajratilishi mumkin bo'lsa, fizika va astronomiya, matematika va kimyo fanlarida nafaqat qoida va matematik formulalarni yoddan bilishini shuningdek, o'rganiladigan fizikaviy-kimyoviy hodisa va jarayonlarni mohiyatini bilishi, ularni fan va texnikada, xalq xo'jaligida qo'llanilishini ham bilish zarur bo'ladi. Shu sababli mustaqil ta'lif soatlari bu fanlarga ijtimoiy-gumanitar fanlarga qaraganda ko'proq bo'lishi mantiqdan kelib chiqadi. Bejiz, bir vaqtlar matematika, fizika kabi ta'lif yo'nalishi talabalarining stipendiyalariga 20 foiz qo'shilmagan. Bu holat bugungi kundagi yana bitta yechimini kutib yotgan masala. Bizning fikrimizcha, auditoriya soati bilan mustaqil ta'lif soatlari o'rtasidagi nisbat kamida 1:4 bo'lishi real haqiqatga yaqin. Yanada ommalashib borayotgan masofaviy ta'limda bu nisbat 1:8, hattoki 1:10 bo'lishi bashorat qilinmoqda.

"Oliy ta'lif muassasalarida mustaqil ta'lifni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda talabaning haftalik mustaqil ishlarining umumiyligi hajmi bakalavriat yo'nalishida 22 soatni, magistratura mutaxassisliklarida 18 soatni tashkil etidi deb yozilgani ham munozaratalab. Mustaqil ta'lifning soatlarini o'quv rejasiga kiritishda shu holatlarni e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Mustaqil ta'lifni tashkil qilish va nazorat qilish bevosita fan o'qituvchisi va kafedra, dekanat zimmasiga yuklanadi. Talabaning ilmiy-ijodiy ishini munosib baholash uni ilhomlantiradi, kelgusi rejalarini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga undaydi. Talabalarning mustaqil ish natijalari kurs ishlari, referat, ma'ruza, sxemalar, jadvallar, hisobotlar va boshqa ko'rinishlarda ifodalanganadi. Fundamental fan ta'lif yo'nalishlaridagi mustaqil ta'limda malakaviy amaliyot, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarish, ilmiy laboratoriyalarda eksperimentlar o'tkazish, ishlab chiqarish korxonalarida nazariy bilimlarni tatbiq etish talabalar ilmiy-ijodiy tafakkurlarini rivojlantiradi, jamoada ishlash psixologiyasini shakllantiradi va h.k.

Fikrimizning dalili sifatida astronomiya ta'lif yo'nalishi 3 kurs talabalari seminarlarda ma'ruza bilan qatnashganda ularning yutuq va kamchiliklari keng muhokama qilinib, obyektiv baholanishi ularning o'z ijodiy ishlaridan qoniqish hosil qilganliklarining guvohi bo'ldik. Mustaqil ta'lif qanday tashkil qilinadi va baholanadi!? Bizning fikrimizcha, fanning ma'ruza qismida auditoriyada ajratilgan soatlar hajmidagi mavzularni to'ldirish, yangi adabiyotlar asosida o'rganish uchun ma'lum mavzular talabalarga bo'lib berilishi (konspekt yozish, referat tayyorlash va h.k.) maqsadga muvofiq. Bu mavzu va savollar ma'ruza darslari davomida so'rab borilishi va oraliq yoki joriy nazoratda baholanishi, shuningdek, yakuniy nazorat savollariga kiritilishi mumkin. Amaliyot darslarida, masalan fizika yoki astronomiyadan masalalar yechishda talabalarning bilim darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli qiyinchilikdagi masalalar beriladi. Bajarilgan ishlar dars davomida yoki darsdan tashqari o'qituvchi tomonidan baholanishi mumkin. Laboratoriya ishlari esa o'quv laboratoriysi mashg'ulotlaridan tashqari 2-3 ishni mustaqil bajarishi va bajarilgan ishni laborant yoki fan o'qituvchisiga topshiriladi.

O'zbekiston OTMlarda mustaqil ta'lif va mustaqil ish tushunchalarini ba'zida bir xil talqin qilinadi. Mustaqil ishni bevosita dars jarayonida o'qituvchining nazoratida ham bajarsa

bo‘ladi. Lekin mustaqil ta’lim, odatda, o‘qituvchining auditoriya soatlari hajmiga kirmagan vaqtlar (kutubxona, uyda, ilmiy va o‘quv laboratoriyalarda) hisobidan amalga oshiriladi. Mustaqil ta’lim (ish)ning yana bir xususiyati o‘quv jarayonidagi yangi ta’lim shaklini, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni barqaror tizimga aylanishiga zamin yaratadi. Shu sababli mustaqil ta’limni tashkil qilish va monitoringini olib borishning pedagogik-psixologik jihatlarini har qaysi ta’lim yo‘nalishi, o‘qitish shakli va muddatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Tabiiy (fizika, astronomiya, ximiya, bilogiya) va ijtimoiy-gumanitar(filologiya, falsafa, tarix, pedagogika) fanlar uchun mustaqil ta’limning tamoyillari, shakli va muddatlari turlicha bo‘lishini fan o‘qituvchilari yaxshi bilishadi. Bu holat esa o‘quv rejalarini tuzishda mustaqil ta’limga ham alohida e’tibor qaratilishini taqozo etadi. Shuningdek, mustaqil ta’limda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar berishini qayd etish muhimdir.

Mutaxassislarining fikricha, talabalarning mustaqil ishlarini bajarishlari uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, jadvallar, sxemalar, rasmlarni chizish nazariy materiallarni chuqurroq o‘rganishda yordam beradi, ularni vizual tahlil qilishda, o‘zini-o‘zi tekshiruvchi test nazorat savollarini tuzish imkoniyatlarini yaratadi. Dunyoviy va fan tiliga aylangan ingliz tilini mukammal bilish ham talabalarni mustaqil ta’lim jarayonida fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mustaqil ta’limning tizimli yo‘lga qo‘yilishi nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, eng muhimi bo‘lajak mutaxassisni mustaqil ishlashga, o‘zgarib borayotgan yangi va qo‘srimcha bilimlarni egallashiga, ijro intizomiga o‘rgatishi bilan ham foydalidir. Albatta bu o‘rinda talabaning mustaqil ishlarini odilona baholanishi, uni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish ham yaxshi natijalar berishini kafolatlaydi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, talaba mustaqil ta’limining samaradorligi oliy ta’lim muassasassi, xususan, mutaxassis tayyorlovchi kafedra tomonidan yaratilgan sharoitlar, xususan, unga fan o‘qituvchisining ko‘rsatgan amaliy va uslubiy yordami, bajarilgan ishlari tahlili va baholanishiga bevosita bog‘liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim o‘quv jarayonining uzviy tarkibiy qismi bo‘lib, uning innovatsion shakllarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta’lim talabalarni individial ishlash, fikrlash, mushohada qilish, yangi g‘oyalilar yaratish orqali ertangi kasbiy faoliyatida tezroq kirib borishini kafolatlaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifati va samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Рубаник А, Водшаков Г., Тельных Н. Самостоятельная работа студентов. «Высшее образование в России», 2005, стр.120-124.
2. Topildiyev V.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari.T.:2015, 250 b.
3. Латипова Л.Н. Самостоятельная работа студентов: цель, задача, принципы и формы. «Мир науки и образование», 2015, №2.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiyligini qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavida ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh.Tashpulatov
O. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.08.2019 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 60. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.